Yurgen Koppenshtayner

# AVSTRIYA



**Yurgen Koppenshtayner**

# AVSTRIYA

*Rozvita Koppenshtayner tomonidan to'ldirilgan va tahrir qilingan*
*5-qayta ishlangan nashri*

**Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi**
**Toshkent – 2014**

UO‘K: 94(436)(075)
KBK 26.89 (4Abc)
K 69

**Tarjimonlar:** f.f.n., dots. Lutfulla Holiyarov;
f.f.n., dots. Shuhratxon Imyaminova;
f.f.n. Sohiba Abdullayeva.

**Taqrizchilar:** f.f.n., prof. Xurram Raximov (TDPU);
f.f.n., dots. Salim Jabborov (SamDChTI).

K69 Avstriya: o‘qish kitobi / Y. Koppenshtayner. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014. – 224 bet.
ISBN 978-9943-05-719-7

Ushbu kitob o‘quvchilarni Avstriyaning siyosati, iqtisodiyoti, ijtimoiy va madaniy tuzilishi bilan tanishtiradi va Avstriyaning hayot tarzi haqida ma’lumot beradi.

Bundan tashqari, kitobdan avstriya nemis tili, adabiyoti, urf-odatlar, bayramlar, tantanalar, bo‘sh vaqt, avtoulov, sevimli sport turlari haqidagi zarur ma’lumotlar ham o‘rin olgan.

Ushbu kitobga kiritilgan ma’lumotlar o‘quvchilarga «Avstriya» mamlakati haqida foydali ma’lumotlarni bera oladi degan umiddamiz.

UO‘K: 94(436)(075)
KBK 26.89 (4Abc)

Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazi Inv. №22047/1

ISBN 978-9943-05-719-7

© Yurgen Koppenshtayner, 2014
© Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014

# SO'ZBOSHI

Avstriya mamlakatshunosligiga oid ushbu kitob universitetlarning nemis filologiyasi sohasida tahsil olayotgan talabalariga mo'ljallangan. Bu kitob «Mamlakatshunoslik» fani darslarida, til kurslarida foydalanishga, Avstriyaga borayotganlar uchun qo'llanma sifatida tarjima qilingan.

Ushbu kitob o'quvchilarni Avstriyaning siyosati, iqtisodiyoti, ijtimoiy va madaniy tuzilishi bilan tanishtiradi. Shu bilan birga, Avstriya xalqining hayot tarzi haqida ham ma'lumot beradi. Kitob o'n yetti bo'limdan iborat bo'lib, turli mavzularni o'z ichiga olgan va badiiy matnlar, rasmlar hamda jadvallar bilan boyitilgan. Bu kitobda Avstriya mamlakati to'g'risida batafsil ma'lumot berishga harakat qilinmagan. Chunki kitob muallifi o'zi yashayotgan mamlakatning ijtimoiy hayotiga tanqidiy nazar bilan qaragan va haqqoniy vaziyatni tasvirlashga harakat qilgan.

Avstriya adabiyotiga oid bo'limda mashhur zamonaviy yozuvchilarning asarlaridan parchalar keltirilgan. Bular Avstriyaning taniqli bolalar yozuvchilari Peter Handke, Erih Hakl va Daniel Glattauer hamda Kristine No'stlingerlardir. Kitob uchun tanlangan matnlar tarixga, jamiyatga, siyosiy va madaniy hayotga, atrof-muhitga munosabatni bildiradi.

Kitobdan 2013-yilning iyul oyigacha jamlangan dalil va ma'lumotlar o'rin olgan.

Kitobning mazkur yangi nashri Yurgen Koppenshtayner xotirasiga bag'ishlanadi. Magistr Hervik Grafga kitobni tayyorlashda ko'rsatgan yordami uchun tashakkur bildiraman. Kitobni mazmunan yaxshilash uchun bildirilgan mulohaza va tanqidlar bajonidil qabul qilinadi.

***Grats, 2013-yil, kuz*** ***Rozvita Koppenshtayner***

# TARJIMONLARDAN

Ushbu kitob tarjimasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil, 10-dekabrdagi PQ-1875-sonli «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2012-yil, 30-dekabrdagi «Chet tillarni o'rganish sistemasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 512-sonli buyrug'ida ko'zda tutilgan masalalar ijrosini ta'minlash hamda chet tillarni o'rganishda muhim sanalgan turli tipdagi mukammal, qulay darsliklar, o'quv qo'llanmalarni tuzish ishining nazariy va amaliy jihatlarini mamlakatimizda tubdan rivojlantirish masalalarini hal qilish hamda bir yechimga kelishni nazarda tutgan holda amalga oshirildi.

Ma'lumki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan to'g'ridan to'g'ri aloqa qilishimiz uchun xorijiy tillarni yanada chuqur o'rganishimizni davr talab qilmoqda. Bu masala davlat miqyosida bo'lib, hurmatli Prezidentimizning Qaror va Farmoyishlarida qayta-qayta ta'kidlanmoqda. Har qanday xorijiy mamlakat bilan aloqa o'rnatishdan oldin ushbu mamlakatning geografik joylashuvi, tarixi, siyosiy tuzilishi, xalq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, tili, urf-odatlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishimiz zarur. Ana shunday mamlakatlardan biri Avstriyadir.

Kitobning dastlabki sahifalaridan Avstriyaning hududi va aholisi, Yevropadagi o'rni, iqlimi, bu mamlakat xalqi, aholi guruhlari, federal o'lkalari (Tirol, Zalsburg, Shtayermark, Kernten, Yuqori Avstriya va boshqalar), davlatning bugungi kunda olib borayotgan siyosati, kansler, hukumat, siyosiy hududlar, mahalliy boshqaruv, siyosiy partiyalar haqidagi materiallarni topish mumkin.

Davlat ramzlariga oid manbalarda Avstriya davlatining bayrog'i, gerbi va davlat madhiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan bo'lib, ular rasmlarda ham aks ettirilgan.

Bundan tashqari, kitobdan Avstriyadagi nemis tilining fonetikasi, grammatikasi, so'z boyligi haqida ham fikrlar berilgan. Kitobda nemis tilining Avstriya variantiga oid so'zlar ham berilgan bo'lib, ular ushbu kitobdagi qimmatli ma'lumotlar hisoblanadi.

Avstriya mamlakati aholisining hayoti mustahkam oila hamda milliy an'analar asosiga qurilgan. Shuning uchun ham ushbu kitobda alohida bo'lim Avstriyada ayollar, yoshlar, keksalar hayoti va ularga g'amxo'rlik qilish masalalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan.

Avstriya mamlakatida turli dinga mansub aholi istiqomat qiladi. Shuning uchun ham kitobda dinlar va cherkovlar, ya'ni nasroniy-katolik cherkovi, Yevangeliya cherkovi, yahudiylik dini, Avstriyada islom dini, ortodoks cherkovi to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Bundan tashqari, kitobdan avstriyacha hayot tarzi, urf-odatlar, bayramlar, tantanalar, bo'sh vaqt, avtomobil, sevimli sport turlari haqida ham zarur ma'lumotlar topish mumkin. Ko'plab avstriyaliklar shug'ullanadigan sevimli sport turlari velosipedda uchish, suzish, yugurish, chang'ida uchish bo'lib, mamlakat bu sport turlari bo'yicha dunyo miqyosida ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan.

Bu kitobdan 2013-yilning iyul oyigacha jamlangan ma'lumotlar o'rin olgan.

Mazkur kitob sizning Avstriya mamlakati haqidagi bilimlaringizni yanada oshiradi, tafakkur ufqingizni kengaytirishga xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

*F.f.n., dots. Lutfulla Holiyarov*
*F.f.n., dots. Shuhratxon Imyaminova*
*F.f.n. Sohiba Abdullayeva*

## TASHAKKURNOMA

Ushbu kitobning o'zbek tiliga tarjima nashrini chop etishga ruxsat berganliklari uchun «Praesens» nashriyotiga hamda Rozvita Koppenshtayner xonimga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Kitobning o'zbek tilida chop etilishida beminnat moddiy yordam ko'rsatgan Venadagi Avstriya elchixonasiga o'z tashakkurimizni izhor etamiz.

## DANKSAGUNG

Wir danken dem Praesens Verlag und Frau Roswitha Koppensteiner für die Erlaubnis zum Druck einer usbekischsprachigen Ausgabe dieses Lesebuches.

Weiters danken wir der Botschaft für Usbekistan mit Sitz in Wien für die Gewährung eines Druckkostenzuschusses, ohne den eine Veröffentlichung dieses Werkes in usbekischer Sprache nicht möglich gewesen wäre.




*Avstriya? Chindan go'zalmi? Ming chandon va betakror. Avstriya nihoyatda go'zal. Men Avstriyaning ming bora oshuftasiman. Avstriya juda chiroyli, darhaqiqat. Avstriyaning go'zalligi haqida ming marotaba o'qiganmiz, Avstriyaning naqadar latofatli ekanligini unutmaslik va uning chiroyini tan olish uchun avstriyalik o'quvchilar u haqda takror-takror o'qiydilar. Chindan go'zalmi? Ming chandon va betakror. Quyosh o'zining zarrin nurlari bilan Avstriyaning nihoyatda go'zalligini unutmaslik uchun chor atrofga ko'z-ko'z etayotganligini maktab o'quvchilari yuz martalab, ming martalab yozishlari lozim. Avstriya go'zal. Chindan go'zalmi? Ha, Avstriya go'zal. Maktab o'quvchilari xuddi shunday yozishlari lozim, ha, xuddi shunday. Avstriya go'zallik bilan boshlanadi va go'zallik bilan tugaydi. Ha, Avstriya shunday. U boshidan oyog'igacha go'zal. Ming chandon va betakror.*

***(Fransobel)***

# 1. AVSTRIYANING YEVROPADAGI O'RNI

## HUDUDI VA AHOLISI

Avstriya Markaziy Yevropaning janubida joylashgan bo'lib, Italiya va janubi-sharqiy Yevropa o'rtasidagi muhim ko'prik vazifasini bajaradi. Avstriya geografik jihatdan bevosita dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan davlatlardan biridir.

O'zining 83,879 km$^2$ maydoni bilan Avstriya Shotlandiyaga nisbatan kattaroq, Portugaliyadan esa kichikroqdir. Davlat chegarasining umumiy uzunligi 2 706 km ni tashkil etadi, aholisi 8,4 milliondan ortiq. Ma'muriy jihatdan Avstriya 9 ta federal o'lkaga bo'linadi.

Respublika sharqdan g'arbga 573 km va shimoli-janubiy yo'nalishga tomon 294 km cho'zilgan. Avstriyaning g'arbi atigi 60–70 km kenglikdagi o'ziga xos yo'lak hisoblanadi.

Dunay daryosi Shvarzvald hududidan boshlanib, Qora dengizgacha bo'lgan masofasining 350 kilometri Avstriyadan oqib o'tadi. Boshqa muhim daryolari: Inn, Zalsax, Enns, Drau va Mur Avstriyadan tashqari hududda Dunayga quyiladi. G'arbdan mamlakat chegarasini belgilovchi Reyn daryosi Shimoliy dengizga borib quyiladi. Kemalar qatnovi faqatgina Dunay daryosida amalga oshirilib, yuk ortilgan kemalar qatnovi muhim ahamiyatga ega. Yo'lovchi kemalar qatnovi Qora dengizga qatnaydigan sayohat teploxodlari bilan chegaralanadi.

Ko'plab daryolardan elektrostansiyalar uchun foydalaniladi. Avstriyada ko'llar ko'p. Ulardan eng kattasi Avstriyani Germaniya va Shvetsariyadan ajratib turuvchi Bodensee ko'li hamda janubi-sharqiy qirg'og'i Yevropadagi eng muhim qushlar qo'riqxonasi sanaladigan Burgenlanddagi Noyzidler ko'lidir.

**Yer maydoni va aholisi**

| Federal o'lka | Maydoni km$^2$ hisobida | Aholisi |
|---|---|---|
| **Burgenland** | 3 962 | 287 131 |

| | | |
|---|---|---|
| **Kernten** | 9 538 | 556 845 |
| **Quyi Avstriya** | 19 186 | 1 621 857 |
| **Yuqori Avstriya** | 11 980 | 1 421 723 |
| **Zalsburg** | 7 156 | 536 397 |
| **Shtayermark** | 16 401 | 1 215 242 |
| **Tirol** | 12 640 | 718 670 |
| **Foralberg** | 2 601 | 373 293 |
| **Vena** | 415 | 1 757 353 |
| **Avstriya bo'yicha jami:** | **83 879** | **8 488 511** |

***Avstriya statistikasi 01.01.2013***

## Avstriyaning qo'shni davlatlar bilan chegaradoshligi

| | |
|---|---|
| Germaniya | 816 km |
| Chexiya | 466 km |
| Slovakiya | 107 km |
| Vengriya | 356 km |
| Sloveniya | 330 km |
| Italiya | 430 km |
| Shvetsariya | 166 km |
| Lixtenshtayn | 35 km |
| **Jami:** | **2706 km** |

## Iqlimi

Avstriyada uch turdagi iqlim kuzatiladi. Tog'li hududlarda *Alp iqlimi* hukmron bo'lib, yog'ingarchilikning serobligi bilan ajralib turadi. Yoz qisqa va nisbatan salqin, qish qorli va uzoq davom etadi. Kuz fasliga kelib ob-havo ajoyib tus oladi.

Alp tog'lari va tekisliklarda Markaziy va Sharqiy Yevropaning o'zgaruvchan iqlimi hukmronlik qiladi. Atlantik havo oqimlari (g'arbdan esuvchi shamollar) yozda, asosan, ob-havoning buzilishiga, keskin sovish va davomli

yog‘ingarchilikka, qishda esa yomg‘ir va qorga sabab bo‘ladi. Sharqdan esuvchi garmsel evaziga yozda kunlar juda issiq bo‘ladi. Qishda uzoq muddatli sovuq havo kuzatiladi, tog‘larni quyosh nurlari, pasttekisliklarni esa tuman qoplaydi. Kuzda, ko‘pincha, havo iliq va yoqimli bo‘ladi.

Quyi Avstriyaning sharqida va Shimoliy Burgenlandda mo‘tadil iqlim hukmronlik qiladi. Qisqa bahor o‘z o‘rnini kam yomg‘irli jazirama yozga bo‘shatib beradi, natijada yer qattiq quriydi. Kuz kam yomg‘irli va fusunkor, qish esa nisbatan sovuq keladi.

## MAMLAKAT VA ODAMLAR

Mamlakatning uchdan ikki qismi Alp tog‘ tizmalarida, to‘rtdan bir qismi esa qir-adir va tekisliklarda joylashgan. Shu tariqa Avstriyaning qolgan qismi demografik jihatdan kam o‘zlashtirilgan, aholi zichligi ham nisbatan past darajada. Bir km$^2$ ga, taxminan, 101 nafar kishi to‘g‘ri keladi. Demak, Alp tizmalarida yashovchilar, boshqa hududlarga qaraganda, mamlakat aholisining asosiy qismini tashkil etadi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni, ya’ni qurilish, iqtisodiy-agrar va transport qatnovi uchun ajratilgan yer maydoni davlat hududining beshdan ikki qismiga teng. Aholining beshdan bir qismi mamlakat poytaxtida yashaydi.



*Nikoh to‘yi.*

O‘rta va Sharqiy Yevropaning avvalgi kommunistik davlatlarida kommunizm barham topgandan so‘ng demografik o‘sish jarayoni kamaygan. 80-yillarga qadar Avstriyada aholi

soni bir maromda qotib qoldi, hatto, uning keskin kamayib ketishi kutilgan edi. Xorijliklar hisobiga mamlakat aholisi soni yana ko'paya boshladi. Xususan, 2012-yilda Avstriya fuqaroligi bo'lmagan chet elliklar soni 970 000 dan oshdi.

Aniqlanishicha, 497000 avstriyalik o'z vatanida doimiy turarjoyga ega bo'lmasdan, chet elda (asosan, Germaniyada) yashaydi va ishlaydi. Uchbu «chet ellik avstriyaliklar» (251 000) 1990-yildan buyon Milliy Kengash va federal prezident uchun saylovlarda qatnashib, saylash huquqiga ega. Lekin ularning kam qismi o'z huquqlaridan foydalanadi.

Xo'sh, aksariyat sayyohlar tipik avstriyaliklarni qanday tasavvur qiladi? Erkaklarni milliy kostyum va charm shimda, ayollarni esa yozgi milliy ko'ylak – dirndldami? Kimda-kim bunday odamlar tog'dagi chekka qishloqlarda yashaydi, deb o'ylasa, qattiq yanglishadi. Avstriya aholisining 66 foizi shaharlar hududida yashaydi.

## AHOLI QATLAMI

Avstriyada istiqomat qiluvchi qariyb bir foiz aholi uchun ona tili nemis tili emas, balki sloven, xorvat, chex, slovak, venger va rumin tillaridir. Ushbu etnik guruhlar ancha vaqtdan buyon Avstriyada yashaydi, Avstriyaga xos milliy o'zlikka ega hamda 1976-yilgi «Etnik guruhlar haqidagi qonun»ga binoan, Avstriya fuqarosi sifatida tan olinadi. Biroq ular o'z huquqlarining bir qismidangina foydalanadi va kam sonli millatlarni himoya qilish tartiblari qisman bajarilmoqda.

Sloven xalq guruhining kattagina qismi Kerntenda nisbatan yopiq hududlarda istiqomat qiladi. Xorvatlar esa butun Burgenland bo'ylab tarqalib ketgan. Birinchi jahon urushidan keyin soni kamaygan chex va slovak guruhlari Venadan makon topgan. Avstriya lo'lilarining ko'p qismi Burgenlandda yashaydi.

Slovencha so'zlashuvchi 18000 avstriyalik (2001-yildagi aholini ro'yxatdan o'tkazish natijalariga ko'ra) – muallifning hisob-kitobiga ko'ra esa 40000 – 50000 kishi – VI asrga borib taqaluvchi uzoq tarixga ega. Gabsburglar imperiyasi tanazzulidan so'ng serb qo'shinlari Janubiy Kerntenni yangi barpo etilayotgan janubiy slavyan davlatiga qo'shilishga majbur etish uchun Kerntenga bostirib keldi. Biroq 1920-yil, 10-oktyabrda slovenzabon janubiy kerntenliklarning 60 foizi Avstriyada qolish uchun ovoz berdi. Hukumat tomonidan ularning milliy




***Kertnendagi joy nomlari yozilgan ikki tilli ko'rsatgichga barham berildi.***

o'ziga xosliklarini saqlab qolishga va'da berildi. Shunga qaramasdan, tez orada slovenzabon xalq guruhiga nisbatan kuchli assimilyatsiya bosimi o'tkazildi. Sloven tili va yozuvi kamsitildi, ikki tilli maktablarda nemis millatiga mansub o'qituvchilar dars berishni boshladi.

Gap, asosan, Kerntenda ikki tilli maktablar va joyni ko'rsatuvchi ikki tilli ko'rsatgich lavhalar haqida ketsa-da, kam sonli millatlar huquqi bilan bog'liq bu kabi nizolarga ikkinchi jahon urushidan keyin ham chek qo'yilmadi. So'nggi yillarda vaziyat biroz yumshadi, lekin sloven tili cherkovda ibodat tili va oshxona tili darajasiga tushib qoldi. Hozirda sloven maktablari va sloven tilida olib boriladigan radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlar mavjud. Sloven tili sahna tili sifatida ham ahamiyatga molik. Shularga qaramasdan, assimilyatsiya bosimi hali ham kuchli va haqiqiy bag'rikenglikka erishilmagan.

**Del Vedernyak**

Men sloven bo'lib tug'ildim,
Vindlik bo'lib olgan edim yo'l
O'rta maktab tomon. U yerda
Ona tilim unutdim butkul,
Kerntenim iqboli uchun,
Bel bog'ladim xizmatga chunon.
Slovenlar bo'lganmiz doim,
Haqiqiy va fidoyi olmon.

*(Bahodir Anorov tarjimasi)*

Qariyb 19 000 burgenlandlik xorvatlar bugungi kunda o'z madaniy sahnalariga ega, hatto, xorvat tilida pop va rok guruhlar ham mavjud. Bundan tashqari, ular burgenlandcha xorvat tilining ikkinchi davlat tili sifatida tan olinishiga ham erishdi. Obervart shahrida ikki tilli gimnaziya barpo etildi.

Burgenlanddagi venger xalq guruhi ham (25 884 kishi) oxirgi yillarda madaniyat sohasida ko'plab muvaffaqiyatlarga erishdi. Maktablarda venger tilida darslar olib boriladi, radio va televideniyeda vengercha dasturlar namoyish etiladi. Biroq burgenlandlik vengerlar orzu qilgan, joy nomlari ikki tilda yozilgan lavhalar hali ham yo'q. Venger tilini rasmiy til darajasiga ko'tarish niyati ham amalga oshmagan.

Ayniqsa, chex va slovak xalq guruhlarining Venadagi assimilyatsion jarayoni fojiali kechgan. 1900-yillarda Vena hududida 370 000 ga yaqin chex va slovak yashagan bo'lsa, endilikda ushbu kam sonli millatlar 14 000 dan ko'p emas.

Avstriyada qancha lo'li va sinti yashayotganligini hisoblash qiyin emas. Ular XVI asrdayoq Burgenlandga o'rnashib olgan. Ularning tili, ya'ni rumin tili hind-german tillariga mansub. Lo'lilar, asosan, kambag'alligi sababli mahalliy hokimiyat tomonidan qo'llab-quvvatlab kelingan, bu esa lo'lilar va mahalliy dehqon aholi o'rtasida kelishmovchiliklarga sabab bo'lgan. Birinchi respublika davrida nizolar kuchaya bordi, 30-yillarda Burgenland o'lkasini «lo'lilardan tozalash»ni maqsad qilib olgan natsional sotsialistlar tomonidan lo'lilarni bosqichma-bosqich kamaytirish uchun shart-sharoit yaratildi. 1938-yildagi (Avstriya va Germaniya) qo'shilishdan keyin ular shunday imkoniyatga ega bo'ldi. Lo'lilar

dastlab lagerlarga zo'rlab joylashtirilgan, so'ngra konslagerlarga jo'natilgan va ularning talay qismi u yerda o'ldirib yuborilgan. Atigi 600 – 700 nafar lo'li qirg'inbarotdan omon qolgan. Hozirda ularning soni 4300 nafarga yetgan. Biroq ikkinchi jahon urushidan so'ng lo'lilar o'z hayoti va huquqlari uchun kurashni davom ettirdi. Endilikda ko'p lo'lilar kam sonli aholi qatlami sifatida hayot kechiradi va o'z an'analari hamda yo'qolgan tili haqida qayg'uradi. 1993-yilda ular davlat tomonidan xalq guruhi sifatida tan olindi.

## AVSTRIYA MUHOJIRLAR MAMLAKATIMI?



*Venaning gavjum joyi – Ottakringdagi Brunnen bozori. Rang-barang, turli madaniyatlarga xos va arzon.*

Xuddi birinchi jahon urishidan oldingi Vena kabi, ikkinchi jahon urushidan keyin butun Avstriya sharqiy yevropalik emigrantlar uchun magnitga aylandi. 1945-yildan keyin yuz minglab ish izlaganlar, boshpana qidirganlar, quvg'in qilinganlar va boshqa emigrantlar to'lqini Avstriyaga oqib kela boshladi.

40-yillarda bular, eng avvalo, Avstriyaga tez moslashib ketgan, boshqa davlatlardan kelgan nemislar, shuningdek, Vengriya, Chexoslovakiya va Polshadan kelgan ko'p sonli qochoqlar edi. Avstriya, shuningdek, Chili, Uganda kabi dengizorti mamlakatlaridan hamda Afg'onistondan kelgan qochoqlarni ham qabul qilib oldi. 90-yillarga kelib Sharqiy Yevropa hamda Yaqin Sharq davlatlaridan kelgan boshpanasizlar soni yanada ortdi. Bularga sobiq Yugoslaviyadagi fuqarolik urushidan aziyat chekkanlar ham kelib qo'shildi. Ancha muddat Avstriya sobiq Sovet Ittifoqidan kelgan yahudiylar uchun ham aylanma gardish vazifasini o'tadi, ularning asosiy qismi Isroil va dengizorti mamlakatlariga ko'chib ketdi.

Ko'chib kelganlar va qochoqlar bilan bir qatorda, 60-yillarning boshidan Avstriyaga ishchi kuchi (gastarbayter) ham kirib keldi. Avvaliga, ularning o'zlari keldi. Keyinroq oila a'zolarini ham olib keldilar va mamlakatda yashab qoldilar. Mehmonlar muhojirlarga, mezbon mamlakat esa muhojirlar mamlakatiga aylandi. Sobiq Yugoslaviyadan keyin Turkiya ikkinchi ishchi kuchi yetkazib beruv-

chi kontingent bo'ldi. Vena va Forarlbergdagi yengil sanoat bo'yicha ish bilan band chet elliklarning o'rtacha hisobdan sal ko'prog'ini turkiyalik ishchilar tashkil etadi. U yerda turkcha nemis tilidan keyin ikkinchi so'zlashuv tilidir. Venadagi ayrim maktablarda ona tilisi nemis tili bo'lmagan bolalar 30–50% ni tashkil qiladi. 2007-yilda Vena boshlang'ich maktablariga qabulga yozilgan har beshta boladan bittasi nemis tili darsini tushuna olmaydigan darajada yomon bilardi. Gratsdagi bog'cha tarbiyalanuvchilarining 43% i uchun ona tili nemis tili bo'lmagan (2012). Venadagi bog'cha bolalarining 56% ining kelib chiqishi migratsiyaga va 47 ta har xil tilga borib taqaladi. Grats maktablaridagi ba'zi sinflarda ona tilisi nemis tili bo'lgan bitta ham bola topilmaydi (St. Andrä).

Emigrantlarning katta qismi ijtimoiy past nufuzli kasblarda faoliyat ko'rsatadi (tozalash ishlari, og'ir sanoat, qurilish sohasi, turizm). Ular Avstriya jamiyatiga qisman qo'shilgan va ko'pincha kichkina, oila a'zolari bilan to'la, biroq qimmat, eski binolardagi xonadonlarda yashaydi.

Avstriyaliklarning migrantlarga bo'lgan munosabati turlicha. Ko'pchilik avstriyaliklar ko'zga tashlanmaydigan, moslashgan va osongina «avstriyachalashadigan» migrantlarga qarshi emas. Ayni paytda, avstriyalik ayolning supermarketda qora tanli bilan qo'l ushlashib xarid qilishi ko'pchilikka yoqavermaydi.

Darhaqiqat, 2012-yilda Avstriyada 970 000 chet ellik yashashi qayd etilgan. Avstriya Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar ichida chet elliklar yashaydigan uchinchi katta mamlakat hisoblanadi. Bu o'rinda Lyuksemburg 37% chet elliklar bilan birinchi o'rinni, Kipr 13% ko'rsatkich bilan ikkinchi o'rinni, Avstriya 11% migrantlari bilan uchinchi pog'onani egallaydi. Polsha, Bolgariya, Litva va Slovakiyada chet elliklar soni kam (2% dan kamroq). Yevropa Ittifoqida, o'rtacha hisobda, 6,6% ni tashkil qiladi. Mutaxassislarning fikricha, demografik sabablarga ko'ra, aholi sonini birdek saqlab turish uchun Avstriyaga har yili 25 000 migrant kerak. Mamlakatda muhojirlarning haddan ziyod ko'payib ketishi natijasida kasalxonalarda keksalarga g'amxo'rlik qiluvchi tibbiy xodimlar yetishmay qoldi. (Venaga Filippindan ko'plab hamshiralar keladi), shu ketishda Venada 2030-yilga borib aholi soni 1 millionga kamayishi mumkin. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, Avstriyaga Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlardan yiliga 30 000 immigrant keladi, ularda Yevropaning istalgan joyida yashash erkinligi huquqi mavjud. Qizig'i shundaki, hamjamiyatning eng katta guruhini nemislar tashkil etadi.

Mutaxassislarning fikricha, Avstriya maqsadga yo'naltirilgan muhojirlar siyosati olib borishi shart, toki ular ham doimiy nazorat ostida mamlakatning yuksalishiga birdek mas'ul bo'lsin. Bunda avstriyaliklardan xilma-xil madaniyatga bag'rikenglik, immigrantlardan esa avstriyacha o'ziga xoslikni oyoqosti qilmaslik talab etiladi. Shunday qilib, Avstriya anchadan beri «Muhojirlar yurti» maqomiga ega.

## Mirna Yukich bilan bo'lgan intervyu: «Integratsiya vazifa emas»

Mirna Yukich – suzish bo'yicha Avstriyaning so'nggi yillardagi eng omadli sport ustasi. Xorvatiyada tug'ilgan qizaloq 1999-yil 13 yoshida otasi bilan Vena shahriga kelgan va shundan buyon Avstriya sharafiga juda ko'p medallarni qo'lga kiritgan.

**Standard:** Siz 1999-yil 13 yoshda otangiz bilan Zagrebdan Venaga ko'chib kelgansiz. 2001-yildan beri bir necha medallarni qo'lga kiritdingiz. Mamlakat sizni namoyishlarda ko'rsatishdan shod.

**Yukich:** Bu bir baxt edi, kelganimdan bir yil o'tib mamlakat fuqaroligini qo'lga kiritishimda menga xayrixoh bo'lgan kishilardan minnatdorman. Men ham o'zimni tezda ishga chog'ladim, nemis tilini o'rgandim, endi esa bundan juda faxrlanaman.

**Standard:** Siz qobiliyatingiz sabab bu imkoniyatga tezroq erishdim, deb o'ylaysizmi?

**Yukich:** Har holda, men yaxshi bajara oladigan va iqtidorimni ko'rsata oladigan narsa bor. Albatta, boshida ancha og'ir bo'lgan, 13–14 yoshda begona joyda o'zini yomon his qiladi odam. Atrofdagilarni tushunmasang, ular ustingdan rosa kuladi. Tilning ahamiyati katta. Ollohga shukrki, bu borada mening qobiliyatim bor. Men yangi muhitga moslashish uchun juda tirishdim, yuksalishni, men aynan shu yerda bo'lish huquqiga munosibligimni boshqalarga isbotlashni xohlardim.

**Standard:** Siz yosh kosovalik Arigonaning izidan bordingizmi? Uning otasi va to'rt opa-ukasi bahorda Avstriyada kechgan olti yillik hayotdan so'ng, o'zi bilan onasi esa maktabi tugagandan keyin mamlakatdan chiqarib yuborilgan edi.

**Yukich:** Rosti, juda hayronman, bu oilaning qaytib ketishga nega majbur bo'lganini tushunish qiyin. Ba'zan shunday mujmal hodisalar ham bo'lib turadi.

**Standard:** Siz asli vukovarliksiz, urush sababli avval Dubrovnik, keyin Zagrebga kochib o'tgansiz, to'qqiz yildan so'ng esa Venaga. Qayerni ko'proq uyingiz deb bilasiz?

**Yukich:** Mening vatanim bitta emas. Albatta, Vena – men uchun Vatan. Men shu yerda ulg'aydim, ko'p narsalarni o'rgandim. Biroq kindik qoni tomgan yurtni tan olmasdan iloj yo'q. Agar men Vukovarga borsam, chindan quvonaman, urushdan keyin buvam va buvim u yerga qaytib kelgan. U yer go'zal, ammo avvalgidek emas, urushdan so'ng hamma narsa tubdan o'zgargan. Men Xorvatiyada ham, Avstriyada ham o'zimni o'z uyimdagidek his etaman.

**Standard:** Qisqa muddatdan keyin sizdan ikki yosh kichik ukangiz Dinko ham Venaga keldi, u ham qisqa vaqtda nemis tilini o'zlashtirib oldi.

**Yukich:** Biz hammadan xatolarimizni tuzatishlarini iltimos qilardik. Shunga qaramasdan, Dinko gapiraverishga qattiq harakat qildi. Biz, hatto, otamizni ham nemis tilida gapirishga undadik, suzish murabbiyi bilishi shart bo'lgan bir-ikki og'iz so'zlarnigina bilishga emas, balki ko'proq so'zlashishga majbur qildik. Ammo katta yoshli kishilarda bu jarayon bolalarga qaraganda qiyinroq bo'larkan.

**Standard:** Avstriya va Venada chet elliklarga nisbatan dushmanlarcha munosabatda bo'lishlariga qanday qaraysiz?

**Yukich:** Bu yerda yashaydigan ba'zi kimsalar chet elliklarga dushman nazari bilan qarashdan charchamaydi. Bu yerga keluvchi boshqa birovlar esa moslashishni istamaydi. Men ayirmachilik qilishlariga qarshiman. Yigirma yil Venada yashab nemis tilini bilmaslik uchiga chiqqan hurmatsizlikdir. Men fuqarolikka qabul qilish uchun bo'ladigan davlat tili imtihonida bo'lganman va buni ma'qullayman. Axir boshqa yangi bir tilni o'rganish va unga moslashish o'z ona tilidan voz kechish yoki madaniyatini yo'qotish degani emas-ku?

***(Fritz Neumann, Der STANDARD Printausgabe 13.05.2008).***

Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazi inv. № 22047/1

## 2. TO‘QQIZ MARTA AVSTRIYA: FEDERAL O‘LKALAR

### FORARLBERG

**Qisqa ma’lumotlar:**

- Yer maydoni: 2 601 $km^2$.
- Aholisi: 373 293.
- Mamlakat rangi: qizil-oq.
- Poytaxti: Bregenz (aholisi 28 007).
- Asosiy daryosi: Rayn.

«Forarlberg Avstriya hududidagi mustaqil yerdir», deb yozib qo‘yilgan Forarlbergning konstitutsiyasida. Hududiga ko‘ra ikkinchi o‘rinda. Aholi zichligi bo‘yicha esa Venadan keyin turadi. Alemann til hududiga kiruvchi ushbu federativ o‘lka har tomonlama qatnov qulayliklariga ega va g‘arbiy qo‘shnilari bilan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarini bemalol qondira oladi. Bu nom gabsburglarning Frayburg va Shvetsariyada ham qarorgohlari borligi bilan bog‘liq.



*Pfenderdan boqish.*

Forarlbergning ikkinchi nomi «Lendl» uzoq demokratik an'anaga ega. U yerning odamlari shuhratparast emas va Venadagi markaziy hokimiyatga unchalik ishonmaydi. Masalan, Avstriyada 1964-yilda yasalgan yangi «Bodenzee» kemasiga Karl Renner (1945–1950-yillardagi federal prezident) nomi berilishi kerak edi, biroq 20 000 dan ortiq namoyishchilar kemasozlik korxonasiga norozilik bildirib, bir zumda kema nomini «Forarlberg» deb o'zgartirdi. Tejamkorlik, mehnatsevarlik va mulkchilikka intilish alemanncha fazilatlardandir.

Forarlberg yuqori iqtisodiy kuchga ega bo'lib, daromad miqdori bo'yicha yetakchilik qiladi.

To'qimachilik sohasi ham bu viloyatda eng muhim yengil sanoat tarmog'i hisoblanadi, Avstriya to'qimachilik mahsulotining uchdan bir qismida uning hissasi bor. Vaholanki, endilikda to'qimachilik sanoati ancha eskirgan soha bo'lib qoldi. Yevropa miqyosida oladigan bo'lsak, Avstriya bu borada kam ko'rsatkichga ega. Yevropaning eng yirik to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari Italiya va Germaniyadir. Elektr, metall va oziq-ovqat sanoatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kreselli liftlar, yumshoq pishloqlar va shokolad ularning asosiy eksport mahsulotlaridir. Suv xo'jaligi ham muhim o'rinni egallaydi.

Ko'p forarlbergliklar yaxshigina ish haqi to'langanligi uchun qo'shni davlatlar – Shvetsariya va Lixtenshteynda ishlaydi. Bu kabi qatnab ishlovchilar bir tomondan uyga mo'may daromad bilan qaytsa-da, boshqa tomondan Shvetsariya va Germaniyadagi past narxli «chegarachilik» evaziga sotib olish kuchi oshadi. Forarlberg sanoatida ishlovchilar ichida sobiq Yugoslaviya va Turkiyadan kelganlar nisbatan ko'proq, ya'ni jami 31 000. Immigratsiyaning to'xtashi kutilmoqda.

Ahamiyatli iqtisodiy sohalardan yana biri turizmdir. Sharqiy Alpning Boden ko'li bo'yidagi qorli joylar chang'ichilikning beshigi hisoblanadi. Qishki sport o'yinlari va yuqori darajadagi ekologik bilim hech qachon bir-biriga qarshi turmaydi. Hatto, Forarlbergdagi firma dunyo bo'yicha eng katta sun'iy qor yasashga mo'ljallangan uskuna ishlab chiqaruvchilarga pul to'lashlaridan qat'i nazar, unday asboblarning qo'llanilishi ham qattiq taqiqlangan.

Forarlbergning madaniy ko'rinishi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Hududlar osha bo'ladigan madaniy tadbirlar sirasiga Feldkirxdagi «Shubertiade» bilan bir qatorda, yozgi operaning ochiq osmon ostidagi sahnasida o'tkaziladigan bregenzcha bayram o'yinlari ham kiradi.

# TIROL

**Qisqa ma'lumotlar:**

- Yer maydoni: 12 640 km$^2$.
- Aholi soni: 718 670.
- Yer rangi: oq-qizil.
- Poytaxti: Innsbruk (aholisi 121 329).
- Asosiy daryosi: Inn.
- Avstriya bo'yicha eng baland joyi: Obergurgl (1 972 m).

Dunyoning eng ommabop sayyohlik go'shasi bo'lmish Tirol deganda, tog', o'rmon, qishki sport turlari, rang-barang an'anaviy liboslar va puflab chalinuvchi musiqa asboblaridan iborat orkestrning aksi tushirilgan suratlar ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Tirol nomini Meran shahrida yashagan graf Tirol nomi bilan bog'laydilar.



*Innsbruk, oltin tom.*

Reklama namoyishlarida Tirolning ziyon ko'rmagan tabiati, osuda o'tloqlari-yu tartibli hovlilarini ko'z-ko'z qilishni yoqtirishadi. Biroq so'nggi yillarda qishloq xo'jalik sohalari tinimsiz kamayib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar tog'dagi hovlilarini tark etmoqda. Tirollik dehqonlar, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanib, yetishtirilgan mahsulotlarni Germaniya va Italiyaga eksport qiladi.

Tirol sanoati avj olgan o'lka bo'lmasa ham, u yerda o'z sohalari bo'yicha ancha mashhur bir qancha xalqaro korxonalar mavjud (dizel motorlari, transport vositalari, optik asboblar).

Tiroldagi 350 000 ga yaqin mehmonxona o'rinlari (2011/2012), nemislar bilan bir qatorda, niderlandiyalik, shvetsariyalik va avstriyalik mehmonlar to-



*St.Zigizmunddagi qishloq uyi.*

monidan band qilinadi. Katta yo'llarning buzilishi oqibatida Tirol katta janubiy nemis shaharlari yaqinidagi dam olish maskaniga aylanib qoldi.

Sayyohlar oqimi o'zi bilan birga ko'plab ekologik muammolarni olib kelyapti. Chang'i va osma tog' yo'llari qurish evaziga butun boshli o'rmonlar yo'q qilinmoqda. Oqibatda vodiylar qorbo'ronlar va seldan katta jabr ko'ryapti. Tiroldagi insonlar va tabiatga eng ko'p ziyon yetkazuvchi omil yillar davomida qatnayotgan transport vositalari oqibatida yuzaga keladigan qor ko'chishidir. Tirol Shimoliy va Janubiy Yevropa sanoat va dam olish mamlakatlari o'rtasidagi asosiy tranzit o'lkadir. Ayniqsa, yozda federal o'lkaning tranzitligi katta qatnov muammolarini keltirib chiqaradi. Avtomobillar qatnovini temiryo'l qatnovi bilan almashtirish haqidagi g'oya ba'zilar tomonidan qo'llab-quvvatlansa ham, tez orada amalga oshirib bo'lmaydigan vazifa hisoblanadi.

Tirolliklarning o'z yurtiga bo'lgan sadoqati o'ta kuchli. Tarixda ham ular orjar va ozod xalq sifatida tanilgan. Boshqa avstriyaliklardan farqli o'laroq, tirollik ozod dehqonlar tarixda asosiy rol o'ynagan, hozirga kelib esa siyosatchilar o'z erkinliklarini talab etib turadi.

1918-yilda Tirol ikki qismga bo'lindi. Janubiy Tirol Italiya hududiga kiritildi. O'shandan buyon Sharqiy Tirol Shimoliy Tirol bilan ajralib qolgan va unga yo Zalsburg, yo Italiya hududi orqali o'tish mumkin. Janubiy Tirol masalasi Avstriya siyosati uchun yillar mobaynida yechib bo'lmas jumboq bo'lib turgan bo'lsa-da, endilikda uning chorasi topildi. Chegaralarning birida yotgan ushbu yevroregionda Tirolning ikkala qismi ham birdek ish yuritmoqda.



*Pacherkofel, Innsbrukning janubi-sharqiy tomondan ko'rinishi.*

Imperator Maksimilyan I hukmronligi ostida Innsbruk gullab-yashnadi, hashamatli uyg'onish davri, barokko va rokoko (XVIII asr me'morchilik

uslublari) uslublaridagi binolar eski shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shdi. Innsbruk sanoat va universitet shahri hisoblanadi. 1964- va 1976-yillarda qishki olimpiada o‘yinlari shu yerda o‘tkazildi, shaharda hali-hamon qishki o‘yinlar tashkil etiladi.

**Hans Haid: «Qishloq tarzi – 2009»**

Daraxt yo‘q, yo‘q gullar ham
Dehqonlar yo‘q, yo‘q oftob.
Hilol yo‘q, yo‘q cherkov ham
Quvonchning holi xarob.
Hamma yoq pulga to‘la,
O‘rtada yotar faqat...
Yeb bo‘lingan bo‘sh tana.
Tangri azmi shu mana,
Cho‘kdi o‘lik sukunat.

***(Bahodir Anorov tarjimasi)***

## ZALSBURG

**Qisqa ma’lumotlar:**

- Yer maydoni: 7 156 km$^2$.
- Aholi soni: 536 397.
- Yer rangi: qizil-oq.
- Poytaxti: Zalsburg (aholisi 148 521).
- Asosiy daryosi: Zalsax.
- Mashhur qo‘shig‘i: «Osuda tun, muqaddas tun» 1818-yilda Zalsburgning Oberndorf degan joyida yaratilgan.

Zalsburg ham Avstriyadagi federal o‘lka, ham unda joylashgan mashhur shaharning nomidir, undan tashqari Tirolning bir qismi tegishli bo‘lgan bosh yepiskoplik ham sanaladi. Uning nomi  tuz boyligi («oq oltin»)dan kelib chiqqan



*Zalsburgning umumiy ko'rinishi.*

bo'lib, asrlar mobaynida tuz federal o'lka hududi aholisining obod va farovon turmushini ta'minlab kelgan. Zalsburgning 80% qismi tog'li hudud bo'lib, shimoli-sharqda Zalskammergut ko'lga boy joydir.

787-yilda, to Zalsburg bosh yepiskoplik darajasiga yetguncha janubi-sharqiy Alp hududidagi xristianlikning o'chog'i bo'lgan. 1803-yilgacha arxiyepiskoplar bir paytning o'zida dunyo egalari bo'lgan, 1816-yilda esa bu federal o'lka «Zalsburg gersogligi» deb atalib, gabsburger monarxiyasining bir qismi bo'lgan.

Zalsburg uzoq yillardan buyon iqtisodiy rivojlangan va havas qilarli darajadagi iqtisodiy standartga ega federal o'lkalar sirasiga kiradi. Buning zamirida uning qulay yerda joylashishi va bir maromdagi iqtisodiy tuzilishi yotadi. Muhim iqtisodiy negizlari sanoat (oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo va mashinasozlik sanoati, chang'i ishlab chiqish), energiya xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sektorlari (ko'tara savdo, transport sanoati), chorvachilik, sut va yog'och yetishtirish kabilardir. Betakror manzarasi-yu madaniy qadamjolari bilan Zalsburg qishin-yozin chinakam sayyohlik o'lkasi hisoblanadi.

Zalsburg «Yevropaning eng go'zal shahri» maqomini olishga har taraflama haqli. Har yili ulkan sayyohlar to'fonining shaharga quyilishi esa ajablanarli hol emas. Yarim kvadrat kilometrlik ushbu qadimiy shahar yoz faslida mehmonlarga



***Motsart tug'ilgan uy.***

to'lib ketadi. Motsartning ona shahri bo'lgani uchun ham dunyoning musiqa markazi hisoblanadi. 1920-yildan beri nishonlanadigan Zalsburg festivali dunyoning to'rt tarafidan qiziquvchilarni o'ziga chorlaydi. Minnatdorchilik sifatida shaharda Motsart nomli konservatoriya barpo etilgan va u yagona oliygoh sanaladi.

Vaqt o'tgani sayin shahar katta tezlikda o'sib boryapti va bu o'sish o'zi bilan birga turarjoy, maktab va transport muammolarini ham keltirib chiqaryapti.

## AMADEUS

Motsart avstriyaliklarning eng sevimli bastakoridir. 53% avstriyalik uni juda yaxshi ko'radi. 60%i esa Motsartning, kamida, bitta asarini to'liq tinglagan. Taniqli asarlari ichida «Sehrli fleyta» durdona hisoblanadi. Biroq ko'pchilik ijodkordan ko'ra musiqaga ko'proq ahamiyat beradi. «Zalsburg» va «Motsart» bamisoli sinonimlardir. Motsart sharchalarini (marzipan va shokoladdan tayyorlanadigan shirinlik) yaqinlariga tuhfa uchun olib ketishni istamagan kishi kam topiladi. Sizning Motsartga bo'lgan munosabatingiz qanday? Uning qaysi asarini bir marta bo'lsa ham to'liq tinglagansiz? Uning qaysi musiqasi hozir sizning yodingizga tushdi?

## SHTAYERMARK

### Qisqa ma'lumotlar:

- Yer maydoni: 16 401 $km^2$.
- Aholi soni: 1 215 242.
- Yerining rangi: oq-yashil
- Poytaxti: Grats (aholisi 265 318).
- O'rmon qismi: 57%.
- Baland tog'i: Daxshtayn (2 995 m).
- Asosiy daryosi: Mur.



*Grats, Shlossberg va bosh maydon.*

Shtayermark maydoni bo'yicha Avstriya Respublikasida ikkinchi o'rinda turuvchi federal o'lkadir. Aholi statistikasi bo'yicha esa Vena, Quyi va Yuqori Avstriyadan so'ng to'rtinchi o'rinda turadi.

Shtayermarkni «Avstriyaning yashil yuragi» deb atashni ham yoqtirishadi. Haqiqatan, uning qariyb yarmi o'rmondan tashkil topgan. Yer maydonining to'rtdan uch qismi tog'lar va tepaliklardan iborat. Shtayermark iqlim hududiga



*Gratsdagi san'at uyi.*

qarab farqlanadi. O'lkaning eng quyi qismi dengiz sathidan 209 m balandlikda joylashgan Janubiy Vaynland bo'lib, u yerda yoqimli quyoshli iqlim hukmronlik qiladi. U yer Avstriyaning eng go'zal tog' manzaralarini o'zida mujassam etgan. Daxshteyn tog' tizmasining Yuqori Alp mintaqasigacha mashinada bir necha soatlik yo'l. 2 995 m balandlik bilan Daxshtayn bu federal o'lkaning eng yuqori nuqtasi hisoblanadi.

Dehqon uylari soni tinimsiz kamayishiga qaramasdan (qishloq xo'jaligi sohasida band bo'lgan aholi 5,3 foizni tashkil etadi, 1981-yilda ko'rsatkich 12 % edi), qishloq va o'rmon xo'jaligi Shtayermarkning iqtisodiy ko'rinishini saqlab turibdi. Muhim qishloq xo'jalik mahsulotlariga sabzavotlar, makkajo'xori, xmel (qulmoq), qovoq va vino kabilar kiradi. Shtayermarkcha maxsus taomnomadan qora rangli qovoq danagi yog'iga bo'ktirilgan «Danak yog'i» o'rin olgan. Shtayermarkliklar danak yog'i solinmagan salatsiz taom iste'mol qilishni tasavvur qila olmaydi. Shtayermark birinchi raqamli olmalar o'lkasidir. Avstriyada yetishtiriladigan olmaning to'rtdan uch qismi Shtayermark hisobiga to'g'ri keladi. O'lkaning janubida vino ishlab chiqarilishi ko'pchilikka ma'lum emas. Shtayermark vinosi, asosan, shu yerning o'zida ichiladi, chet elda hali Vaxauer (Quyi Avstriya) yoki Burgenland vinosi kabi shuhrat qozonmagan bo'lsa ham, eksport qilish biroz ko'tarilgan.

Yog'och qog'oz sanoati uchun asosiy manba hisoblanadi. Shtayermarkning qazilma boyliklari ko'p (ko'mir, temir), biroq ularning qazib olinishi foydasiz bo'lib qoldi. XIX asrda tashkil etilgan temirni qayta ishlovchi ko'pgina zavodlar raqobatga bardosh bera olmasdan yopilib ketdi. Natijada ko'pchilik ish o'rinlaridan ayrildi, Yuqori Shtayermarkdagi talay sanoat korxonalari qayta tuzish jarayonini targ'ib qildi. O'n yil ichida Shtayermark iqtisodiy muammolar komiga botgan o'lkadan juda ko'p ish o'rni yaratilgan hududga aylandi. Dunyo bo'ylab xaridorlar bilan ishlashda Shtayermark Yevropadagi

muhim avtomobil markazlaridan biri sanaladi. Masalan, Gratsdagi Magna Shtayr korxonasida 2012-yil qariyb 123 602 transport vositasi ishlab chiqarilgan. Asosiy xaridorlar: Mercedes, Mini Paceman, Ford, Seat und Skoda. Birgalikda ishlamagan shtayermarklik ishchilar uchun mashina haydash imkoniyati kamroq. Bu kabi muvaffaqiyat esa tadbirkorlik korxonalari bor e'tiborini High-Tex-Bereich (yuqori texnologik soha)ga qaratayotgani va klaster shaklida ish olib borayotganidan darak beradi. Bunda alohida firmalarning erkin hamkorligi katta rol o'ynaydi. Oliy ta'limdagi ilmiy va kasbiy sohalarning birga olib borilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada yuqori texnologik mahsulotlarning salkam 30 foizi «Made in Austria» belgisi ostida Shtayermarkdan ishlab chiqariladi. Klaster tizimida ish olib borish avtomobillarni eltib berish xizmatida qo'l keladi, boshqa, ya'ni yog'ochsozlik va atrof-muhit texnologiyasi kabi sohalarda ham uni qo'llash yo'lga qo'yilmoqda. Shtayermark hududi, ayrim mutaxassislar taxmin qilganidek, «Avstriyaning silikon vodiysi» bo'la olarmikan?

Shtayermarkka hali butun dunyodan sayyohlar oqib kelmasa-da, u venaliklar kelib dam oladigan maskandir. Tog'lar, o'rmonlar, musaffo havo va mazali taomlar ular uchun muhim ko'ngilochar vositalar hisoblanadi. Qishki sport turlari bilan shug'ullanish uchun 150 tacha maxsus joy mavjud. Federal o'lkaning janubi-sharqida tashkil etilgan issiq vannalar sayyohlarning sevimli go'shalari sirasiga kiradi.



*Janubiy Shtayer uzumzorlari.*

Grats 400 000 nafar aholisi bilan Shtayermarkning iqtisodiy markazi sanaladi. Grats nafaqat Shtayermarkning poytaxti, balki, o'z navbatida, universitet, teatr, ko'rgazma, boringki, madaniyat markazi ham hisoblanadi. 2003-yilda unga Avstriyadagi birinchi «Yevropa madaniyati poytaxti» maqomi berildi. O'rta asrlarning so'ngida bu yerda gabsburglar sulolasi yashagan va ulardan bugungi kungacha eng yaxshi saqlanib qolgan Yevropaning qadimiy shaharlaridan biri meros sifatida qolgan. Endilikda Shtayermark «Yevropa Ittifoqining yuragi», deb e'tirof etilmoqda.

# KERNTEN

**Qisqa ma'lumotlar:**

- Yer maydoni: 9 538 km$^2$.
- Aholi soni: 556 845.
- Yerining rangi: sariq-qizil-oq.
- Poytaxti: Klagenfurt (aholisi 94 796).
- Asosiy daryosi: Drau.
- Eng katta ko'l: Vyorter.
- Baland tog'i: Grossglokner (3 798 m).
- Avstriyaning janubiy nuqtasi Kerntenda joylashgan.

Kernten Avstriyaning federal o'lkalari orasida beshinchi o'rinda turadi, biroq Avstriyaning atigi yetti foiz aholisi bu yerda istiqomat qiladi. Alp tog'ining janubiy qismini to'liq egallagan yagona federal o'lka Kerntendir. Bu yerdagi ko'llarning suvi toza va ozoda bo'lib, deyarli barchasida ichimlik suvi sifatlari



*Ajdarho Klagenfurt ramzidir.*

...ydi, yoqimli ob-havosi esa sayyohlar va sportchilarni aslo e'tiborsiz qoldirmaydi. An'anaviy va sevimli sport mashg'ulotlari bo'lmish tog' bo'ylab sayrga chiqish, piyoda yurish, rafting kabilar sarguzashtlar ishqibozlarining jon-u dili. Qish esa o'zining snoubord doskasi, yaqinda urf bo'lgan mototsiklda qorda uchish va muz ostiga sho'ng'ish singari ko'ngilochar o'yinlari bilan mashhur. 2012-yilda Vyorter ko'li bo'yi va qishki sport qarorgohlarida Kerntendagi dam oluvchilarga mo'ljallangan boshpanalarning asosiy qismi joylashgandi. Felde-nam-Vyortersee Vyorter ko'li bo'yidagi kazinoda tez-tez kazo-kazolar to'planib, ziyofatlar uyushtirib turadi.

Sharqiy Alpda joylashgan to'qqiz kilometr uzunlikdagi ulkan muzlik Kerntendagi diqqatga sazovor joy hisoblanadi. 1935-yilda barpo etilgan Grossglokner – Yuqori Alp yo'lagi orqali ulkan muzlikka borish mumkin.

Gabsburglar monarxiyasining tugatilishi va Serb, Xorvat hamda Sloven qirolligining (keyinchalik Yugoslaviya) tashkil topishi bilan Kerntenning janubida yashab qolgan slovenlar va hukumat o'rtasida hudud uchun kurash kuchaydi. 1920-yilgi xalq kelishuvida kerntenlik slovenlarning aksariyat qismi federal o'lkaning Avstriya tarkibida qolishini so'ragan.

Kerntenning boshqaruv markazi Klagenfurt, u nafaqat universitet, maktab va sport shahri, balki bo'sh vaqtni o'tkazish, xarid va bog' sayri uchun ham qulay bo'lib, Vyorter ko'li bo'yida joylashgan.

So'nggi yillarda Kerntenda iqtisodiy tomondan ancha yuksalish kuzatilmoqda. Avstriya tarkibidagi eng qoloq federal o'lkadan boshqalarga namuna bo'larli darajaga ko'tarilgan (vafot etgan federal o'lka rahbari Yorg Hayder davrida) Kernten daromad, xomashyo sotib olish imkoniyatlari va bo'sh ish o'rinlari yaratish bo'yicha kelajakda Yevropaning iqtisodiy hududi maqomini olishi kutilmoqda. Kerntenning potensialligi oshayotganligi barchaga ma'lum bo'lsa-da, ayrim tanqidchilar buni tan olmayapti. Darhaqiqat, Kerntendagi siyosiy vaziyat, ikki tilli yo'l lavhalari (2011-yilda chek qo'yilgan) va slovenlar bilan munosabatdagi tushunmovchiliklar rivojlanishga ta'sir o'tkazmay qolmaydi.

Hammasidan ajoyibi Kerntenda madaniy hayotning o'zgacha shakli mavjudligidir. Yozda ko'llar bo'yida turli musiqa festivallari – «Milshtatt musiqa haftaligi», «Kerntencha yoz» kabilar nishonlanadi. Klagefurtda xalqaro anjumanlardan biri sanalmish «Nemis tili va adabiyoti kunlari» o'tkaziladi, unda barcha adabiyot shinavandalari va havaskor ijodkorlar Ingeborg Baxmann sovrini uchun o'z asarlari bilan ishtirok etadi.

**Bernhard C. Bunker: «Summada»**

Yozda tashrif buyurar
Bir qancha nemis qizlar.
Qo'llarida ancha pul
O'zining juftin izlar.
Hamda mehmonlarimiz
Ulovi qimmatbaho.
Haqiqiy kerntenlik
Qilar o'z ishin a'lo.
Mehmondo'stlik bizga xos
Deymiz faqat: «Marhabo!!!».

***(Bahodir Anorov tarjimasi)***

## YUQORI AVSTRIYA

**Qisqa ma'lumotlar:**

- Yer maydoni: 11 980 km$^2$.
- Aholi soni: 1 421 723.
- Yerining rangi: qizil-oq.
- Poytaxti: Lins (aholisi 191 107).
- Qarama-qarshiliklari: sanoat va qishloq xo'jaligi, atrof-muhitning ifloslanishi va romantik manzaralar, xalq og'zaki ijodi va avangard usuli.
- Asosiy daryosi: Dunay.
- Avstriyaning eng katta ko'li: Atterze.

Yuqori Avstriya tog'li g'arbdan pasttekislik sharqqa tomon o'tish yo'li bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy tomondan federal o'lka XX asrda tizimli sekin rivojlanishdan sanoat o'lkasiga aylandi va hozirgi kunda o'zining zich bog'langan texnika tarmog'i bilan Avstriyaning rivojlanayotgan sanoat hududlaridan biridir. Agrar sohasiga kirmaydigan iqtisod tarmoqlarining ekspansiyasi o'lka hududi-



*Po'stlingberg tomondan Linsning ko'rinishi.*

dagi aholi sonining kamayishi bilan parallel tarzda sodir bo'lyapti. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushi mobaynida va 1945-yildan so'ng sanoat to'xtab qoldi. Sanoatlashuv esa Linsni Avstriyaning aholi zich joylashgan ikkinchi o'rindagi hududiga aylantirdi. Iqtisodda bo'y ko'rsatgan sohalar esa temir va cho'yan, kimyo sanoati hamda mashinasozlik (BMW) bo'ldi. Hamma korxonalar nemis mashina sanoatiga vositachi sifatida mas'uldir. Lins Yevropadagi eng ozoda sanoat shahri hisoblanadi. Yuqori Avstriya 2013-yilda davlatda eng kam ish o'rni tashkil etgan.

Yuqori Avstriya qishloq aholisining keskin kamayishiga qaramasdan, 1-raqamli agrar o'lka bo'lib qoldi (bug'doy, makkajo'xori, qandlavlagi, chorvachilik). Bu yerlik dehqonlar eng asosiy iqtisodiy omil vazifasini o'taydi va eng maqbul madaniy manzarani yaratishga tinimsiz harakat qiladi.

Yuqori Avstriyaning landshafti, asosan, qal'ani eslatuvchi kvadrat shakldagi uylardan iborat bo'lib, bu o'lkaning bugungi kunda ham kuchli dehqonchilik salohiyatiga egaligidan darak beradi.



*St. Florian cherkovi.*

Shimolda joylashgan Myul kvartali linsliklarning eng xush ko'radigan dam olish maskani sanaladi. Janubda Zalskammerning sanoqsiz romantik ko'llari, g'arbda esa qayta ta'mirlangan ko'rkam Braunau va Sherding kabi shaharlarni uchratish mumkin. Barokko davridan buyon saqlanib kelayotgan monastirlar kishilar tomonidan juda qadrlanadi.

Madaniy jihatdan Yuqori Avstriya boshqa federal o'lkalar bilan bemalol bellasha oladi. 1966-yildan beri Lins universitet shahri, Anton Brukner musiqalari, san'at va texnologiya festivali, «Linsning jarangdor bulutlari» nomli musiqiy dasturlari bilan o'zining madaniy va xalqaro qiyofasini yaratgan. 2009-yilda Lins «Yevropaning madaniyat poytaxti» maqomini olgan. 2013-yil aprelda esa Terri Pavson tashabbusi bilan yangi musiqali teatr o'z faoliyatini boshladi.

## QUYI AVSTRIYA

**Qisqa ma'lumotlar:**

- Yer maydoni: 19 186 km$^2$.
- Aholi soni: 1 621 857.
- Yerining rangi: ko'k-sariq.
- Poytaxti: Sankt Po'lten (aholisi 52 048).
- Asosiy daryosi: Dunay.
- Avstriyaning shimoliy nuqtasi Quyi Avstriyada joylashgan.

Quyi Avstriya maydoni jihatdan eng katta va Avstriyadagi eng qadimiy o'lka hisoblanadi, respublikaning barpo bo'lish nuqtasi ham xuddi u joylashgan hududga to'g'ri keladi. Bu yerda Ostarrihi (Avstriyaning qadimgi nomlaridan biri) bo'lgan.

Bir necha asr mobaynida Vena o'lkaning boshqaruv markazi bo'lgan va 1920-yilda Quyi Avstriya tarkibidan ajratib olingan. Shunga qaramasdan, Vena Quyi Avstriya uchun poytaxt vazifasini keyinchalik ham o'tagan. Ammo bu holga 1986-yilda chek qo'yildi. Ovozga qo'yish va uzoq muzokaralardan so'ng (saylov shiori: «Poytaxtsiz davlat sharbatsiz gulyash kabidir») 52 000 aholisi bilan Sankt Po'lten Quyi Avstriyadagi eng yirik shahar sifatida poytaxt etib belgilandi. Yirik investitsiyalar va sharafli me'moriy loyihalar asosida an'anaviy barokko uslubidagi shahardan yangicha «shahar» ko'rinishidagi markaz barpo etishga va o'lkaning o'zgacha qiyofasini yaratishga kirishdilar.



*Semmering, Quyi Avstriya.*

Quyi Avstriya o'zining o'zgaruvchan landshafti bilan so'nggi yillarda sevimli dam olish maskaniga aylandi. Qishloq xo'jaligi sektoriga, undagi ayrim korxonalarning oqsashiga qaramasdan, ko'p urg'u berilyapti. O'lka asosiy don (bug'doy, javdar) yetishtirib beruvchi hududda Avstriyaning «don ombori» sanaladi. Avstriyada yerdan qazib olinadigan kartoshkaning 80 foizi Quyi Avstriyada yetishtiriladi, vinosozlikda ham qadim an'analar mavjud. Eng sevimli vino turi «Zangori veltliner» deb ataladi va u har bir avstriyalik tomonidan uyda ham sevib iste'mol qilinadi.

Quyi Avstriya bag'rida Avstriyaning eng qadimgi sanoat shoxobchasi joylashgan. Ayniqsa, Vena atrofida turli korxonalar faoliyat yuritadi. Yengil sanoat, mashinasozlik, qurilish va sun'iy ashyolar kabi bir qator sanoat sohalari shular jumlasidandir. Vena atrofidagi ushbu tumanlar o'lkaning eng dinamik hududlaridir. Bu jarayon shimoliy qismda kuchsiz bo'lib, u yerliklar Chexiya bilan chegaralar ochilishi natijasida ro'y beradigan rivojlanishdan umidvor. Venaning ta'siri kuchliligi tufayli ko'plab kishilar har kuni poytaxtga ishga qatnaydi.

Quyi Avstriya venaliklar uchun an'anaviy ta'til va sayr o'lkasi sanaladi. Vaxau eng sevimli go'sha hisoblanadi, Venaning g'arbida joylashgan Melk

va Krems orasidagi Dunay vodiysi o‘zining uzumzorlari, qal’a vayronalari va qasrlari bilan mashhurdir.

Quyi Avstriyaning madaniy hayoti Vena bilan uzviy bog‘liq. Biroq federal o‘lkaning kelajakda o‘z madaniy yo‘lini belgilashdan umidi katta. Shu tarzda St. Po‘ltenda salobatli san’at shaharchasi qad rostladi, uning qurilishida Avstriyaning qo‘li gul usta me’morlari ish olib bordi. Grafenegg qasrida o‘tkaziladigan musiqa festivali mashhur san’atkorlarni o‘ziga chorlaydi. Venaga qarashli Arnulf Rayner muzeyi, Mistelbaxdagi muzey va Dunay bo‘yidagi Kremsda joylashgan karikatura muzeylari endilikda munosib baholanyapti.

## VENA

### Qisqa ma’lumotlar:

- Yer maydoni: 415 km$^2$.
- Aholi soni: 1757 353.
- Yerining rangi: qizil-oq.
- Avstriyaning siyosiy, madaniy va iqtisodiy markazi.



*Vena, Haus-Haus.*

Vena maydoni kichik federal o‘lka bo‘lsa-da, unda istiqomat qiluvchi aholi ko‘p va zich joylashgan. Vena nafaqat Avstriyaning poytaxti, ayni paytda alohida federal o‘lka hamdir. Uning bu darajaga yetishiga Yevropaning markaziy qatnov chorrahasida joylashgani sababdir. Hatto, rimliklar shu yerda harbiy lager o‘rnatishgan. Gabsburglar boshqaruvi ostida esa shahar uzoq asrlar hukm surgan qudrat, qatnov va iqtisodiy markaz tusini oldi.

Hal qiluvchi yuksalish impulsini Vena XIX asrda qo‘lga kiritdi. Monarxiyaning har burchagidan turli millatga mansub olomon shaharga kirib kelgan. 1890-yilda 65 % dan ko‘p «venaliklar» asli Venada tug‘ilmagan, 1908-yilda esa shahar aholisi chegaralangan sondan ikki



*Vena, Karl cherkovi.*

millionga oshgan. Barcha muhojirlar uchun zudlik bilan turarjoylar qurilishi shart edi, natijada, shahar chetlarida qochoq va muhojirlar yashashi uchun mo'rt boshpanalar barpo etildi.

Imperator Frans Jozef (1830–1916) davrida Vena oltin davrni boshdan kechirdi. Halqa shaklidagi yo'llar o'tmishning ko'rkam uslubini aks ettirishi bilan bugungi shahar qiyofasini yanada go'zallashtirgan. Vena «Yevropaning madaniyat metropolisi» nomiga sazovor bo'lgan.

Birinchi jahon urushidan so'ng Vena 52 million kishi bilan ko'p aholili mamlakat tusini oldi, mitti davlatning ko'p aholi yashaydigan poytaxtiga aylandi. Mamlakatlar hisobiga yiriklashgandan so'ng «Wasserkopf» so'zi paydo bo'ldi. Vena va boshqa federal o'lkalar orasida doimiy raqobat yuzaga keldi.

Bugungi kunda shahar nafaqat birinchi raqamli tarixiy, madaniy markaz, balki Avstriyaning BMT va OPEC kabi qator xalqaro tashkilotlar qarorgohlari joylashgan eng yirik iqtisodiyot markazi sanaladi. Venada madaniy hayotga

kuchli e'tibor beriladi va ko'plab kongresslar o'tkaziladi. Ichki shahar, Belvedere qasri va Go'zal favvora YUNESCO ro'yxatiga kiritilgan. Diqqatga sazovor joylar ichida Go'zal favvora birinchi o'rinda turadi. Agarda Venani boshqa siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar kuchaygan, shu bilan birga, atrof-muhit muhofazasi va xavfsizlik yaxshi yo'lga qo'yilgan shaharlarga qiyoslaydigan bo'lsak, ko'rsatkichi yaxshi, bunga faqat sayyohlik tufayli erishilmagan, albatta. Venaliklar shaharlari beqiyosligini juda yaxshi bilishadi. Shahar yashash sifati eng yuqori shaharlar sirasiga kiradi.

Sharqiy Yevropa chegaralarining ochilishi shaharga yangi imkoniyatlar eshigini ochdi, yangi firma va korxonalar o'z mahsulotlarini bu yerda ham qayta ishlay boshladi. Shu bilan bir qatorda, Sharqiy Yevropadan talay ish va boshpana izlovchilar Venadan panoh topmoqda. Ular aholida tinimsiz ravishda xavf va qo'rquv uyg'otmoqda, bu esa nizolarga sabab bo'lyapti. Ming yilliklar almashinuvida Venaning tarixi yana qaytalanadi. Xuddi telefon ma'lumotnomasiga qaratilgan nazar singari, shahar avval sharqlik emmigrantlar uchun boshpana bo'lgan bo'lsa, endilikda u muhojirlar joniga oro kiryapti.

**Alois Brandshtetter: «Vena linsliklar tasavvurida»**

Vena Avstriya uchun biroz katta. Bugungi Avstriya poytaxti uchun kichiklik qiladi. Taassufki, Vena sal chetroqda joylashgan. Agar Avstriya yanada sharqqa yaqinroq joylashganida iqtisodiy jihatdan yaxshiroq bo'lardi. Venaning soyasida Avstriya birdaniga sindi. Boshqa avstriyaliklar Vena shevasida gapirganda biroz yomonroq. Venaliklar boshqa federal o'lkalardagi avstriyaliklarni unchalik hurmat qilmaydi. Ularning ta'kidlashicha, qolganlar biroz qo'polroq. Biroq boshqa federal o'lkalardan kelgan emigrantlar bo'lmasa, Vena aholisi kamayadi. Aholi soni allaqachon kamaygan. Kimdakim o'zga viloyatdan Venaga ilk marotaba kelsa, biroz hayratga tushadi. Uylar, linslar ta'kidicha, biroz balandroq. Linsda hamma narsa kichikroq, qatnov ham shunga yarasha. Dunay Venada biroz kengroq. Buning hisobiga Linsda biroz tozaroq. Venada Dunay biroz tiniq emas.

Venaliklar biroz yalqovroq. Ko'pincha, qo'shiq kuylab, raqsga tushishadi. Parlamentda taraqqiyot haqida biroz munozara qilishadi. Forarlberglik deputatlar biroz ko'proq federalizm bo'lishi tarafdoridir. Buni esa venaliklar biroz tanqid qilishadi.

## BURGENLAND

**Qisqa ma'lumotlar:**

- Yer maydoni: 3 962 km$^2$.
- Aholi soni: 287 131.
- Yerining rangi: qizil-sariq.
- Poytaxti: Ayzenshtadt (aholisi 13 165).
- Yirik ko'li: Noyezidler-Zee (bir qismi Vengriyaga tegishli).

Avstriyaning «kenja farzandi» bo'lmish Burgenland Avstriya-Vengriya chegarasida joylashgan. Birinchi jahon urushidan keyin, asosan, 1921-yil Vengriyaning qayta tiklanishi munosabati bilan uni Avstriya deb atashgan. Burgenland nomini kim o'ylab topgani haqida hamon tortishuvlar bo'lib turadi. Buni hech kim aniq bilmaydi.

Burgenlandda bir qancha landshaftlar, iqlim hududlari va etnik-madaniy ta'sir doiralari mavjud. Alpning sharqiy qismi chetidagi tor va uzun yer uchun VI asrdan buyon sloven, nemis va magyarenlar o'rtasida tinimsiz kurash bo'lib kelgan. Slavyan va magyar muhojirlari uchun ayrim o'rin-joy muammolari vujudga kelgan. Endilikda vengercha qariyb 5000 burgenlandlikning kundalik tiliga aylangan.

XVI asrda o'lkaga xorvatlar ham keltirilgan, shu sababli hozirgacha xorvat tilida so'zlashuvchi orollar mavjud. Biroq xorvatchada so'zlashuvchi burgenlandliklar soni keskin kamaymoqda: 19 000 (7,3 foiz) ni tashkil etadi.

Burgenlandda qishloq xo'jaligi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Don, yemish, qandlavlagi, sabzavot, meva va eng muhimi oliy navli vino shu yerda yetishtiriladi. Sanoat, aksincha, kam ko'rsatkichga ega.

Iqtisodiy sabablarga ko'ra, so'nggi yuz yillikda 300 000 kishi Burgenlanddan, asosan, Shimoliy Amerikaga chiqib ketgan. Ayzenshtatdagiga qaraganda, Chikagoda ko'proq burgenlandliklar istiqomat qiladi. Endi esa burgenlandliklar chetga chiqishi shart emas. Ular o'z vatanlarida ish topolmaganliklaridan Vena, Grats va boshqa katta shaharlarga qatnaydi.

Noyezidler-Zee – «Venaliklar dengizi» sevimli dam olish maskanidir. 280 xildan ziyod qush turi in qurgan keng qamishzorlar dengiz atrofini







*Burgenlanddan tasvirlar.*

o'rab olgan. Hech qayerda tabiat himoyasi va savdo-sotiq bu yerdagichalik yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Kemachilar va serfingchilar, hammadan ko'ra, ko'plab dam olish uylari va suv havzalari dengiz muvozanatini buzuvchi asosiy omil hisoblanadi.

G'arbiy Vengriyaning madaniy nuqtasi hamda Yozef Haydenning ijodiy doirasi hisoblangan Ayzenshtat 1925-yildan beri federal o'lka poytaxtidir.

Oxirgi paytda Vengriyaga chegara ochilishi bilan Burgendland muhim o'tish yo'liga aylandi. 1989-yilda o'lka kutilmagan qochoqlar to'zonida qoldi: o'n minglab GDR fuqarosi Vengriya va Avstriya orqali Germaniya Federativ Respublikasiga borgan. Asrlar mobaynida chegara hudud bo'lgan Burgenland hozir Yevropa markaziga tomon harakatlanmoqda.

# 3. AVSTRIYA TARIXI

## OSTARRIHI

Avstriyaning geografiyasi tarixni belgilab beradi. Tekisliklardan tortib cho‘qqilargacha hamda tog‘ yonbag‘irlarida ancha erta madaniy manzara va mamlakat manlari shakllana borgan. Miloddan avvalgi 1000-yilda Hindiston Yevropa xalqi sanalgan illirerlar qazilma boyliklari bisyor o‘lka bo‘lmish Alpning sharqiy qismiga ko‘chib kirgan. Yuqori Avstriyaning Halshtatidan topilgan topilmalar ularning yuqori darajadagi sivilizatsiyasidan darak beradi. Keyinchalik Kerntenda keltlar davlati Norikum vujudga keldi. Rimliklar davlatini Dunaygacha kengaytirgan, u shunchaki siyosiy chegara bo‘lmagan, balki xristian rimliklar va butparast germanlar madaniyati orasidagi sarhad bo‘lgan. Rimliklar ko‘chalar barpo etgan va aholi punktlarini tashkillashtirgan, keyinchalik ulardan Avstriya shaharlari rivojlangan: Vindobona – Vena, Lentia – Lins, Juvavum – Zalsburg, Brigantium – Bregens.



*Ostarrihi nomi qayd etilgan tarixiy manba.*



*Shtrettveg qatl mashinasi.*

Xalqlarning buyuk ko‘chishi (IV asr)da Alpenforland (Alp tog‘-

oldi) eng muhim o‘tish yo‘li va bog‘lash nuqtasi vazifasini o‘tagan. Germanlar rimliklarning Dunay va Alpdagi viloyatlarini yanchib o‘tgan. Ular o‘sha hududdagi slavyanlar bilan to‘qnash kelgan. 500–700-yillarda mamlakatga bayerlar ko‘chib keladi va uni mustamlakaga aylantiradi. Buyuk Karl avarlarning chavandoz xalqi ustidan quchgan zafaridan keyin Enns va Vena o‘rtasida chegara hududi tashkil etadi, unga keyinchalik vengerlar hujum uyushtirgan. X asrda vengerlar yengilgandan keyin ushbu chegara hudud qayta tiklandi. Babenbergerlar sulolasi hukumatni o‘z qo‘liga oldi. Ular vengerlarni chetlatib, hududni sharq va janubga tomon kengaytirdi. Vena ularning qarorgohi bo‘ldi. Zamonasining buyuk jangchilari nomini olgan ushbu sulola hukmronligi ostida mamlakat iqtisodiy va madaniy tomondan gullab-yashnadi. Ayniqsa, babenberglar 270 yillik boshqaruv davrida o‘z mulkini kengaytirish uchun tinchlik yo‘lidan borgani e’tiborga sazovordir. Shunday qilib, ular Shtiriyani meros sifatida, Lins bilan Velsni esa sotib olgan.

Babenberglar shaxsiy Avstriyasi uchun tamal toshi yaratgan. 996-yilda ilk marotaba bir hujjatda Avstriya nomi «Ostarrihi» («Sharqdagi mamlakat») deb tilga olingan. 1996-yilda esa minginchi «Nomlash kuni» turli tomoshalar bilan ulkan bayram qilingan. O‘zining birgina chegaraviy holati bilan Avstriya babenberglar davridayoq muqaddas Rim imperiyasi ichida mustaqil bo‘lishga erishgan edi.

## GABSBURG

Babenberglar 1246-yilda butunlay qirilib ketgandan so‘ng, qirolliklararo qonunga muvofiq, 1273-yilda hokimiyat tepasiga gabsburglar keldi. Ularning qarorgohi Shvetsariyada edi. Shvablar yerida ham ularning mulki bo‘lgan. Demak, ularning davlatning sharqiy qismidan ham yangi qarorgoh barpo etishi-yu uni eskisi bilan bog‘lashini tushunsa bo‘ladi. Ular qirollar va imperatorlar sifatida davlat tepasida turganlari uchun ham hukmronliklarini kuchaytirishga tinimsiz urinishardi. Muqaddas Rim imperiyasining imperatorlik qudrati sezilmas edi.

XIV asrning o‘rtalarida gabsburglar Kernten, Tirol va Forarlbergning bir qismini bosib olgan. Bu bilan ular Vena va Shvetsariyadagi qarorgohlar orasida ko‘prik hosil qiladi. Shvetsariyadagi bosh qarorgohlarini ular, baribir, juda erta boy beradi. Keyingi yuz yilliklarda qudratlarini oshirishga tizimli tarzda

yondashadilar. Bu maqsadga aqlli nikoh rishtasi bilan erishishni juda yaxshi bilishadi. Shunday qilib, I. Maksimilyan 1477-yil Burgund va Niderlandga kuyov bo'ldi. Maksimilyanning o'g'li ispan malikasiga uylanganda ulkan mustamlaka davlati bilan Ispaniyaga qo'shilgan. V. Karl (1500–1558) barcha tarqoq yerlarni qo'l ostiga biriktirdi. Gabsburglar – Yevropaning qudratli sulolasi boshqaruvi nafaqat hududiy, balki dunyoga mashhur bo'lgan V. Karl yurtida quyosh hech qachon botmasligini aytishga haqli edi. Vaqt o'tishi bilan bu ulkan davlat gabsburglar oilasi tomonidan qismlarga ajratildi. Avstriya-nemis yo'nalishi sharqda ham hududiy qudratini oshirishga harakat qilgan. Agar imperator I. Ferdinand 1526-yilda Vengriya va Bohmanni meros qilib olganida, kelajakdagi Avstriya-Vengriya monarxiyasining ayrim qismlari belgilab qo'yilgandi. Gabsburglar boshchilik qilgan davlatlar mustaqil holda erkin rivojlangan. Birgalikdagi sulola orqali birdamlik tuyg'usi vujudga kelgan. Turli mamlakatlar orasidagi munosabat siyosiy, iqtisodiy va madaniy qarashlar bilan tashkil topdi. Venada barcha kelishuvlar birgalikda olib boriladi. Shahar qudratli imperiyaning yarqiragan markazi sifatida rivojlandi.

## MARIYA TEREZIYA

Gabsburglarning eng ko'zga ko'ringan yo'lboshchilaridan biri imperator Mariya Tereziya bo'lgan. U 1740-yil, 23 yoshida boshqaruvga kelganida Avstriya ulkan, lekin tarqoq davlat edi. Ayrim graflar ushbu vaziyatdan foydalanib qolish maqsadida yosh va tajribasiz toj sohibasini meros masalasida qiynagan. Mariya Tereziyaning bu jarayondagi asosiy dushmani prussiyalik Friderix II bo'lgan, uning tashabbusi sanoqsiz urushlarni keltirib chiqargan. Pirovardida Avstriya boy yerlarini Prussiyaga berishga majbur bo'ldi, biroq Mariya bundan chuqur aziyat chekmadi. Aksincha, u o'z yerlarini saqlab qolish va mamlakatni zamonaviylashtirishga qattiq kirishdi. Raqiblariga chap berish maqsadida hozirga qadar ta'sir kuchini yo'qotmagan islohotlar o'tkazdi. Avvalambor, u qo'shin hamda moliyaviy ishlarni qayta tashkillashtirdi. Feodal o'lkalardan markaziy boshqaruvli yagona davlat barpo etdi. Barcha bolalarning olti yoshdan maktabga borishi majburiy qilib qo'yildi.

Boshqaruvdagi shu kabi og'irliklarga qaramasdan, Mariya Tereziya o'ziga xos oilaviy hayot uchun ham vaqt ajratgan. Imperator juda baxtli hayot kechirgan va

ajoyib ona bo'lgan. U 16 bolani dunyoga keltirgan, farzandlariga o'z maslahatlari va daldalari bitilgan maktublar yo'llab turgan. Hatto, farzandlari ulg'ayganda va oilali bo'lganda ham ularga ochiqchasiga o'z fikrlarini bitgan. Mariyaning bu kabi jon kuydirishi uning bolalariga qanchalik xayrixohligidan darak beradi. O'ziga qolsa, butun Yevropaning bor taxtini farzandlari va nabiralari egallagani ma'qul edi. Qizi uchun shuhratparastlarcha, sevgidan nom-nishonsiz nikoh shartnomasini tuzgan. Natijada bu yo'l bilan farzandining oilaviy baxtsizligiga erishdi. Uning qizlari ichidan eng taniqlisi Mari Antoinette bo'lib, u Fransiya inqilobi davrida Fransiya qirolichasi sifatida qatl qilindi. Mariya Tereziyaning og'li Yozefga bo'lgan munosabati og'ir edi, sababi u otasiga nemis imperatori sifatida ergashgan va Avstriya yerlarini u bilan birga boshqargan. Uning radikal tarzdagi islohotlari va katolik cherkoviga qarshi yuritgan siyosatidan onasi unchalik ham rozi emasdi.

Xalq orasida Mariya Tereziya juda ardoqlangan. 1780-yilda u vafot etganida katta motam bo'lgan. Ulkan inqilobchi sifatidagi xizmatlarini Avstriya Respublikasi juda qadrlaydi. 1980-yilda uning vafotiga 200 yil to'lishi munosabati bilan kumush tanga, xat markasi va uning sevimli qarorgohi sanalmish Shyonbrunn qasrida yirik ko'rgazma o'tkazilgan. Qolaversa, ko'pchilik Mariyaning qiyofasida Avstriyaning ham oila, ham ishda birdek muvaffaqiyatga erisha olgan ilk amaldor ayolini ko'radi.

## AVSTRIYA-VENGRIYA

XIX asrda Germaniyada hukmronlik qilish bo'yicha Prussiya va Avstriya o'rtasida raqiblik oshdi. Muqaddas Rim davlati parchalanib ketgandi. Rasmiyatchilik uchun 1806-yilda imperator Frans tojni topshirdi. 1804-yildayoq «Avstriya imperatori» unvoni qabul qilingandi. 1866-yilda Avstriya va Prussiya orasida urush boshlandi. Gabsburglar bu urushda mag'lub bo'ldi va ularning nemis hududidagi boshqaruvlariga chek qo'yildi. Avstriya faqat o'zining muammolariga, asosan, millatlar muammosiga e'tibor qaratdi. Dunay monarxiyasida mustaqil bo'lishni istagan o'ndan ortiq tilli xalqlar kun kechirardi. Ko'p xalqli davlatni qutqarish uchun ikki tomonga ham foydali yo'l topish zarur edi. 1867-yil Vengriya davom etuvchi avtonomiyani qo'lga kiritdi. Avstriya va Vengriya, monarxiyada atalganidek, uyg'unlashgan iqtisodiy hududni tashkil

etdi. Alp yerlaridagi sanoatlashgan tumanlarda va Bomenda Vengriyaning qishloq xo'jaligini tiklash yo'lga qo'yildi. Monarxiyaning I jahon urushidan keyingi iqtisodiy portlashi ularning tanazzuliga rahna sololmadi.

Tugatilayotgan Avstriyaning ramzi imperator Frans Yozef I (1830–1916) edi. U 18 yoshida tojni qo'lga kiritdi va 68 yil yurtni boshqardi. Frans Yozef davlatning ertadan kechgacha tinim bilmay xalqi haqida qayg'urgan eng tirishqoq davlat arbobi sanaladi. U ochiqko'ngil, qariya imperator bo'lishiga qaramasdan, monarxiyaning muammolarini hal qilolmagan. Millatlar bir-biri bilan tinimsiz kurash olib borgan. Valiahd Frans Ferdinandning slavyanlarga mustaqillik berish rejasi ham ish bermadi. Jahon urushi davomida monarxiya tugatildi. 1916-yilda imperator Frans Yozefning 86 yoshda vafot etishi bilan Avstriya xalqlarini bog'lab turgan oxirgi rishta ham uzildi. Imperator Karl boshqaruvdan bosh tortib, Shvetsariyaga surgunga ketdi. 1918-yil, 12-noyabrda Venada respublika e'lon qilindi.

## SENT JERMEN SHARTNOMASI




*Monarxiya qulash xaritasi.*

«Sent Jermen» (1919) shartnomasi muhim joylarning (Janubiy Tirol) qo'ldan ketishiga sabab bo'ldi. Monarxiyaning territoriyasidagi meros davlatlar Avstriyaga dushmanlarcha munosabatda bo'ldi va oziq-ovqat keladigan yo'llarni, ya'ni chegarani yopti. 50 milllion aholili imperiyaning poytaxti kichkina davlatga katta bo'lib qolgan edi. Oziq-ovqat tanqisligi va ocharchilik hukm surardi. Ko'p odamlar o'z davlatining yashab ketishiga ishonmas edi va Germaniyaga qo'shilishni istardi. Ammo kaolitsiya a'zolari buni rad etdi. Ko'plar «Germaniya – Astriya» deb nomlashni xohladi, ammo bunday yangi davlat bo'lishi mumkin emas edi. Ko'pchilikning yangi nomni tavsiya etishi kulgili edi va «Buyuk Germaniya», «Nemis tog' imperiyasi», «Dunay germanlari»,

«Doychmark» hamda «Tinchlik davlati» kabi takliflar rad etildi. Shunday qilib, ko‘plar tomonidan yomon ko‘rilgan «Nemis – Avstriya» o‘rniga Avstriya Respublikasi tanlandi. Hozirgi kunda bu davlatning rasmiy nomidir.

## BIRINCHI RESPUBLIKA

Birinchi respublikaga asos solinishi bilan katta partiyalar – xristian-sotsialistik va «sotsial-demokratlar» partiyalari bevosita yangi hukumat tuzish uchun birlashdi. Shunga qaramay, ularning birgalikdagi faoliyati uzoq davom etmadi. Amalda sotsial-demokratlar hukumat ishlaridan chetlashtirilar edi, xristian-sotsialistlar esa kichik o‘ng qanot partiyalari bilan hukumatni boshqarayotgan edi. Tez orada partiyalar o‘zlarining shaxsiy qo‘shinlarini shakllantirdi va oqibatda bu qonli to‘qnashuvlarga olib keldi. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli ayanchli edi. Pul qadrsizlanishi hamda ishsizlik avjiga chiqqan bir davr keldi.

1932-yilga kelib xristian-sotsialistlardan bo‘lgan siyosiy arbob Engelbert Dollfuss federal kansler lavozimini egalladi. Hattoki, u ham Avstriyaning siyosiy va iqtisodiy holatini yaxshilashning uddasidan chiqa olmadi.

Bu katta siyosiy guruhlar: xristian-sotsialistlar (konservatorlar), sotsial-demokratlar va Nemis milliy partiyasi o‘rtasidagi nifoqqa olib keldi. Qisqa vaqtdan so‘ng ko‘plab odamlar «Yagona xalq, yagona imperiya, yagona yo‘lboshchi!» deya hayqira boshladi. Hattoki, butun dunyo ham Avstriyaning egallanganligini va Germaniya imperiyasiga qo‘shilganini tan oldi. Yolg‘iz Mexiko qarshilik ko‘rsatdi...

## YANGI IBTIDO. 1945-YIL

1945-yilda hammasi yana qaytadan, eng boshidan boshlandi. Sezilarli darajadagi o‘zgarish va farqlar yaqqol ko‘zga tashlanardi, albatta. Bu safar odamlar mamlakatning kelajagiga ishonch bilan qaradi. NS davridayoq hamma partiyadan vakil siyosatchilar konslagerlarda uchrashib, urushdan keyin Avstriyani qayta qurish haqida kelishib olgandi. Barcha Avstriyaning Germaniyadan ajralib chiqishi va Birinchi Respublika davrida yo‘l qo‘yilgan xatolarni qaytarmaslik yo‘lida birlashdi.

Karl Renner (1870–1950) boshchiligidagi vaqtinchalik hukumat Avstriya Respublikasining qayta tuzilganligini e'lon qildi. Bu holat koalitsiya a'zolari tomonidan tan olinib, butun Avstriya bo'ylab kuchga kirdi. Koalitsiya a'zolari mamlakatni 4 qismga bo'ldi, ammo davlatninig yaxlitligi saqlab qolindi. Ko'pgina qiyinchiliklarga qaramasdan, urush xarobalari nisbatan tez muddatda qayta tiklandi. «Iqtisodiy mo'jiza» Avstriyaga ham yetib kelishi lozim edi. Umuman olganda, Birinchi Respublika davridagi xatolardan odamlar ko'p narsani o'rgangan edi. Ikkita katta siyosiy partiya birlashib, yagona koalitsiyaga aylandi va 1966-yilga qadar qat'iy va samarali hamkorlikda faoliyat yuritdi.



***Butun Avstriya aholisi davlat bitimidan shod bo'ldi.***

Bugungi kunda hamma avstriyaliklar ham ushbu koalitsiya haqida faqatgina yaxshi xotiralarga ega emas. Bu holat taqsimot tizimining vujudga kelishiga olib keldi.

Yuqori mansablar noqonuniy taqsimlandi. Bunda davlatdagi muhim mansablar – «qoralar» va «qizillar» tomonidan egallandi. Partiya bileti muhim hujjat edi. Moslashuv va iqtisodiy zaiflik kun mavzusi edi. Ammo ijobiy natijalar yomonlarini bosib ketardi. Kambag'al, xarobaga aylangan va och-nahor mamlakatni birgalikda oyoqqa turg'izishga bo'lgan harakatlar o'z samarasini berdi va tinch, puxta yo'naltirilgan hamkorlikka olib keldi. Sovuq urush Avstriyaning intizor kutilgan mustaqilligi va erkinligini 10 yil kutishga majbur qildi. 1955-yilga kelib Avstriya siyosatchilari qulay jahon siyosiy o'rnidan foydalanishga muvaffaq bo'ldi. Uzoq davom etgan muzokaralardan so'ng Sovet Ittifoqi Avstriya hududidan chiqib ketdi.

1955-yil 15-mayda Venadagi Beldever qasrida davlat shartnomasiga imzo chekildi. 70-yildan so'ng Avstriya erkin davlatga aylandi. 1955-yilning kuzida istilochi davlatlar qo'shinlari Avstriyani tark etdi, o'sha yilning 26-oktabrida Vena parlamenti bir ovozdan «Betaraflik qonuni»ni qo'llab-quvvatladi.

1955-yildan beri Avstriya beta-raf va xalqaro darajadagi g'arb mamlakatidir. Yillar davomida Avstriya qochoqlar uchun boshpana bo'lib kelayotgan namunaviy davlat bo'ldi. 1956-yilda, taxminan, 180 000 vengriyalik bu yerda panoh topdi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Avstriya ikki milliondan ortiq qochoqni qabul qilgan, ulardan 600 000 nafari hanuzgacha shu yerda yashamoqda. Va yana Avstriya ko'p yillardan beri katta xalqaro tashkilotlar bilan birga faoliyat olib bormoqda. Shunday qilib, bir necha muammoli sohalarning yechimida avstriyalik BMT askarlarining katta ulushi bor.

Betaraflik o'sib kelayotgan Yevropa bilan moslashuv jarayonlariga qiyinchilik tug'diradimi, yo'qmi, bu savol ochiq qolmoqda. Mutaxassislar bunga qarshi hech nima topmadi, garchi xalqning katta qismi Avstriyaning betaraf bo'lib qolishi tarafdori, hattoki, betaraflik bugungi kunda faqatgina quruq gapga aylanib qolgan bo'lsa ham.

## BAXTLILAR OROLI

80-yillarning o'rtalariga kelib Avstriyaning tanish va notanish qirralari ko'zga tashlana boshladi. Davlat shartnomasidan 30 yil o'tib, mamlakatda obodlik va mamnuniyat, shu bilan bir qatorda, o'ziga ishonch kabi tuyg'ular hukmron bo'la boshladi. Papa Paul VI Avstriyaga «Baxtlilar oroli» deb ta'rif



*Avstriya tashqi ishlar vaziri Alois Mok va Vengriya tashqi ishlar vaziri Gyula Horn «Temir to'siq»ni kesmoqda.*

bermaganmidi, axir? Ko'pchilik avstriyaliklar bundan zavqlanadi. Yevropa sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'lingan bir paytda, kichik bo'lsa ham, Alp tog'lari davlati turizm va madaniyat sohalarida jahonda yetakchi bo'lib turardi. Avstriya haqida o'ylaganingizda xayolingizga avval Motsart, so'ngra Shtraus valsi, lipitsanlar (oq ot), o'g'il bolalar xor jamoasi, yana Zaxer tortlari va olmali shtrudel (olmali pirog) kabilar keladi. Avstriyacha ochiq ko'ngillik ham bundan mustasno emas.

Avstriya sotsial-demokratik partiyasi saylovlarda g'olib bo'lgandan so'ng 1970-yilda asli kelib chiqishi yahudiy bo'lgan sotsial-demokrat Bruno Krayski kanslerlik lavozimini egalladi. 13 yil davomida Krayski erkin va manfaatli reformatsiya dasturini ishlab chiqdi, unga binoan mamlakat zamonaviy, bag'rikeng va ochiq davlatga aylanishi lozim edi. Tekin darsliklar, maktabgacha tekin eltish xizmatlari, universitetlarda shartnoma tizimining tugatilishi va mamlakat ijtimoiy hayotidagi keng ko'lamli ishlar bir necha

misollar edi, xolos. Haqli ravishda shuni aytish mumkinki, hech qaysi hukumat mamlakatni unchalik o'zgartira olmagandi. Uning ko'pchilik avstriyaliklar tomonidan Ikkinchi Respublikaning nomdor shaxsi sifatida ko'rilishi va dunyo bo'ylab tan olinishi «Betaraflik siyosati»ni joriy qilganligi bilan bog'liq. Krayski xalqaro miqyosda juda katta shijoat ko'rsatib, siyosatda o'zini maslahatchi va yordamga tayyor shaxs sifatida namoyon qildi. Jahonning barcha davlat arboblari Vena shahrida bir-biri bilan qo'l berishib, «UNO-Sity»ga (BMT shaharchasi) asos soldi va xalqaro konferensiyalar olib borildi. Va nihoyat, asrlar davomida o'z mamlakatining kelajagiga ikkilanib qarab kelayotgan avstriyaliklarning katta qismi mamlakatning jahonda muhim rol o'ynashi, butun dunyoda tan olingani va sevimli bo'lib borayotganiga ishonch hosil qildi.

## VALDHAYM SHOKI

So'ngra «Valdhaym shoki» sodir bo'ldi: 1986-yilda uzoq yillar BMTning bosh kotibi bo'lgan Kurt Valdhaym prezidentlikka saylandi. U urush natsist-jinoyatchisi, deb ayblanmoqda edi. Buning noto'g'ri ma'lumot ekanligi aniqlangan bo'lsa-da, harbiy xizmat chog'ida u nemis qurolli kuchlari qaramog'ida bo'lgandi. Uning urush bilan bog'liq o'tmishi ko'pgina xalqaro muhokamalarga sabab bo'lib qolmasdan, Avstriyaning o'ziga qarshi qaratilgan kuchli qarama-qarshi tuyg'ularga ham aylanib ketgandi.

Chet el siyosatdonlari Valdhaym bilan ko'rishmaslik maqsadida Venani tashlab keta boshladi. Prezident hech qaysi g'arb mamlakati tomonidan chaqirilmadi; AQSHga borishi taqiqlangandi. Shu tariqa Avstriya 6 yil mobaynida tashqi siyosatdan uzilib qoldi.

Valdhaym buning orqasidan katta tashqi siyosiy zararlar ko'rgan bo'lsa-da, o'zi bilmagan holda, tarixda qolgulik rolni bajardi. U birinchi bor birlashuvning 50 yillik shodiyonasi kuni barcha avstriyaliklarni NS o'tmishini tan olib, natsizm bilan bog'liq jinoyatlarda o'zlarining ham aybdor ekanliklarini e'lon qildi. Kansler Frans Vranitskining parlament qarshisida so'zlagan, juda ham muhim bo'lgan 1991-yildagi nutqida Avstriya nafaqat qurbon, balki aybdor ham ekanligi ta'kidlandi.

**«Ko'pchilik qarshilik ko'rsatdi, yana ko'pchilik birlashuvni qo'llab-quvvatladi». (Kansler Dr. Frans Vranskining 1991-yil 8-iyuldagi Milliy Kengashda** [Avstriya parlamentining qonun chiqaruvchi palatasi] **so'zlagan nutqidan**).

Avstriya 1938-yil harbiy agressiyaning qurboni bo'ldi va bu dahshatli yakun topganiga shubha yo'q: tasvirlab bo'lmaydigan darajadagi qiynoqlar yuz minglab insonlarning qamoq va konslagerlarga, natsistik rejimning o'lim mashinalariga jo'natilishiga sabab bo'ldi, qochoqlik va migratsiyaga majbur qildi. Yuz minglab odamlar frontdan qochdi yoki bombalar ostida qolib ketdi.

Shunga qaramay, ko'pchilik avstriyaliklar birlashuvni qo'llab-quvvatladi, natsional-sotsialistik rejimni quvvatladi, ko'p jabhalarda iyerarxiyani qo'lladi. Ko'p avstriyaliklar Uchinchi Reyxning bosim ostida ushlash va tazyiqlarida asosiy o'rinlarda qatnashdi.

Fuqarolarimizning qilgan ishlari uchun beriladigan ma'naviy javobgarlikdan bugun biz bosh torta olmaymiz. O'tgan davr mobaynida ko'p voqealar sodir bo'ldi, iloji boricha, yetkazilgan zararlarni qoplash, tortilgan azoblarni yengillashtirish uchun qo'ldan kelgan barcha narsani qilishga tayyormiz. Ko'p narsa oldin qanday bo'lsa, shundayligicha qolgan va hukumat oldin to'laqonli ravishda yordam bera olmagan yoki jismoniy va ma'naviy talablari e'tiborga olinmagan insonlarga qo'ldan kelgan barcha narsani qilishga tayyor.

Biz tariximizning barcha ma'lumotlarini tan olamiz va xalqimizning qilgan jinoyatlarini, yaxshilik va yomonliklarini ham tan olamiz; yaxshi narsadan xursand bo'la olganimiz kabi, yomonliklarimiz uchun o'sha og'ir kunlarni boshdan kechirganlar va vafot etganlarning avlodlari oldida uzr so'raymiz.

## BIRLASHGAN YEVROPA SARI

«Fantastika!», «Qoyilmaqom!», «Ajoyib!», «Avstriya uchun xursandchilik kuni keldi!». 1994-yilning 12-iyunida Yevropa Ittifoqining referendumi tugagandan so'ng ba'zi siyosatchilar shunday ehtirosda edi. Avstriyaliklarning

uchdan ikki qismi mamlakatning Yevropa Ittifoqiga qo'shilishi uchun ovoz berdi. Ko'pchilikning bunga rozi bo'lishini hech kim kutmagandi. Umuman olganda, 1995-yil, 1-yanvarda Avstriyaning Yevropa Ittifoqi (YI) ga qo'shilishi Avstriya tarixida xuddi 1955-yildagi Davlat shartnomasi kabi muhim voqea sifatida muhrlanib qoldi. Avstriyadek kichik davlat Yevropa bilan kelajagini birlashtira oldi.

Avstriyaning Yevropa Ittifoqi sari yo'li Ikkinchi Respublika kabi qadimiy va «Marshal rejasi», urushdan keyin Yevropaning qayta qurilishi uchun Amerika tomonidan qilingan yordam kabilar bilan boshlangan edi. Avstriyaning Yevropa Ittifoqiga yaqinlashishga qilgan harakatlari, avvalo, Avstriyadan betaraflik siyosatini kutayotgan Sovet Ittifoqi tomonidan qarshilikka uchradi. Avstriya EFTA (European Free Trade Association), ya'ni Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasiga kirdi, ammo to'laqonli a'zoga aylanishi noma'lum muddatga qoldirildi. Faqatgina 1989-yil jahon siyosatida qator o'zgarishlar kuzatila boshlagandan so'ng, Avstriya ya'na bir bor Yevropa Ittifoqiga qiziqayotganini bildirdi.

O'shandan boshlab, Avstriyaning Yevropa Ittifoqiga nisbatan munosabati o'zgardi. Avstriyaliklar Yevropa Ittifoqidan shubhalanish bo'yicha Yevropada «chempion»ga aylandi. «Avstriyada Yevropa Ittifoqiga qarshilar oqimi ko'paya borayotgan edi», deb yozadi jurnalist Hans Rausher (Standart, 2006-yil, 27-yanvar). Aholining faqatgina 1/3 qismi Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishni «yaxshi hol» deb hisoblardi, 25% aholi buni ma'qullamadi. Ko'pchilik esa diplomatik javobni berdi, ya'ni: na yaxshi, na yomon. Yevropa Ittifoqiga qaramaqarshi ravishda, ko'pchilik taraddudda edi, Yevropa Ittifoqi ular uchun, avvalo, giyohvandlik savdosi, ishsizlik va soliqlarning oshishi kabi muammolarni olib kelishi mumkin, deb hisoblardi. Hatto, Yevropa Ittifoqiga hammadan ham ko'p shubha bilan qarovchi britaniyaliklar o'zlarining YI ga a'zoliklarini yuqori baholab, YI ga ko'proq ishonch bildirar ekan.

So'nggi paytlarda YI ga bo'lgan munosabat yaxshilanib borardi, shunga qaramay, avstriyaliklar hali-hanuz YI ga a'zolik masalasiga ikki xil munosabat bildirmoqda edi. 52% aholi buni yaxshi deb hisoblardi (2013), ikki yil avval bu ko'rsatkich 47% ni tashkil etgan edi. 66% yosh avstriyaliklar YI ga qo'shilish tarafdori hisoblanar ekan. YI haqida erkaklarning ayollarga qaraganda ijobiyroq fikrda ekanliklari aytilmoqda. 45% «shaxsiy fikr»ga ega insonlarning qiziqishi inobatga olinmayotgani odamni o'ylantiradi. Ko'pchilik avstriyaliklar YIning sayohat qilishdagi yengilliklar, mahsulotlardagi turfa xillik kabi ijobiy

tomonlarini hisobga olayotgan bo‘lsa-da, o‘zlarini YI ning qaramog‘idagidek sezar, undan tashqari maoshlarining kamayib ketishidan qo‘rqar edi. Amalda Avstriya Sharqiy va Markaziy Yevropa mamlakatlari va YI ga a’zo davlatlardan eng ijobiy xislatlarni o‘zlashtirgandi. Yangi a’zo mamlakatlar singari, savdo-sotiq bo‘yicha muhim sherikka aylanib, minglab insonlar uchun qo‘shimcha ish o‘rinlarini taklif etdi.

Turkiyaning qabul qilinishiga keladigan bo‘lsak, ko‘pchilik avstriyaliklar madaniy va diniy sabablarga ko‘ra qarshi chiqdi.

Avstriya aholisining katta qismi YI da ekanliklaridan xursand bo‘lmagan bo‘lishi mumkin, ammo oradan 17 yil o‘tib, 67% odam mamlakatning YI da qolishi tarafdori ekanligi aniqlandi. Bu 1994-yildagi 24% a’zolikdan chiqish uchun qilingan so‘rov natijalari bilan teng.

Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, YI ga a’zolik Avstriya uchun foydali bo‘lgani tasdiqlanmoqda. Transport vositalarining tranzitlari, Brussel byurokratiyasi va YI konstitutsiyasi kabi bir qancha muammolarning hal qilinmaganligini hisobga olmasa, YI ga kirish to‘g‘ri qaror edi. «Bugungi kunda Avstriya 70-yillardagiga qaraganda dunyoga ochiq va o‘ziga to‘q» (avvalgi Avstriya YI komissari Frans Fisher). YI yoshlarga ajoyib Ta’lim dasturlarini taklif qilmoqda («Leonardo da Vinchi», «Erasmus»), universitetlar bilan hamkorlikda ishlash, chet ellik ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlash va minglab avstriyaliklarga chet ellarda ta’lim olish imkonini bermoqda.

**«Avstriya va Yevropa qarama-qarshi tomonlar emas».**
**(Prezident Hayns Fisherning 2005-yil, 15-mayda Avstriya davlat shartnomasi imzolanganining 50 yilligida so‘zlagan nutqidan)**

Doimiy ravishda milliy qiziqishlarimizni Yevropa dasturiga qarshi qo‘yishga urinish nosog‘lom va noto‘g‘ri bo‘lgan bo‘lur edi: Venalik yoki tirollik hech qachon yaxshi venalik yoki yaxshi tirollik bo‘lishni bas qilmaydi, chunki u ajoyib avstriyalik. Yoki bo‘lmasa, avstriyalik yoxud shved vatanparvar bo‘lishdan charchamaydi, chunki u Yevropalik va undan-da yaxshi natijalarga erishmoqchi.

Avstriya va Yevropa bir-biriga qarshi emas, balki bir- birini to‘ldiradi va yordam beradi.

## KATTA KOALITSIYAGA AYLANISH

1999-yil, 3-oktyabrda bo'lib o'tgan Milliy Kengash (qonun chiqaruvchi palata)ga bo'lib o'tgan saylov nafaqat 1986-yildan beri hukumat tepasida turgan «qizil-qora»lar koalitsiyasi uchun shok, balki chet elda ham vahimalarga sabab bo'ldi. 27% ovoz bilan Avstriya Ozodlik Partiyasi (FPÖ) ikkinchi eng kuchli partiyaga aylandi. Yevropa mamlakatlari orasida radikal o'ng qanot partiyasi hech qachon saylovchilar ovozining chorak qismidan ko'pini olmagan edi. Avstriya sotsialistik partiyasi (SPÖ) va Avstriya Xalq partiyasi (ÖVP) Ikkinchi Respublika tashkil etilgandan beri bunday yomon natijalarni ko'rmagan edi. Parlamentda taxminan bir xil bo'lgan 3 ta partiya mavjud edi. Avstriya Ozodlik Partiyasini chetga chiqarib qo'yish mumkin bo'lmay qolgani bilan birga ularning «o'ng qanot» va «sol partiya» deyilishi hech narsani o'zgartirmadi.

Chet elda Yorg Haider – Avstriya Ozodlik partiyasining xudo bergan rahbari doimiy ravishda Gitlerga qiyoslanar, notog'ri bo'lsa-da, «Avstriya natsistik davlat bo'lish yo'lidami?» degan savollar ham berila boshlangandi. Aslini olganda, Haider o'z omadsizligini avvalgi hukumat partiyalarining bo'yniga tushganida, deb bildi.

ASP va AXP 1945-yildan beri turli xildagi koalitsiyalar bo'lib, mamlakat boshqaruvini, ozmi-ko'pmi, o'zaro bo'lib olgandi. O'ttiz yil davomida sotsial-demokratlar kansler lavozimini egallab kelmoqda edi. Ko'pchilik saylovchilar, ayniqsa, ishchilar va yoshlar almashinuvlarni talab qilar, anchadan beri Haider tomonidan va'da qilinayotgan, ammo ortga surib kelinayotgan o'zgarishlar: partiya bileti orqali boshqaruv siyosati, qog'ozbozlikka chek qo'yish va yana ko'pgina imkoniyatlar, qonunlarni qayta ko'rib chiqish, xususiylashtirish, qisqa qilib aytganda, Avstriyani modernizatsiyalashtirish kutilmoqda edi.

2000-yilning 4-fevralida burilish yasaldi. O'ttiz yil davomida Avstriya siyosatida bunday katta o'zgarish bo'lmagan edi. Sotsial-demokratlar va Avstriya Xalq partiyasi orasidagi yagona koalitsiya yaratish haqidagi muzokaralar samarasiz tugagandan so'ng, Avstriya hukumati tepasiga birinchi marta «Qora-moviylar» keldi. Volfgang Shyussel Xalq partiyasining rahbari, garchi, uning partiyasi uchinchi o'rinda turgan bo'lsa-da, kanslerlik lavozimini egalladi.

Yangi hukumat ko'p odamlar tomonidan qarshiliklarga uchradi. Mamlakat ichi va tashqarisida norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi. Va YI ning 14 mamlakati

Avstriyaga qarshi chora ko'rib, uni tashqi siyosatdan uzib qo'ydi. Xalq, garchi, yangi hukumatni tanqid qilgan bo'lsa ham, bu holatni nohaqlik deb topdi va bu katta millatchilik to'lqiniga aylanib ketdi. Ko'pchilik avstriyaliklar YI chora-tadbirlarini no'to'g'ri tushunib, xalqqa qarshi yo'naltirilgan sanksiya sifatida qabul qildi. Ko'pchilik avstriyaliklar nima sababdan, masalan, xalqaro ko'rgazmalarga taklif etilmayotganlarini, hattoki, o'quvchilararo almashinuv dasturlari va chang'i kurslarining rad etilishi kabi muammolarni tushuna olmasdi.

Avstriyada YI ga nisbatan shubha-yu gumonlar oshib borayotgan bir paytda YI ning siyosatdonlari Avstriya hukumatidagi ishlar va Avstriya Ozodlik partiyasi (AOP)dagi siyosiy muhit qanday ekanligi haqida bayonnoma tayyorlash asnosidagi «3 tamoyil» nomli chora izlayotgandi. Bu bayonnoma hukumatga ijobiy ta'sir etib, hattoki, AOP (FPÖ)ga nisbatan qattiq tanqidlarga ham olib keldi, YI 14 sanksiya yakunida bayon qilishicha, hukumat siyosati AOP (FPÖ)ga nisbatan hushyorroq bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi.



***Federal kansler Verner Faymann (chapda) va Federal prezident Hayns Fisher (o'ngda).***

AOP (FPÖ) ichida noroziliklar soya solib turgan bir paytda, hukumat ishlari oqsab borardi va Volfgang Shyussel koalitsiyani tugatdi.

2002-yildagi yangi saylovlarda Avstriya Xalq partiyasiga omad kulib boqdi va Avstriya Ozodlik partiyasi mag'lub bo'ldi.

Sotsial-demokratlar va Yashillar bilan bo'lgan muzokaralar samarasiz kechgani sababli Xalq partiyasi qaytadan Ozodlik partiyasi bilan koalitsiya tuzishga majbur bo'ldi. «Qora-Moviylar» davri davom etishi kerak edi va Avstriya Xalq partiyasi Avstriya Ozodlik partiyasi bilan birga Avstriyani zamonaviy, ko'rkam va tadbirli mamlakatga aylantirishni umid qilayotgandi. Bu yo'lda ular o'z tarafdorlarini ranjitishga ham ulgurdi.

«Qora-moviy-olovranglar» hukumati haqida «tushkun», «tartibsiz», «dah-shatli» va «qo'rqinchli» degan xulosaga kelish mumkin deb, tanqidchi Shyussel yoshlardagi ishsizlikning yuqori darajadaligi, ta'lim sohasidagi muammolar, Avstriya Qurolli Kuchlari uchun sotib olinishi kerak bo'lgan qiruvchi samolyotlar savdosi bilan bog'liq muammolarni ko'rsatib o'tadi. Shyusselning tarafdorlari esa bunga qarshi ravishda, AOP va AXP hukumati Avstriyani yaxshi tomonga o'zgartira oldi, degan fikrda edi.

Ular ishlarni yurishtirib yuborib, ayniqsa, nafaqa, tibbiyot va oliy ta'lim kabi sohalarda ba'zi zaruriy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirdi.

Avstriya bugungi kunda farovon davlat hisoblanib, daromadi oshib borayotgani, uylar va mashinalar soni o'tgan besh yildagiga nisbatan ancha ortganini yakuniy xulosalardan ko'rish mumkin. Milliy Kengashning 2006-yilgi saylovlariga ahamiyat beradigan bo'lsak, Xalq partiyasi anchagina mag'lubiyatlarga uchraydi. Xalq partiyasi 34% ovoz bilan sotsial-demokratlardan keyin 2-o'ringa tushib qoldi.

Oylab davom etgan muzokaralar natijasida Avstriya sotsial-demokratiyasi (ASP) va AXP lari katta koalitsiya tashkil etdi. Avstriyaliklarning asosiy qismi bu holatni ma'qulladi.

Sotsial-demokratlar rahbari Dr.Alfred Guzenbauyer boshchiligidagi «Qizil-qoralar» hukumatining umri esa qisqa bo'ldi. Hukumat partiyalari o'rtasidagi kelishmovchiliklar sabab Xalq partiyasi hamkorlikni to'xtatdi, Guzenbauyer esa iste'foga chiqib, venalik siyosatchi Verner Fayman kanslerlik lavozimiga ko'tarildi. 2013-yilda u qayta saylanib, unga hukumatni tuzish vazifasi yuklandi.

# 4. DAVLAT VA SIYOSAT

Avstriya – federal, parlamentar demokratik davlat.

**Federal:** Avstriya – 9 o‘lkadan iborat federal davlat.

**Parlamentar:** nafaqat federal masshtabda, balki o‘lkalarda ham parlamentar tizim mavjud. Hukumat parlamentning ishonchiga ega bo‘lishi lozim va bunga javobgar hamdir. Parlament a’zolari va hukumat hamjihatlikda faoliyat yuritadi.

## PARLAMENT

Parlamentning birinchi palatasi Milliy Kengashdir (Nationalrat). U 183 deputatga ega bo‘lib, ular xalq tomonidan 5 yil muddatga saylanadi. Eng ko‘p ovoz to‘plagan partiya mamlakat boshqaruvini o‘z qo‘liga oladi.

Parlamentning yana bir palatasi bo‘lib, u «Federal Kengash» deb ataladi. Uning vazifasi federal o‘lkalar manfaatlarini himoya qilish bo‘lib, federal o‘lkalarning Landtag (hokimliklar)i tomonidan saylanadi. Ochig‘ini aytganda, Federal Kengash uncha katta ahamiyatga ega emas va shu bilan bir qatorda, kuchsiz hamdir. Haqiqiy parlament Milliy Kengashdir.

## PREZIDENT

Prezident davlat rahbari hisoblanadi. U xalq tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri 6 yil muddatga saylanishi mumkin (bir marta qayta saylanish huquqiga ega). Shu kunga qadar birorta ayol prezidentlikka saylanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Prezident qo‘lida hokimiyat bo‘lmasa ham, u avtoritetga egadir. Ba’zi kishilarda u imperator taassurotini qoldiradi: Vena qirollik saroyida o‘zining shaxsiy prezidentlik idorasi bor; rasmiy marosimlar monarxiyaga xos uslubda olib boriladi. Prezidentning asosiy siyosiy vazifasi kanslerni tayinlashdir. U bunga majbur bo‘lmasa ham, aksariyat hollarda, mandati

bo‘yicha kuchli partiyalardan yakuniy nomzodlarni ko‘rsatib o‘tadi. Bu an’ana 2000-yil hukumatning tuzilishi jarayonida buzildi.

Prezident kanslerning taklifi bilan hukumatni tanlaydi, bundan tashqari, u hokimlar va sudyalarni ham lavozimlarga tayinlaydi. Prezident Qurolli Kuchlarning Bosh Qo‘mondoni mamlakatning chet eldagi vakili hisoblanadi. Shuning uchun ham u tez-tez boshqa davlatlarga tashrif buyuradi va o‘zi ham boshqa davlat vakillarini Venada qabul qiladi.

## KANSLER VA HUKUMAT

Federatsiya boshqaruvi tepasida hukumat turadi. U kansler, vitse-kansler va ministrlardan iborat. Shu kunga qadar birorta ayol kanslerlik lavozimini egallamagan. Kanslerning qo‘l ostida haqiqiy hokimiyat bor bo‘lib, o‘zi boshqaradigan boshqaruv jamoasi a’zolarini yig‘adi, davlatni boshqaradi, toki uning partiyasi a’zolari parlamentda ko‘pchilikni tashkil etar ekan, mamlakat siyosatini ham belgilab beradi. Aslini olganda, Avstriyada koalitsion boshqaruv me’yoriy holat hisoblanadi. Shu bilan birga, kanslerning hukmi o‘zining partiyasi doirasida chegaralanib qoladi.

Federal vazir federal vazirlikni boshqaradi. Xuddi boshqa mamlakatlardagi singari, turli xil sohalarda ma’lum vazifalarga mas’ul hisoblanadi. Bular, masalan, Yevropaga aloqador va xalqaro masalalar bo‘lishi mumkin. Bular tashqi ishlar, moliya, davlat himoyasi, ta’lim, ilm, madaniyat va. boshqa sohalardir.

## FEDERALIZM

9 federal o‘lka tarixan tarkib topgan majmua hisoblanadi. Ular ba’zi masalalarda mustaqil bo‘lsa-da, umuman, o‘lkalarning faoliyati tor doirada kechadi. O‘lkalarning parlamentlari Landtag deb nomlanadi. Federal o‘lka boshqaruvining tepasida o‘lka hukumati turadi, u esa o‘lka boshqaruvi raisi, uning o‘rinbosarlari va boshqa a’zolari, maslahatchilardan iborat bo‘ladi. Shtayermarkda 1996-yildan 2002-yilgacha ayol kishi boshqaruv raisligi lavozimini egallab turgan (Valtraud Klasnich), ammo u o‘ziga «Rais xonim»

deb murojaat etishlarini xohlardi. 2004–2013-yillarda Zalsburgda boshqaruv raisi ayol kishi bo'lgan (Gabi Burgstaller). O'lka hukumati Landtag tomonidan saylanadi. O'lka raislari hukumatda anchagina kuchli mavqega ega. Ba'zi o'lka raislari o'lkaning mustaqil ekanligini alohida ta'kidlab o'tib, hattoki, o'zlarini «o'lka knyazlari» deb nomlashni ham ma'qul ko'radi.

## SIYOSIY HUDUDLAR

Federal o'lkalar siyosiy hududlarga bo'lingan. Har bir hudud boshqaruv idorasiga, hudud boshqaruv apparatiga ega, uning boshlig'i hudud raisi hisoblanadi. Ular o'lka raislari tomonidan tayinlanadi. Bu hududiy bo'linishda parlament mavjud emas.

## MAHALLIY BOSHQARUV

Birlashma va o'lkalar qatorida uyushmalar federal davlatning uchinchi qatlami hisoblanadi. Ular hududiy masalalarga javobgardir. Masalan, mahalliy politsiya, chiqindini olib ketish, kanalizatsiya, ko'chalar, qor kurash, shu bilan birga, aholini ro'yxatga olish va FHDYO masalalari kabilar bilan shug'ullanadi. Uyushmalarning «parlament»i Uyushma kengashidir. Uyushma tepasida shahar hokimlari (burgomistr) turadi. Ular esa ba'zi joylarda Uyushma kengashi tomonidan, ba'zi o'lkalarda esa uyushma a'zolari tomonidan to'g'ridan to'g'ri saylanadi.

**Shunday qilib, Avstriya o'zining 95 ta tumani, 2354 ta mahalliy organi, 61 ta federal kengashi, 77 ta Landesrati, Landtagdagi 448 ta deputati bilan hududiy byurokratiyaga hissa qo'shayotgan mamlakat va shundayligicha qoladi. 2015-yildan boshlab Shtayermarkda 539 mahalliy uyushma o'rniga 288 tagina uyushma mavjud bo'lishi kutilmoqda.**

## SIYOSIY PARTIYALAR

Hozirgi vaqtda (2013) parlamentda oltita partiya mavjud.

## AVSTRIYA SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI (SPÖ)

Avstriya sotsial-demokratik partiyasi (ASP) ga 1888-yildan 1889-yilga o'tayotganda kambag'allarga qaraydigan shifokor Dr. Viktor Adler tomonidan asos solingan. Respublikaga asos solinayotgan bir paytda Dollfuss hukumati uni taqiqlab qo'ydi va faqatgina 1945-yilda sotsialistik partiya sifatida qayta tuzildi. 1991-yilda partiya «Sotsial-demokratik partiya» nomi bilan qayta nomlandi.

ASP uzoq vaqt davomida so'l dasturlarni oldinga surgan va o'zining g'oyasini sinf va imtiyozlarsiz jamiyat, deb ko'rsatadi. Bruno Krayski boshqaruvi davrida (1970–1983) so'l qanot Xalq partiyasi muvaffaqiyatli deb e'tirof etildi.

Hozirgi kun asosiy dasturida ASP ozodlik, tenglik, tenghuquqlilik va hamjihatlik kabi tamoyillarga asoslanadi. U ishchilar partiyasidan barcha mehnatkashlar partiyasini tuzish niyati borligini e'lon qildi. U o'zini ideal insonparvar, demokratik va adolatli jamiyatga mas'ul va mehnat huquqiga ega, deb hisoblaydi. Avvalgi ish va kapital orasidagi qarama-qarshilik endi mavjud emas. ASP ning fikricha, ijtimoiy davlatni zamonaviylashtirish va qayta qurish avvalgi hukumatga ishonib topshirilgan edi. Shu tariqa ular qashshoqlarni kamaytirish maqsadida «kambag'allikdan himoya» modelini ishlab chiqdi. Bunda kambag'allarning nafaqalari ham ko'tarilishi lozim edi. O'sha vaqtning o'zida ASP quyidagi iqtisodiy maqsadni qo'ydi: Avstriya dunyo sanoatida eng omadli bo'lgan beshlik ligasiga kirishi lozim edi. Bolalarga g'amxo'rlik qilish kuchaytirilishi, ayollarga ish va oilani birga olib borish imkonini berishi lozim edi.

1970-yildan 2000-yilga qadar kanslerlar ASP dan saylandi. Va nihoyat, o'rnini qarshi tomonga berishga majbur bo'ldi. Faqatgina 2003-yildan bosh-

lab yana saylovlarda omadi chopa boshladi. 2004-yil sotsial-demokratlardan bo'lgan Dr.Hayns Fisher prezidentlikka saylandi. 1945-yildan buyon Xalq partiyasi hokimlik qilib kelayotgan o'lkalar bo'lmish Shtayermark va Zalsburgda o'tkazilgan Landtag saylovlarida sotsial-demokratlar Xalq partiyasini ortda qoldirib ketdi. Lekin haqiqiy katta omad ularga 2006-yilda keldi, ya'ni ko'pchilik mutaxassislar kutmagan bo'lsa-da, Milliy Kengashga bo'lgan saylovlarda Xalq partiyasi katta yo'qotishlarga uchradi, bu paytda esa sotsial-demokratlar bir foiz ovoz bilan, ya'ni Milliy Kengashdagi ikkita mandat bilan yana eng kuchli parlament fraksiyasiga aylandi. Ammo Dr. Alfred Guzenbauyer davrida ikkala katta partiya ustunlikka erishmagani sababli koalitsion boshqaruvga birlashtirildi. Partiyaning bir qismi bunga o'z noroziligini ham bildirib o'tib, ko'pchilik amalparast ministrlar Avstriya Xalq partiyasida qoldi va muhim saylov talablari qondirilmadi.

## AVSTRIYA XALQ PARTIYASI (ÖVP)

Avstriya Xalq partiyasi xristian-demokratik partiya hisoblanadi. U 1945-yil avvalgi Xristian-sotsialistik partiya namoyandalari tomonidan tashkil etilgan bo'lsa-da, uning avvalgi avtoritar dasturidan voz kechib, parlamentar demokratiya hamda Avstriya millati ekanligini tan olgan.

AXP o'zining dasturiga binoan, markaziy konservativ-fuqarolik partiyasidir. Xristian va insoniy qadriyatlarni baholashda Yevropa an'analaridan kelib chiqadi. Katolik cherkovi bilan avvalgi aloqa endi mavjud emas. AXP hamma xristianlar uchun ochiq partiya bo'lish tarafdori, u hech qanday konfessiya yoki diniy tashkilotlar bilan aloqador emas. Yillar davomida AXP katta fuqarolik partiyasiga aylandi. U, asosan, dehqonlar partiyasi hisoblanib, chekka joylarda katta yutuqlarga erishgan. Uning asosiy saylovchilari tadbirkorlar, ishchi va rahbar xodimlardir.

Xalq partiyasi mas'uliyat va erkinlikka alohida urg'u beradi. Davlat eng muhim masalalar: qashshoqlikka qarshi kurash va ijtimoiy diskriminatsiya kabilar bilan chegaralanishi lozim deb hisoblaydi. U ijtimoiy masalalarda muhim rol o'ynasa-da, bu borada yagona emas.

Iqtisodiy model sifatida 80-yillarning oxirida «Ekoijtimoiy bozor iqtisodiyoti» modelini ilgari surdi, ijtimoiy bozor iqtisodiyoti va atrof-muhit siyosatini bir-biriga bog'lashga harakat qildi. Yana u shaxsiy mulkchilik va halol raqobatga ham urg'u berdi. Davlat islohotchi sifatida ko'rilmasdi.

Xalq partiyasi ko'p yillar mobaynida eng kuchli partiyalardan biri bo'lib kelgan.

1945–1970-yillarda u kanslerlarni yetishtirib chiqargan edi. So'ng yana ko'p yillar oppozitsiya tashkil etdi. 1986-yildan 2000-yillarning boshlarigacha ASP bilan birgalikdagi koalitsiyada kichik hamkor bo'lsa-da, shu davr mobaynida kanslerlik lavozimini egallash maqsadiga erisha olmadi. Saylovchilar AXPni ikkinchi o'ringa loyiq deb topdi. Ba'zilar uchun u juda konservativ, kam darajada shaharlashgan va yoshlar uchun zerikarli deb topildi. AXP boshqaruvchi partiya sifatida muhim loyihalarni oldinga sursa-da, saylovchilar tomonidan yetarlicha baholanmadi, balki saylovlarda ovozlar yo'qota bordi.

Bularning barchasi 2000-yilda partiya rahbari Volfgang Shyussel rahbarligida o'zgartirildi. AOP va AXP parlamentda ko'pchilik bo'lib birgalikda boshqaruvni tashkil etdi. Xalq partiyasi kichik hamkor bo'lsa-da, Shyussel kanslerlik lavozimiga tayinlandi.

U o'zini islohotchi sifatida ko'rdi, yuqori cho'qqilarni ko'zlovchi o'zgartirishlar dasturini taqdim etdi va bu ko'pchilik aholi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ammo ko'plar yangi yo'nalishdan norozi bo'lib, tanqid qila boshladi, go'yoki u oxirgi yillarda yanada konservativ bo'lib ketgan, Britaniya konservativlari va Amerika respublikachilaridan o'rnak olyapti deb tanqid qilinardi.

Xalq partiyasi federal o'lkalar orasida nisbatan kuchli mavqega ega bo'lib, ko'p hokimlarni yetishtirib chiqardi. 2013-yilda 9 federal o'lkaning 5 tasi ularga tegishli bo'lgan.

Tarixda eng yomon natija ko'rsatgan Xalq partiyasi, Milliy Kengash saylovi (2013) o'zini yangidan tiklay boshlashni istadi va uzoq muddatli istiqlollarni ko'zlay boshladi.

U bu yo'lda «tashqaridan bo'ladigan tanqidiy fikrlar»ni tinglashga ham tayyor edi. Keyingi saylovlarda yana birinchilikni egallash uchun partiya a'zosi bo'lmaganlarni ham yaxshiroq tinglash kerakligi haqida maslahatlar ham berila boshlandi.

## AVSTRIYA OZODLIK PARTIYASI (FPÖ)

Avstriya Ozodlik partiyasi doimo o'zgarib turgan. 1956-yilda antimarksistik va milliy-liberal «Mustaqillar birlashmasi» va «Ozodlik partiyasi»dan tashkil topgan. AOP ahamiyatsiz kichkina partiyadan AXPga hamkor koalitsiyaga aylandi. Buning uchun u, avvalo, xudo tomonidan berilgan, ancha yillik, kurashchan rahbar Yorg Haiderdan minnatdor. 1986-yilda u partiya tepasiga kelganida AOP saylovlarda g'alabalarga intilayotgan edi.

Ko'plar Haiderdan ancha vaqtgacha hayratlanib yurdi. U odamlarning ko'nglidagini topib gapirar edi. Haider siyosatni xuddi shoudek o'tkazishi, chiqishlarining ajoyib sahnalashtirilgani, ta'sirchan nutq egasi, mohir notiq ekanligi bilan barchaga yoqardi. U yana xuddi feodal kabi, ko'p pul tarqatishni xush ko'rardi. Onalar «bola puli», oz nafaqa oluvchilar esa nafaqalarini oshirishga qaratilgan «qo'shimcha pul» olardi. Uzoq joydan qatnab ishlovchi shaxslar uchun pul, «suyunchi puli», «maktab puli» va davlat xodimlari uchun katta miqdordagi nafaqalar ajratilgandi.

Shunga qaramay, Haider ko'pchilikda salbiy fikr uyg'ota boshladi. Go'yoki u o'ng qanot milliy siyosatdoni, chet elliklar va san'atkorlarga dushman, degan fikrlar uyg'onib, mamlakat uchun xavf sifatida ham qaray boshlandi. AOP dasturi amalda hech qanday rol o'ynamasdi. U doimo o'zgartirib turilardi.

Ko'pchilik siyosatchilar Haiderni chetga chiqarishga harakat qildi. 1999-yilda u shov-shuvga sabab bo'lgan saylovlarda g'oliblikni qo'lga kiritdi. Milliy Kengashga bo'lgan saylovlarda «Moviylar» birinchi bor AXPdan oldin birinchilikni egalladi. Shunda Haider AOPni kuch jihatdan teng bo'lgan 3 partiyadan biriga aylantirishga erishdi. AOP 13 yil ichida 27% ovozga erishdi. Haider kansler bo'la olmagan bo'lsa-da (bu masala muammoli edi), AOP va AXP birgalikda Volfgang Shyussel rahbarligida koalitsion boshqaruvni yuzaga keltirdi. Suzanne Riess-Passer AOPdan vitse-kanslerlikka tayinlandi. Shundan beri partiya inqirozga uchray boshladi. Oppozitsiyadan boshqaruvchi partiyaga aylanishda ko'p saylovchilarini yo'qotdi. Yangi saylovlarda esa 42 mandatdan 18 taga tushib qoldi.

## «YASHILLAR» PARTIYASI

Har bir Yevropa mamlakatida bo'lganidek, Avstriyada ham guruhlarning katta spektri mavjud bo'lib, turli xil siyosiy yo'nalishlardan chiqqan bo'lsa ham, o'zlarini «Yashillar» deb nomlardi. «Yashillar» partiyasi 1986-yildan beri Milliy Kengash va ko'pgina federal o'lkalarning Landtaglarida a'zolariga ega bo'lib, bugungi kunda nafaqat atrof-muhitni himoya qiluvchi partiya sifatida faol, balki mamlakat hayotining barcha jabhalarida o'zlarini ko'rsatmoqda. Uning ba'zi asosiy sifatlari: ekologiya haqida qayg'urish, birdamlik, haqiqiy demokratiya, bosimdan xolilik, ayollar huquqlarini himoya qilish.

Atrof-muhit himoyasi siyosati, tabiiyki, avvalboshdan «Yashillar»ning eng birinchi muhim vazifasi bo'lgan. Ular tabiatdan nooqilona foydalanishga ortiq yo'l qo'ymoqchi emas edi. 1978-yildayoq Avstriyada Ekologik harakat mavjud bo'lib, katta yutuqlarga erishayotgan edi. Xalq saylovi natijasida Svetendorf (Vena yaqinidagi joy) atom stansiyasi ishi to'xtatildi va shundan buyon Avstriya atom energiyasidan xoli davlat hisoblanadi. Energiya sohasida «Yashillar» avvalgidan ham ko'proq jonbozlik ko'rsatmoqda. Neftga bo'lgan talabni ular quyosh, shamol va biomassa kabi energiya manbalaridek yangi texnologiyalar bilan almashtirmoqchi va «Yashil energiya zamoni»ni yuzaga keltirmoqchi. Ularning fikricha, atrof-muhit muhofazasi, o'sish va yangi ish joylarining yaratilishini bir-biri bilan hamohang olib borish mumkin. Ular qishloq xo'jaligini gentexnikalarsiz barpo etishni va katta miqdorda hayvonlarni saqlashga qarshi ekanliklarini bildirmoqda.

Umumiy qilib aytganda, «Yashillar» partiyasi dasturi katta maqsadlarni ko'zlaydigan ideallikka asoslangan dastur bo'lib, shaharlarda, asosan, yosh ayollarga yo'naltirilgan. Ular o'zlarini «Ayollar» partiyasi deb hisoblaydi va nafaqat erkak va ayol tengligini targ'ib qiladi, balki ayollarning jamiyatda boshqaruvchilik rolini ham talab etadi. Ularga qolsa, Avstriya boshliq ayollar mamlakatiga aylanishi lozim. Ular iqtisoddagi muammolar va kapitalning behuda sarflanishiga qarshi kurashishni istaydi va chet elliklar bilan moslashib ketishni ko'zlab, davlat oilaning har bir turini

qabul qilayotganligiga qaramasdan, «Oila faqatgina erkak, ayol va bola emas» shiori ostida harakat qilishni talab etmoqda. Ular yana imkoniyati cheklangan kishilar huquqlarini himoya qilib, ijtimoiy siyosatga ham katta qiziqish bildirmoqda. «Asosiy xavfsizlik» nomli moliyaviy qashshoqliksiz hayot kechirishga bo'lgan huquqga asoslangan model «Yashillar» ijtimoiy siyosatining markaziy nuqtasidir.

## SHTRONAX JAMOASI

Shtronax jamoasi – 2012-yilning kuzida Frank Shtronax, Magna firmasi va juda mashhur bo'lgan Avstriya kelajagi birlashmasi (BZÖ) deputatlari ko'magi bilan tashkil etilgan partiya. Ularning partiya dasturi boshqaruvda inqilob yasashni talab etadi va buni Ijtimoiy sug'urta va tibbiy kassa (sug'urta) kabi ikki sohani qayta tuzish orqali amalga oshirishni ko'zlaydi. Yana harbiy xizmat shartnoma asosida bo'lishi va pul tizimida yevro erkin ayirboshlanadigan «Milliy yevro» bilan almashtirilishi lozim, deb hisoblaydi. Soliq tizimi ham «Flattax» (ulushli soliq) orqali yengillashtirilishi va ishchilar biror firmadan ulush olib turishi kerak, deb ta'kidlaydi.

Shtronax jamoasi Landtagga bo'lgan 2013-yilgi saylovlarda Kernten va Quyi Avstriyada 10% dan ko'proq ovoz, Zalsburgda esa 8,3% ovoz to'plab e'tiborga loyiq natija ko'rsatdi, Milliy Kengashga bo'lgan saylovlarda esa 5,7% ovoz to'pladi va bu Frank Shtronaxning partiyani butunlay qayta tuzishiga olib keldi.

## NEOS – YANGI AVSTRIYA

Ushbu partiya 2012-yilda Avstriyada ko'proq demokratiya o'rnatishni maqsad qilgan harakatlar uyushmasi tomonidan tashkil etildi. 2013-yilning mart oyida Liberal Forum (LIF) va Yosh Liberallar birlashdi.

neos
DAS NEUE ÖSTERREICH

Rejaning $9\,^{1}/_{2}$ bandi «Yangi Avstriya uchun rejalar» nomi bilan mashhur bo'lib, maktablar erkinligi, soliqlarni kamaytirish, nafaqalarning kafolatlanganligi, uzoq muddatli iqtisod va bolalarga g'amxo'rlik kabi masalalarni oldinga suradi. Davlat ham yanada mukammalroq bo'lishi va boshqaruv tizimida inqilob qilib, ijtimoiy sohani, «jungli o'rmonlariga yorug'lik olib kirgandek», oldingi o'rinlarga chiqarishi lozim deb hisoblaydi. Yevropa ham yangidan tuzilishi va saylovlarda partiyalar emas, insonlar diqqat markazida bo'lishi lozimligi uqtiriladi.

NEOS 2013-yilning sentyabr oyidayoq Milliy Kengashda qatnashish imkoniga ega bo'ldi.

## AVSTRIYA KELAJAGI UYUSHMASI (AKU)

BZÖ BÜNDNIS ZUKUNFT ÖSTERREICH

AKU 2013-yilga qadar parlamentdagi eng yosh va kichik siyosiy partiya hisoblanardi. Bu Avstriya Ozodlik partiyasi ichidagi o'zaro tortishuvlar va kuchlar to'qnashuvining og'ir natijasi bo'ldi. 2005-yilda AOP ichida partiyaviy bo'linish sodir bo'ldi. Bir guruh AXP bilan koalitsiyani tugatayotgan va yangi AOP tuzmoqchi bo'layotgan bir paytda, Yorg Haider tarafdorlari bo'lgan hukumatning ishonchli vakillari partiyadan chiqib «Avstriya kelajagi uyushmasi»ni tashkil etdi. Ular hukumatdagi o'rinlarini ham saqlab qoldi. «Qora-moviy» hukumat birlashmasi faqatgina nomi va rangini o'zgartirishi kerak edi, xolos. Avvalgi Avstriya Ozodlik partiyasining moviy rangi yangi partiyaning olovrang rangi bilan almashtirildi. 2013-yildagi saylovlardan so'ng AKU Milliy Kengashga kira olmadi.

## AVSTRIYALIKLAR VA SIYOSAT

So'nggi 20 yil ichida siyosiy partiyalar o'z mavqeyini yo'qotdi. O'n yillab taqsim tizimi hukmronlik qilib kelgan (qisman hozir ham mavjud). «Qizil» tashkilot yoki faoliyatga har doim «Qora» qarshi qo'yilgan. Katta partiyalar davlatdagi hokimiyatni galma-gal bo'lib olar edi.

So'nggi o'n yil ichida ushbu tizim xalqaro me'yorlar yo'nalishida yangidan tarkib toptirildi. G'oyalar haqida endi so'ralmas, «Jamoaviy (Lager) mentalitet» o'zgargandi. ASP endilikda ishchilar partiyasi bo'lmagani kabi, AXP dehqonlar va katoliklar partiyasi emas edi. Avstriyaliklar siyosiy jihatdan juda tez o'zgaruvchan bo'lib, ko'pincha, ommaviy axborot vositalariga quloq solardi. Partiyalar ham dastur jihatdan juda sayoz va bugungi kunning o'zidayoq bo'sh joy va chegaralab qo'yilgan partiyalarga aylanib qolgandi.

Ularning ko'pchiligi saylovchilarini yo'qotdi, xalq ham tobora o'zgaruvchan va moslashuvchan bo'lib bormoqda. Ayniqsa, oliy ma'lumot va yaxshi daromadga ega yoshlar biror partiyaga kirishga shoshilmayapti. Shuningdek, partiyasini almashtiruvchi va norozilik bildiruvchi saylovchilar soni ko'payib bormoqda, partiya a'zoligidan chiqish hollari kuzatilmoqda va saylovlarda ishtirok etish darajasi ham tobora pasayib bormoqda. Siyosatga bo'lgan qiziqish kamayib, «siyosatdan charchaganlik» tushunchasi kengayib bormoqda.

## AVSTRIYA – IJTIMOIY DAVLAT SIFATIDA

Avstriya Yevropaning peshqadam ijtimoiy davlatlaridan biridir. Avstriya, shuningdek, ish vaqti, dam olish, mehnat ta'tili, mehnat vazifasidan ozod qilish, nafaqa va ishsizlik nafaqasi kabi sohalarda ham Yevropada birinchi hisoblanadi. Avstriyaliklarda o'zini xavfsiz (himoyalangan) sezish tuyg'usi juda kuchli.

Ular uchun qariyalik nafaqasi masalasi juda muhim. Ko'pchilik avstriyaliklar kelajakda ham moliyaviy tomondan hozirgidek barqaror bo'lish uchun davlat tomonidan kafolatlangan nafaqaga ishonadi. Bunga sabab ishli aholi va nafaqaxo'r shaxslar o'rtasidagi munosabatning muammoli bo'lib qolganidir. Bu orada hukumat nafaqa sohasiga o'zgartirish kiritib, keyingi o'n yilliklarda ham nafaqaning to'lanishini ta'minladi.

Amalda barcha avstriyaliklar salomatlik sug'urtasiga ega. Salomatlik sug'urtasi uchun hech qanday to'lov to'lanmasligi sababli davlat tomonidan bu sohaga har yil milliardlab mablag' ajratilyapti. Ammo so'nggi paytlarda tez-tez quloqqa shunday chaqiriqlar chalinib turibdi, ularda go'yoki ba'zi

ijtimoiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, aslida, ularga hech qanday zarurat yo'qligi ta'kidlanmoqda. Albatta, so'nggi yillarda hukumat tomonidan omonat kassalarining kartalari ko'rinishida bir necha ijtimoiy ishlar qisqartirildi, bu, o'z-o'zidan ayonki, quvonarli hol emas edi. Xarajatlar ko'pligi sababli ko'pchilik avstriyaliklar o'zlariga ba'zi ijtimoiy tashkilotlar tomonidan beriladigan himoyani rad etmayapti.

## IJTIMOIY HAMKORLIK

Avstriya shunday davlatlar sirasiga kiradiki, u yerda bir necha o'n yillardan beri ijtimoiy erkinlik hukm suradi va hech qachon ish tashlashlar bo'lmagan. Avstriyaliklar o'zaro rozilik va tenglikka katta ahamiyat beradi va o'z omadlarini 1945-yildan keyin o'rnatilgan siyosiy uslubda deb biladi. Birinchi Respublika davrida sodir bo'lganidek, ayanchli iqtisodiy ahvolga tushib qolmaslik uchun ish beruvchi va ishchi xodimlar vakillari Yevropada yagona bo'lgan hamkorlikda ishlashga qaror qildi. Ko'ngilli baza sifatida «Nisbatlar komissiyasi» (ikki tomonning tengligini ta'minlovchi komissiya) tuzildi va unda «Ijtimoiy hamkorlar» (tadbirkorliklar, kasaba uyushmalari, hukumat) teng huquqli a'zolar hisoblanadi. Bu komissiya ish haqi va mukofot pullarining oshirilishi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Ijtimoiy hamkorlikda bir tomonlama qiziqishdan qochiladi. Ba'zi siyosatchilar bu narsani davrga mos emas, deb topib nodemokratik va asossiz tanqid qilsa-da, ijtimoiy hamkorlik Avstriya aholisi orasida hanuzgacha mashhur.

## RAMZLAR

«Qizil-oq-qizil» ancha davrlardan beri Avstriya bayrog'ining ranglari hisoblanadi. Ularni babenbergerlar gerbida ham ko'rish mumkin. Afsonaga ko'ra, Babenberger gersoglaridan biri bu ranglarni o'zining davlati uchun qabul qilgan. Iyerusalim qo'lga kiritilgandan so'ng 1187-yilda gersog V. Leopold Avstriya va Shtayermarkdan kelgan ritsarlari bilan xristianlik salib yurishida qatnashgan. Shu vaqtda unga angliyalik qirol, sheryurak Rixard Suriya cho'llarida kelib qo'shiladi. So'ngra salib yurishi qatnashchilari port



*Avstriya Respublikasining gerbi.*

shahar Akkonda o'rnashadi. Xristianlar shaharga kira olishi uchun ko'p kurashlar bo'lib o'tadi. Leopold katta jasorat bilan olishdi, uning oq harbiy kiyimi jangdan so'ng qonga bo'yalgan edi. Kechasi u kiyimini yechayotganida kamarida qolib ketgan oq rangga ko'zi tushdi. Yodnoma sifatida Leopold qizil maydondagi oq chiziqni o'z mamlakati gerbi sifatida e'lon qildi. Afsona shunday hikoya qiladi. Haqiqatda esa, barbenberglar qizil-oq-qizil bayroqni Quyi Avstriya shimolida halok bo'lgan oiladan meros qilib olgan bo'lishi ham mumkin.

## FEDERAL GERB

Avstriya gerbida tasvirlangan burgut mehnat, dehqonchilik va burjuaziyani bolg'a, o'roq va devortoj orqali aks ettiradi. Uzilgan temir zanjir esa 1945-yilda Avstriyaning qayta erishgan mustaqilligi va mamlakatning qayta bunyod etilishi ramzi hisoblanadi.

1992-yilda federal burgut xususida kuchli va ma'nisiz bahs yuzaga keldi. Unda bolg'a va o'roq chet elda hanuzgacha kommunistik ramzlar sifatida noto'g'ri tushunilib kelinayotgan bir paytda ulardan uzoqlashish kerakligi baralla aytilardi. Gerbni o'zgartirishga oid barcha takliflar aytildi, karikatura ustalari bor mahoratlarini ko'rsatdi. Qovurilgan tovuq, tinchlik kabutari va buqalamun gerb hayvonlari uchun jiddiy o'ylanmagan takliflar edi. O'sha paytda avstriyaliklarning fikri o'zgacha edi. Vaqt o'tib, yangi bahslar ham tinchib qoldi va eski burgutni qoldirishga qaror qilindi. Turgan gapki, ko'pchilikning unga mehri, baribir, boshqachaligi va uni qoldirishni xohlagani o'z samarasini berdi.

## TOG'LAR YURTI, DARYOLAR YURTI

Birinchi Respublika davri mamlakat siyosiy hayotiga mos «to'g'ri» madhiyani tanlash uchun kurashlardan iborat bo'ldi. Yozef Haydn tomonidan bastalangan mashhur imperatorlik madhiyasi («Xudo qo'lla, Xudo asra

imperatorimizni, davlatimizni!») ma'lum sabablarga ko'ra bekor qilindi, shunga qaramasdan, musiqasi saqlab qolindi. Yangi madhiya tanlashda siyosiy arboblar bir fikrga kela olmadi.

1945-yildan so'ng avstriyaliklar yana yangi madhiya izlay boshladi. Uchinchi imperiya davrida hali ham o'z mashhurligiga ega bo'lgan Haydn musiqasi o'zining ta'sirini yo'qota boshladi. Tanlov asosida Motsart musiqasiga yangi madhiya tanlab olinishi kerak edi.

1947-yilning fevralida shoira Paula fon Preradovich matniga to'xtalindi. «Tog'lar davlati» kutilgan darajada mashhur bo'lmadi, kam avstriyaliklar bu matnni bilardi, shunga qaramasdan, 60-yillarda federal madhiya sifatida qabul qilingandan so'ng bugungi kundagi Avstriyaning tan olingan ramzi so'nggi vaqtlarda avstriyalik sportchilarga xalqaro sport musobaqalarida, ayniqsa, olimpiada o'yinlarida va Alp jahon chang'i birinchiliklarida omad keltirolmadi.

Madhiya musiqasi, avval taxmin qilinganidek, Motsart tomonidan emas, balki uning zamondoshi Yohann Holser tomonidan yaratilgani ayon bo'lgan bo'lsa-da, bu haqiqat hech kimni o'ylantirmadi ham.

Umuman, 1970-yillardan beri doimiy ravishda turli xil o'ziga xos takliflar bo'lib turdi, albatta, bunda ayollar bilan ham hisoblashildi.

2002-yildan beri turli xil takliflar bo'ldi. Ammo faqatgina 2011-yilning iyul va noyabr oylariga kelib, ko'pchilik partiyalarni birlashtira olgan matn parlamentga taqdim etildi. 2012-yil, 1-yanvardan boshlab yangi madhiya qabul qilindi.

**Avstriya madhiyasi**

Tog'u-daryo, keng dala,
Bari senda mujassam,
Ulug'vor cherkovlaring
Husningga qo'shar hasham.
Iqboli porloq, zahmatkash makon,
Buyuk o'g'il-qizga munosib vatan.
Yaxshillikni qo'llagin, ey xalqim, mudom,

Sen faxrim, shonimsan, buyuk Avstriyam!
Og'ir o'tmish sinovlari
Bukmadi sening qadding,
Eng og'ir kunlarda ham
Sen yana sabr qilding.
Jang-jadalda kurashding,
Zamin uzra birlashding.
Dushmanlarga bo'ysunmay,
Erkingga sen erishding.
Sen buyuk sabrimsan,
Sen, sabrli Avstriyam!
Jasursan, buyuksan Ona-Vatanim,
Sen mehnatkash, vafodor xalqim,
Erkin e'tiqod-la baralla aytdim.
Yayrab-yashnab porlagin, xalqim,
Ko'zga surtay tuprog'ingni ont ichib,
Sen sevimli Avstriyam, jondan aziz Avstriyam!

***(Umida Mamatursunova tarjimasi)***

## Haqiqiy ramzlar

Siyosatshunos va ommaviy axborot vositalari tadqiqotchisi Peter Diem «Standart» gazetasida intervyu berdi. Avstriyaning ramzlari haqida suhbatlashdi. Suhbatni Hans Rausher olib bordi.

**Standart:** Yoshlar uchun biror narsani anglata oladigan ramzlar bormi? Aynan yoshlar uchun.

**Diem:** Birinchi navbatda – til. Avstriya nemis tilisi Avstriyaning ramzidir. Tilga qo'shiqlar ham kiradi, albatta. Har bir millat o'z qo'shiqlarida o'zini qayta topishi sir emas. Agar siz «In die Berg bin i gern» ni tinglasangiz, o'zligingizni anglagandek bo'lasiz. Manzara juda muhim jihatdir,

Boden ko'lidan boshlab Noyziydler ko'ligacha... Avstriyaning o'zligini belgilovchi jihatlar. Doimo go'zal manzara, arxitektura va albatta afsonalarimizga egamiz. Pummerin (Avstriyadagi eng katta qo'ng'iroq)dan boshlab Dunay valsi, Belveder (Venadagi qasr ansambli) va Uno-City (Vena xalqaro markazi) gacha... Madaniyat ham bir ramz, albatta. Musiqa, Yangi yil konserti, sport bunda juda muhim hisoblanadi.

**Standart:** Ammo manzara haqida biror narsa deyish qiyin.

**Diem:** Yo'q, biz ayta olamiz, biz unda yashaymiz. Yevropada Shtepen ko'li, Grossglokner ham bizda, Avstriya manzarasining ohanraboligi, Vaxau Lungau ham bizda. Yangi yil konsertlari, buyuk kashfiyotchilar, milliy oshxonamiz – Veltlinerdan to Shnitselgacha – pop musiqasi haqida ham unutmasligimiz kerak. Fendrix «I am from Austria» («Men Avstriyadan kelganman») qo'shig'i ijrochisini ham aytib o'tish joiz, va nihoyat, ijtimoiy xavfsizlik. Bular haqiqiy ramzlardir. Gerb, madhiya va bayroq haqiqiy davlat ramzlaridir.

## 5. «AVSTRIYALIKLAR BUNI QANDAY UDDALAYDI?»

Taxmin qilinishicha, bir necha yil muqaddam ko'pchilik avstriyaliklar «Iqtisod» mavzusida ko'p fikrga ega emasdi. Ular hamma ishlari joyidaligidan xursand edi va o'ylardiki, muqim ish joyi, iloji boricha, davlat ishi ular uchun eng yaxshisi edi. Kishilarning «Tovar aylanishi», «Soliq» yoxud «Narx ko'tarilishi» kabi tushunchalar bilan ishlari bo'lmas, birja xabarlariga ham qiziqmas edi. Ammo shunday xotirjam va tashvishsizdek ko'rinayotgan avstriyaliklarning obrazi sizni chalg'itishi mumkin. «Sevilishga loyiq, ammo ozroq qoloq xalq» («Manager» jurnali, 2005-yil, mart) bahosi haqiqatdan ancha yiroq edi. Avstriyada har qayerdan ham ko'proq va qattiqroq mehnat qilinardi. O'tgan asrning 30-yillarida ko'plab avstriyaliklar mamlakatning oyoqqa turib ketishiga ikkilanib qarar edi, ammo bugun mamlakat har tomonlama o'zini ko'rsatayotganini ko'rish mumkin.

### Avstriya: omad kaliti

Avstriyaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlardan omad tarixini boshdan kechirgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Albatta buni raqamlar ham isbotlaydi. Mamlakat jahonning eng boy mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Ishsizlik – 4,5%. Taqqoslaganda bu juda kam miqdor, butun aholi to'kin-sochinlikda umr kechirmoqda. Aholida o'zgarishlarga moyillik bor: hamma narsani sinab ko'rishga tayyorlik, yaxshisini saqlab qolish va yomonidan voz kechish Avstriyaning so'nggi yillardagi omadi asoslaridir.

***Neue Zürcher Zeitung gazetasi, 2005-yil, 29-yanvar***

## QAYTA QURISH VA O'ZGARTIRISHLAR

Avstriyaning Yevropa Ittifoqiga kirishi mamlakatga bir necha yangiliklar kiritishni talab qildi, bu katta o'zgartirishlarga sabab bo'lgan bo'lsa-da, aholi o'rtasida qo'rquv ham paydo qildi.

An'anaviy strukturalar o'zgartirildi, davlatning ta'siri kamaytirildi. Tashkilotlar tugatilib, xususiylashtirildi.

Bu nafaqat katta-katta temir konsernlari va banklarga tegishli bo'ldi, balki, turli xil korxonalar, davlat neft kompaniyalari OMF (Yoqilg'i quyish shoxobchalari birlashmasi) va pochta qoshidagi omonat kassalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Pochta uchun hali sherik qidirilar edi. Energiya sektorida ham (elektr toki va gaz) liberallashtirish amalga oshirildi va bu har bir uy xo'jaligi uchun o'zining energiya manbayini tanlash imkonini berdi. Yevropa Ittifoqining kengayishidan Yevropa mamlakatlari ichida Avstriya eng ko'p foyda ko'rdi. Alp Respublikasi bugungi kunning o'zidayoq «Globallashuv g'olibi» sifatida tan olinmoqda.

## ENG BOY BESH XALQNING BIRI SIFATIDA

Yaqin kunlargacha Avstriya iqtisodi shiddat bilan o'sayotgandi. «Avstriya yorlig'i»ga bo'lgan talab katta edi, eksport tez sur'atlarda o'sayotgan edi, ko'pgina chet el firmalari Avstriyada (ayniqsa, Venada) o'z filiallarini ochdi, boshqa tomondan esa Avstriya yangi Yevropa Ittifoqi davlatlari ichida eng katta investor edi. Ishsizlik ham nisbatan past darajada edi.

So'ngra moliyaviy va iqtisodiy inqiroz boshlandi. Butun jahon iqtisodiyoti 2008-yildan boshlab urushdan keyingi davrdagi eng og'ir iqtisodiy inqirozni boshidan kechirdi. Bu holat Avstriyani ham cheklab o'tmadi, ayniqsa, eksport bozoriga katta ta'sir qildi. Ishsizlik kvotasi rekord darajaga yetdi. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti)ning dolzarb bashorati optimallikka da'vat qilardi. Ushbu bashoratga binoan, 2014-yilning ikkinchi yarim yilligida iqtisodiy o'sish kuzatilishi kerak edi. Avstriyaning eng muhim jihatlaridan yana biri uning yuqori sifatli, unumdor ishchi kuchi va yaxshi tayyorlangan, intiluvchan tadbirkorlarining borligidir. Ular Avstriyani Yevropa Ittifoqidagi «Top 2» darajasiga olib chiqishga munosib hissa qo'shdi. Ko'p avstriyaliklarning o'z kichik mamlakatlari Yevropa Ittifoqining eng boy besh mamlakatidan biri ekanligiga ishongisi kelmasdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkilotining «Better Life Index»i bo'yicha Avstriya 110 davlatning ichida 13-o'rinni egallab turibdi. Vena shahri Yevropa Ittifoqining Gamburg va London singari eng boy hududlaridan hisoblanadi.

Boylik nimalarda namoyon bo'ladi? To'kin hayot ramzlariga televizor, DVD, muzlatkich, uyali aloqa vositalari va boshqalar kirsa, Avstriyadagi har bir xonadon amalda ular bilan to'liq jihozlangan. Avstriya aholi jon boshiga avtomashinalar soni bo'yicha ham yuqori o'rinni egallab turibdi. 1990-yilda 1000 ta kishidan 388 tasida avtomobil bo'lgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 538 tani tashkil etdi.

Bunday omadga ko'pgina sabablarni keltirish mumkin. Urushdan keyingi yillardagi «Marshal» yordam rejasi Avstriyaga, qaysidir darajada, boshlang'ich kapitalni berdi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan tamoyil, hamjihatlik siyosati, ijtimoiy hamkorlik, ajoyib holatdagi atrof-muhit va madaniyat Avstriyaning o'z salohiyati bilan xalqaro miqyosda yuqori pog'onalarda turishiga xizmat qildi.

## AVSTRIYANING QARAMA-QARSHI QIRRALARI

Avstriyadek kichik davlatning bugungi kunda jahonning eng boy mamlakatlaridan biri hisoblanishi, albatta, quvonarli hol.

U XX asrning o'rtalarida «Yevropaning kambag'al uyi» deb atalar edi. Bugungi kunda avstriyaliklarning 2/3 qismi to'kinlikda, hech qanday iqtisodiy va ijtimoiy muammolarsiz yashamoqda. Boshqa tomondan esa shahar tashqarisidagi kambag'allikdan ko'z yumib bo'lmaydi. Bir milliondan ortiq aholi kambag'al yoxud kambag'allik xavfi ostida hisoblanadi, ular oyiga 795 yevrodan kamroq pul sarflaydi va o'zlarining kam daromadlari sababli eng zarur narsalarni ham ola olmaydi.

Kiyim-kechak, yetarlicha isitish tizimi, yillik mehnat ta'tili, uyali aloqa vositasi, tibbiy xizmat yoki risoladagidek uy shular jumlasidandir. Ayniqsa, ayollar, ko'p farzandli oilalar, yolg'iz ayollar va ishsizlar tez-tez kasal bo'ladi, nam va aholisi zich uylarda istiqomat qiladi va oylik daromadiga kun kechirib bo'lmaydigan ishlarda ishlaydi.

Ta'lim imkoniyatlari ham hali-hanuz ota-onalarning mavqeyiga bog'liq. Oliy ma'lumotlilarning farzandlari oddiy ishchining farzandlaridan ko'ra vaqtliroq o'qishni tamomlaydi.

## Avstriya – 2007: ikki xil qarash

Avstriyaliklar, ishsizlik muammosini istisno qilganda, jahonda birinchi bo'lish uchun hamma sharoitga ega: ikkitadan uy, ikkitadan mashina, ikkitadan ish va foyda keltiruvchi boshqa narsalar faqat yuqori tabaqa vakillari uchun xosdir. Oddiy shaxs uchun haftasiga 40 soat ishlash bilan qo'shimcha ishlab berilgan soatlar uchun yetarli haq to'lanishi Malyorka yoki Antaliyadan afzalroq.

***Klaus Emmerix, jurnalist***

## Men, sen, u... va sen o'yindan chiqding!

Nochorlikda cheklanar inson,
Ojizalik ayollarga xos.
Nochorlik har lahza navqiron!
Nochorlik – bu azaliy meros.
Nochorlikdan bo'lasan bemor,
Turfa yuzda bo'lar u oshkor.

***(Bahodir Anorov tarjimasi)***

«Mening otam quruvchi bo'lgan, onam esa farrosh. Oziq-ovqatimiz ham, kiyim-kechagimiz va o'yinchoqlarimiz ham yetarli bo'lgan. Faqatgina chang'i kurslariga va shahar tashqarisidagi dam olishlarga birga bora olmas edim, bunga pulimiz bo'lmagan».

«Men bolaligimda kambag'allikning achchiq qismatini boshdan kechirganman: ovqat yo'q, uy sovuq, qishda kiyishga oyoq kiyimim bo'lmagan, maktab uchun ham pul ololmaganman, hammasi onamning ichkiligi uchun sarflanardi. Faqat bittagina qo'g'irchog'im bor edi».

Bu Karitas (katolik cherkovlari qoshidagi insonparvarlik tashkiloti) turarjoylaridagi ayollarning bolalik xotiralari edi. Bu ayollar bugun ona va farzandlari uchun mas'uldir.

***Www. YoungCaritas.at saytidan olingan.***

## AVSTRIYA IQTISODINING ASOSI VA STRUKTURALARI

Avstriya yuqori darajada rivojlangan sanoati va o'zining mukammal xizmat ko'rsatish sohasiga ega mamlakatdir. Bu soha yalpi ichki mahsulotning kattagina qismini, ya'ni 70% ini tashkil etsa-da, Avstriya sanoat mamlakati sanaladi. Avstriya iqtisodi kichik va o'rta biznesga asoslangan. Korxonalarning 40% i 10 tadan kam ishchiga ish beradi. 80% sanoat korxonalari esa 100 dan kam ishchiga va faqat 1,4% igina 1000 kishini ish bilan ta'minlaydi. 1/3% ga yaqin ish joylari bir kishilik yoki bir oila ishlaydigan tadbirkorliklardir.

Avstriyaning daromadi katta bo'lishiga qaramasdan, boshqa davlatlar bilan solishtirganda, bu unchalik ko'pni tashkil etmaydi. Katta daromad va kam bo'sh vaqtni muhim deb biladigan yaponlar yoki amerikaliklardan farqli o'laroq, avstriyaliklar yaxshiroq hayot darajasini, ya'ni nisbatan qisqaroq ish vaqtlari va uzunroq mehnat ta'tillarini tanladi.

## SANOAT VA TURIZM

Yevropadagi sanoatlashuv Avstriyaga nisbatan kech kirib keldi. Natsional-sotsialistlar davri davomida urushdan keyingi iqtisodiy holat sabab sanoatni qaytadan qurishga to'g'ri keldi. Shunga qaramay, bugungi kunda sanoat Avstriya iqtisodining negizi hisoblanadi. Muhim sanoat sohalariga kimyo, mashinasozlik va metallurgiya, elektronika hamda transport sohalari kiradi. Avstriya korxonalari, ayniqsa, quyidagi sohalarda o'zlarini yaxshi ko'rsatmoqda: oziq-ovqat, ichimlik, qadoqlash texnikasi, mikroelektronika va informatsion texnologiyalar, suv va atrof-muhitni asrash (qayta ishlash, ishlov berish). Yengil sanoat ham o'zining uzoq yillik an'anasiga ega, ishlab chiqargan sifatli va hamyonbop mahsulotlari bilan katta raqobatga qaramasdan rivojlanib kelayotgan mamlakatlar tomonidan tan olinishiga erishdi.

Avstriya iqtisodining tez sur'atlarda o'sib borayotgan sektori bo'lmish xizmat ko'rsatish sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining uchdan ikki qismini tashkil etmoqda. Yana iqtisodiyotning katta sohalaridan biriga turizmni ham kiritish mumkin. Yiliga o'zining 33 million sayohatchisi bilan Avstriya dunyo bo'yicha 4-o'rinda turuvchi eng sevimli sayohat markazlaridan biridir.

2011-yilga kelib turizm sohasi yalpi ichki mahsulotning 7,4% ini tashkil etib, ko'pgina bo'sh ish joylarini yaratib berdi.



***Sharbat idishi.***




***Manner shokoladi.***

Qishloq xo'jaligi hamda o'rmonchilik sohalari yalpi ichki mahsulotning 2% inigina tashkil etsa-da, atrof-muhit va landshaftning himoyasi uchun katta ahamiyatga egadir. Avstriyalik dehqonlar, ayniqsa, yangi sut, sariyog', kartoshka, yangi uzilgan mevalar hamda pishloq kabi biomahsulotlar ishlab chiqarishda peshqadamdir. Ko'pchilik «Avstriya tansiq mahsulotlari qishloq xo'jaligini inqirozga uchratadi», deb o'ylab qattiq yanglishadi. Bu gap konchilarga tegishli. Ular o'z mahsulotlarini sotish evaziga kun kechira olmaydi va davlatning qo'llab-quvvatlashiga muhtojdir. Ish sharoitlarining og'irligi yoshlarning shaharlarga ketib qolishiga sabab bo'lmoqda.

## «MADE IN AUSTRIA» – «AVSTRIYADA ISHLAB CHIQARILGAN» EKANLIGINI BILASIZMI?

«Manner-shnitt» vaflilari, «Riydl» qadahlari, «Svarovski» kristal bezak toshlari hamda «Red Bull». Bular faqatgina bir nechta Avstriya mahsulotlari, xolos. Lekin hamma ham ularning qayerda ishlab chiqarilganini biladimi? «Red Bull» quvvatbaxsh ichimligi asli shtayerlik bo'lgan Diytrix Mateshits bilan butun

dunyoni egallagan bo'lsa, «Svarovski» toshlarini AQSH yoki Osiyoga tegishli tushuncha, deb o'ylash mumkin.Umuman olganda, Avstriya mahsulotlarini Avstriya haqida tushunchalar yaratish orqali jahonga mashhur qilish mumkin. Zaxerni hamma biladi, ammo Shtayerni kamchilik.



*Motsart shokoladi.*



*Red Bull – quvvatbaxsh ichimlik.*

Ko'p avstriyalik tadbirkorlarning kichik biznesda omadlari chopgan, ammo ularni ko'pchilik tanimaydi. Ba'zan ular urf-odatlarga tashakkur aytadi, xuddi pianino ishlab chiqaruvchi Byozendorfer kabi. «Avval pianinolar, so'ngra Byozendorfer» (mashhur pianino va royal ishlab chiqaruvchi firma), degan edi avstriyalik mashhur jaz musiqachisi Joe Zavinul. Byozendorfer royallari jahonning barcha mashhur konsert zallarida chalingan musiqa asbobi hamda qimmatli ashyo sifatida qaraladi. Ammo, birinchi navbatda, ular Avstriya madaniy merosi sanaladi. Jahonda o'ziga xos mavqega ega yana bir manufaktura Augarten Vena an'anaviy chinni manufakturasidir, uning filiali, hattoki, Yaponiyada ham ochilgan.

Avstriya firmalari butun jahon bo'ylab turli xil sohalarda yetakchidirlar. Buni bir necha misollar orqali ko'rishimiz mumkin:

- Berlindagi Reyxstag binosining gumbazi Avstriya firmasi (Arbeitsgemeinschaft Waagner-Biro) tomonidan loyihalashtirilgan, amalga oshirilgan hamda montaj qilingan.
- Jahonning peshqadam operalari Avstriyaning sahna texnikasidan foydalanadi: Madriddagi Teatro Real, Barselonadagi Gran Teatro Liceo, Kopengagendagi Opera uyi, Shanxaydagi Oriental Arts Center (Waagner-Biro); Portodagi Casa da Musica opera uyi Entzfelder, BTH hamda Rollo-Teufel firmalarining hamkorlikdagi ishi natijalaridir.

• Asosiy qarorgohi Volfurtda joylashgan jahon bozorida osma kanat yo'llari qurilishi bo'yicha yetakchi «Doppelmayr» firmasi.

• Yo'l qurilishi mashinalari bo'yicha jahon bozorida yetakchi bo'lgan, asosiy zavodi Lins shahrida joylashgan «Plasser&Theurer» firmasi.

• Bangkokdagi metro vagonlari Siemens AG tomonidan qurilgan.

• Venadagi Diamond Aircraft korxonasi yiliga jahonda eng xavfsiz sanaladigan 400 ta yengil samolyot ishlab chiqaradi.

• Frequentis jahon bozorida parvozlar xavfsizligini ta'minlash uchun informatsion hamda aloqa tizimlari firmasi mahsulotlaridan nafaqat Skotland Yardda, balki Germaniya va Shvetsariya temiryo'llari hamda dunyoning barcha aeroportlarida ham foydalaniladi. 2007-yilda Vena firmasiga Amerikaning NASA kosmik kompaniyasi tomonidan katta buyurtma berildi.

Yuzlab Avstriya korxonalari butun dunyoga turli xil mahsulotlarni yetkazib beradi. Shu o'rinda ularning bir nechtasini sanab o'tish maqsadga muvofiq: mashinalar, avtomobil qismlari, ayollar ko'ylaklari, so'nggi dizayndagi mebellar, kompyuter chiplari, paypoqlar, pistoletlar, marmeladlar, muhrlar, o't o'chirish xizmati uchun maxsus mashinalar va h.k.

Chang'i fabrikalari Avstriya uchun xos bo'lsa, dunyo bo'yicha eng katta, shaxsiy, mustaqil motor va test tizimlarini rivojlantirish (AVL List) yuqori texnologiyalari markazi hamda reabilitatsiya uskunalari markazi Grats shahrida joylashgan. Bernbaxda joylashgan «HMI-Master» raqamli ulangan binolar texnikasi uchun mas'ul.

Jurnalist Klaus Emmerix Avstriyaning o'z markalarini anglashi Shvetsiya yoki Gollandiyadagi kabi yaxshi rivojlanmagan, deb ta'na qiladi. Lekin u uchun shunisi ajablanarliki, Avstriya xalqaro darajada jahon bozorining yetakchilari bilan bir qatorda harakat qilmoqda. «Kichik mamlakat o'zini sanoat tomondan ko'rsata oladi, agar gap ijodiylik, zamonaviy texnologiyalar, patentlar yoki bozordagi ulush haqida ketsa», deydi u.

## TURIZM

Avstriya dunyo bo'yicha eng sevimli dam olish maskanlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy va iqtisodiy inqirozga qaramasdan, 2012-yil Avstriyada turizm rekord darajaga yetdi. Turizm xo'jaligi mamlakat uchun katta ahamiyat kasb

etib, ko'p bo'sh ish o'rinlarini yaratib bermoqda hamda yalpi ichki mahsulotning 7% ini tashkil qilmoqda.

Mehmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i chet eldan keladi. Ularning asosiy qismi (40%) Germaniya, Gollandiya, Shvetsariya, Buyuk Britaniya hamda Italiyadan tashrif buyuradi va Tirol, Zalsburg, Kernten shaharlarida o'z ta'tillarini o'tkazadi. Mamlakat o'sish darajasi yuqori bo'lgan yangi bozorlarga ehtiyoj sezmoqda va ular sharqda joylashgandir. Rossiya, Hindiston, Xitoy, Arabiston, Polsha hamda Chexiyadan kelayotgan sayohatchilar soni oshib bormoqda.

Albatta, Vena shahri o'zining diqqatga sazovor joylari bilan sevimli dam olish maskanlaridan hisoblanadi. U 2012-yilda 12,3 million tunab qoluvchi sayohatchilari bilan rekordga erishdi. Venani tomosha qiluvchilar butun dunyodan tashrif buyuradi, ayniqsa, Germaniya, Italiya, Rossiya va AQSHdan kelgan sayyohlar ko'pchilikni tashkil etadi. Federal poytaxt – avstriyaliklarning o'zi uchun ham sevimli dam olish maskani. Avstriya asosiy kurort sifatida o'zining jozibasini yo'qotgan bo'lishi mumkin, ammo qisqa ta'tillarni o'tkazish maskani sifatida unga yetadigani yo'q. Ayniqsa, shahar turizmi (8 federal o'lka poytaxtlari hamda Vena) so'nggi 10 yil ichida ishonib bo'lmaydigan darajada yuksalishga erishdi. Bundan tashqari, Avstriyada hashamatli mehmonxonalardan tortib to barcha turdagi uychalargacha, ayniqsa, milliy taomlari hamda har bir mehmonga alohida xizmat ko'rsatish kabi jihatlari bilan mashhur oilaviy tadbirkorliklar muhim ahamiyatga ega. Ekspertlarning fikriga ko'ra, xalqaro turizmning yanada rivojlantirilishi sondan sifatga o'tishni ta'minlab beradi.

Turizmning ham o'ziga xos ba'zi salbiy tomonlari mavjud. Ayniqsa, qishki sport markazlarida ko'taruvchi qurilmalardan ko'p foydalanish orqali landshaftning kuchli zararlanishi yuzaga kelmoqda, shuning uchun ba'zi joylar aholisi xalqaro turizmning keng rivojlantirilishiga qarshi.

# 6. AVSTRIYALIKLAR KIMLAR O'ZI?

## MILLIY XARAKTER

Ko'p so'rovlar natijalari shuni ko'rsatadiki, avstriyaliklar doimo xursand va quvnoq, shu bilan birga, e'tiborli, iltifotli hamda mehmondo'stdir. (Albatta, bu xislatlar Avstriya xonimlariga ham tegishli). Ular kunlarini qahvaxonalarda o'tkazishni yoqtiradi, kechalari esa yangi vinoni tatib ko'rish uchun maxsus restoranlarga boradi. (Hoyriger – vino tortiladigan maxsus restoran, vino ishlab chiqariladigan hududlarda vino ishlab chiqaruvchi tub aholi o'zining bu yilgi uzum hosilidan tayyorlangan vinolarini taqdim etadi). Agar ular qishloq aholisi bo'lsa, albatta, biror-bir yodler (Alp tog'larida ijro etiluvchi milliy qo'shiq yoki salomlashish, signal vazifasini o'tovchi maxsus qo'shiq; o'ziga xos qo'shiq kuylash uslubiga ega bo'lgan qo'shiqchilar) guruhiga yohud shuplatler (bavariyacha xalq raqsi; Alp hududlarida ijro etiladigan xalq raqsi. Bu raqs sovchilikka borilganda yigit tomonidan qiz atrofida aylanib ijro etiladi. Bu raqsning o'ziga xos tomoni raqs tushayotganda etiklarning bir-biriga urilib ovoz chiqarishidir) guruhlariga a'zo bo'ladi. Ishlash ular uchun muhim ahamiyat kasb etmaydi. Ular uchun yaxshi taom va yaxshi vino ahamiyatliroq.

Avstriyaliklar haqida nimalarni ayta olamiz? Ularning barchasiga xos jihatlar bormi? Barcha avstriyaliklarni bir xil deyish juda qiyin. Temperament hamda hayot tarzlarida katta farqlar mavjud. Forarlbergliklar o'zlarini burgenlandliklarga qaraganda, allemann shvetsariyaliklarga qarindosh deb bilsa, yuqori shtayermarklik konchilarning qo'polroq so'zlashuvchi venaliklar bilan, balki, juda kam umumiy tomonlari bordir. Shunday qilib, Avstriyaning landshaftiga qarab uning odamlari ham turlichadir. Ularning ko'pchiligi haqiqatning faqatgina yarmini ko'rsatadi, xolos. Shunisi aniqki, avstriyaliklar hayotdan zavq olishni xohlaydi. Ammo, shu bilan birga, Avstriyada qattiq mehnat ham qilinadi. Axir bu elektrostansiyalar, fabrikalar hamda binolarning barchasi qayerdan keldi?

Avstriyaliklarning doimo quvnoq xalq ekanliklari (bir shoirning so'zlariga ko'ra: «raqqos va skripkachi xalq») hamisha ham to'g'ri emas. Ularning ichida sentimentallik, melanxoliya va depressiyadan ozroq yashiringan.

Avstriyaliklar, asosan, optimistlardir. Ular osonlikcha yiqilmaydi, yengilmaydi. Tinchlikni xush ko'ruvchi, ammo o'z ustlaridan hukmronlik yoki nazorat qilinishini yoqtirmaydigan xalq. Agar biror narsa noto'g'ri bo'lsa, xotirjam holatda: «Ha, bundan ham yomonroq bo'lishi mumkin edi» yoki «Baribir hech nima qilib bo'lmasdi», deyishadi.

Qolaversa, avstriyaliklar improvizatsiya ishlarida yuksak obro'ga erisha oladi. Pirovardida ular faoliyatida hammasi yaxshi ketayotgani bunga dalil.

Avstriyaliklarning mentaliteti shunday o'ziga xos qarama-qarshiliklarga to'la va tushunish qiyin bo'lgan mentalitetdir. Bir vaqtning o'zida yaxshi va yomon sifatlarning bari ularda mujassam, lekin, har bir xalqda bo'lganidek, avstriyaliklar ham har narsaning me'yorini biladi.

## ASLIYAT. AVSTRIYANI ANGLASH. MILLIY G'URUR

O'z tarixi davomida avstriyaliklar «Biz aslida kimmiz?» degan savolni o'zlariga qayta-qayta berardi. Bu savolga javob berish unchalik oson emas edi, chunki «Avstriya» tushunchasi nafaqat hududlararo, balki mazmun jihatdan ham o'zgarib turardi.

XIX asrga kelib Avstriya turli xil tarixiy qismlardan tarkib topgan imperiya (1804-yildan buyon), keyinroq esa Avstriya-Vengriya qo'shma monarxiyasi (1867-yildan buyon) sifatida tushunila boshlandi.

Shuningdek, Avstriya gabsburgerlar sulolasi tomonidan tashkil etilgan etnik va til jihatdan juda farqlanuvchi davlatlar uyushmasi ham edi. 1867-yilda Vengriya bilan yarashuvdan keyin Vengriyaga tegishli bo'lmagan monarxiyaning hududi Avstriya sifatida ko'rsatildi. Shunga qaramay, bir vaqtning o'zida xalqaro Avstriya tushunchasi ham mavjud edi. Nemis avstriyaliklari butun monarxiya bo'yicha eng yuqori mavqega ega edi. Nemis bo'lmagan xalqlar o'zlarining kim ekanliklarini qanchalik anglaganlari sari, nemis millati ham shuncha kuchayib borardi. Dunay monarxiyasi qulagandan so'ng nemis avstriyaliklarining aslida nemis bo'lgani ma'lum bo'ldi.

1918-yilda yangi nemis respublikasiga qo'shilishga bo'lgan talab bu qarashning mantiqiy yakuni bo'ldi. Bunga qarshi a'zo davlatlar rasman norozilik bildirdi. Avstriya Avstriyaligicha, nemis bo'lmoqchi bo'lgan avstriyaliklar esa avstriyaliklaricha qolishi kerak edi.

XX asrning 30-yillariga kelib, Avstriya o'zini ikkinchi hamda yuksalayotgan nemis davlati sifatida ko'rsatdi. Birinchi respublika davrida siyosiy spektrda o'zini oqlolmagan Germaniya-Avstriya milliy tuyg'usi shuni ko'rsatdiki, 1938-yilda ko'pchilik avstriyaliklar birlashuvga rozi ekan.

Faqat urush davriga kelibgina Avstriya milliy tuyg'usi kurtak yoza boshladi va 1945-yildan boshlab avstriyaliklar ko'pchilik bo'lib o'zlarini bir millat deb his qila boshladi. Bugun hech qaysi avstriyalik o'zini nemis deb bilmaydi. Davlat shartnomasi, betaraflik va BMT ga a'zolik yangi Avstriya uchun milliy o'zlikni anglashda muhim asliyatni bildiruvchi ramzlar bo'ldi. Davlat shartnomasi suverenitetni olib keldi, betaraflik esa sharq-g'arb kelishmovchiliklarida betaraflik saqladi va Avstriya o'zini BMT da Kurt Valdhaymni bosh kotib rolida jahon sahnasida yangidan kashf etdi. Iqtisodiy o'sish, ijtimoiy xavfsizlik va mamlakatning madaniy ahamiyati o'zlikni anglashga katta hissa qo'shdi.

Avstriyaliklarning juda katta qismi millatlari haqidagi savolga bajonidil javob beradi. Oxirgi 10 yillikda o'tkazilgan so'rovlar natijalari ham shuni ko'rsatdi. Masalan, 1964-yilda 47% aholi o'zini avstriyalikman, deb hisoblagan bo'lsa, 2006-yilga kelib bu ko'rsatkich 75% ga yetdi. Hans Rausherning fikricha, avstriyaliklar «qat'iyan» nemis bo'lmagan milliy o'zliklariga ega. Bunda na umumiy til haqida va na qaysi xalqqa tegishlilik haqida gap ketyapti. Eng asosiysi, xalqning yagona o'z davlati – Avstriyani qo'llashlaridir. Avstriya AQSH yoki Shvetsariya kabi o'ziga o'xshagan yosh davlatlar bilan solishtirilganda ancha irodali davlatdir.

Avstriyaliklar o'zlari va o'zlarining davlati bilan faxrlanadi, boshqa hech qayerda yashashni istamaydi. Ammo ular, aslida, nimadan g'ururlanadi? Davlat shartnomasi va betaraflik ancha oldin afsonaga aylangan bo'lsa ham, bugungi kungacha Avstriya asliyatining ustunlari hisoblanadi. Ular yangi Avstriya davlati uchun g'ururlansa arziydigan ramzga aylandi. Shu bilan birga, Avstriya xalqi tog' va daryolarga boy go'zal landshaftlari bilan, milliy oshxonalari va yuqori sifatli hayot darajasi bilan, tibbiyotdagi yuksalishlar, sportdagi natijalar, musiqa, san'at va ilm sohalaridagi yutuqlari bilan ham g'ururlanadi. Vatan, milliy til, yaxshi taom, barchaga ma'lum ochiq ko'ngillilik xislati va jahonda ko'pchilik eng yaxshi deb hisoblaydigan ijtimoiy tizim ushbu asliyatning belgilaridir.

O'z-o'zidan tushunarliki, birinchi raqamli sport turi bo'lmish chang'i uchish avstriyacha asliyatning muhim omilidir. Va nihoyat, qanday xislatlarni ular o'z milliy birliklari sifatida ko'rsatishi haqidagi savolga ular tezda «yoqimli»,

«samimiy», «tirishqoq», «ziyoli», «aqlli», «omadli», «ishonchli», «bag'rikeng», «uzoqni ko'ra biladigan» va «jozibali» deb javob beradi. Yuqorida zikr etilgan (va yana boshqa) xislatlar Avstriya umumiy qiyofasi qirralariga aylanib ulgurgan, so'nggi o'n yilliklarda yuzaga kelib shu kungacha saqlanib qolgan elementlardir.

**Men o'zi kimman? Qayerdanman?**
**Barbara Koudenhove-Kalergining «asliyat» tushunchasi haqidagi o'ylari**

**Bolalik kezlarimda uch xildagi milliy madhiya sadolari ostida katta bo'ldim. Shunga qaramay, bugun o'z asliyatimni topish oson bo'lmadi. Oxiri biz nasl-nasabsiz odamlarga aylandikmi?**

«Uyim qayda? Vatanim qayda?». Chexiyaning madhiyasi ushbu so'zlar bilan boshlanadi. Men Praga nemis va slovak o'rta maktabida birinchi sinfda o'qiyotganimda nemischaga buzib qilingan tarjima variantini kuylab yurardim. «Chaqmoq chaqar, ko'k gumburlar Tatrada». Ikkinchi sinfga borganimda biz «Chexiya va Moraviya protektorati» mening vatanimdan bo'lganligi va men nemis fuqarolaridan biri, nemis imperiyasining fuqarosi bo'lganim sababli «Germaniya, Germaniya»ni kuylardik. 1945-yilda bizning oilamiz Chexiyadan ko'chirib yuborildi, endilikda men avstriyalik bo'lib, Avstriya gimnaziyasida «Tog'lar yurti, daryolar yurti»ni o'rganardim. Birgina bolalik chog'imda uch turli madhiya, uch turli fuqarolik va uch turli asliyatni boshdan kechirdim. Ammo men, aslida, kim edim?

«O, sen sudetlik nemissan», deyishardi mening yangi avstriyalik tanishlarim. «Yo'q, yo'q, – deya qarshilik ko'rsatishga urinardim – unday emas. Men Sudetdan emasman, men Pragadan kelganman». Tushunarsiz qarashlar. Buning farqi nima? Mening otam millatimizni ma'rifatchi faylasuf Bernhard Bolzanoning ta'rifi bilan tasvirlardi.

Men nemiszabon chexman. Albatta, bunday nozik jihatlarni unga alohida qiziqish ko'rsatmayotgan so'rovchiga tushuntirish qiyin. Lekin shu bilan tushunmovchiliklar tugasa edi.

Inqilobdan so'ng men Avstriya radiosi muxbiri sifatida Ona Vatanim Pragaga bordim va qayta o'zimning milliy asliyatim haqida ma'lumot

berishimga to‘g‘ri keldi. «O, siz Venada istiqomat qilasizmi? Siz imigrantmisiz?». Va hokazo...

Avstriyaliklarning qanday ko‘rinishini bilishni biz juda ham xohlagan bo‘lardik. Korporativ davlatdan tortib natsist davri-yu bugungacha bo‘lgan davrda ijtimoiy haqiqatga unchalik ham, to‘g‘ri kelmayotgan bo‘lsa ham, Avstriya tushunchasi ko‘klarga ko‘tarildi.

...Mamlakat o‘zgardi, u bilan birga uning xalqi ham. Ammo bu endi yangilik emas.

XX asrning boshlarida Avstriya, ayniqsa, Vena jamiyati qattiq o‘zgardi, bunga sabab Chexiyadan va Galitsiyadan o‘n minglab chex va yahudiy muhojirlarining mamlakat poytaxtiga oqib kelishi bo‘ldi. Shunda ham begonalashuv va madaniyatning yo‘qolib ketishidan xavfsirar edilar. Kuchli antichex va antisemit tashviqotlari ham bo‘lib turdi. 1900-yillar atrofida Venaning ko‘p madh etilgan madaniyati, adabiyot, san’at, musiqa, ilmdagi katta hissasi bu yangilanishning mahsuli bo‘ldi.

Bugun xuddi tarix takrorlanayotgandek. 1989-yilda chegaralarning ochilishi tufayli Avstriyaga, xuddi Yevropaga bo‘lgani kabi, ko‘chib kirishlar soni tez sur’atlarda o‘sdi. Bu tezlik ko‘pchilik avstriyaliklarni esankiratib qo‘ydi...

Biz jadal o‘zgarib borayotgan olamda yashayapmiz. Bu esa talablar immigrantga emas, xuddi tub aholiga qo‘yilayotgandek qo‘yilishini bildirardi. Qayerga yo‘nalish lozim? Qaysi nisbatlar axmoqona emas? Qaysilari rivojlanishni to‘sib qo‘yayapti? Bunday holatlarda o‘zini qanday tuta bilish lozim? Begona madaniyatdan nimalarni olish mumkin? Bir davlatda yagona, barchani birlashtiruvchi «yetakchi madaniyat» bo‘lishi mumkinmi? Yoki bir necha turli xil madaniyatlar yonma-yon mavjud bo‘la oladimi?

Bugungi kun sharoitida o‘z asliyatini topish oldingidek odatiy hol bo‘lmay, unga erishish lozim. Endilikda ota-onalardan hech narsa meros qilib olinmaydi. Millat, din, unvon, mavqe, siyosiy yo‘nalish, jamiyatdagi o‘rin – barchasini har kim o‘zi uchun yaxshiroq ko‘rinishda yaratadi. Sharoit qanchalik og‘ir bo‘lsa, vazifa ham shunga yarasha qiyin bo‘ladi. Nasl-nasabsiz odamlar, qani, balandroq! Tarixsiz, adashgan jamiyat yuzaga kelsa-yu, rivojlanib kelayotgan madaniyatlar uni siqib chiqarsa va hech kim o‘zini uyidagidek his qila olmasa. Mening fikrimcha, bunday bo‘lishi noto‘g‘ri.

Menga kelsak, har qanday sharoitda ham xohlasam-xohlamasam, o‘zimga o‘z asliyatimni bera olishimdan xursandman.

*«Die Presse/Spectrum» gazetasi, 05.09.2009.*

## AVSTRIYALIKLAR VA NEMISLAR

Avstriya va Germaniya munosabatlari Avstriya asliyati haqidagi bahs-munozaralarining markazida turibdi. Avstriya sharqqa yoki g‘arbga nazar tashlayotganining ahamiyati yo‘q, akasining soyasida ko‘rinmay qoladi. Bu ikki davlat o‘zaro ko‘p umumiy jihatlarga ega bo‘lsa-da, ularning bir-biridan farq qiladigan tomonlari ham serob.

Qiyoslash uchun:

- Germaniya Federativ Respublikasining alohisi soni 80 million bo‘lsa, Avstriyada 8 million aholi istiqomat qiladi. Bu 10:1 nisbatdir.
- Germaniya Avstriyadan to‘rt marotaba kattaroq.
- Qo‘shni davlat hamda Yevropa Ittifoqi a’zolari sifatida ikkala mamlakat ko‘pgina umumiyliklarga ega. Germaniya bilan Avstriya birgalikda eng uzun chegara sohiblaridir (816 km).
- Taxminan 158 000 Germaniya fuqarolari hozirda Avstriyada yashaydi, ulardan 80 000 nafari bu yerni ikkinchi turarjoyi sifatida biladi. Vena shahrida esa 36 000 nemis yashaydi. Bu Venadagi 2 ta tuman aholisi soniga to‘g‘ri keladi. Yiliga roppa-rosa 10 000 kishi bu yerga keladi.
- Taxminan 83 000 germaniyalik Avstriyada mehnat qiladi. Bu ko‘rsatkich, turk fuqaroligiga qaraganda balandroq. 11 000 nemis xalqi esa mehmonxona va gastronomiya sohasida ish yuritadi.
- 60 000 avstriyalik Germaniyada pul topadi.
- Germaniya va Avstriya yaqin iqtisodiy aloqalar o‘rnatgan, buning natijasida Avstriya so‘nggi yillarda Germaniyani ba’zi iqtisodiy masalalarda ortda qoldirdi.
- Avstriya va Germaniya dunyoning eng boy mamlakatlaridandir.

• Avstriya va Germaniyaning uzoq umumiy tarixi mavjud bo‘lib, u juda ko‘p kelishmovchiliklar va dahshatli urushlardan iborat edi. Qo‘shnichilik ham og‘ir kechgan.

• Tarix davomida bu ikki davlat o‘zini xuddi mashhur, bir-birini takrorlamaydigan aka-ukalardek tutdi.

• Umumiy til yaqin madaniy birlashuvlarga boshladi, bu adabiyotda, teatr, kino va avvalo ommaviy axborot vositalarida namoyon bo‘ldi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak: Germaniya va Avstriya barcha turfa xillikda o‘zining umumiy «til madaniyati»ni yaratdi (Garald Stourzh). Shunga asosan, madaniyat va ilm sohasidagi nemis-avstriya almashinuvlari o‘ziga xosdir.

• Avstriya universitetlaridagi har o‘ninchi talaba Germaniyadan kelgan bo‘lib, ular, ayniqsa, Vena, Zalsburg va Innsbrukda ko‘pchilikni tashkil etadi. Hozirda 30 000 nemis talabasi Avstriyada ta’lim olmoqda.

Nemislarning katta qismi uchun Avstriya «ajoyib xalqiga ega, go‘zal Alp mamlakati» (Bretshnayder). Asl avstriyalik federal fuqarolari ko‘z o‘ngida «kirishimli, chiroyli, tinchliksevar, aqlli, o‘zining hayotini quvnoq, optimistik va saxiy o‘tkazadigan odam»dir. Ammo avstriyaliklar o‘zlarini uncha ham chiroyli deb hisoblamaydi. Avstriyaliklar ham, o‘z navbatida, nemislar haqida ijobiy fikrda. Ular «maqsadga intiluvchan, kirishimli, omadli, zamonaviy va baland ovozli» deb ham ta’riflanadi. Germaniya uchun Shvetsariya bilan birgalikda Avstriya xalqi va davlati sevimlidir.

Avstriyaning Germaniyaga munosabati rasman eng yaxshi tartibda olib borilayotgan, ikkala mamlakat ham intensiv aloqalarni yo‘lga qo‘ygan bo‘lsa ham, ba’zi qarama-qarshiliklar mavjud. Avstriyaliklarning «nemis layoqatsizligi»dan, avstriyaliklarning «nemis bo‘lmagan» xalq deb tushunilishi va nemislar tomonidan o‘zining xalqi sifatida qabul qilishlari doimiy jahllarini chiqaradi. (Gabriele Holser). Ba’zilar qo‘shnilarining Avstriya haqidagi bilimlarining yetarli emasligidan shikoyat qilsa, ba’zilar Avstriyaning madaniy boyliklarini o‘zlashtirishlaridan g‘azablanadi. Avstriyaning yozuvchi va san’atkorlarini Germaniya qo‘shib olishi odat tusiga kirib qolishi avstriyaliklarning qadr-qimmatlari uchun yaxshi baho emas edi. Shunday bo‘lsa ham, ko‘p avstriyalik mualliflar Germaniyada o‘z asarlarini nashr qilayotgan va nemis kitobxonlarisiz hech kim bo‘lmay qolsa-da, ularning ko‘pchiligi o‘zlarining avstriyalik ekanliklarini qadrlaydi. «Madaniy koloniyalashish» haqida ham turli xil qarashlar bor. «Til imperializmi» haqida ham ba’zan

munozaralar bo'lib turadi, bu Avstriya gastronomiyalarigacha yetib bordi. Avstriya sayyohlik markazlarining ko'pgina taomnomalarida taomlarning nemischa nomlarini ko'rish mumkin. Bu ba'zi avstriyaliklarga yoqmaydi. Boshqa tomondan bu Avstriyaning qaramligiga ishora emasmikan, degan savol paydo bo'ladi.

Ba'zan nemis nashriyotlari avstriyalik mualliflarning Avstriya tilining o'ziga xosliklaridan foydalanganliklarini qabul qilolmaydi. Nemis lug'atlarida Avstriya nemis tilisi hali-hanuz eskirgan holda, nohaq cheklanmoqda. Avstriyada chet el kinolari har doim federal nemis tilida sinxronlashtiriladi.

Shularga qaramay, avstriyaliklar shuni tan olishlari kerakki, ular ilm, san'at va madaniyat kabi sohalarda Germaniyadan anchagina narsalarni o'rgangan. Avtokonstruktor Ferdinand Porshe, «Lufthansa» xo'jayini Volfgang Mayrhuber, aktyor Klaus Maria Brandauer va opera direktori Elizabet Sobotka omadli insonlarga misollar edi.

# 7. AVSTRIYALIKLAR BUGUNGI KUNDA

## OILA: AN'ANA VA HAQIQATLAR

Hattoki, Avstriyada ham oilaning inqirozi haqida gapirish mumkin. Sotsiologlar buni oilaning «ma'naviy holdan toyishi» bilan izohlaydi va bu bilan oilaviy hayotning an'anaviy mezonlar va haqiqat orasidagi qarama-qarshilik markazida deb hisoblaydi. Shunday qilib, hali juda kam ayollar kasb-korli bo'lgan bir paytda uy bekasi va onalikning mukammal obrazi u yerda paydo bo'ldi.

Shunga qaramay, Avstriyada oila institutining mavqeyi juda baland. Ko'pchilik yoshlar mustahkam aloqa va farzandlar xohlaydi. An'anaviy turmushga ham, o'z navbatida, hayratlanarli darajada yuqori baho berilmoqda. Birga yashashning turfa xil turlari ichida bu shakl birinchi o'rinda turibdi. Nikohsiz turmushlar ham, asosan, rasmiy nikoh bilan tugamoqda, bu hol anchadan beri ko'pchilikka to'g'ri keladigan alternativga aylanib ulgirdi.

Avstriyagadi eng keng tarqalgan aholi guruhi singl(bo'ydoq)lardir. Yolg'iz yashash, birinchi navbatda, yoshi katta odamlarning yashash tarzidir, ayniqsa, turmush o'rtog'i vafot etgan qariya ayollar («majburiy» yolg'iz yashovchilar) ning. 2012-yilda 80 yosh va undan yuqori bo'lgan 57% ayollar yolg'iz hayot kechirardi.

Ikkinchi o'rinni yolg'iz hayot kechiradigan yoshlar egallaydi, ayniqsa, erkaklar ko'pchilikni tashkil etadi. So'qqaboshlar omadli hisoblanib, o'rtacha ish haqidan ham ko'proq pul topadi. Sir emaski, yolg'iz yashovchilar ko'proq mashhurlikka erishadi. So'qqabosh yashash asosiy maqsad emas. Ko'pchilik uchun bu muammolarni yechish uchun chora, xolos, ular bir umr yolg'iz qolib, mushuklari bilan ovunishni istamaydi. (Har uchinchi so'qqabosh mushuk boqadi va sevimli jonivorlariga kuniga bir soatdan vaqt ajratadi). Oila haqiqati har doim ham ko'pchilik avstriyaliklarning xohish-istaklariga mos kelavermaydi. Buni ajrashishlar sonidan ham ko'rish mumkin. 2012-yilda 42,5% er-xotin ajrashib ketgan va har beshinchi oila an'anaviy nuqtayi nazardan «to'liqsiz» oila hisoblanadi. Ota-ona va farzandlardan iborat risoladagidek oila anchadan beri Avstriyada ham raqobatga uchradi hamda ko'pchilik uchun odat bo'lib qoldi. Ikki ajrashgan juftlikdan iborat oila, ya'ni ajrashishdan keyin yangi oila qurgan

er-xotinlar bugun noyob hodisa emas. Shu o'rinda tarixchi-sotsiolog Mixail Mitterauerning quyidagi fikrini keltirish mumkin: «Zamonaviy bola ikkita bolalar xonasi va sakkiz bobo-buviga ega», ya'ni har bir ajrashgan tomondan bittadan xona va qo'shimcha bobo-buvilar.

Ro'zg'orda ham mukammallik va haqiqat bir-biridan yiroqlashib ketdi. Tenghuquqlilik va hamkorlik, nazariy jihatdan, turmushda mavjud bo'lsa ham, juda kam erkaklar uy va oila ishlarida yordam bermoqda. 70% ro'zg'or ishlarini ayollar bajarayotgan bo'lsa, bu ko'rsatkich erkaklarda 30% ni tashkil etmoqda. Ayollar uy ishlarining 63% ini, ya'ni tozalash ishlarini bajaradi. 17% oilalarda uy ishlarini bo'lib olib bajarish yo'lga qo'yilgan. Uy tozalash va dazmol qilish kabi ishlar uy bekalari tomonidan sevib bajarilmaydigan ishlar sirasiga kiradi. Ayollar yuvinish xonasini tozalaydi, erkaklar esa bajonidil xarid qiladi. Avvalambor, bunday holat hamkorlik asosida yashashni istaydigan erkak va ayol uchun oson kechmaydi. Ish vaqtlari qat'iy bo'lib, yarim ish kunida ishlaydiganlar juda kam, bundan tashqari, bolalarga qaraydigan muassasalar yetarli emas. Bolalar bog'chasi yetishmaydi, buning ustiga, ular orasida tush vaqtida ochiladiganlari ham yo'q emas.

«Klassik» oila, ya'ni erkak kishi asosiy pul topuvchi, ayol esa faqatgina uy bekasi bo'lgan oilalar 1992-yildagi qaraganda sezilarli darajada kamayib ketgan bo'lsa ham, bu ulush o'sishda davom etmoqda. Shunga qaramay, sevgi, nikoh, oila va sadoqat, xuddi avvalgidek, juda qadrlanadi.

## AVSTRIYADAGI AYOLLAR

«Avstriya macholar (erkaklar soni ko'p) mamlakatimi?». Shunday savol bilan «Profil» xabarlar jurnali o'zining o'quvchilariga murojaat qilmoqda. Javoblar turli xil bo'ldi. Bir tomondan 95% erkaklar iqtisodda yetakchi boshqaruv lavozimlarida faoliyat yuritib, ayollarga nisbatan ko'proq pul topadi. Maosh borasidagi farqlar ham 25%ni tashkil etadi. Yevropa Ittifoqidagi boshqa davlatlar, Italiya (5%) va Ispaniya (17%) kabi «macho-davlatlar (erkaklar soni ko'p)» ham yaxshi ko'rsatkichlarga ega. Bugungacha faqat 5 ayolgina universitetda yuqori o'rinda turibdi. 70-yillardan beri oliy o'quv yurtlaridagi ayollar ulushi ikki barobar oshgan va 2009-yilga kelib 55% ga yetgan bo'lishiga qaramasdan, faqatgina 6% yuqori malakaga ega ayollarga universitet professori yoki rektor

bo'lish nasib qilgan. Oynayijahonda olib boriladigan bahslarda erkaklar ustun chiqadi, ayollar boshlovchilik vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, ayollar uchun ko'p narsa o'zgargani yo'q. Eski mezonlardan hech qanaqasiga ko'z yumib bo'lmaydi. O'g'il bolalar mashina bilan o'ynashni xush ko'rsa, qiz bolalar model bo'lishni xohlaydi, «Life-style» jurnali esa buni qanday qilishni o'rgatadi.

Ammo, baribir, ba'zi narsalar o'zgarganini tan olishga to'g'ri keladi. Avvallari erkaklar qo'l ostida bo'lgan siyosiy sohadagi yuqori o'rinlarni bugungi kunda ayollar egallagan. Shunday qilib, Avstriyada milliy bank prezidenti va vitse-kansler ayol kishidir. 2006-yildan buyon ayol kishi davlat maslahatchisi lavozimida bo'lib, bayonnomaga binoan, respublikadagi ikkinchi yuqori o'rinni egallab turibdi. Federal boshqaruvda ministr ayollarning borligi bunda tushunarli holdir. Shtayermark ayol kishi boshqaruvidagi birinchi federal o'lka hisoblanadi. (Bu orada 2004–2013-yillar davomida Zalsburgda ham ayol kishi hokim bo'lgan). Innsbrukda 2002–2010-yillar ichida ayol kishi shahar hokimi lavozimini egallab turgan.

Bular rivojlanishdagi quvonarli hodisalar bo'lsa hamki, umumiy vaziyatni o'zgartira olmadi. Ayollar biror lavozimni egallashi uchun erkaklardan ustun bo'lishi kerak. Ular oila haqida qayg'urishi sababli kechroq yutuqlarga erishishi mumkin. Hattoki, amaldor ayollar ham ishlari yengil va o'zlariga moslay oladigan bo'lishini xohlaydi, chunki ular ham oilada, farzandlari yonida bo'lishni istaydi. Ayol va erkakning teng huquqli bo'lishi – istisnoli holat. Shuni ta'kidlash kerakki, xarid masalasida ayollarning qarori hal qiluvchi rol o'ynaydi. («Profil» jurnali) Ular mashina, ta'lim va moliyaviy masalalar kabi uy-ro'zg'or xarajatlarining katta qismini o'zlari hal qiladi.

Hattoki, ko'pchilik avstriyalik ayollar butun oilaning poyabzallarini tozalaydi. Ular telereklamalarda doimo ko'rsatiladigandek baxtli uy bekalarimi? 2011-yilda 66,5% ayol ish faoliyatida ishga layoqatli deb topildi. Bu ayollar erkaklarga qaraganda 4 soatdan 6 soatgacha ko'proq ishlaydi.

Ko'pchilik ayollarning, hatto, ishli ayollarning ham har kuni oila talablaridan (turmush o'rtog'ining ish vaqti, bolalarning maktab vaqti, bo'g'chalarning, bozorlarning va ishxonalarning ochilish vaqti) bilan belgilanadi. Ammo bu bilan bir faktni o'zgartirib bo'lmaydi, yosh erkaklar uy ishlari va farzand tarbiyasi bilan o'zlarining otalariga nisbatan ko'proq shug'ullanmoqda va ular

farzand tug'ilganda ish vaqtlarini qisqartirishga ham tayyor, lekin bu bilan ish faoliyatlaridan butunlay chekinishni nazarda tutmaydi.

2003-yildagi so'rovnomaga binoan, 49% avstriyalik erkaklar ayol kishi ishlashi kerak, degan fikrda ekan. Ko'pchilik erkaklar uchun esa orzularidagi ayollarning xushqomat va jozibali bo'lishi muhimroq. Har qanday holatda ham, ayol kishi yaxshi pazanda bo'lishi kerak, deb hisoblaydilar.

## YOSHLAR

«Bugungi kun yoshlari guruh va kichik guruhlardan iborat, avvalo, hayot tarzi, qadriyatlar haqidagi tushunchalari va kiyinishlari bilan boshqalardan ajralib turadigan boshqotirmaning g'irt o'zidir», deb yozgan edi bir necha yil avval yoshlar muammolari tadqiqotchisi Bernhard Haynslmayer. O'shandan beri ko'p narsa o'zgarmadi. Avstriyada anchadan beri hamjihat yoshlar yo'q. Ular hech qachon bunchalik tarqoq bo'lmagan. 14 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan 1,8 million atrofidagi avstriyaliklarni ularning yoshi, hayotdan mamnun ekanliklari haqidagi fakt va kamayib borayotganliklari bog'lab turibdi. Demograflarning bashoratlariga muvofiq, bu yosh vakillari juda kamayib ketadi. Ochig'ini aytganda, bu ko'pchilikni tashvishga solib qo'yishi mumkin, chunki yoshlar kattalarga nisbatan ko'proq o'g'irlikni o'z bo'yinlariga olishi zarur. Mamlakatda muddatidan oldin nafaqaga chiqqan va oddiy nafaqaxo'rlar bolalar bog'chasidagi bolalardan ko'proq bo'lsa, bugungi kun yoshlari ota-onalariga qachondir nafaqa to'lashi lozim bo'lib qoladi va bu katta muammoga aylanishi mumkin.

Bugungi kun yoshlari o'zi qanday? Obraz ziddiyatli. Avstriya yoshlari hali hech qachon bunchalik boy bo'lmagan. Ularda hali hech qachon bugungidek ko'p imkoniyat, dam olish, sport va sayohat qilish imkoniyati bo'lmagan. Ota-onalar ham hech qachon bugungidek bag'rikeng, yoshlar esa pragmatik va talabchan bo'lmagan. Shu bilan birga, yana shuni kuzatish mumkinki, hali hech qachon 14 dan 19 yoshgacha bo'lgan yoshlar ta'lim olish bilan birga bunchalik ko'p ishlamagan edi. Bu ularga nega kerak bo'lib qoldi? «So'nggi urfdagi kiyim, CD lar, kino, konsertlar va shaxsiy telefonga ega bo'lishlari uchunmi?» *(Avstriyada yoshlar, 1-qism.)*

Beate Grosegerning «*Avstriyadagi yoshlarning holati xususida to'rtinchi xabar*»ida yozilishicha, bugungi kun yosh avlodi o'zi o'sayotgan dunyoni

oldindan ko'rib bo'lmaydigan va murakkab deb biladi. Ta'minlanmagan kelajak, ota-onalarining turmushlariga darz ketgan va yoshlar bulardan kelib chiqib, to'g'ri yo'lni avvaldan tanlab olishga katta ehtiyoj sezmoqda. To'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishni ular, avvalo, ota-onalaridan kutadi. Keyin esa bu vazifani do'st va dugonalar o'z bo'yinlariga oladi. Avlodlar orasidagi kelishmovchilikni faqat ayrim hollardagina sezish mumkin. Ularning hayotdagi maqsadi ota-onalari bilan qarama-qarshi bo'lib qolmaslik. Bir oila bo'lib yashashga, hayotdan zavq olish va ishlashga majbur bo'lib qolmaslikka intilish ularning hayotdagi maqsadlariga aylangan.

Ko'pchilik yoshlar, avvalo, hayotdan zavq olishni, ko'p bo'sh vaqti va yaxshi do'stlari bo'lishini xohlaydi. Ayniqsa, 20 yoshdan kichik bo'lganlar uchun bo'sh vaqt stressga boy maktabdagi hayot tarzidan so'ng yaxshi mukofot hisoblanadi. Yoshlar uchun bo'sh vaqt go'zal kechinmalar va hech narsa qilmaslikning ajoyib birlashuvidir. Hech kim «katta maqsadlar» uchun jon kuydirmaydi, siyosatni-ku aytmasa ham bo'ladi. Din va e'tiqodga juda past baho beradilar. Bugungi kun yoshlari «moddiy yo'nalgan», «ishbilarmon» va «aqlli» deb hisoblanmoqda. Haynzelmayerning fikriga ko'ra, yosh avstriyaliklar «haqini qoldirmaydigan» va «juda moslashuvchan»dir. Bosh ko'tarish va qarama-qarshiliklar ular uchun xos emas.

Yoshlar bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazadi? «Xursandchilik, xursandchilik va yana xursandchilik» – ularning shiori. 14 va 19 yoshlar orasidagi yigitlar, avvalo, harakatda bo'lishni xohlaganlari uchun sport bilan ko'p shug'ullanadi. Qizlar esa o'z vaqtini do'stlari va dugonalari bilan uyda, kafelarda yoki kechalarda o'tkazishni yaxshi ko'radi. Ular uchun muloqot juda muhim: internet, chat, SMS yoki mobil aloqa. Sayrga chiqish ham sevimli mashg'ulot sanaladi. «Sayrga chiqish» uzoq vaqt uyda bo'lmaslik demakdir. Qancha vaqt? Bunisi noma'lum. «O'rtacha» degani haftada ikki marotaba sayrga chiqishni bildiradi. Hordiq chiqarish uchun mo'ljallangan, ajoyib musiqali joylar sevimli hisoblanadi. Umuman, musiqa ular uchun juda muhim. Ko'pchilik uchun musiqasiz hayot yo'q. Hammaning ta'bi o'ziga yarasha. Ö3 xit paradi, hip-hopdan tortib etno va jaz kabi musiqa turlarigacha tinglanadi. Musiqa uchun qancha pul ketishi ahamiyatsiz. Avstriyada internetdan yuklab olishni «zo'r» deb biladiganlar ham topiladi, bu narsa o'g'rilik hisoblanishini ko'pchilik bilsa ham. *(Avstriyada yoshlar, 4-qism.)*

Avstriyada yoshlarning turfa xil ko'rinishlarini ko'rishingiz mumkin: musiqa, sport va ommaviy axborot vositalariga yo'naltirilgan guruhlar, muxlislik

madaniyati, ideologik uyushmalar. Hip-hop, skeytr yoki hayvonlarni muhofaza qiluvchilarmi, har bir hayot tarzi uchun mos sahnadir Avstriya. (*Avstriyada yoshlar, 5-qism.*)

Avstriyalik yigit-qizlarning eng keng tarqalgan xobbisi – xarid qilish. Qizlar pullarini bajonidil moda uchun, ya'ni tashqi ko'rinish, mobil telefon, kino va kosmetika mahsulotlariga sarf qilsa, yigitlar pullarini, asosan, mobil telefonlarga va chetga chiqish uchun sarflaydi. *(Avstriyada yoshlar, 2-qism.)*

Yoshlar hayotida asosiy rollardan birini internet o'ynamoqda. Yoshlarning asosiy qismi kompyuter oldida soatlab o'tirmoqda. Ularning 80%i, agar telefonda suhbatlashmasa, haftada, kamida, bir marotaba internetda o'tirishni asosiy mashg'uloti deb hisoblaydi. 14 va 19 yoshlilarning 10 tadan 9 tasi hayotini mobil telefonsiz tasavvur qila olmaydi. Ular mobil telefon va kompyuter orqali o'rnatiladigan tez va samarali aloqani juda muhim deb biladi. *(Avstriyada yoshlar. 3-qism.)*

Avstriyada kech turmush quriladi, eng vaqtli turmush qurish 20 yoshdan oshganda kuzatilgan. 2013-yilda kelinlarning o'rtacha turmush qurish davri 29,8, kuyovlarda esa 32,2 yoshni tashkil etgan. Nikohli turmush nikohsiz yashash tarzi jamiyatda qabul qilingandan beri o'z ma'nosini yo'qotdi, desak bo'ladi. Farzand tarbiyasiga yosh avstriyalik ayollar ko'p vaqtlarini ajratadi.

Ko'pgina avstriyalik erkak va ayollar yoshi katta bo'lgani sari, risoladagidek oila qurishni istaydi, ya'ni ota-ona, farzandlar va bu turdagi oila hali-hanuz eng keng tarqalgan oila turi bo'lib turibdi. Ko'pchilik ayollar oila va kasblarini bir-biriga bog'lab, mukammal hayot tarzini qurishga harakat qilayotgan bir paytda, ko'pchilik yosh erkaklar konservativ munosabat bildirmoqda.

Avstriyada «Yosh davri» maktab davrining cho'zilishi tufayli uzoq davom etadi. 15 dan 18 yoshgacha bo'lganlarning 90%i maktab o'quvchilaridir. Ularning ota-onalari davrida bu ko'rsatkich, hatto, 60%ni ham ko'rsatmagan. Oliy o'quv yurtlarida o'quvchilarning ulushi 60-yillardan so'ng jadal sur'atlarda o'sdi. Buni quyidagi bilan izohlash mumkin: bu «onasining quchog'i»dan chiqib ketishni biroz vaqtga bo'lsa-da, ortga surib turadi. 15 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan yoshlarning 95%i hali-hanuz ota uyida yashaydi; 20 dan 25 yoshgacha bo'lganlar 2/3 qismni tashkil etadi. Yoshlar hayotining uchinchi o'n yilligida o'z boshpanasi haqida qayg'ura boshlaydi. O'rtacha uydan chiqish yoshi hozirgi kunda, taxminan, 26 dan 27 yoshgachani tashkil etmoqda. Bunday holatga ijara haqlarining balandligi ham qisman sabab bo'lyapti.

Umumiy qaraganda, o'nta yoshning to'qqiztasi o'z hayotidan mamnun. Ularning ham o'ziga yarasha tashvishlari yo'q emas. Tashvishlari, ayniqsa, kelajak bilan bog'liq bo'lib, ishsizlik, urush va atrof-muhitning zararlanishi kabi o'ylar haqidadir. Agar gap uzoq kelajak haqida ketsa, nafaqa va uning kim tomonidan to'lanishigina ularni qiziqtiradi.

## KEKSA ERKAK VA AYOLLAR

Agar statistikaga ishonadigan bo'lsak, avstriyalik erkak va ayollar tezroq qarishni va to'kin-sochin, osoyishta hayotga erishishni istaydi. Bir necha yillardan beri Avstriyada «nafaqa vasvasasi» tarqaldi. 2012-yildan 60,8 yoshdan pensiyaga chiqmoqdalar. Bu 30 yillik to'liq nafaqa bilan kafolatlangan baxtli turmush kutmoqda ularni, degani. Avstriyani bekorga bir gazeta qachonlardir «Yosh nafaqaxo'rlar mamlakati», deb yozmagan. (Klayne Saytung, 1994-yil, 19-iyun). Avstriya, haqiqatan ham, vaqtli nafaqa bilan ta'minlash bo'yicha rekord o'rnatgan. Hozirgi paytda Avstriyada 60 dan 64 yoshgacha bo'lganlarning 20% igina ishlaydi. 64 yoshdan yuqori bo'lgan erkak va ayollarning 10% ga ham yetmaydigan qismi ishlaydi. (Shvetsiya, Norvegiya va Yaponiyada ham 60 yoshlilarning yarmidan ko'p qismi ishlaydi. Hattoki, Yaponiyada 64 yoshdan yuqori bo'lgan shaxslarning 40%i mehnat nafaqasiga chiqmagan).

> Avstriyada juda tez qariydilar (kuladi). 39 yoshda juda qari hisoblanadilar. 40 yoshdan keyin esa ish topolmaydilar. Agar kimdir chetdan kelib qarasa, unga juda ko'p keksa odamlar bordek tuyuladi, ular, aslida, aslo qari emas, angliyalik va amerikalik ayollar bilan solishtirganda ham ular ancha katta ko'rinadi. Hozirda hammasi ancha yaxshilandi, chunki plastik jarrohlik paydo bo'ldi-da (kuladi).
>
> ***(Standart-Intervyu, Elinor Mora)***

Avstriyada keksalarni yaxlit bir guruhga ajratib bo'lmaydi. Keksalar faoliyatini tadqiq qiluvchi olimlar ularni quyidagi guruhlarga bo'ladi: «yangi faol keksalar» (25%) quvnoq va hayotdan zavq oladigan insonlar bo'lib, nafaqalaridan mamnun. «Xavfsizlik va birlashmalarni xush ko'radigan keksalar» (29%)

nafaqaga chiqqanlaridan xursand bo'lib, tinchlik va xotirjamlikni xohlaydi. 2/3 qism esa «burchiga sodiq va oilaparvar keksalardir» (31%), ular kamtarona hayot kechiradigan ayollar bo'lib, o'zlarini farzandlariga, nevaralariga va bog'lariga bag'ishlaydi. «Taqdirga tan bergan keksalar» 15% ni tashkil etib, yolg'izlikdan azob chekadi va moliyaviy tomondan ham kam ta'minlangan hisoblanadi.

Yosh jihatiga qarab esa quyidagi guruhlarni ajratish mumkin: «yosh keksalar» (50–65), «faol keksalar» (65–80) va nihoyat «iste'dodli keksalar» (80 va undan yuqori). Ko'pchilik keksalar o'zini yoshiga nisbatan yosh sezadi. Yosh keksalar sport bilan shug'ullanadi, do'stlari bilan sayrga chiqadi, nevaralarining tarbiyasi bilan shug'ullanadi va yordamga muhtoj bo'lganlarga yordamlashadi, yaqinlarini pul bilan siylaydi, o'zlarining vazifalarini bajaradi va qo'shnilariga yordam beradi. Ular yana jamiyatni gij-gijlab, avlodlar o'rtasidagi nifoqni kuchaytiradi ham.

Yoshi 50 dan oshgan 2,8 million aholi hali-hanuz kuchli hisoblanib, iqtisod uchun muhim omildir. Ular biladiki, to'rt devor orasidagi keksalarning hayoti (televizor ko'rish – birinchi o'rindagi mashg'ulot) eskirdi. Ko'pchilik avstriyalik keksalar sayohatni va xarajat qilishni yaxshi ko'radigan va ularni to'lay oladigan darajada moliyalangandir. Avstriyalik nafaqaxo'rlarni Yangi Zelandiyada yoki Grand Kanyonda uchratib qolsangiz, hech ham ajablanmang. 50 yoshdan oshgan shaxslar o'z mablag'larining yarmini uy-ro'zg'or uchun sarflaydi. Qishki mavsumda esa barcha parvozlarning yarmini oldindan buyurtma qilib qo'yadi. Hattoki, universitetlarda ham ularning soni ortib bormoqda. Kompyuterda ishlashdan ham hech cho'chimaydilar. Nevaralari bilan e-mail orqali yoki chat orqali aloqa qiluvchi bobo-buvilar ham bugunga kelib Avstriyada ko'pchilikni tashkil qilmoqda.

Barcha avstriyalik keksalar o'z xarajatlari uchun mablag'ni nafaqa shaklida oladi, nafaqa yiliga 14 marta to'lanadi. Doimiy yordam va parvarishga muhtoj nafaqaxo'rlarga esa qo'shimcha «yordam puli» to'lanadi. (01.01.2014 dan boshlab 3 oy kutish muddatidan so'ng). Davomida kam bo'lgan nafaqaxo'rlarga soliq va boshqalar uchun maxsus chegirmalar mavjud. Shunday qilib, ular dori-darmonlarini tekinga oladi, televizor, radio va telefon uchun soliqlardan ozod qilinadi va transportda ham juda arzon narxda yurishi mumkin.

Bugungi kunda nafaqaxo'rlar har doimgidan ham yaxshiroq yashamoqda. Bundan 30 yil muqaddam ular mablag'larining 60%ini oziq-ovqat mahsulotlariga sarflagan bo'lsa, bugun bu ko'rsatkich 1/3 qismni ham tashkil qilmayapti. Shunday

qilib, ularda nisbatan ko'p mablag' bo'lib, uni bo'sh vaqt, sport, sog'lik va o'qish uchun sarflash imkoniyati tug'ildi. Shu bilan birga, ular yoshlarga ma'naviy va moliyaviy jihatdan ko'proq yordam bera oladi. Faqat o'zini o'ylaydigan xasis nafaqaxo'rlar obrazi Avstriya uchun begona.

Shunga qaramasdan, muammolar ham yo'q emas. Avstriyaning aholisi qarigani sari yoshlar ko'proq qarilarga ega bo'lmoqda. Shunday qilib, ko'pchilik nafaqa tizimini moliyalashtirish to'g'risida qayg'ura boshladi. Yoshlar va keksalar o'rtasida «taqsimot urushi» boshlanishidan xavfsiray boshladilar. Avstriya kambag'al nafaqaxo'rlardan ham xoli emas, albatta. Bularga, avvalo, eng kam ish haqini oluvchi va yomon tibbiy xizmat ko'rsatiladigan dehqonlar kiradi. Keksalik chog'idagi kambag'allik ayollarni ham chetlab o'tmaydi. Ularning kasbiy faoliyatdagi ishtiroki keksalikda yakun topadi.

O'rtacha umr davomiyligi ortishi natijasida keksalar yordam va parvarishga ko'proq muhtoj bo'lib qolmoqda. Ular uchun keksayish yolg'izlik, chetga chiqib qolish, qariyalar uylariga yoki geriatrik klinikalarga joylashtirilish va ozmi-ko'pmi, u yerda qamalib yashash demakdir. Venalik qariyalar hayotini tadqiq qiluvchi olim Leopold Rozenmayer bu holatni quyidagi achchiq gaplar bilan tanqid qiladi: «Keksa odamning ijtimoiy o'limi uning ruhiy o'limidan ancha ilgariroq boshlanadi».

## 8. DINLAR VA CHERKOVLAR

Avstriyada diniy uyushmalar ko'p bo'lib, ularni 3 guruhga ajratish mumkin. Ular turli xil afzalliklarga, huquq va burchlarga ega. Masalan, ular xususiy maktablarni boshqarishi va umumiy maktablarda diniy fanlarni o'qitishi mumkin. Bu uch guruh quyidagi mazmunni aks ettiradi:

- rasmiy tan olingan cherkov va diniy uyushmalar;
- diniy idoralar;
- diniy uyushmalar.

2009-yilning may oyida Iyegovaga sig'inuvchilar qonuniy tan olinib, 21 000 a'zosi bilan mamlakatning beshinchi eng katta cherkoviga aylandi.

### XRISTIAN-KATOLIK CHERKOVI

Zamonaviy davr boshlanguniga qadar Avstriyada diniy yakdillik hukm surar edi. Mamlakat asrlar bo'yi xristian va katolik bo'lgan. Boshqa dinlar, yahudiylarni hisobga olmaganda, bugungi kundagi Avstriya hududida uchramasdi. XVI asrga kelib bu holat o'zgardi. Inqilobdan so'ng Avstriyaning ma'lum hududlari yevangeliya mazhabini qabul qildi. Gabsburglarning qarshi inqilobi davrida, ya'ni 30 yillik yurishdan so'ng mamlakat yana katolik mazhabiga o'tdi. Bu haqda bugun serjilo barokko madaniyati guvohlik berib turibdi.

XIX asrda bu «Taxt va mehrobning birlashuvi»ga olib keldi. Imperator katolik cherkovining homiysi rolini bajarardi va cherkovning davlatga bog'liqligi monarxiyaga olib keldi. Bu holat 1938-yilgacha davom etdi. Gabsburglar imperiyasining tanazzulga uchrashi va respublikaning joriy etilishidan so'ng xristian-sotsialistik partiya monarx rolini egalladi. Cherkov davlatning homiyligisiz mavjud bo'la olmaydi, degan fikrda edilar. Katolik dindorlar siyosatda eng old o'rinlarni egallab oldi. Katolik dindorlarning xristian-sotsialistlari avtoritar boshqaruvini qo'llab-quvvatlashi cherkov uchun juda katta zarar keltirdi. Bu, avvalo, sotsial-demokratlar uchun salbiy ahamiyat kasb etib, ko'pchilikning cherkovga nisbatan dushmanligiga olib keldi.

1938-yildan bu natsional-sotsialistlarning tazyiq quroliga aylandi. Ko'pchilik rohib va ruhoniylarni konsentratsion lagerlarga jo'natib, qatl etdilar. Shu bilan bir qatorda, tazyiqqa uchragan cherkov jahon urushi davrida ozodlik va insonparvarlik panohiga aylandi. «Yangi davlatda ozod cherkov» shiori ostida cherkov 1945-yilda yana siyosiy hayotga kirib keldi. Uning davlat va siyosiy partiyalar bilan munosabati yaxshilana boshladi. Buning natijasida endilikda katta partiyalar bir-biriga qarshi bo'lmay, balki koalitsiya bo'lib, turli yo'llar bilan birgalikda ishlay boshladi.



***Mariazell bazilikasi.***

Cherkov statistikasiga binoan, Avstriyadagi katoliklarning soni kamayib bormoqda. 2012-yilda 5,36 million avstriyaliklar Rim katolik diniga e'tiqod qilgan. Bu aholining 63,5% ini tashkil etadi. 1951-yilda ular 89% ni tashkil etgan edi. 1/5 avstriyaliklargina haqiqiy xristianlardir. Oldingi yilga nisbatan ham cherkovga boruvchilar soni 1% ga kamaygan.

Shunga qaramay, ko'pchilik an'ana tufayli cherkovga boradi, farzandlarini cho'qintiradi, chunki, odat shunday. Rojdestvo va rojdestvo arafasidagi ibodatga boradilar va cherkov marosimlari asosida dafn etilishni istaydilar. Cherkov ular uchun, avvalo, an'ana, urf-odat va bayramlar hisoblanadi. Bundan boshqa vaqtda ular na cherkovlarga boradilar, na o'zlari ibodat qiladilar. Ular cho'qintirilganligi haqidagi guvohnomagagina ega katoliklar sifatida qaralib, katoliklarning 17,6% ini tashkil etadi.

Ko'pgina katoliklar o'z cherkovlaridan mamnun bo'lmay, o'zlariga boshqa cherkov izlayapti. Rohiblarning turmush qurmasligi, rohib va rohibalarni tanlashdagi munozaralar muammolar hisoblanadi. Ajrashgan yoki qayta turmush qurgan shaxslarni katolik cherkovi diniy hayotdan umuman chetga chiqarib tashlashini ko'pchilik boshdan kechirgan.

Shunday qilib, bugungi kunda ko'pchilik katolik cherkoviga nisbatan befarq yoki undan umuman yuz o'girgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda e'tiqodidan chiquvchilar soni juda ko'p. Bir millionga yaqin kishi e'tiqodsizdir.

Shunga qaramay, jamiyat hayotida din muhim o'rin tutadi. Maktablarda diniy darslar majburiy hisoblanadi (darsga qatnasmaslik mumkin). Bundan tashqari, ko'p sonli shaxsiy katolik maktablari ham mavjud bo'lib, ularning xarajatlari to'liq ravishda davlat tomonidan qoplanadi. Qolaversa, umumiy maktablarda faqatgina Rim katolik diniy darslari o'tilmaydi. Bolalar diniy bilimlarni kichik-kichik cherkovlarda ham olishi mumkin, bu yerda dinshunoslik o'qituvchilariga ham davlat tomonidan maosh to'lanadi.

Cherkovning inson huquqlari, ijtimoiy soha va o'qituvchilarning malakasini oshirish kabi masalalarda ko'rsatayotgan faolligi diqqatga sazovordir. Bunga madaniy sohadagi faoliyatlar ham kiradi (cherkov, kutubxona va muzeylar kabi 12 000 tarixiy-madaniy bino). 4400 rohib va qalbni poklovchi ruhoniylar kabi keng doiradagi ruhan poklanish ishlari bilan bir qatorda, cherkov yana boshqa sohalarda ham faol.

## YEVANGELIYA CHERKOVI

Yevangeliya cherkovi 2011-yildan buyon 326 000 a'zosi bilan Vena va Burgenlanddagi to'rtinchi eng katta diniy uyushmadir. Ularning a'zolari soni 1991-yilda 5% ni tashkil etgan bo'lsa ham, bu ko'rsatkich 2001-yilga kelib

4,7% ga tushdi. Ruhiy poklash, diniy darslar va missionerlik bilan bir qatorda, yevangeliya cherkovi ijtimoiy jihatdan imkoniyati cheklangan va bemorlar uchun g'amxo'rlik qilishni o'zlari uchun muhim vazifa deb biladi. Bulardan tashqari, yevangeliya umumiy va o'rta maktablari, shuningdek, yevangeliya gimnaziyasi (Burgenland) mavjud. Vena universitetida yevangeliya dinshunoslik fakulteti faoliyat ko'rsatadi. Rim katolik cherkovi ruhoniylar yetishmasligidan aziyat chekayotgan bir paytda, yevangeliya cherkovi ruhoniylar yetishmasligi kabi muammodan xolidir.

A'zolar soni borasida yevangeliya cherkovining ham o'z muammolari bor. E'tiqoddan chiquvchilar soni juda yuqori. Norozi katoliklar o'zlarining dinlaridan chiqsa-da, yevangeliya mazhabiga kirmasdan e'tiqodsiz bo'lishni afzal ko'rmoqda.

Ularning katolik cherkoviga munosabati avvalgidek qarama-qarshi emas balki hamjihatlikka asoslangandir.

## YAHUDIYLIK DINI

Tarixiy manbalarga asoslanadigan bo'lsak, X asr boshlarida Venada yahudiylar umr kechirgan. Vahshiyona tazyiqlar va doimiy bosim natijasida ular soni XIX asrgacha chegaralangan bo'lgan. XX asrga o'tish davriga kelib Vena juda boy, yahudiylarga xos hayot kechirgan, shahar sionizm markaziga aylantirilib, Vena yahudiylari madaniyat va ilm sohasining barcha jabhalarida diqqatga sazovor darajada faollik ko'rsatdi. 1938-yilda Venada 180 000 yahudiy yashardi, ularning ko'pchiligi ommaviy qirg'inni boshdan kechirmagan.



*Gratsdagi yangi sinagog.*

Bugungi kunda Vena yahudiy madaniy markazi, taxminan, 8000 a'zogagina ega. Kichik yahudiylik birlashmalari Grats, Lins, Zalsburg va Innsbrukda ham mavjud.

## AVSTRIYADA ISLOM DINI

Avstriyada islom dini, avvalo, arab davlatlari va sobiq Yugoslaviyadan kelib qolgan ko'pgina «gastarbayter» va qochoqlar hisobiga o'zining 515 000 e'tiqod qiluvchilari bilan 2011-yilda ikkinchi eng katta diniy uyushmaga aylandi. Venada muslim va muslimalar soni o'n yil ichida ikki barobarga oshdi. Islom markazlarini Grats, Lins va Bregens shaharlarida uchratish mumkin. Eng katta musulmonlar guruhi turkiy urug' vakillaridan tashkil topgan bo'lib, ular 45% ni tashkil etadi, ikkinchi eng katta jamoa esa 15% bosniyalik musulmonlardir. Musulmonlarning 85%i sunniylar bo'lib, qolgan 15% ini shialar tashkil etadi. Ularning ko'pchiligi ikki yoki uch avloddan beri Avstriyada istiqomat qilib kelyapti.

Musulmonlarning Avstriyaga ko'chib kelishi an'anaga aylangan. Avstriya-Vengriya monarxiyasining joylashish o'rni sababli turklar bilan jangdan so'ng Usmoniylar imperiyasining ko'p fuqarolari savdo-sotiq, e'tiqod va vijdon erkinligiga ega bo'lib, Avstriya yerlarida qo'nim topdi. Vaziyatni o'zgartirishga qaratilgan harakatlar ancha oldin boshlangan bo'lsa-da, yechim topish ko'p vaqt talab qildi. Bosniya va Gersogovinaning qo'shib olinishi natijasida yarim million musulmonlar Avstriya qo'l ostiga o'tdi va tezda vaziyatga moslashishga to'g'ri keldi. Ular qo'shinda xizmatni o'tadi, imomlar esa bosniyalik askarlarning parvarishi bilan band edi. Musulmon va boshqa din vakillari o'rtasidagi munosabatni yaxshilash uchun Vena shahrida katta masjid qurishga qaror qilindi va imperatorning shaxsan o'zi uni moliyalashtirishni amalga oshirishni istadi. Birinchi jahon urushi bu ajoyib rejalarni barbod qildi.

1912-yilda islom dinini diniy e'tiqod sifatida qabul qilish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Qonun umumiy erkin diniy e'tiqod qilish, o'z ichki ishlarini o'zi hal qilish va asosiysi boshqa dinlar bilan teng huquqli bo'lish imkonini berdi. Ushbu qonun asosida 1971-yilda Islom dindorlar uyushmasi tashkil etilib, unga Avstriyada yashovchi barcha musulmonlar a'zo bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, ushbu uyushma davlat idoralari murojaat qilishi mumkin bo'lgan rasmiy idora hisoblanadi.



*Venadagi masjid.*

Davlat maktablarida barcha bolalar islomiy fanlar bo'yicha saboq oladi. Ularning kelib chiqishi boshqa millatga mansub bo'lsa ham, dars Avstriya uslubida, nemis tilida olib boriladi. Murabbiylar Islom qayta tayyorlash institutlarida tahsil oladi. 1999-yilda Venada birinchi Islom gimnaziyasi ochildi. Shundan boshlab Islom instituti ko'pgina ijtimoiy kasblar va bo'g'chalarning ochilishiga sabab bo'ldi. O'qituvchilarga Avstriya hukumati tomonidan maosh to'lanadi va bu bilan ular nazorat qilib turiladi. Davlat maktablarida diniy darslar o'tilayotgan bir paytda haqiqiy diniy hayot davom etyapti.

Bugungi kunda musulmonlar o'z diniga erkin va bemalol e'tiqod qilishi mumkin. Avstriyadagi Xalqaro Vena Markazi yonida masjid barpo etilgan bo'lib, u Islom diniy markazining timsoli hisoblanadi. Venada musulmonlarning qabristoni ham bor.

Avstriyada islom qonunga asoslangan bo'lib, buni Yevropaning boshqa hech qayerida uchratmaysiz. Shunga qaramay, birgalikdagi Avstriya musulmon asliyatini yaratish istagi amalga oshish yo oshmasligi mavhum bo'lib qolmoqda.

## ORTODOKS CHERKOVI

Taxminan 500 000 odam ortodoks mazhabiga mansub bo'lib, Avstriyadagi ortodoks cherkovi homiyligida hayot kechiradi. U islom dinidan keyingi uchinchi eng katta diniy uyushma hisoblanadi. 1967-yilda qabul qilingan Ortodokslik qonunining 2011-yilda to'ldirilishi orqali ortodoks ruhoniy va yepiskoplarining tan olinishiga erishildi. Barcha ortodoks cherkovlari bir xildagi dinshunoslik, liturgiya (ibodat qilish), tashkilot, cherkov strukturasi va cherkov huquqlariga ega. Ular bir-birini qo'llaydi.

VIII asrdanoq Rim cherkovi pravoslav cherkovidan uzoqlasha boshlagan bo'lib, bu 1054-yilda yakuniy bo'linishga olib keldi. Sharqda to'rtta qadimiy patriarx qolgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan ular milliy cherkovga asos soldi va asosiy qismi slavyan xalqlari o'rtasida o'z mustaqilligiga erishdi.

Serblar katta guruhni tashkil etsa ham, rus, bulg'or, rumin, yunon, suriyalik, arman va kopt (nasroniy misrlik)larning ortodoks cherkovi vakillari ham bu guruh a'zolari hisoblanadi. 18% muhojirlar Yuliy kalendariga binoan, 6–7-yanvar kunlari Rojdestvoni nishonlaydi, 62% qismi esa Rojdestvoni Grigoryan kalendariga binoan 24–25-dekabr kunlari nishonlaydi. Ko'pchilik esa ikkala sanani ham nishonlayveradi. Bu eng muhim diniy marosim hisoblanadi.

# 9. AVSTRIYACHA YASHASH TARZI

## UNVONLAR VA SALOMLASHISH HAQIDA

Avstriyaliklar haqida so'z borganda ularning unvonlarga nechog'lik ishqibozliklari-yu, salomlashishni chet elliklar hech qachon o'zlashtirolmaydigan san'at deb bilishlarini ta'kidlab o'tish joiz. Bu, qaysidir ma'noda, to'g'ri nazariya. Unvonga o'chlik bu mamlakatda chegara bilmaydi. Nima bo'lganda ham, boshqa davlatlarga qaraganda, Avstriyada unvon ko'proq rol o'ynaydi. Unvonga ega bo'lmagan har qanday kishiga «Janob doktor» yoki «Janob professor» deb murojaat etish va ba'zan shu tartibda yozish bo'rttirma holat, xolos.

Ko'pgina unvonlarning paydo bo'lishi monarxiyaga borib taqaladi. Kam ish haqiga qo'shimcha tarzda davlat o'z mansabdorlarini chiroyli unvonlar bilan taqdirlagan. Hozirda ham 900 turdagi unvon mavjud. Bunga «magistr» yoki «doktor» kabi ilmiy darajalar ham taalluqli. Eng ko'p uchraydigan daraja (ayniqsa, hozir) «magistr» (qisqacha «mag»), kasbiy murojaatlar («Janob arxitektor») hamda xizmat unvonlari («davlat maslahatchisi») uchrab turadi. Vena xalq teatridagi aktyorlar «davlat aktyori», qo'shiqchilar «kamer xonandasi» darajasigacha ko'tarila oladi. O'qituvchilar «Xalq ta'limi maslahatchisi» degan ulug'vor nom bilan atalishi ham mumkin.

Avstriya unvonlarga mukkasidan ketgan, deb hisoblovchilar doim ularni muomaladan chiqarishni istaydi. Ularning fikricha, bu shunchaki yoshga nisbatan yondashuv bo'lib, ish-harakatga bog'liqligi yo'q. Biroq davlat xizmatchilari o'z unvonlarini madaniyatining bir bo'lagi sifatida qadrlaydi.

**Norbert Mappes-Nidek: «Janob davlat maslahatchisi»**

«Janob davlat maslahatchisi» nafaqat ishchi-xodimlar, balki uning o'zi birga ish olib boradigan fuqarolar ham unga shunday murojaat qilishlarini istaydi. U bizda, qaysidir ma'noda, hammadan ustun. Bu tizimdan o'zini yiroq tutuvchi shaxslar esa ularga o'zlariga qulayroq tarzda, yo'nalishlariga qarab murojaat qiladi, ya'ni «Direktor xonim» yoki hech bo'lmaganda «Janob

doktor» deb. Ammo bu, ko'pincha, bizning qulog'imizga kinoya bo'lib eshitiladi. Biroq Avstriyada kimgadir shunday murojaat qilish laganbardorlik hisoblanadi; bu holat, aksariyat hollarda, laganbardorlikni anglatadi. Tizimni o'zgartirishning esa aslo iloji yo'q. «Boshida men talabalarim va hamkasblarimga meni familiyam bilan chaqirishlarini aytgandim, – deydi Avstriyada dars beruvchi nemis professori, – lekin ular buni nokamtarlikka yo'yishdi».

Eng hurmatga sazovor unvon «professor»dir. Madaniy sohada jonbozlik ko'rsatgan yoshi ulug' insonlargagina ushbu unvon prezident tomonidan beriladi, ular dars berishi shart emas, yoshi ellikdan oshgan bo'lsa, bo'ldi. Udo Yurgens va ilk vazir ayol Yohanna Donal shular jumlasidandir. «Professor» unvoniga oliygoh o'qituvchilari ham sazovor bo'lishi mumkin.

Avstriyaliklar jozibador unvonlari bilan nimaga erishadi o'zi? Odamlar ulardan nafaqat xizmatda, balki shaxsiy hayotda ham ko'p foydalanadi. Agar Mayer familiyali kishi doktorlik dissertatsiyasini yoqlasa, turgan gapki, o'z familiyasini «Janob doktor»ga almashtiradi. Keyinroq yana boshqa unvon olsa, unda nomi yana o'z-o'zidan o'zgaradi («Janob direktor», «Janob professor»).

So'nggi vaqtlarda unvonlar nomi ayollar nomiga ham moslashtirilyapti (Magistra, Ministerin, Obfrau, Professorin, Vorsitzende va h.k.). Ba'zi unvonlarni ifodalovchi so'zlar ayollarga nisbat berilganda noodatiy jaranglaydi va shu sababli kam qo'llaniladi (Doktorin, Ingenieurin). 1996-yildan 2005-yilgacha Shtayermarkda Avstriya Xalq partiyasidan saylangan siyosatchi ayol Valtraud Klasnik mamlakat boshqaruvida bo'lgan kezlarida uning «Landeshauptmann» (Konstitutsiyada belgilanganidek) yoki «Landeshauptfrau» deb atalishi xususida ko'p bahslar sabab bo'lgan (uning o'zi «Xonim Landeshauptmann» deyishlarini ma'qul ko'rgan).

Yangi, xalqaro miqyosda ishlatiladigan ilmiy darajalar: «bakalavr» va «magistr» ishqibozlar tomonidan chetga chiqarilgan. Ular shunchaki nomning ortida qo'yiladi. «Bakalavr janob» yoki «Magistr xonim» juda kam uchraydi.

Bu mamlakatda agarda an'anaviy yoki eskirgan salomlashish tarziga ahamiyat berilsa, salomlashish biroz murakkabroq tus olishi mumkin. «Mein kompliment» (xushomad qilish) yoki «Küss die Hand, gnödige Frau»

(«Xonimning qo'lidan bo'sa olish») kabi iboralar avstriyaliklarga xos bo'lib, do'stona va oliyjanob munosabatdan nishonadir. Ammo hozirgi yoshlar bu haqda bosh ham qotirmay-di.Ular zamonaviy tarzda ko'rishishni ma'qul ko'radi. Yoshlar do'stlari bilan «Tschüs», «Ciao» yoki «Hi» deb salomlashadi va xayrlashadi. Keksalar «Tschüs» («Xayr») Shimoliy Germaniyadan o'tgan «yuqumli til kasalligi» deb ta'kidlaydi, ayniqsa, uning kichraytirilgan shakllari «Tschüschen», «Tschüsli»ni yoqtirmaydi.

Chet elliklar uchun «Grüß Gott» salomlashishning eng maqbul yo'lidir. Avstriyada «Guten Tag» («Xayrli kun»)ni Germaniyadagiga nisbatan ko'p ishlatmaydi. Ko'p avstriyaliklar bu yo'sinda salomlashishni nosamimiy va sovuq deb biladi. An'anaviy «Servus» («Salom!», «Xayr!») bu borada ancha ommabop. Ushbu so'zni kelishda va ketishda qo'llash mumkin, biroq bu faqatgina o'zaro sensirashadigan odamlargagina tegishli. Xayrlashishda klassik «Auf Wiedersehen» («Ko'rishguncha») – eng to'g'ri tanlov. Ancha yillar ilgari shiringina salomlashish so'zi – «Baba» (urg'u ikkinchi a ga tushadi) urf bo'lgan. O'shanda uni faqat yosh bolalarga nisbatan qo'llashgan. Bugungi kunga kelib esa bir-birini sizlaydiganlar ham ushbu so'zni ishlatadi. Bu bir jurnalistni o'ylantirgan qo'rquvning cho'qqisimi yoki vaqtning ta'sirimi?

## URF-ODATLAR, BAYRAMLAR, TANTANALAR

Avstriyada hozirgacha qadimiy urf-odatlarga amal qilib kelinmoqda. Bayramlar bo'yicha esa jahon chempionlari sirasiga kiradi. Qariyb barcha bayramlarning tarixi katolik cherkoviga borib taqaladi. Qonuniy bayramlar dam olish kunlari hisoblanadi. Ular: 1-yanvar Neujahr (Yangi yil), 6-yanvar Heilige Drei Könige (Muqaddas uch qirol), «Ostermontag» (Pasxa bayrami), 1-may – «Christi Himmelfahrt», «Pfingsmontag» (xristianlar bayrami), 15-avgust – Mari Himmelfahrt (xristianlar bayrami), 26-oktabr – «Nationalfeiertag» (milliy bayram), 1-noyabr – Allerheiligen (katolik bayrami), 8-dekabr – «Marie Empfängnis», 25-dekabr – «Weihnachtstag» (rojdestvo), 26-dekabr – «Stephanitag» (Stefan kuni) va boshqalar.

Aksariyat venaliklar yangi yilni shahar ichidagi Stefan maydonida katta tantana bilan kutib oladi. Shtefandomning shimoliy minorasidagi ul-

kan «Pummerin» qo‘ng‘irog‘i yangi yilga bong uradi. Yarim tunda Donauvaltserning mikrofonlari orqali Avstriyaning milliy madhiyasi eshittiriladi. Hamma raqsga tushib, shampan ichadi, qarsildoq va mushaklar gumburi butun shaharni qamrab oladi. Bayram boshqa viloyat markazlarida ham shu tarzda nishonlanadi.

Ertalab ko‘pchilik oilaviy televizor qarshisida o‘tirib, mahobatli musiqa zalidagi Vena filarmoniyasi tomonidan o‘tkaziladigan an’anaviy Yangi yil konsertining namoyishini tomosha qiladi. Bu konsert uchun chiptalar tezda qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketadi va ularni olish juda mushkul.



***Bayramda barcha ishtirok etadi.***

Butun Avstriya bo‘ylab 2 – 6-yanvar oralig‘ida minglab «Yulduz kuychilari» ko‘rinishidagi o‘g‘il-qizlar uyma-uy yurib, Iso payg‘ambarning tug‘ilishidan darak beradi, ashula aytib, uy sohiblariga omadli yangi yil tilaydi. Afsonaviy uch qiroldan biri uy eshigiga bo‘r bilan C+M+B harflarini yozadi. Ular o‘sha uyni balo-qazolardan asraydi. «Yulduz kuychilari» harakati ezgu maqsadga yo‘naltirilgandir. 2013-yilda to‘plangan mablag‘ 15,4 million yevroni tashkil etib, u Afrika, Lotin Amerikasi va Osiyodagi ochlikdan qiynalgan aholiga yordam tariqasida ishlatilgan. Rivoyatlarga binoan, Kaspar, Melxior va Baltazar siyosat, iqtisodiyot, cherkov va sport sohalarining asosiy vakillari sifatida qaraladi.

Yanvarda butun Avstriyada «Fasching» (G‘arbiy hududlarida «Fastnacht» ham deyiladi) nishonlanadi. Ayni paytda maxsus pechenyelar tayyorlanadi, bayram qatnashchilari, bayram shahzodalari va malikalari shahar bo‘ylab aylanib chiqadi. «Fillax fasching»i Reyn karnavalining eng ko‘ngilochar shousi sifatida televizordan uzatiladigan sevimli dasturdir. Hammadan ham ko‘ra «Fashing» ballar va raqs kechalari uchun qulay paytdir. Bir qancha uyushma va tashkilotlar (masalan, shifokorlar, huquqshunoslar, mo‘ri tozalovchilar, qandolatchilar va qassoblar) ning ishchi guruhlari, ko‘pincha, mashhur siyosatchilar qadrli mehmon sifatida taklif etiladigan ballarni uyushtiradi. Gimnaziyadagilar o‘zlarining bitiruv oqshomlariga, istaganlari esa «Gschnasfest» yoki niqoblar bayramiga boradi.



***Tillarang ro'mollar bayramlarda o'raladi.***

Shaharning kazo-kazolari (siyosat, iqtisod va san'at sohalarining taniqli namoyandalari) uchun ham fasching (karnaval)dagi oxirgi payshanbada bo'ladigan Opera bali yilning eng shov-shuvli voqealaridan biridir. Vena davlat opera teatri minglab gullar bilan bezatilib, ulkan raqs zali tusini oladi. Bu balning har yilgi ochilish marosimi an'anaga aylanib qolgan. Ushbu tadbir «Staatsball» («Davlat bali») deb ham ataladi. Federal prezident tashrif buyurishi bilanoq federal madhiya yangraydi, 144 nafar debyutant juftlik esa Polonez (raqs turi) ga raqs tushadi. Undan keyin opera va balet chiqishlari boshlanadi, ba'zi solistlar o'zlarining eng yaxshi ariyalarini ijro etadi, so'ngra besh minglar atrofidagi kecha mehmonlari ham raqs tushishi mumkin. Ayni damda Venadagi mashhur Opera bali dunyoning o'zga davlatlarida o'z taqlidchilariga ega bo'lib, hatto, bu jarayonga qarshi bo'lib turadigan namoyishlar ham an'anaga aylanib qoldi. Fashingning yakunlovchi qismi sevimli baliqli taom bo'lmish «Heringsschmaus» (selyodkali taom) iste'mol qilinadigan «Aschermittwoch» (kulchorshanba)dir. Qadimgi odatlarga ko'ra, (pasxa ro'za oyi)da tanovul qilinadigan baliqli taom bilan bugungi «Heringsschmaus» ning o'xshash jihatlari ko'p emas, chunki avvalgi oddiy yegulikdan eng sara, lazzatli taom vujudga kelgan.

«Pasxa» vaqti o‘zgaruvchan bayramdir, ba’zan mart, ba’zida esa aprel oylarida o‘tkaziladi. Pasxaning ibtidosi sanalmish «Karwoche» («kara» – Kummer, sorge – qayg‘u, tashvish haftasi) «Palmsonntag» (pasxadan oldingi yakshanba) bilan boshlanadi. Isoning Quddusga kirib kelishi sharafiga hamma joyda «Palma marosimlari» bo‘lib o‘tadi. Palma barglari sifatida esa ba’zi daraxtlarning (masalan, tolning) gullagan novdalari butaga qiyos qilib o‘ralgan holda cherkovga olib boriladi. Bunday harakatlari bilan dindorlar Isoga xursandchiliklarini bayon etadi. Qishloqlarda bu kabi palma butalari uy yoki xonadonni himoyalash uchun xoch va biror muqaddas surat orqasiga qistirib qo‘yiladi.

«Gründonnerstag» («yashil payshanba») iborasining kelib chiqish tarixi noma’lum. Uni «greinen» (weinen – yig‘lamoq) so‘ziga yoki yashil rangga bog‘lashadi, chunki bu kunda yashil narsa (masalan, ismaloq) yeyilishi shart. «Gründonnerstag» dan boshlab cherkov qo‘ng‘iroqlari tinadi. Eski bir rivoyatga ko‘ra, qo‘ng‘iroqlar Rimga uchib ketadi. «Karsamstag» («Qayg‘uli shanba») dagi qayta tirilish (jonlanish) gacha «ratschenbuben» (nog‘orachi bola)lar nog‘orachalarini chalib turadi.

«Karfreitag» yevangeliya xristianlari uchun cherkov yilining eng qadrli bayramidir. Pasxa – Isoning qayta tirilishini ko‘pchilik bayramona taom bilan nishonlaydi. Bolalar pasxa quyoni keltirgan pasxa tuxumlarini qidiradi. Qishloqlarda esa bundan ham ko‘proq urf-odatlarning guvohi bo‘lish mumkin. Masalan, bayram kechasi tog‘ tepasida ulkan pasxa gulxani yoqiladi.

1-may (Mehnatkashlar kuni)da sotsial-demokratlarning an’anaviy may paradlari uyushtiriladi. Yevropa uchun o‘ziga xos hisoblangan hamda Vena ratushasi qarshisida o‘tkaziladigan may mitingi uchun ko‘chalarda qatnov to‘xtatiladi.

1-may an’anaviy may daraxtining o‘rnatilish kuni hamdir. May daraxti uchun baland tekis archa yoki may qarag‘ay daraxti tanlab olinadi va po‘stlog‘idan tozalanadi. Faqat daraxtning uchi aslidagidek qoldirilib, rangli bog‘ichlar bilan bezatiladi. Ba’zi joylarda bu udum daraxtga tirmashib chiqish va raqsga tushish bilan nishonlanadi.

Qisqa ta’tillardan iborat turli bayramlarni o‘z ichiga olgan may va iyun oylarini avstriyaliklar juda yoqtiradi. «Pfingsten» (yozgi diniy bayram; grekcha «pantekoste» – «pasxadan keyingi 50-kun» degani) muqaddas marosim sanaladi, «Pfingsten»dan keyingi ikkinchi payshanba esa «Fronleichnam» (katolik

bayrami) bo'lib, ushbu bayram katolik cherkovining kuchi va mavqeyini unga qarshi reformatsiya bo'lgan paytdan buyon namoyish etib kelmoqda. Bu bayramning diqqatga sazovorligi shundaki, unda bayramona kiyinib, gullar ulashuvchi bolalar va barchaga ma'lum davlat arboblari bevosita qatnashadi. Avliyo ota ramziy ma'nodagi «Nuh kemasi»da muqaddas ne'matni qurbonlik keltiriladigan joy tomon ko'tarib boradi. Qayin shoxlari yo'l chetiga yarim doira shaklida tirab chiqiladi. Ayniqsa, Xalshtetterze va Traunzee (Yuqori Avstriyadagi ko'llar nomi) da bo'ladigan suv marosimlari sayyohlar e'tiborini tortadi.

Yozda ko'p yerlarda, jumladan, qishloqlarda «Kirtage» (Kirchtage – Kirta, har yili o'tkaziladigan shukronalik bayrami) va boshqa xalq bayramlari nishonlanadi, to'yguncha yeb-ichib, o'yin-kulgu qilinadi.

26-oktyabr Avstriyaning milliy bayramidir. Ushbu sana 1955-yilda g'olib davlatlar qo'shin askarlarining mamlakatni tashlab chiqib ketgani va Avstriya neytralligi to'g'risidagi qonunning bekor qilinishi munosabati bilan



*Yulduz qo'shiqchilar.*

nishonlanadi. Ammo hozirda aksariyat fuqarolar uchun bu bayram tarixiy ahamiyatini yo'qotgan. Odamlar bir muddat bu kunda ertadan kechgacha ijtimoiy faollik ko'rsatib yurgan bo'lsa-da, endilikda bu faolliklar shunchaki sport va chiniqish mashqlariga aylanib qolgan.

31-oktyabrdan 1-noyabrga o'tar kechasi vampir, sharpa va boshqa qora kuchlarning ko'chada sang'ishi, ya'ni «Halloween» Avstriyada ham nishonlanadi. Aslini olganda, bu bayramning Avstriya udumlariga bog'liq joyi yo'q, bu shunchaki iqtisodiy va axboriy jihatdan tarqalgan urf-odat. Bolalar yalmog'iz, sehrgar va arvohlardek kiyinib uyma-uy yuradi va shirinliklar talab qiladi (ularning shiori: «Streiche oder Süβes» – «Yo kaltak, yo shirinlik», ma'nosi: «Menga shirinlik ber yoki mendan ko'rasan»). Kimki hech nima bermasa, rosa adabini yeydi.

Avliyolar kuni (1-noyabr) va Ruhlar kuni (2-noyabr)da odamlar qabristonga boradi. O'tgan yaqinlarini yodga oladi, qabrlar atrofini tozalaydi, gullar va chambarlar bilan bezatib, qabr chiroqlarini yoqib qaytadi.

Dekabr oyi Advent (rojdestvodan to'rt hafta oldin boshlanadigan bayram) va Rojdestvo bayramlarining udumlari bilan kechadi. Savdo markazlari joylashgan ko'chalar rojdestvoga xos turli chiroqlar bilan yoritiladi, do'konlarda Qorbobolarni uchratish va rojdestvo qo'shiqlarini tinglash mumkin. Undan tashqari, bayramoldi yarmarkalari, rojdestvo bog'chasi, advent kalendari, advent shamlari va shunga o'xshash ko'p bayram tadbirlariga quvoh bo'linadi.

5- va 6-dekabr bolalar uchun hayajonli kunlardir. Sababi shu sanalarda yepiskop kiyimidagi oppoq soqolli, xushchaqchaq qariya Nikolo (avliyo Nikolaus) tashrif buyuradi va xulq-atvori yaxshi bolalarni shi-rinliklar bilan siylaydi. Odobsiz bolalarga esa uning yovuz yo'ldoshi – ikki shoxli, uzun qip-qizil tilli, paxmoq shayton ko'rinishidagi Krampus duch keladi. Yomon bolalar undan juda qo'rqadi. Krampus ularni o'z hujrasiga olib ketishini yoki tayog'i bilan yaxshilab savalashini aytib, do'q-po'pisa qiladi. Yaxshi bolalarga Nikolaus tomonidan hadyalar va maqtovlar yog'iladi.

2006-yilda saxovatli Nikolaus qiyofasi ayni rojdestvo arafasida tortishuvlarga sabab bo'lgan. Salbiy ruhiy ta'siri tufayli uning Venadagi bolalar bog'chasiga kirishi man qilingan. Biroq viloyatlarda odamlar ushbu odatga barham berilishini istamadi va tezda Nikolausga yordamga keldi. Uning qo'rqinchli hamrohi esa allaqachon bunday maskanlardan quvilgan va ko'p



*Odamlar o'z yaqinlarining qabrlarini tartibga keltiradi.*

oilalar uylariga uning kelishini istamaydi. Ko'plab shaharlarda, ayniqsa, Tirol, Kernten, Zalsburg va Shtayermarkda sun'iy yasalgan Krampus maskalari taqiladigan Krampus yurishlari bo'lib turadi.

5–6-dekabrda ko'chalarni kezib, shaqildoq zanjirlari bilan odamlarni qo'rqitish qiziqqon yosh yigitlarga haligacha huzur bag'ishlaydi.

Agar so'rovnomalarga ahamiyat beradigan bo'lsak, 36 foiz avstriyaliklar Rojdestvoni diniy bayram deb hisoblaydi. Aholining katta qismi uchun esa u turli chiroqlar zanjiri, bayram archasi, sokin (ilohiy) tun va eng muhimi sovg'alarga boy ko'hna udum, xolos. Bayram tayyorgarligi, xaridlar va mashina uchun to'xtash joyi qidirish ish bilan mashg'ul odamlarga ko'p ham xush kelavermaydi.

24-dekabrda tushdan keyin hamma rojdestvo tayyorgarliklari nihoyasiga yetishi shart. Ilohiy (muqaddas) oqshomda bolakay Iso tashrif buyuradi. Barcha do'kon va restoranlar tushdan keyin yopiladi, chunki hamma shu kuni uyda, oilasi davrasida bo'lishga oshiqadi. Ilohiy oqshom – haqiqiy oilaviy bayram. Oqshom cho'kkanda hamma bir-biriga sovg'a ulashadi. Keyin sovg'alarini ochib mehmonxonada biroz o'tirishadi. Ko'pchilik oqshom oxirida cherkovlarga boradi. Rojdestvo shovqinlari-yu qish ob-havosidan qochib, ekzotik mamlakatlarga sayohat qiladiganlar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Yilning so'nggi kunini (Silvester), ko'pincha, quvnoqlik va shovqin-suron bilan uy, biron-bir kafe yoki ko'chada bayram qilishadi. Silvester an'anasiga binoan, Vena davlat teatrida «Ko'rshapalak» operasi namoyishi bo'ladi. Shampan vinosi (yo boshqa ichimlik) ichiladi, ba'zilar vaqtini «qo'rg'oshin quyish» (eski udumga ko'ra, sovuq suvga qaynoq qo'rg'oshin quyiladi va paydo bo'lgan shaklga qarab kelajak bashorat qilinadi) va har xil o'yinlar bilan o'tkazadi; omad keltiruvchi buyumlarni o'zaro almashishadi: ot taqasi, to'rt yaproqli beda guli yoki mo'ri tozalovchi tasviri tushirilgan buyum (ramziy ma'noda bu kasb egasi omad keltiradi).

## BO'SH VAQT VA SPORT

Avstriyada odamlarning bo'sh vaqti borgan sari ko'payib bormoqda. Nazariy jihatdan har bir avstriyalikning bo'sh vaqti kuniga 2 soat-u, 19 daqiqadan iborat. Ish soati haftasiga 40 soatni (ko'pgina sohalarda esa undan ham kamroqni) tashkil etadi. Avstriya to'lanadigan ta'tillar soni bo'yicha jahon chempioni sanaladi. To'lovli ta'tillar ish vaqtiga qarab har 30–36 ish kunida tashkil etiladi. Bu hol yaxshi, ammo yoshlar (ayniqsa, maktab o'quvchilari) uchun berilayotgan bo'sh vaqt kamayib ketmoqda, chunki maktabdagi talablar oshib boryapti.

So'nggi paytlarda hafta oxirlarini avstriyaliklar to'rt devor orasida o'tkazishni ma'qul ko'rib qolishdi – televizor ko'rish, gazeta o'qish, telefonlashish va boshqa ko'ngilochar vositalar yordamida shunchaki hordiq chiqarishadi. Deyarli barcha oila 94% dan ko'p kabel yoki sun'iy yo'ldoshga ulangan rangli televizorga ega. Avstriyaliklar kuniga, o'rtacha, 162 daqiqani o'zlarining sevimli televizori qarshisida o'tkazadi. Oilada an'anaviy bo'sh vaqt mashg'ulotlari uchun kam vaqt qolishi ajablanarli hol emas. Shu narsa aniqlandiki, o'sib borayotgan bo'sh vaqt taqsimoti oqibatida insoniy munosabatlarga darz ketayotir – qarindoshlarning bir-biridan yiroqlashishi, chin do'stlik tuyg'ularining esa shakllanmay qolishiga olib kelyapti. Biroq haligacha avstriyaliklar yaqinlari bilan sayr qilish, sayohatga chiqish yoki boshqa biror narsalar uyushtirish, asosan, birga ovqatlanish va mehmonga borish kayfiyatidan voz kechmagan. Shu bilan birga, ko'pchilik uyda qolib dam olish va bekorchilik qilish bilan cheklanib qolyapti. Musiqa tinglashga kelsak, buni hech qachon rad etishmaydi. Xalq musiqasi ommaviy sanalib, klassikaga talab kamroq.

Eng quvonarlisi, Avstriyada mutolaa qilish maroq bag'ishlashini qayta isbotlab berishdi. Har bir oila mehmonxonasidagi kitob javoni ko'pchilik uchun doimiy mebel hisoblanadi. Kitob javonlarida mashhur shoir Enst Yandlning she'rlar to'plami asosiy o'rinni egallaydi.

**Kutubxona**

Bir qancha harflar
So'zlar qilmas hosil.

Bir qancha so'zlar
Birlashsa gap bo'lmas, bil!
Bir qancha gaplar,
Yasay olmas bir matn.
Bir qancha matn
Yetmas bir kitob uchun.
Bir qancha kitob,
Endi ular chang bosgan, iflos.
Ajoyib farrosh,
Ularni changdan etadi xalos!

***(Sitora Norboboyeva tarjimasi)***

Avstriyaliklar kitob bilan uncha chiqishmaydi, lekin bunda kompyuterni ayblash noto'g'ri. Aksincha, kitobxonlarning aksariyat qismi kompyuterdan tez-tez foydalanadigan kishilar ekanligi tasdiqlandi.

O'tkazilgan umumiy so'rovnomalar natijalariga qaraganda, 66 % avstriyaliklar chinakam madaniyat oshnolari bo'lib, teatr, muzey va operaga borishni kanda qilmaydi.

## AVTOMOBIL: XOBBI, RAMZ, ZARURIY VOSITA



***Herman Mayer – Alp chang'i uchish yulduzi.***

Dam olish kunlari ko'p avstriyaliklar bo'sh vaqtlarida faol harakat qiladi, savdo markazlari, qurilish mollari shoxobchalari va oromgohlarga odamlar oqib kela boshlaydi; sayohat uyushtirish oqibatida talay vaqtlarini mashinalarida – tirbandlikda qolib o'tkazadi. Ko'p erkaklar uchun mashina haydash birinchi raqamli mashg'ulotdir, mashina ularning ramziy borlig'i sanaladi. Mashina anchadan buyon kundalik hayotning muhim vositasi bo'lib qolgan. 1990-yildan beri avtomobillar soni 3 milliondan 4,5 milliongacha ko'tarildi (2011). Shunday qilib, Avstriya dunyo bo'yicha eng ko'p avtomobil boshqaruvchilarga

ega millatlardan biridir. Yevropa miqyosida esa faqat italyanlar va nemislar mashinaga mukkasidan ketgan.

Yangi texnologiyalar to'lqini ham o'ziga yarasha muammolarni keltirib chiqarmoqda: havoning ifloslanishi, shovqin-suron va tobora o'sib borayotgan halokatlar kabi. Avstriyaliklarni intizomli haydovchilar deb bo'lmaydi, sababi ular poygachilardek harakatlanadi. Shuning uchun ham chet elliklar ularning shosselarida yoki mahalliy yo'llarida o'zlariga to'la ishonch bilan harakatlana olmaydi. Nima uchun Avstriya dunyodagi eng ko'p chapani haydovchilarga egaligini hech kim bilmaydi. Nima bo'lganda ham, ikkita haydovchi kuniga katta yo'ldan shunchaki qayrilib, mashinani teskari tomonga boshqarishi – aniq haqiqat. Yevropa uyushmasining 2010-yilgi o'rtacha hisobida bu davlat avtohalokat oqibatida hayotdan ko'z yumgan qariyb 552 qurbon soni bilan yetakchilik qilgan.

## SEVIMLI SPORT TURLARI



*Andi Goldberger – Avstriyaning mashhur chang'i uchuvchisi.*

Velosipedda uchish, suzish, yugurish, yayov sayohatga chiqish va albatta chang'ida uchish ko'pgina avstriyaliklarning sevimli sport turlaridir. Bir necha yillar ilgari bir qator qiziqarli sport turlari, ayniqsa, yozda rolikda uchish va qishki snoubord avj olgan edi. Ayniqsa, yoshlar uchun orzu qilingan sport turlariga parashyutdan sakrash va varrak uchirish kiradi. Syorfing va yelkanli qayiqda suzish ham ushbu ro'yxatdan joy olgan.

Ommaviy axborot vositalari va reklamalarda Avstriya «Eng yuqori natija ko'rsatuvchi sportchilar o'lkasi», deb atalsa ham, aslida, unday emas. Vijdonan olib ko'rilganda, aholining 1/3 qismi sportchilikka da'vogarlik qila oladi. 1/5 qismining esa o'zining sport bilan muntazam shug'ullanmasligi va nofaolligini tan olishga qurbi yetadi. Albatta, bunga sabab qiziqishning pastligidir. Sport ko'rsatuvlari deyarli har doim

yuqori reytingga erishadi, hattoki, ba'zilari tomoshabinlarning ishonchini oqlay olmasa ham. Ammo tog' chang'i sport turi bundan mustasno. Afsonaviy Toni Saylor (1956-yilgi Olimpiada g'olibi) va Frans Klammer (1976-yilgi Olimpiada g'olibi va 5 marta jahon kubogi mutlaq sovrindori)lardan keyin avstriyaliklar «Herminator» deb ataluvchi, o'z faoliyatini 2009-yilda tamomlagan Hermann Mayer nomli chang'i ustasiga ega. 2010-yil Vankuverda bo'lib o'tgan olimpiya o'yinlarida Avstriya vakillari hech qanday medal ololmagan. Lekin buning badaliga 2013-yil 23 yoshli Gregor Shlirentsauer chang'i uchish bo'yicha 50-g'alabasi bilan o'zining va Avstriyaning hisobiga jahon kubogini naqd qilib qo'ydi.

## DOLZARB «BO'SH VAQT MASHG'ULOTLARI»

Bugungi kunda bo'sh vaqtning biznes darajasiga ko'tarilishi faqatgina Avstriyaning chekiga tushgan emas. Endilikda iqtisodiy raqobat hamma yerda og'ir tus olgan bo'lib, u insonlarda o'z kasblariga nisbatan kuchliroq majburiyat hissini uyg'otadi. EDV (Elektron ma'lumotlarni qayta ishlash) va til kurslariga qatnash yaxshi bo'lsa ham, bo'sh vaqtda malaka oshirishga bo'lgan qiziqish juda kam.

Xalqaro savdo, moliyaviy oldi-berdilar va xaridlarni elektron usulda olib borish ham Avstriyada cheklanmagan. Homebanking (bank bilan bog'liq masalalarni shaxsiy kompyuterda internet orqali hal qilish) va E-Commerce (elektron savdo-sotiq ishlari bilan bandlik) har doim ham kutilgan natijani bermasa-da, yangicha «bo'sh vaqt dasturlari» hisoblanadi.

## TA'TIL VA MEHNAT TA'TILI

Ta'til haqidagi orzularini ko'pgina avstriyaliklar ancha vaqtdan buyon amalga oshirib kelmoqda. Ba'zilar yiliga ikki yo undan ko'p martalab ta'til sayohatida bo'ladi. 1969-yilda faqatgina 28 foiz aholining bitta mehnat ta'tiliga qurbi yetsa,bu ko'rsatkich 2011-yilda 60,3 foizga ko'tarildi. Ularning sayohat qiladigan sevimli joylari – o'z yurtlari. Sayohatlarning 1/3 qismi mamlakat ichidagi sayohatdir. O'z mamlakatlarida ularga aynan nima yoqar ekan? Ko'pchilikning

ta'kidlashicha, tozalik va xavfsizlik, shu bilan bir qatorda, turli-tuman go'zal sayrgohlar, beg'ubor tabiat, mehmonnavozlik va boy madaniy meros kishilarni o'ziga rom etadi. Yana bir afzal tomoni shundaki, deyarli barcha oromgohlarga oson va tez borsa bo'ladi. Bu sohada Kernten (Avstriyadagi tarixiy viloyat) birinchi o'rinda turadi, keyingi pog'onalarni esa Shtayermark, Zalsburg va Tirol band etgan.



***Sayohatga chiqish – avstriyaliklarning sevimli mashg'uloti.***

Sayohatlarning 50% dan ko'prog'i chet elga yo'naltirilgan bo'ladi. Avstriyaliklar uchun an'anaviy sayohat o'lkasi Italiyadir. Sababi bu davlat o'zining quyoshi, sohili va dengizi bilan ko'pgina insonlarning deyarli butun yil mobaynida to'plangan xohish-istaklarini ro'yobga chiqarishga qodir. 2012-yilgi eng mashhur sayohat maskanlari xit paradlar ketma-ketligida Italiyadan so'ng Xorvatiya, Germaniya va Ispaniya joy olgan. Turkiya ham eng yaxshi oshyonlardan biri sanaladi. Sayohatlarining talaygina qismi Yevropa davlatlari bilan chegaralansa ham, avstriyaliklarning uzoq o'lkalarda dam olish istaklari hamon so'ngan emas. Qat'iy talablarga qaramasdan, AQSH bugungacha sevimli yo'nalishlardan biri bo'lib qolgan. Tayland, BAA (Dubay) va Kubaning ham

bu borada bozori chaqqon. O‘zgaruvchan ob-havo, arzon samolyot chiptalari va bo‘sh vaqtni o‘tkazish uchun qulayroq takliflar ko‘p dam oluvchilarning o‘z ekzotik dengiz sohillariga borib hordiq chiqarishlariga asosiy sabab bo‘lib xizmat qiladi.

Sayohat avstriyaliklarning katta qismi uchun haligacha sohilda yotish, cho‘milish va bekorchilik qilishdan boshqa narsani anglatmaydi. Ayniqsa, bu bolalarga tegishli. Imkoni boricha, ko‘proq narsalarning guvohi bo‘lish va yangi tanishlar orttirish sayyohlarning uchdan bir qismini tashkil etuvchi 19 yoshgacha bo‘lganlar uchun ahamiyatlidir. Yoshlarning nazarida esa Avstriya – sovuq, qimmat, ustiga ustak zerikarli va eskirgan makon.



*Tirolda chang‘i uchish.*

Madaniy va me’moriy obidalar, ko‘pincha, ziyoli qatlamning e’tiborini tortadi. Nafaqat yoshlar, balki nafaqadagilar ham ta’tillarini bajonidil do‘stlari va yaqinlari bilan o‘tkazadi. Oxirgi yillarda ta’til so‘rovlari o‘zgacha tus olgan bo‘lib, odamlar uch haftalik ta’tildan ko‘ra bir haftaligini ma’qul ko‘rib qolgan. Chunki ushbu uzoq muddatli dam olishni kamdan kam kishining cho‘ntagi ko‘taradi. Eng maqbuli, noqulay ob-havoda shunchaki sayohat byurosida yoki aeroportda o‘tirib, bitta o‘rin band qilish va bir haftaga janub tomonlarga ravona bo‘lishdir. So‘nggi daqiqalarda ta’til yo‘nalishlari ancha arzonroq bo‘lib, harflar ketma-ketligida joy bron qilinadi. Qishda aholining talay qismi chang‘i uchish va qo‘shni davlatga borish kabi qisqa ta’til bilan kifoyalanadi. Avstriyaliklar sayrga chiqishdan chinakam zavq oladi, ayniqsa, yosh bolali oilalar uchun bu – odatiy hol. Kunlik sayrning asosiy qismini yayov yurish, cho‘milish va chang‘i uchish tashkil etadi.

Avstriyaliklar o‘zlarining sayohatga bo‘lgan ishtiyoqlaridan hech qachon voz kechmaydigandek tuyulsa ham, ba’zilari bunday xohishdan voz kechishga majbur. Asosan, nafaqadagilar, ishsizlar, hatto, ba’zi kasb egalari – quruvchilar va ishchilarning butun boshli sayohatga qurbi yetmaydi. Shu sababli ham ular uylarining ayvonida dam oladi.

## 10. TAOM VA ICHIMLIK

Avstriyaliklar yaxshi va shohona taomlarni juda qadrlaydi. Ko'pchilikka bu sayohat, moda va sportdan ham muhimroqdir. Gastronomiya sohasi bo'yicha Alp tog'lari o'lkasi dunyoga mashhur, chet elda esa Avstriya o'z oshxonasi bilan yuksak mavqega ega. Deyarli hamma joyda Vena shnitseli, olmali shtrudel (pirog) va «Zaxer» tortining dong'i taralgan. Avstriya lazzatli taomlar mamlakati sifatida tilga olinadi.

Mabodo, Avstriya oshxonasi haqida gap ketsa, asosan, XIX asrda shakllangan Vena oshxonasi nazarda tutiladi. Vena turli xil madaniyat, til va son-sanoqsiz milliy taomlarga ega bo'lgan ko'pgina millatlarning markazi bo'lgan. Monarxiyaning barcha qismlaridan tashrif buyurgan oshpaz ayollar o'zlarining retseptlari, ziravorlari, taomga kerakli masalliqlari, shuningdek, taomni iste'mol qilish va uni tayyorlash madaniyatini nafaqat olib kirgan, balki uni shakl jihatdan o'zgartirgan, tayyorlash usullarini soddalashtirib uyg'unlashtirgan. Natijada bugungi kungacha o'z mavqeyini o'zgartirmagan Vena oshxonasi shakllangan.

Mahalliy oshxona bilan bir qatorda, an'anaviy taomlar ham o'ziga xoslikka ega, masalan, zamonaviy usulda tayyorlasa ham bo'ladigan, turli ziravorlar bilan to'yintirilgan, shu bilan birga, lazzatli ta'mga ega bo'lgan «Haubenküche» (parranda go'shtidan tayyorlanadigan o'ziga xos taom) shular jumlasidandir.

### UY TAOMI VA OSHXONA

«Vena taomlarining talaygina qismi Avstriya dasturxonining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Vena shnitseli bilan bir qatorda, «Backhendl» (qovurilgan tovuq) ham Vena oshxonasining klassik taomlaridan biridir». (Franz Maier-Bruck). Vena shnitseli, aslida, italiyaliklar tomonidan kashf etilgan degan yolg'on qarash hozirda inkor qilindi (qarang: Hayns Dieter Pol. *Die österreichische Küchensprache.* Avstriyacha oshxona tili. 2007). Venacha haqiqiy shnitsel buzoq go'shtidan tayyorlansa-da, ko'p hollarda, ancha arzon bo'lgan cho'chqa go'shti

ham ishlatiladi. Shnitselga qo'shimcha sifatida aksariyat odamlar kartoshkali yoki ko'katli salat, guruch yoki petrushkali kartoshka iste'mol qiladi.



***Avstriya shnitsel diyoridir.***

Ko'pgina avstriyaliklar uchun «Backhendl» un, tuxum va qotirilgan non ushoqlarining aralashmasiga botirilib, qizdirilgan yog'da qovurilgan muloyimgina tovuqli tansiq taomning «mukammal» ko'rinishi hisoblanadi. Qovurilgan, achchiq qalampirdan qilingan sousga bo'ktirilgan va grilda pishirilgan tovuq go'shti avstriyaliklarning sevimli taomidir.

Umuman olganda, go'sht avstriyaliklarning jon-u dili. Ular kishi boshiga qariyb 65,6 kg go'sht bilan Yevropa Ittifoqining eng salmoqli go'sht iste'molchilari sirasiga kiradi. Har bir avstriyalik yiliga, o'rta hisobda, 39 kg cho'chqa, 12 kg mol, buzoq, parranda va boshqa go'sht turlarini iste'mol qiladi (2011). Mol go'shtidan tayyorlanadigan ovqatlar tansiq hisoblanadi, ayniqsa, «Tafelspitz» yerqalampir bilan qaynatilgan mol go'shti, kartoshka va olmali pyure bilan tortiladi), maxsus sho'rvada qaynatilgan «Gustostückerl» va qovurilgan o'pka (Rindesfilet) shular jumlasidandir. Kelib chiqishi Vengriyaga borib taqaladigan gulyashni avstriyaliklar istalgan paytda, ayniqsa, bayramlar va raqs kechalaridan so'ng tanovul qila oladi.

Bu mamlakatda cho'chqa go'shtining iste'moli o'ta yuqori darajada bo'lib, qovurilgan cho'chqa go'shti hech qachon rad etilmaydi. Ba'zi avstriyaliklar hayotlarini qovurilgan cho'chqa go'shti va «Knödel» (go'sht yoki oq non ushoqlari va kartoshkadan dumaloqlangan bo'lakchalar)siz aslo tasavvur eta olmaydi.

Undan tashqari, Avstriya sho'rvalar diyori hamdir. Chinakam taomga kifta (frikadelka) mol go'shtidan tayyorlangan sho'rva mansub bo'lib, unga qo'shimcha tarzda «Griessnockerln» (un qo'shib qilingan, tuxumli pirog), o'pkali rulet, jigarli kiftalar yoki mitti xamirli sharchalar qo'shiladi. Meva va sabzavotlarga talab uncha yuqori emas, ammo, quvonarlisi shuki, so'nggi yillarda ularning iste'moli ham ortmoqda.

## XAMIRLI TAOMLAR

Haqiqatan, Avstriya o‘ziga xos, ajoyib nomga ega bo‘lgan xamirli taomlari va shirinliklari bilan ham mashhurdir, masalan, «Gugelhupf» (silindr shaklidagi keks), «Palatschinken» (palanchik – blinchik ko‘rinishidagi shirin naychalar), «Vanillekipferl» (vanilinli rogaliklar), Kokosbusserl (busserl – kichkina, dumaloq shirin kulcha)... Xullas, Avstriyada sho‘rva bilan boshlangan har qanday taomnoma biron-bir shirinlik bilan tugaydi.

Dong‘i ketgan xamirli taomlardan biri turli xilda tayyorlanadigan ruletdir. Olmali, tvorogli va olxo‘rili ruletlar eng mashhur hisoblanib, kartoshkali, ko‘katli va hatto loviyali ruletlar ham tayyorlanadi.



*Zalsburgcha taom.*

Avstriyaliklar dasturxonida tortga ahamiyat katta. Eng mashhur tort XIX asrda Frans Zaxer tomonidan o‘ylab topilgan. Bu uning o‘g‘li – Vena shahridagi «Zaxer» mehmonxonasi xo‘jayini bo‘lmish Eduardning sa’y-harakatlari bilan butun dunyoga ovozasi ketgan «Zaxer torti»dir. Bu orasiga o‘rikli marmelad, ustiga esa shokoglazur surtilgan shokoladli tort bo‘lib, «Zaxer» torti nomi uchun «Zaxer» mehmonxonasi va «Demel» – Vena qandolatchilik markazi o‘rtasida yetti yillik ziddiyatlar bo‘lib o‘tgan. Asl «Zaxer torti»ning orasiga o‘rikli marmelad solinadimi yoki yo‘qmi, degan savol tortishuvga sabab bo‘lgan.

Bu narsadan, hatto, qonun ham bexabar edi, ammo u ikkala muassasaga ham ushbu mahsulotni ishlab chiqarishga izn berdi. Albatta, faqatgina Zaxerlar o‘z o‘rnida imtiyozga ega bo‘lishi kerak, biroq bu masalaga ko‘p avstriyaliklar ahamiyat bermaydi.

Ular sevimli tortlarini na Demeldan, na Zaxerlardan sotib oladi. Deyarli har bir uy bekasi o‘z variantini o‘zicha tayyorlaydi va choy, qahva ichganda qaymoq bilan birga dasturxonga tortadi.

## FEDERAL O'LKALARNING AN'ANAVIY TAOMLARI

Har qaysi federal o'lkaning o'ziga xos lazzatli taomlari mavjudligi quvonarli hol, albatta. Masalan, Kerntenda «Kasnudeln» (ugrali taom turi) va tvorog to'ldirilgan xamirli qopchalar sevib iste'mol qilinadi. Shtayercha taomnomadan esa qiyma va cho'chqa yog'idan tayyorlanib, nonga surtib yeyiladigan yog' o'rin oladi. Forarlbergda ko'p pishloq mahsulotlari ishlab chiqarilganligi sababli u yerda pishloqdan turli taomlar tayyorlashadi, masalan, pishloqli sho'rva, pishloqli sharchalar, pishloqli shpetsli (ingichka qirqilib, suvda qaynatiladigan ugra), pishloqli knyopfle (xamirli taom) va h.k. Zalsburgga xos taom shakar bilan ko'pirtirilgan tuxum oqi va biroz havo to'ldirilgan zalsburgcha yostiqchalar bo'lib, ularni uy sharoitida tayyorlash o'ta mushkul.

Kifta avstriyaliklarning jon-u dili va uning juda ko'p turlari bor. Tirolcha kifta bug'doy unidan qilingan non ushoqlari va cho'chqa yog'idan tayyorlanadi. Vena bulochkali knodeli hamda kartoshkali xamir ustida tanovul qilinadigan o'rikli knodel xamirxo'rlar uchun ayni muddaodir.

## QAHVA ICHISH

Avstriyaliklarning sevimli hayot tarziga, so'zsiz, qahva ichish ham tegishlidir. Qahva – milliy ichimlik. Avstriya Skandinaviyadan keyin Yevropadagi eng ko'p qahva iste'mol qilinadigan davlatdir, hatto, Avstriyada tushlikni ham qahvasiz tasavvur qilish qiyin. Peshin paytida keksa ayollarning sevimli joyi qahvaxona bo'lib, u yerda nafaqat qahva, balki tortlardan ham totib rohatlanishadi. Vena qahvaxonasi madaniyat markazi sifatida uzoq an'anaga ega bo'lib, u yerda bir asrdan beri, ayniqsa, rassomlar va yozuvchilar uchrashishadi. Kafe ba'zi avstriyaliklar uchun dam olish maskani, idora va yashash joyidir.

## QAHVA TURLARI

| | |
|---|---|
| Mokka | = achchiq qora qahva |
| Kichkina jigarrang qahva | = kichkina chashkadagi sutli qahva |

| | |
|---|---|
| Katta jigarrang qahva | = katta chashkadagi sutli qahva |
| Melanj | = sutli qahva |
| O'tkir ta'mi bo'lmagan qahva | = qahvaga ko'proq suv qo'shilgan |
| Shale Gold | = qahva (oltinsimon) |
| Venacha qahva | = issiq mokkali idishlar va quyuq qaymoq |
| Muzqaymoqli sovitilgan qahva | = mokkali vanilinli muzqaymoq va quyuq qaymoq |
| Cappucchino | = ko'pikli, sutli italyancha qahva |

## BIR KRUJKA PIVO VA BIR QADAH VINO

Pivo avstriyaliklarning sevimli ichimligi, ammo chexlar ko'proq pivo ichadi, avstriyaliklarning aksariyati bir stakan vino bo'lsa, rad etmaydi. Vena Avstriya turmush tarzining muhim qismidir. Statistika shuni ko'rsatadiki, Avstriya odam boshiga vino iste'mol qilish bo'yicha ilk o'ntalik davlatlarga kiradi. Yaqin tarixning ba'zi «ichish bayrami» siyosatchilari afsonadir. Barcha ijtimoiy guruhlarda vino iste'mol qilish kamaygan. Ko'plab odamlar o'zining vino do'konini uzumzor ro'parasida ochgan va vino degustatorlari bu yerga kelishni yaxshi ko'radi. Yozda «G'psritzte» (yarim vino, yarim ma'danli suv) sevimli ichimligi barchaning jon-u dili.

An'anaviy Vino instituti «Heurige»dir. Bu so'z «heuer» («bu yil») so'zidan kelib chiqqan va «heurigen», «yangi vino»ni ifodalaydi. Uzumzorning qishloq restorani bo'lib, bu yerda venaliklar vino ichadi va xirgoyi qiladi. Ko'plab avstriyaliklar Heurigenga tashrif buyurishni xush ko'radi. Ular bufetdan o'ziga ovqat olib keladi va uzun yog'och stol atrofida yaxshi kayfiyatda o'tiradi. Ko'plab Heurigen ashulalari romantik va melanxolikdir. Mahalliy aholi Venaning vinolar tatib ko'riladigan mashhur tamaddixonasi hisoblangan «Heurige»ga borishni yaxshi ko'radi. Sayyohlar Grinzingga tez-tez tashrif buyuradi.

## VENA SHNITSELI YOKI MAKARONLAR: OSHXONA KUNDALIGIDAGI AN'ANALAR

Taom va ichimliklar haqida so'z borganda, avstriyaliklar qanchalik konservativ bo'lmasin, «fastfud»lar qanchalik ko'p iste'mol qilinmasin, ularning

iste'molidagi o'ziga xoslik hamda ovqatlanishga oid qarashlar oxirgi yillarda biroz o'zgargan.

Bugungi kunning trendi quyidagicha; ko'pchilik avstriyaliklar hozir bundan o'n yil avvalgiga qaraganda salomatligiga befarq bo'lmagan holda ovqatlanadi. Masalan: nonushtaga shirin pishiriqlar yoki sariyog' kamaytirilgan. Buning o'rnini ko'proq yogurt, donli bo'tqa va margarinlar egallagan. Tushlikka ko'pchilik sho'rvani rad etyapti va kamroq cho'chqa go'shti iste'mol qilyapti, vino va pivo ichish kamaytirildi, ko'proq ma'danli suv ichilmoqda. Ayniqsa, ayollar ko'proq yangi sabzavotlar iste'mol qilmoqda. Shakarning o'ta ko'p iste'mol qilinishi Avstriyada vazni og'irlar va semizlar sonining jadal ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, avstriyaliklar o'z shnitselini emas, balki makaronni sevib iste'mol qiladi. Yana boshqa bir so'rovnoma esa o'zgacha natija berdi va unda shnitsel birinchi o'rinni egalladi.

Xullas, klassik Vena shnitseli Avstriya dasturxonidagi o'z o'rnini yo'qotgani yo'q, u har doimgiday avstriyaliklarning sevimli taomlaridandir. Avstriya shnitsel mamlakati bo'lib qoladi.

Avstriyaliklarda ovqatlanish uchun vaqt bor, biroq kasb taqozosiga ko'ra, bu vaqt kamaymoqda. Oila nonushtada ko'rishadi. Tushlik faqatgina keksa odamlar uchun asosiy ovqatlanish vaqti bo'lib, o'ttiz yoshdagi yoshlarning 40% dan ortiqrog'igina bunday to'kislikka erishgan. Bu yoshdagilar uchun ovqatlanishning tez hal bo'lishi, ayniqsa, muhim. Monitor yonida sosiskali shirin kulcha yeyish bilan kifoyalanadilar yoki uni ko'chada ham yeb ketaveradilar. Xullas, Avstriyada ham ovqatlanishning sifat jarayoni pasayib ketgan.

Qolaversa, taom pishirish – hali ham ayollarning yumushi. Taxminan 78% ayollar buni har kuni bajaradi, shuningdek, juda ko'p erkaklar ovqat qilmaydi. Biroq dasturxonda nimalar bo'lishini doim ular hal qiladi. Xarid qilish ayollar zimmasida.

«Fastfud» Avstriyada ham bor. U yoshlar orasida juda keng tarqalgan. Kamida 44% avstriyaliklar haftada bir marta tayyor taomlarni iste'mol qiladi. Ovqat pishirishga erinadiganlar uchun kichik oshxonalar bo'lib, unda barcha oila a'zolari birgalikda ishlashi, to'yib va arzon ovqatlanishi mumkin. Kim ekzotikani afzal ko'rsa, ayniqsa, Venada yetarlicha chet el taomlari tayyorlanadigan oshxonalarni topadi. Bunga e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydigan, so'nggi yillarda ochilgan ko'plab Xitoy restoranlarini misol keltirish mumkin.

### Avstriya – og‘ir vazinlilar yurti

Avstriyaliklar haddan ziyod ko‘p yog‘ yeydi. Natijada: 35% erkaklar va 20% ayollar og‘ir vaznga ega. Ikkala jinsning har biridan 6 foizi, hatto, kaloriya xo‘randasi (adipös). Buni Sog‘liqni saqlash vazirligining iste’mol to‘g‘risidagi eng so‘nggi ma’lumotlari tasdiqlaydi. Mazkur ma’lumotlarga ko‘ra, avstriyaliklar hali ham an’anaga xos va ko‘p kaloriya iste’mol qiladi. Go‘sht mahsulotlari yanada xushxo‘r. Misol uchun, kishi boshiga oyiga 5 kg cho‘chqa go‘shti iste’mol qilinadi. Baliqqa talab kishi boshiga oyiga atigi 450 gr. Biroq faqat o‘ta kaloriyali taomlar emas, balki desertga bo‘lgan qiziqish har ortib bormoqda. Shirinliklarni iste’mol qilish bir necha yillardan buyon juda yuqori sur’atda o‘smoqda.

O‘simlik mahsulotlariga talab juda kam.

***www.standard.at*** ***2007-yil, 6-mart***

### «Erdapfelsalat» «Erdapfelsalat» bo‘lib qoldi: taom va til

Avstriyaliklarning og‘zaki so‘zlashuvida ko‘p atama va iboralar yaxshi taomning o‘rnini belgilab beradi. Masalan: «Backhendlfriedhof» tanovul qilingan tovuqning «so‘nggi manzili» qorin uchun hazilona, so‘zlashuv tiliga xos atamadir. Kimki xayoli parishon, sust va asabiylashgan bo‘lsa, nimadir juda sekin harakatlansa yoki umuman harakatlanmay qolsa, uni «oshgan xamir» deydilar.

Yevropa Ittifoqiga a’zo bolish haqidagi muzokaralarning ko‘rsatishicha, taomlar terminologiyasi Avstriyaning o‘ziga xosligi uchun juda muhim. Ko‘plab avstriyaliklar YI da o‘ziga xosliklarini yo‘qotmaslikni istaydi, ayniqsa, taom va ichimlik masalasida. Ko‘pchilik yangi mahsulotlardan qo‘rqadi, o‘zlariga qadrli, sevimli bo‘lib qolgan atamalarni yo‘qotishni istamaydi. Shu tariqa «Marillen», «Ribiseln» va «Weichseln»larni keskin yo‘qotish haqida qizg‘in bahslar bo‘lgan. Yevropa iqtisodi doirasida faqat Germaniyada qo‘llaniladigan atamalar tan olinishi muhim. Ya’ni o‘rik – Aprikosen, smorodina – Johannesbeeren und, olcha – Sauerkirschen. Ko‘p odamlar o‘z tilining pruslashuviga qarshi himoyalandi va Bonn yoki Brusseldagi unga oid ko‘rsatmalarni bajarmadi.

Yevropa Ittifoqidagi avstriyaliklarga OAB da doim vahimali xabarlar beriladi: genetik o'zgartirilgan schnitsel va nurlangan pomidorlar. Ammo Vena hokimi odamlarni tinchlantirish uchun harakat qildi va bir gazetaning bosh sahifasida «Erdapfelsalat» «Erdapfelsalat» deb atalishi kerak va «Kartoffelsalat» deb o'zgartirilmasligi lozim, deya ma'lum qildi. Shu tariqa avstriyaliklar nafaqat o'zlarining «Erdapfelsalat»ini saqlab qoldi, balki 10-raqamli Yevropa Ittifoqi bayonnomasiga Yevropa Ittfoqida Germaniyada ishlatiluvchi atamalar bilan teng ahamiyatga ega bo'lgan oziq-ovqatlar sohasiga oid maxsus avstriyacha atamalarning to'liq ro'yxati ham kiritildi. Bunga bir necha misollar:

| Avstriya | Germaniya | Tarjimasi |
|---|---|---|
| Beiried | Roastbeef | rostbif |
| Eierschwammerl | Pfifferlinge | qo'ziqorin turi |
| Erdapfel | Kartoffeln | kartoshka |
| Faschiertes | Hackfleisch | qiyma go'sht |
| Fisoln | grьne Bohnen | yashil no'xat |
| Karfiol | Blumenkohl | gulkaram |
| Kren | Meerrettich | yerqalampir |
| Melanzani | Auberginen | baqlajon |
| Marillen | Aprikosen | o'rik |
| Obers | Sahne | qaymoq |
| Paradeiser | Tomaten | pomidor |
| Powidl | Pflaumenmus | olxo'rili murabbo |
| Ribisel | Johannisbeeren | smorodina, qorag'at |
| Topfen | Quark | tvorog |
| Weichseln | Sauerkirschen | olcha |

## OVQAT SHINAVANDALARI UCHUN KO'RSATMALAR

### QOVOQXONA

Venada kichik oshxonalar «qovoqxona» deb ataladi. Bu turli yoshdagilar uchun qadrli uchrashuv joyi bo'lib, ko'pincha, sport jamoalari va klublarining doim kelib ovqatlanadigan joyidir.




***Vena shtadtbaysli.***

Bu yerda yaxshi taomlarni o'rtacha narxda sotib olish mumkin. Issiq ovqatlar, ko'pincha, soat 12.00 dan 14.00 gacha va 18.00 dan 20.00 gacha bo'ladi.

Ichishga ma'danli suv va alkogolsiz ichimliklar bilan birga, ko'pincha, vinoning faqat bir navi mavjud bo'ladi, ammo kam holatlarda har ikkala: oq va qizil navlari bor. Pivo shisha idishda bo'ladi yoki quyib beriladi.

### SOSISKA

Italiyada pitsa, Amerikada gamburger, Angliyada baliq va chips xush ko'rilganidek, Avstriyada kolbasa sevib iste'mol qilinadi. Bufetda kolbasani tik turib yeyish mumkin. Masalan: Venada «Haabe» deb nomlangan yog'li va

arzon kolbasa, qovurlgan, yarim dudlangan kolbasa va jigarli pashtetning bozori chaqqon.

Tatib ko'rishga Avstriya taomnomasi:
Jigar kiftali yoki fritattli sho'rva,
Ko'kat sepilgan, kartoshkali Vena shnitseli,
Xamirli suyuq ovqat yoki shokoladli tort.

## JIGAR KIFTALI SHO'RVA (4 KISHILIK)

1 l mol go'shti sho'rvasi
120 g mol jigari
30 g yog'
Piyoz
Petrushka
2 ta shirin kulcha
1 dona tuxum
Sarimsoqpiyoz
Non talqoni
Xushbo'y ziravor, murch
Tuz

30 gramm yog' mayda to'g'ralgan piyoz va petrushka bilan yengil qovuriladi. Bu 120 gramm jigar qiyma, yumshatilgan, ezilgan va suvi siqilgan shirin kulcha va bitta tuxum bilan aralashtiradi, keyin tuz, murch, xushbo'y ziravor va maydalangan sarimsoq piyoz qo'shiladi. So'ngra barcha masalliq non talqoni bilan aralashtiriladi va muzlatkichga qo'yiladi. Ma'lum vaqtdan keyin bu masalliqdan kichkina zuvalachalar yasaladi va bu zuvalachalar tuzlangan suvda 10 daqiqa pishirib olinadi. Zuvalachalarni suvdan olib quritgandan keyin go'shtli sho'rvaga qo'shib dasturxonga tortiladi.

## FRITATTLI SHO'RVA

1/4 l sut
Un
Yog'
1 dona tuxum
Bir chimdim tuz

Un, tuxum va sutdan suyuq xamir qoriladi va 10 daqiqa tindirilib qo'yiladi. Keyin bir qoshiq yog' tovaga solib qizdiriladi va 4 osh qoshiq xamir quyiladi. Xamirni tova bo'ylab bir tekisda yupqa qilib yoyamiz. Yupqa xamirning ikki tarafini qizartirib olamiz va sovitishga qo'yamiz. Keyin xamirdan yupqa tasmalar kesib, qaynoq sho'rva bilan dasturxonga tortamiz.

## VENA SHNITSELI (1 KISHI UCHUN)

| | | |
|---|---|---|
| 150–200 g mol go'shti | $^1/_2$ qoshiq yog' | Tuz |
| 1 dona tuxum | 1 oshqoshiq sut | Non talqoni |
| | Un | |

Mol go'shtini o'rtacha qalinlikda kesamiz, ikki tarafini yaxshilab bolg'achada uramiz va unga belab olamiz. Idishga bitta tuxum, bir necha tomchi yog', bir osh qoshiq sut va bir chimdim tuz solib yaxshilab aralashtiramiz. Go'sht bo'lagini suyuq masalliqqa botirib olamiz va ikki tarafiga non talqonini sepamiz. Non talqoniga belangan go'sht bo'lagini uzoq qo'ymasdan, tezda pishirish kerak, aks holda, non talqoni nam tortib pishirilayotgan vaqtda go'sht bo'lagining usti qotib pishishi mumkin. Go'sht bo'lagini kamroq yog'da pishirish kerak.

## XAMIRLI SUYUQ OVQAT (2 KISHILIK)

| | | |
|---|---|---|
| 4 dona tuxum | 120 g un | 30 g mayiz |
| 30 g shakar | Tuz | Qand upasi |
| Taxminan 1/4 l sut | 50 g uchun sariyog' | |

Un, shakar va tuxum sarig'ini sut bilan aralashtirib, bir tekisdagi quyuq xamir hosil qilinadi. Tuxum oqi yaxshilab ko'pirtiriladi va asta-sekinlik bilan xamirga qo'shiladi. Tovaga xamirni solib, ustiga eritilgan sariyog' quyamiz va ustini qizartiramiz. Ustiga mayiz sepamiz, keyin orqa tarafini o'giramiz va o'rta olovda tayyor bo'lguncha pishiramiz. Kichkinaga bo'laklarga bo'lib, qand upasi sepamiz. Kompot bilan birgalikda dasturxonga tortamiz.

## SHOKOLADLI TORT

130 g sariyog‘
130 g shokolad
130 g un
120 g qand upasi
6 ta tuxum oqi
O‘rik murabbosi
6 ta tuxum sarig‘i
Shakar



Yumshatilgan sariyog‘, shakarning yarmi, eritilgan shokolad va tuxum sarig‘i ko‘pik holatiga kelguncha aralashtirladi. Ko‘pirtirilgan tuxum oqi qolgan shakar bilan qattiq holatga kelguncha aralashtiriladi. Ikkala masalliqni bir-biriga qo‘shamiz va asta-sekin un va vanilinli qand upasi bilan aralashtiramiz. 1 soat davomida gaz patnisida past olovda pishiriladi. Xamir pishgandan keyin yaxshilab sovitiladi. Xamirning ustiga o‘rik murabbosi surtiladi va ustki qavati quyuq shokolad glazuri bilan qalin qilib qoplanadi.

## GLAZUR

200 g shakar
150 g shokolad
1/8 l suv

Shakar suvda 5–6 daqiqa baland olovda qaynatiladi. So‘ng iliq holatga kelguncha sovitiladi. Shokoladni eritamiz va shakarli suvga asta-sekinlik bilan solib quyuq glazur hosil bo‘lguncha past olovda qaynatamiz.

# 11. MAKTAB TA'LIMI

## AVSTRIYACHA MAKTAB TIZIMI

## MAJBURIY UMUMIY MAKTAB TA'LIMI

Avstriyada barcha bolalar 5 yoshdan 15 yoshgacha maktabga qatnashi shart. Umumiy majburiy ta'lim 6 yoshdan boshlanadi. Besh va olti yoshdagi bolalar bog'chaga borishga majbur. Maktabga tayyorgarlik ixtiyoriy.

Majburiy ta'lim quyidagi maktab turlari orqali amalga oshiriladi:

- 1–4-sinflarni o'z ichiga olgan boshlang'ich yoki maxsus maktab. (ISCED 1)
- 5–8-sinflarni o'z ichiga olgan o'rta maktab (Hauptschule), umumiy yuqori ta'lim maktabi, yangi o'rta maktab yoki maxsus yuqori bosqich maktabi. (ISCED 2)
- 9-sinfni o'z ichiga olgan politexnika maktabi, maxsus maktab, umumiy yuqori ta'lim maktabi yoki kasb-hunarga yo'naltirilgan o'rta va yuqori maktab. (ISCED 3)

## BOSHLANG'ICH TA'LIM

Bunda e'tibor to'rt amalga qaratiladi: o'qish, yozish, hisoblash, shuningdek, ma'lumotlarga tayyorgarlik. Xalq maktabining vazifasi barcha bolalar uchun umumiy, asosiy va teng ta'limni sotsial, emotsional, intellektual va jismoniy shaxsiyat sohasida o'rnatish. Maktabda o'g'il-qizlar birga o'qiydi.

Fanlar to'rt yil davomida murabbiylik qiladigan sinf rahbari tomonidan o'qitiladi. Ingliz tili birinchi sinfdan o'tiladi. Birinchi o'rganuvchi tili nemis tili bo'lgan bolalar sinflar uyushmasida o'qitiladi va talabga qarab nemis tilini organishi mumkin.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMNING QUYI BOSQICHI

Boshlang'ich maktab tamomlangandan so'ng umumiy yuqori ta'lim maktabi quyi bosqichi yoki o'rta maktabga boriladi.

Taxminan 32% o'quvchi boshlang'ich maktabdan keyin umumiy yuqori ta'lim maktabiga, 48% i o'rta maktabga qatnaydi.

## O'RTA MAKTAB (10 YOSHDAN 14 YOSHGACHA)

O'rta maktab umumiy ta'limni to'ldirishi, kasb-hunarga tayyorlashi zarur. U o'quvchilarning turli talablariga ko'ra juda tez kechishi ham mumkin. Nemis tili, matematika va mavjud chet tili fanlari bo'yicha o'zlashtirish guruhlari mavjud bo'lib, ularda turlicha o'zlashtirish qobiliyati va ishlash tezligiga ega bo'lgan o'quvchilar o'qiydi. O'rta maktabning bitiruvchilariga navbatdagi barcha maktablarning eshiklari ochiq. 2015/20 o'quv yiligacha hamma o'rta maktablar yangi o'rta maktablarga aylantiriladi.

## UMUMIY YUQORI TA'LIM MAKTABI

Bu maktab to'rt yillik quyi bosqichni, shuningdek, to'rt yillik yuqori bosqich hamda bitiruv imtihonini o'z ichiga oladi. Bu bitiruv guvohnomasi bilan universitetlarda yoki kasb-hunar kollejlarida tahsil olish mumkin. Avstriyada turli sohalarga ixtisoslashgan gimnaziyalar faoliyat ko'rsatadi (masalan: tilga ixtisoslashgan gimnaziya chet tillarini o'rgatadi; aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan gimnaziya matematika, biologiya, kimyo va fizikaga yo'naltirilgan; iqtisodiyot gimnaziyasi kimyo, iqtisodiyot nazariyasi, psixologiya va falsafaga asoslangan).

## YANGI O'RTA MAKTAB (KOOPERATIV O'RTA MAKTAB)

Bu yerda o'rta maktab va gimnaziyaning o'quv rejasi asosida o'qitiladi. Unga majburiy va umumiy ta'lim beruvchi yuqori (sinf) maktablarining o'qituvchilari ishga olinadi.

10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarga bu maktabda o'qish imkoniyati beriladi. Mazkur turdagi maktab 2012-yilning sentabridan boshlab faoliyat ko'rsata boshladi.

## YUQORI BOSQICH TA'LIM MAKTABI

Qobiliyat va qiziqishlariga ko'ra o'quvchilar har xil maktab turlarini tanlashi mumkin. Umumiy ta'lim beruvchi maktablar bilan birga kasbga tayyorlovchi maktablar ham mavjud. Yuqori bosqich o'rta maktabning taxminan 26% bitiruvchilari kasbga yo'naltiriladi, o'rta maktabning 8% va UYTM quyi bosqichining 62% bitiruvchilari UYTM ning yuqori bosqichiga o'tadi.

## POLITEXNIKA MAKTABI (14–15 YOSHLILAR)

Atigi bir yil davom etadigan bu maktabga avstriyalik yoshlarning 20% i boradi. Ular bu yerda kasbga yo'naltiriladi va sohaga oid dastlabki bilimlarni oladi. Ta'lim jarayonida korxonalarga boriladi va kasb tanlashni yengillashtirish uchun amaliyotga tegishli haftalar ajratiladi. Mazkur maktabning juda ko'p bitiruvchilari kasbiy hayotni boshlaydi.

## UMUMIY YUQORI TA'LIM MAKTABI

Yuqori bosqichlar chuqurlashtirilgan umumiy ta'limni ta'minlashi va bitiruvga yo'naltirishi kerak. Xuddi shu maktabning quyi bosqichlariga xos bo'lgan uchta maktab tipi bor.

**Kasbga tayyorlovchi o'rta maktab**lar bir yildan to'rt yilgacha bo'lgan tugallangan kasbiy tayyorgarlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, sanoat, tasviriy san'atga yo'naltirilgan kasb-hunar maktablari ham bor. (Masalan: mashinasozlik, elektrotexnika, qurilish texnikasi). **Savdo maktablari** tadbirkorlik kasbiga oid malakani beradi. Moda, turizm, ijtimoiy kasblar va qishloq xo'jaligi uchun ham hunar maktablari mavjud.

## KASBGA YO'NALTIRUVCHI OLIY MAKTABLAR

Ularga 8-sinfdan keyin borishlari mumkin. Bu maktablar kasbga tayyorlash bilan birga besh yildan so'ng diplom beradi. O'quvchilar chuqur umumiy ta'lim oladi.

## DUAL TIZIM

Avstriyada kasbga oid dastlabki ta'lim o'rta va yuqori maktablar bilan birgalikda, ayniqsa, shogirdlar tahsili doirasida va o'quv-ishlab chiqarish kombinati hamda kasb maktabida amalga oshadi. Shuning uchun ham bu ta'lim «Dual ta'lim» deb ataladi. Shogirdlar tahsilining asosiy homiysi kichik va o'rta korxonalardir. Hozirda 200 xil kasbni tanlashlari mumkin.

## KASB MAKTABLARI

Kasb maktablari o'quvchilarga tahsil davomida asosiy nazariy bilimlarni beradi. Bu maktabga qatnash haftada bir kun yoki sakkiz haftalik o'qish shaklida bo'ladi.

## O'QITUVHCILARNI QAYTA TAYYORLASH

Avstriyada 200 ta o'rganish sohasi mavjud bo'lib, ulardan eng talabgorlari konfet tayyorlovchilar, zararkunandalarga qarshi kurash yoki bo'yoq anjomlarini yasovchilardir. Shuningdek, yangi o'rganish sohalaridan yoshlar katta talab bilan quyidagi sohalarni egallashi mumkin: IM texnigi, bog'dorchilik tadbirkori, dallol, chiqindilarni tozalovchi va qayta ishlovchi mutaxassis, quyoshdan himoyalovchi mutaxassis va fitnes yetakchisi.

Ammo amalda ko'plab yigit va qizlarda juda kam bo'yicha sohalar ko'nikmalar shakllantiriladi. Yoshlarning kasb istaklari ko'p yillardan buyon bir xil bo'lib qolgan. Shuningdek, faktlar ham hech narsani o'zgartira olmaydi, ya'ni qizlar sekin-asta erkaklar kasbini ham egallayapti. Misol uchun, duradgor, me'mor, shuningdek, avtomexanik va chekish havzalarini supuruvchi bo'lishni xohlayapti. Ta'lim uch yil davom etadi va imtihon bilan nihoyalanadi.

# 12. AVSTRIYADA TA'LIM

## UNIVERSITETLAR

Avstriyada davlat tomonidan moliyaviy ta'minlanadigan va vazifalari qonunan turlicha bo'lgan 22 ta universitet mavjud. 2004-yildan buyon bu universitetlar o'z-o'zini boshqaradi. Ular o'zlarining natijalarini yanada yaxshilash uchun 3 yillik mintaqaviy daromadni oladi. Avstriya davlati universitetlar uchun sarflagan mablag'i bilan Yevropaning diqqat markazida turadi. Universitetlarda o'zlarining moliyaviy ahvolini har tomonlama yaxshilash uchun barcha imkoniyatlar bor. Ularni «Tadbirkorlik universiteti» deya ta'riflashadi. Avstriyada 2000-yildan buyon xususiy universitetlar ham mavjud. Vena, Grats va Innsbruk o'z ta'lim dasturlari bilan Avstriyadagi eng qadimiy, mukammal universitetlardir. Lekin 2004-yilda Vena, Grats va Innsbruk universitetlarining ba'zi tibbiyot fakultetlari mustaqil Tibbiyot universitetlari sifatida ajralib chiqdi.

Vena universiteti o'zining 92500 (2013) nafar talabasi bilan nafaqat Avstriyaning eng katta universiteti hisoblanadi, balki Yevropaning nemis tili va madaniyati doirasidagi eng qadimiy, nufuzli oliygohi hisoblanadi. Ta'lim dasturi 187 ta o'quv yo'nalishini o'z ichiga qamrab oladi.

2011–2012-o'quv yili qishki semestrida 242000 dan ortiq avstriyalik yoshlar mamlakat oliygohlarida ta'lim oldi. Bularning 69000 tasi YI dan kelgan chet ellik talabalardir. Ayollar 54% bilan tahsil olayotganlar orasida yetakchilik qiladi.

Eng ilg'or ta'lim yo'nalishlari huquqshunoslik, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar, shuningdek inglizshunoslik, amerikashunoslik va pedagogika hisoblanadi. O'rtacha ta'lim muddati 13 ta semestrga to'g'ri keladi va o'qishni o'rtacha tugatish yoshi erkaklarda 26 yosh, ayollarda 25 yoshni tashkil qiladi. Ko'plab boshqa mamlakatlar bilan qiyoslaganda Avstriyada mahalliy aholi uchun aniq ta'lim yo'nalishlarida cheklashlar yo'q.

Bir necha fanlar bo'yicha maxsus test topshirilgandan so'ng, har bir universitetda fanlar bo'yicha shahodatnoma bahosi bilan ta'lim olish mumkin. Chet ellik tahsil oluvchilar bir xil baholi shahodatnomani taqdim etishi va nemis

tilida yetarli bilimga ega bo'lishi lozim. 2001–2008-yillar oralig'ida Avstriyada ta'lim uchun pul to'lanardi, agar rejalshtirilgan ta'lim muddati kechiktirilmasa, tahsil bepul bo'lardi.

Avstriyalik talabalar ta'lim sohasiga o'z hissasini har bir semestrda maksimal 380,36 yevro miqdorida pul to'lash orqali qo'shishi kerak. Albatta, ularning hayot tarzi moliyalashtiriladi. Bunga kitoblar uchun to'lov va boshqa ta'lim ko'maklari kiradi. Agar mos keluvchi shart-sharoitlar yetarli bo'lsa, ijtimoiy kam ta'minlangan oilalardan kelib chiqqan talabalar ta'lim ko'magiga murojaat qilishi mumkin. Bu ko'makning katta qismi oilalarni rag'batlantirishdan iborat. Talabalar, asosan, o'smir sifatida 26 yoshgacha oila ko'magiga suyanadi, lekin bu ota-onalar har doim ham o'sib kelayotgan farzandlariga ko'mak berishda davom etadi, degani emas. Talabalarning uchdan ikki qismi semestr davomida ishlashi kerak, hattoki, ularning 11% i deyarli mashg'ul. Faqatgina uchdan bir qismi, xuddi ta'lim ko'rsatgani singari, kasbsiz ham ta'limga o'zining hissasini qo'sha oladi.

**Avstriya universitetlari**

Vena universiteti
Innsbruk universiteti
Lins Yoxannes Kepler universiteti
Vena Tibbiyot universiteti
Innsbruk Tibbiyot universiteti
Vena Texnika universiteti
Leoben Metallurgiya universiteti
Vena Iqtisodiyot universiteti
Vena Musiqa va tasviriy san'at universiteti
Zalsburg Motsart universiteti
Vena Amaliy san'atlar akademiyasi
Grats universiteti
Zalsburg universiteti
Klagenfurt universiteti
Grats Tibbiyot universiteti
Vena Veterinar-tibbiyot universiteti

Grats Texnika universiteti
Vena Agromadaniyat universiteti
Grats Musiqa va tasviriy san'at universiteti

## KASB-HUNAR MAKTABLARI

Avstriyacha ta'lim negizidagi katta yutuq dastlab 1994-yilda joriy etilgan, 2011-yilda 39000 dan ortiq kishi tahsil olgan kasb-hunar maktabidir. O'quvchilarning 46% ini qizlar tashkil qiladi. 2013-yilda keng ko'lamli 561 kasb-hunar maktabi yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularning eng asosiylari amaliy elektronika, bio- va atrof-muhit texnikasi hamda OAB menejmenti jurnalistikasidir. Kasb-hunar maktablari, asosan, oliy ta'lim darajasidagi chuqur, ilmiy tahsilni beradi. Ular universitetlardan, asosan, tahsilning tuzilishiga ko'ra farqlanadi. Universitetda biror ma'ruza yoki mashg'ulotga borishni talabaning o'zi hal qiladi, kasb-hunar maktablarida esa qat'iy davomat majburiyati mavjud va u muhim baho talabidir. Shu sababli o'qishni olti-sakkiz semestrda tugatish uchun buni hisobga olish kerak. Universitetlardan yana bir farqi kasb-hunar maktablarida amaliyotga yo'naltiriladi va dasturida majburiy kasb amaliyoti bo'ladi.

Kasb-hunar maktablariga qiziqish katta, chunki bitiruvchilar juda katta imkoniyatlarga ega.

## PEDAGOGIKA OLIY O'QUV YURTLARI

2007-yilning boshlanishi bilan birlashmaning 50 ga yaqin oldingi pedagogik akademiyalari va boshqa institutlari zamirida shakllangan o'n to'rtta yangi oliy o'quv yurtining odimi samarali bo'ldi, ulardan uchtasi katolik cherkoviga qarashlidir. Ularning vazifasi majburiy maktab o'qituvchilariga Bolonya dasturi doirasidagi nihoyasida bakalavrlik darajasini beruvchi uch yillik ta'limni berishdir. Umumiy yuqori ta'lim maktablaridagi o'qituvchilar keyinchalik universitetlarda tahsil oladi.

Rejalashtirilgan o‘zgarish yaxshi qabul qilindi. Tanqidchilar eshiklarga ilingan lavhalarning o‘zgargani, avtonomiyasiz o‘qituvchilar maktabi haqida gapirishdi. Umuman olganda, bularni butkul yo‘q qilish va o‘qituvchilar yetishtirish vazifasi universitetlarga topshirilsa, yaxshi ish bo‘lar edi.

## MUAMMOLAR, NOROZILIKLAR VA ISLOHOTLAR

Avstriya universitetlari va oliy o‘quv yurtlari hozirda islohotlarning tahsil oluvchilar va ta’lim beruvchilar uchun ulkan talabni ifodalovchi bosqichida joylashgan. Ko‘plab talabalarning noroziliklari bir qancha universitetlarda 2009-yilning kuzidagi norozilik g‘alayonlariga, Vena va Grats universitetlari auditoriyalarining egallanishiga olib keldi. Talabalar g‘azabining ortishiga sabab bo‘lgan narsa hammasidan ham asosli bo‘lgan davlatning o‘tgan yillarda o‘z va’dasining ustidan chiqmaganidir. Talabalar esa aynan shuning aksini his etardi, ya’ni yomon yetakchilik munosabati; ta’lim rejasining ta’siri haddan ortiq tadbirlar, majburiy seminarlarga qatnashish uchun uzoq kutish; ko‘p imtihonlar; irqchilik; neoliberalizm va ayollarning taqdirlanishi.

## «BOLONYA JARAYONI» QANDAY JARAYON?

Bu jarayonda yagona Yevropa oliy o‘quv yurtlari hududining yaratilishiga erishish nazarda tutiladi. U Italiyaning Bolonya shahrida 1999-yil Bolonya shartnomasining imzolanishi bilan vujudga kelgan bo‘lib, bu bosqichli ta’lim tizimining (bakalavr, magistr, doktor) ketma-ketligini keltirib chiqardi.

Maqsad: Yevropaga xos ta’lim tizimining birgalikda rivojlanishi. Talabalarga berishi zarur bo‘lgan Yevropa kredit yetkazish tizimiga ko‘ra, ball tizimidagi semestrlar soatining o‘zgarishi ham yangilikdir.

«Bolonya jarayoni»ga ko‘ra, bakalavr-magistr tizimidagi o‘zgarishlar ham kuchli noroziliklarni ketirib chiqardi.

Bu jarayon natijasida bakalavr ish bozorida tan olinmaydi, yangi ta’lim strukturasi ilmning erkinligiga xavf soladi va universitetlarning salbiy ta’siriga sabab bo‘ladi.

## TO'LOV PULI

To'lov puli talabalar har semestrda qatnashishi uchun to'lashi kerak bo'lgan 380 yevroni tashkil etadi.

Talabalarning ijtimoiy tengligidagina bepul o'qish va to'lab o'qitish o'zgardi. Har doimgidek, ziyolilar farzandlari ishchilarning farzandlariga qaraganda ko'proq o'qiydi.

Dolzarb masalalardan yana biri universitetlarga qabul qilinishdir. Bu diskriminatsiya va Yevropa Ittifoqi huquqlariga qarshi borish bilan teng. Luksemburgdagi Yevropa Oliy sudi Avstriyaning o'z va chet ellik abituriyentlarni teng qoidalarga ko'ra o'qishga qabul qilishini talab qildi. Ma'lum ta'lim yo'nalishlari uchun, ya'ni tibbiyot, san'at, musiqa, veterinar meditsina, publitsistika, kommunikatsiya, psixologiya, farmatsevtika va biologiya uchun bir necha yillardan buyon kirish imtihonlari o'tkaziladi.

Universitetlar uchun mas'ul Fan va tadqiqotlar vazirligidir. Shu tarzda Avstriya talabalari maqsadga intiluvchan va chaqqon bo'ldi, o'qish muddati kamaytirildi, xizmat ko'rsatish jarayoni yaxshilandi, ijtimoiy to'siqlar olib tashlandi. Bolonya jarayoni yevropalashishga va xalqarolashishga hissa qo'shdi. Xulosa qilganda, Avstriya bu bilan yaxshiroq bilim standartiga erishdi.

Avstriya kichik davlat bo'lib, o'zining tibbiyot universitetlari Germaniya talabalari bilan to'lib ketishidan xavotir oldi. Shuning uchun Avstriya hukumati chet ellik talabalarga nisbatan o'qishga qabul qilinish cheklovlarini joriy qildi.

# 13. MADANIYAT VA OMMAVIY AXBOROT

## MUSIQA VA BAYRAM O'YINLARI




*Frans Shubert. Gustav Maler.*

Avstriya butun dunyoda musiqa mamlakati hisoblanadi. Bu yerda Haydn, Motsart va Betxovenlar yashab ijod etgan, shuningdek, zamondosh bastakorlar Gustav Mahler, Arnold Sho'nberg va Alban Berglar ham. 1-yanvarda Vena filarmoniyasi o'zining yangi yil konsertini berganida butun Yevropada millionlab odamlar uni ko'radi, hatto, dengizorti mamlakatlari fuqarolari ham.



*Harnonkourt hozirgi kunning mashhur dirijorlari sirasiga kiradi.*

Ayniqsa, Vena bilan musiqa tarixining ko'p buyuk nomlarini bog'lashadi. Kiristof Villibald Gluk bu yerda XVIII asr oxirida operani isloh qildi. Shubert Venada ikki yil mobaynida o'zining 250 she'rini yozdi. Shtraus avlodlarining valsga oid son-sanoqsiz kuylari xususan, «Vena valsi» ma'lum va mashhur bo'ldi. Yohannes Brams Gamburgdan Venaga ko'chib o'tdi, o'zining simfoniya va qo'shiqlari bilan tez tanildi. Rixard Shtraus ham avstriyalik bo'lmasa-da, Venaning musiqiy hayoti bilan chambarchas bog'liq. U ko'p yillar opera teatri direktori bo'lgan va Hugo fon Hofmannshtalda avstriyacha liberettolarini, o'zining operasiga, ayniqsa, «Rozenkavalier»ga tengsiz avstriyacha notasini berdi.

Dunyoga dong'i ketgan dirijorlar ham avstriyalikdir. Gratslik Karl Bo'm (1894–1981) va zalsburglik Herbert fon Karayan (1908–1989) ham eng mashhurlardan bo'lgan. Ular plastinkalarining millionlab nusxalari bor.

Eng mashhur Avstriya dirijorlaridan biri Nikolaus Harnonkourtdir (1929-yilda tug'ilgan). Herbert fon Karayan tomonidan pasxa bayramiga uyushtirilgan Zalsburg konsertiga har yili butun dunyodan musiqa shinavandalari tashrif buyuradi.

## AVSTRIYA POP MUSIQASI

Avstriyada pop musiqiy yo'nalishi o'tgan asrning yetmishinchi, saksoninchi yillarida dunyoga keldi. U o'ziga xos yo'nalish bo'lib, og'zaki nutq va sheva so'zlarining ko'p ishlatilishi bilan ajralib turadi va «avtropop» deb ataladi. Bu yo'nalishning ko'zga ko'ringan namoyandalari Georg Danzer, Volgang Ambros, Ludvig Hirsh, Shtefanie Verder, Jazz-Gitti hamda Shtayermark federal o'lkasidan STS va «Erste Allgemeine Verusiccherung» (EAV) guruhlaridir.

Ko'p yillardan beri Raynhard Fendrich xalq e'tiboridan tushmayapti. Uning vatanparvarlikni tarannum etuvchi qo'shiqlaridan biri: «Men avstriyalikman» AQSH xiti – «Amerikada tavallud topdim» qo'shig'ining nusxasi deb topildi. Unga haqiqiy mashhurlikni 1998-yilda «Rock me Amedeus» qo'shig'i keltirdi, hattoki, Amerikada «Pop yulduzi» darajasini taqdim etdi. Avstriya pop asarlari xalqaro maydonda ommalashgan, deb bo'lmaydi.

Kelib chiqishi yuqori avstriyalik bo'lgan Kristina Shturmer hozirda eng yorqin yulduz sanaladi. U rok va pop musiqasini uyg'unlashtirish orqali nafaqat Avstriyada, balki Germaniyada ham nom qozonib, bir necha mukofotlarga sazovor bo'ldi.

## AVSTRIYADAN CHIQQAN JAHON XIT QO'SHIQLARI

Avstriyalik san'atkorlar nafaqat nemis tilida so'zlashuvchi davlatlar orasida, balki jahon sahnalarida ham o'z o'rniga ega. Bunga yorqin misol «Vaterloo» va «Robinson» guruhlaridir. Ularning «Hollivud» xit qo'shig'i Yevropada keng tanilgan. «Opus» guruhi esa 1985-yil *Live is Life* «Muhabbat – bu hayot» qo'shig'i bilan Shvetsiya va Fransiyada birinchi o'rinni egalladi. Buyuk Britaniya va AQSHda oltin mukofotga sazovor bo'ldi. Reynhard Bilgersning «Video live» kompozitsiyasi Braziliyada va Argentinada xit deb topildi. Aranjirovkachi Kristian Kolonovich kompozitor va prodyuser sifatida dunyo yulduzlari Plasido Domingo,

Elena Garancha yoki Kiri Te Kanavalar bilan hamkorlikda ishlaydi. Peter Volf dunyoda muvaffaqiyatga erishgan prodyuser va film musiqasi bastakori sifatida taniqli hisoblanadi.

## XALQ MUSIQASI

Avstriya qishloq aholisi musiqiy layoqatidan xabar beruvchi xalq musiqasi mamlakatda katta ahamiyatga ega. Turli hududlarda yuzaga kelgan ashula va raqslar hozirgacha saqlanib qolgan. Kerntern hududi xor jamoalari ashulalari mamlakat tashqarisida ham yaxshi tanilgan. Avstriya musiqiy madaniyatida puflab chalinadigan musiqa asboblarining o‘rni o‘zgacha. Hozirgi kunda 2000 dan ortiq musiqiy kapellalar va 80 000 ortiq musiqachilar mavjud. Ko‘p sonli konsertlar va musiqa festivallari Avstriya madaniy hayotining tarkibiy qismi hisoblanadi.



***Avstriyada 2000 ga yaqin puflab chalinadigan musiqa asboblari orkestri mavjud.***

## XALQQA OID MUSIQA

Xalq musiqasidan deyarli farqlanmaydigan xalqqa oid musiqa yo‘nalishi quvnoq polka ritmida ommalashgan. Bu musiqa shaklining yetuk namoyandasi Karl Moik hisoblanadi. U 50-yillardan beri televideniyeda «Musiqachilar shahri» nomli dasturni olib boradi. U ushbu dastur bilan Kanada, Avstraliya, Janubiy Afrika, AQSH, shuningdek, Karibik gastrol safarlarida minglab Avstriya, Germaniya va Shvetsariya musiqa muxlislari tomonidan iliq kutub olindi. Shunisi qiziqki, talay musiqa muxlislari musiqaning bu turini didsiz musiqa sifatida tanqid qiladi. DJ O‘tsi nomi bilan mashhur bo‘lgan Gerxard Friedle o‘zining *Anton aus Tirol* «Tirollik Anton» qo‘shig‘i bilan radio va televideniyeda yulduz darajasiga ko‘tarildi.

## ZAMONAVIY XALQ MUSIQASI

Zamonaviy xalq musiqasi keyingi yillarda urfga kirdi. U o'z ichiga Alp diyori xalq musiqasi bilan punk, blus va rok musiqasi uyg'unligini oladi. Bu yo'nalish namoyandalari Hubert fon Goyzern va Anreas Gabaliyer hisoblanadi. Tirollik «Schürzenjäger» bu musiqa turi bilan behisob boylik to'plagan guruh hisoblanadi. Ular musiqaning turli janrlari: shlager, rok va poplarni folklor bilan uyg'unlashtirdi. Tirol hududida bo'lib o'tgan ochiq havodagi konsertda muxlislar soni Avstriyada bo'lib o'tgan jahon yulduzlaridan biri Rolling Stons muxlislari sonidan ortib ketdi. Ular san'atiga bo'lgan qiziqish evaziga millionlab plastinkalar, guruh nomi va rasmi tushirilgan teri shimlar, sochiqlar, paypoqlar va bosh kiyimlar sotildi. O'ttiz yillik faoliyatdan keyin guruh sahna bilan xayrlashdi.

## MYUZIKL

Teatr shahri hisoblangan Vena so'nggi yillarda xalqaro musiqa metropolisi sifatida tanilmoqda. Cats, Phantom der Oper dan Les Misiablesgacha dunyo tan olgan myuzikllar Venada namoyish qilingan *Elizabet* myuzikllar jahon sahnalarida namoyish qilinganidan keyin tanqidchilar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Nemiszabon myuzikllar ichida eng muvaffaqiyatli hisoblangan «Sevgi tarixi» asarida Avstriya qirolichasi Sisi faoliyati va o'limi tasvirlanadi. Baxtsiz qirolicha haqidagi asardan so'ng 1999-yil Avstriya kompozitori myuzikl qahramoniga aylandi. So'nggi yillarda Venada sahnaga olib chiqilgan «Motsart» myuzikli eng muvaffaqiyatli asarlardan biridir.

## AVSTRIYA DUNYO MUSIQASI VATANIMI?

Dunyo nazdida Avstriya aholisining musiqaga munosabati o'zgacha hisoblanadi. «Dunyo musiqasi vatani» degan sharaf har bir fuqaroga xush yoqadi. Avstriyadan chiqqan musiqachilarning ko'pligi sababini sharhlash qiyin. Mamlakatning joylashgan o'rni, tabiati, arxitekturasi, ko'p millatli aholisining



Motsart. «Sehrli nay».

yashash tarzi alohida ahamiyatga molik. Motsart yutuqlari Prussiya qirolligi yaratib bergan imkoniyat mahsulidir. Turli tashvishlarga, kelishmovchiliklarga qaramasdan, Motsart Venada qoldi va ijod qildi. Hozirgacha Motsart Vena shahrining St. Marks qabristonida umumiy qabrga ko‘milgani haligacha bizga tushunarsiz. Avstriyaliklarning musiqaga munosabati turlicha. Tiriklik davrida bastakorlarga izzat ko‘rsatilmagan. Biroq musiqachilar ham xalqqa e’tiroz bildirmaydi. Betxoven, venaliklarni ko‘p tanqid qilishiga qaramasdan, Venada qoldi. Uni Venada yaxshi tushunib, qo‘llab-quvvatlashgan. Vena musiqiy zallarida katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan Shubert xor-zorlikda o‘lim topdi va butunlay unutildi. Yana bir bastakor Anton Brukner simfoniyalari qizg‘in qarshi olinmagan bo‘lsa-da, hozirda Avstriyaning norasmiy gimni hisoblanadi. Uning «Dunay valsi» kompozitsiyasi Gustav Maler hayotligi paytida ko‘p bora tanqidga uchragan va Scho‘nberg, to‘quvchi va tog‘ haqidagi o‘n ikki musiqa ohangi bugungi kungacha avstriyalikar tomonidan e’tirof etilmagan.

Marsel Pravining fikriga ko‘ra, Avstriyada musiqani sevuvchilar va musiqaga umuman qiziqmaydigan odamlar guruhlari mavjud. Avstriyada musiqani sevuvchi ixlosmandlar musiqani qo‘llab-quvvatlaganlar va ular hozir ham mavjud.

Avstriyaning musiqiy vatani an’anasini davom ettirayotgan musiqachilar ham soliq to‘laydi. Ular, dirijor va qo‘shiqchilar gonorarlarining yuqoriligiga qaramasdan, an’analarning davom etishiga imkon yaratmoqda. Bu ishni ular faxr tuyg‘usi bilan amalga oshiradi.

## TEATR

Hozirda avstriyaliklar televideniyeni muntazam kuzatib boruvchi millat sanaladi. Shunga qaramasdan, teatr ham o‘z faoliyatini faol olib boradi. Aholining bir foizigina konsert, teatr va muzeylardan bahra oladi, shunday bo‘lsa-da, madaniyatning yuqori ko‘rinishlariga katta mablag‘ ajratiladi.

Avstriyaning katta shaharlarida teatrlar mavjud. Aholi «Biz hudud jihatdan kichik, lekin madaniy jihatdan katta mamlakatmiz», deb e'tirof etdi va Venani musiqa poytaxti hisobladi. Davlat g'aznasidan chet ellar bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yishga emas, balki shahar operasiga pul ajratiladi.

Vena ikkinchi jahon urushidan keyin talofat ko'rgan shaharga aylandi. Shaharni vayronagarchilik, qo'rquv, ochlik qamrab olgandi. Dastlab shahar opera teatri va qirollik teatri qayta tiklandi.



***Gratsdagi opera teatrining ichki ko'rinishi.***

Bu jarayon katta mablag'ni talab qilgan bo'lsa-da, hech kim qarshilik ko'rsatmadi. Teatrning qayta qurilishi 1955-yilda tugatildi va tantanali nishonlandi.

Avstriya shahar operasi va qirollik teatridangina iborat emas. Hajviy opera va operettalar namoyishiga ixtisoslashtirilgan opera va zamonaviy spektakllar qo'yiladigan akademik teatr ham bor.



***Vena Burg teatri.***

Bundan tashqari, Vena shahrida xususiy teatrlar mavjud bo'lib, eng qadimiy va nufuzlisi «Yozef ko'chasidagi teatr» deb ataladi. Kichik teatrlar ichida Vena improvizatsiya teatri Yevropada yagonadir. Teatr hayoti faqat Vena bilan cheklanmaydi. Hududiy teatrlar sahnalarida operadan boshlab myuziklgacha, klassikadan tortib zamonaviy asarlargacha namoyish etiladi. Venadagi katta teatrlarga qaraganda sarmoyasi kamligi bilan ajralib turadi. Grau shahridagi teatr hududiy teatrlar ichida kattasi sanaladi, u yuqori mansabga intiluvchilar eshigi hisoblanadi. Bundan tashqari, Lins, Zalsburg, Innsbruk, Klagenfurt va muqaddas Sankt Po'lten shaharlarida doimiy faoliyat olib boriladi. Motsart operalari namoyish etiladigan Zalsburgdagi qo'g'irchoq teatri alohida ahamiyatga ega. Teatr sahnasida tanilgan qo'g'irchoqlarga qo'shiqchilar ovoz beradi.

# RADIO VA TELEVIDENIYE

## AVSTRIYA RADIOESHITTIRISHI (ORF)

Yevropaning ko'p davlatlarida jamoatchilik huquqiga tayangan radioeshittirishlar bor. Ular reklama roliklaridan tushadigan daromadlar va soliqlardan moliyalashtiriladi. Bu hol Avstriyada ham kuzatiladi. Avstriya radioeshittirishi (ORF) qoshida bir necha xususiy radiotarmoqlar mavjud.

ORF to'lqinlari butun mamlakatga yetkazib beriladi va ma'rifatchilik ishi bilan shug'ullanadi. ORF uch qismdan iborat dasturda taklif etiladi.

1. Televideniye.
2. Radio.
3. Online ORF.at.

## TELEVIDENIYE

**ORF 1** yoki **ORF 2** 24 soat axborot, madaniyat, ilm-fan, ko'ngilochar dasturlar, sport, bolalar uchun dasturlar taklif etadi.

Bular:

- ORF Sport +
- ORF III
- 2010-yil, 26-oktyabrdan buyon ORF uchinchi telekanal va bir sport kanaliga egadir. Bundan tashqari, madaniyat kanali **3 sat** va **arte** kabi telekanallar bilan ham hamkorlik qiladi.
- **ORF 1** ORFning birinchi dasturi bo'lib, unda filmlar va seriallar namoyish etiladi. Sport ko'rsatuvlari esa, ko'pincha, ORF 1 kanali orqali ko'rsatiladi.
- **ORF 2** esa Avstriya bilan bog'liq madaniy ko'rsatuvlarni namoyish etadi. Eng muhim xabarlar kun davomida bir necha marta beriladi. Soat 19:00 da **Bundesland heute** teleko'rsatuvi orqali 9 federativ o'lka dasturlari tomoshabinlar etiboriga havola etiladi.
- **ORF Sport** + kanali faqat Avstriyaga oid sport turlari haqida xabarlar berib boradi. Bu telekanal o'z ko'rsatuvlarini kichikroq hududda uzatishga mo'ljallangan.
- **ORF III** 24 soat davomida madaniy yangiliklar va dolzarb xabarlarni berib boradi.

## 3SAT

1984-yildan beri ORF ZDF va Shvetsariyaning radiokanali bilan hamkorlikda xalqaro nemis tilli sun'iy yo'ldosh dasturini yo'lga qo'ydi. Bunda, asosan, Avstriya madaniyati, teatri, operasi va hujjatli filmlari, shuningdek, jonli ko'rsatuvlar va kundalik voqea-hodisalar ham namoyish etiladi. Reklama faqat ikki ko'rsatuv orasida qo'yiladi, hech qaysi ko'rsatuv orasida reklama qo'yib yuborish mumkin emas.

ORF o'zini 22,5% reklamadan va 63,5% TV oylik to'lovlari orqali moliyalashtiradi.

ORF yana quyidagi radiodasturlarni ham efirga uzatib boradi:

- Ö1
- ÖR
- Hitradio Ö3
- FM 4
- Radio 1476 2009-yil 1-dekabrda «oel» deb qayta nomlandi.

**Avstriya 1** (Ö 1) Yevropaning eng boy madaniyat kanali hisoblanib, har kuni 24 soatlik dastur efirga uzatiladi. Zamonaviy musiqadan tortib, mumtoz musiqagacha yangraydi. Madaniyat, adabiyot, ilm-fan va din olamidan muntazam xabarlar beriladi. Har bir shaxsga xos va mos radiodastur ham mavjud.

**ÖR** har bir federativ o'lka uchun 9 mintaqaviy dasturdan iborat. Bunda, asosan, xalq musiqasi, shlager, evergreenlar va xit musiqalar berib boriladi. Bu kanalning asosiy muxlislari yoshi 35 dan oshganlardir.

**Hitradio Ö3** Avstriyaning muxlislarga boy radiokanali bo'lib, unda, asosan, eng yangi pop musiqalar efirga uzatiladi va uni har kuni 3 millionga yaqin muxlis eshitadi. Har kuni soat 5 dan 9 gacha eng ko'p eshitiladigan to'lqin «Ö3 Wecker»dir.

**FM4** maxsus to'lqin bo'lib, unda, asosan, muqobil pop musiqalari va «Szene» (teatr sahnasi) eshittirishlari, shuningdek, ingliz, nemis va fransuz tillaridagi xabarlar efirga uzatiladi.

**Oe1campus** kecha-yu kunduz web-radio eshittirishlarini olib boradi. **«Oe1campus»** ochiq loyiha bo'lib, unda barcha bo'lajak radioboshlovchilar va jurnalistlar ishtirok etishi mumkin.

# MATBUOT




Dunyodagi eng katta gazeta *Yomiuri Shimbun* bolib, u Tokioda chop etiladi. Uning tiraji 14 million nusxa bo'lib, 127 million aholisi bor mamlakatning deyarli 40% i o'qiydi. Gazetaning xo'jayini esa Yaponiyaning eng boy odamlaridan biri hisoblanadi.

Venada chiqadigan *Neue Kronen-Zeitung* gazetasi dunyoning eng katta kundalik gazetasi bo'lib, 1,5 million nusxada chop etiladi va 37% avstriyalik o'quvchilar e'tiboriga havola qilinadi.

*Krone* gazetasi dunyo fenomenidir. U aholi jon boshiga nisbatan 2,7 million o'quvchisi bilan har qanday gazetadan ko'pdir. U, hatto, mashhur *New York Times* gazetasi bilan ham tenglasha oladi yoki tan olingan *Le Monde*, Londonning *Times* va *Neue Zürcher Zeitung* gazetalaridan ham qolishmaydi.

*Kurier* 398 000 va *Heute* 613 000 nusxasi bilan Avstriyaning eng muhim gazetalaridan hisoblanadi (har yakshanba nashrdan chiqadi). Qolgan gazetalar esa Avstriya matbuot va reklama bozorini o'zaro bo'lishadi. Bundan tashqari, federativ o'lkalar gazetalari ham bor, lekin ular faoliyati ancha sust. *Kleine Zeitung* (Grats va Klagenfurt) gazetasi Shtayermark va Kernten uchun 382 000 tiraji va 817 000 o'quvchisi bilan Avstriyadagi eng ko'p o'qiladigan gazetalar safiga kiradi. («Gazetaning shiori: «Avstriyaning eng ko'p o'qilgan federativ o'l-kalar gazetasi».) *Oberösterreichischen Nachrichten, Tiroler Tageszeitung* va *Salz-burger Nachrichten* gazetalari mintaqaning eng yaxshi gazetalaridir. 2006-yil, 1-sentabrdan e'tiboran, barcha o'lkalar uchun *Österreich (Avstriya)* nomli gazeta chiqa boshladi. Ushbu gazeta boshqalaridan farqli o'laroq, zamonaviy, qiziqarli, mustaqil hamda 20 dan 49 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarni o'z ichiga olishni maqsad qilgan. *USA Today* gazetasini o'ziga namuna qilib olgan.

Gazetxonlikka jalb qilish Avstriyada juda yuqori. 1953-yilda 30 ga yaqin mustaqil kundalik gazetalar mavjud edi, 2012-yilga kelib, 15 dan oshiqrog'i qoldi. Yevropadagi boshqa millatlarga qaraganda, aholi soniga nisbatan ancha

kamroq. Masalan, nemislar va shvetsariyaliklar ko'proq kundalik gazetalar tanloviga ega. *Kurier* va *Krone* gazetalari bir nemis nashriyotiga qarashli va uning qoshidagi «Mediaprint» firmasi nashr va reklama uchun mas'ul bo'lib, *Kurier* va *Krone*lar bilan birgalikda katta bir konsernni tashkil etadi hamda Avstriyada chop etiladigan barcha kundalik gazetalarning yarmidan ko'prog'ini bosmadan chiqaradi.

*Kurier* va *Krone* gazetalari ko'chada qimmatroq sotiladi. *Krone*, ayniqsa, jiddiy xabarlar va ma'lumotlar o'rniga har xil turdagi olamshumul voqealar, suhbatlar, odamlar orasidagi mish-mishlar yoki ularning shaxsiy sharhlari, rasmlari, kamdan kam uchraydigan kiyimlardagi qizlar suratlari va karikaturalardan tashkil topgan.

Venada barcha o'lkalar uchun chiqadigan sifatli gazetalar qatoriga ilgari konservativ qarashda bo'lgan *Presse* (132 000 nusxada, haftalik nashr) kiradi, keyingi yillarda u liberallasha boshladi va 1988-yilda tashkil etilgan liberal *Standard* (101 000 nusxada, haftalik nashr) ilk nemis tilidagi kundalik gazeta bo'lib, 1995-yildan beri onlayn nashr etiladi. *Wirtschafts Blatt* gazetasi iqtisodiy hayotdagi yangiliklar bilan tanishtirib boradi. *Wiener Zeitung* gazetasining ham o'ziga xos o'rni bor. Bu gazeta nafaqat dunyoning eng eski birinchilaridan (1703-yilda tashkil topgan) va bugungacha chiqayotgan kundalik gazetalaridan, balki Avstriya davlatiga qarashli bo'lib, rasmiy doiradagi xabarlar va yangiliklarni ham chop etib boradi. Ko'p yillar Avstriya matbuot bozorida nemis nashrlari ustunlik qilardi.

1970-yilda *Profil* (haftalik tiraji 91 000) va *Trend* (oylik tiraji 54 000) jurnallari tashkil topdi. *Profil* jurnali ba'zi jihatlari bilan nemis yangiliklar jurnali *Spiegel* ni aks ettirsa, *Trend* jurnali oylik iqtisodiy ma'lumotlar va yangiliklarni e'lon qilib boradi.

Shunga qaramasdan, nemis nashrlari yetakchiligining Avstriya matbuot bozorida sustlashishi 20 yilllar davom etdi. 90-yillarga kelib, bu ikki jurnal mamlakatning eng yirik nashrlariga aylandi. Rang-barang sahifalardan iborat, vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan va keng ommaga mo'ljallangan *Die ganze Woche* jurnali 384 000 lik tiraji bilan matbuot bozorining 1/4 qismini tashkil etadi.

*News* jurnali esa siyosat, iqtisod, pul, sahna, sport va ijtimoiy hayotdagi yangiliklarni omma e'tiboriga havola qilib boradi va 160 000 lik tiraji bilan o'zining 640 000 lik muxlisiga ega. Hatto *Profil* jurnalining muxlislarini ham o'ziga jalb qila oldi.

1950-yilda tashkil etilgan muvaffaqiyatli jurnallardan yana biri TV-Media bo'lib, u OAVga oid TV dasturlar va yangiliklar bilan tanishtirib boradi. 1998-yildan buyon *Format* jurnali ham ommaga taqdim etib kelinadi.

Ommaviy axborot vositalari avstriyaliklarning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Gazetxonlik ularning kundalik majburiyatlaridan biri bo'lib, bu aholi orasida 72,5% ni tashkil etadi. Shuningdek, radio ham o'z o'rnida muhim axborot manbasidir. Deyarli har bir avstriyalik har kuni, internetdan tashqari, o'rtacha 3 soat vaqtini oynayijahon qarshisida o'tkazadi. Bugun kunda avstriyaliklarning yarmidan ko'prog'i uyda kompyuter yordamida hamda qo'l telefoni va smartfonlar orqali uzluksiz internet tarmog'idan foydalanadi.

## ... OSKAR AVSTRIYAGA

## AVSTRIYA – FILMLAR MAMLAKATI

Avstriya nafaqat «filmlar o'lkasi», balki avstriyalik film ustalari ovozsiz filmlar davridayoq eng muhim rollarni ijro etgan. Birinchi jahon urushi oxirigacha 300 ga yaqin Avstriya filmlari keng jamoatchilik e'tiboriga havola etildi. Ovozli film davriga o'tish oson kechmadi. Kino ishlash uchun sarf-xarajatlar juda yuqori edi. Avstriyalik kinochilar 1933-yildan talab qilinadigan milliy sotsialistlar qonuniga amal qilishi shart edi.

Eng mashhur rejissorlar: Otto Preminger (1905-yilda Venada tug'ilgan – 1986), Erik fon Shtrohaym (1885–1957) va Billy Vilder (1906–2002). U tomonidan Merlin Monro ijrosidagi *Some like it hot* filmini yaratgan. Ko'pgina aktyor va aktrisalarni Hollivud sehri o'ziga maftun etgan edi, bir qanchasi emmigrantlar, ular shunchaki o'z xohishiga ko'ra kelmagan.

Xalqaro miqyosda tanilgan bir qancha rejissorlar: Leopold Lindtberg, Bernhard Vicki va Karin Brandauerlar yetishib chiqdi. Shuningdek, boshqa bir qancha aktyor va aktrisalar Valie Export, Romi Schneider, Klaus Maria Brandauer va Arnold Shvarsnegger Avstriya kinoyulduzlaridir. II jahon urushidan keyingi davrdagi eng mashhur filmlardan biri sanalgan «Sisi» trilogiyasida qirolicha Yelizabet rolini iste'dodli aktrisa Karlhayns Bo'm, qirol Frans Yozef rolini mashhur aktyor Romi Shayder qoyilmaqom qilib o'ynagan. «Sisi» filmi bugungi kungacha Avstriyaning iftixoridir. Yaqin yillargacha

avstriyalik kinochilar juda muvaffaqiyatli ishladi. 2001-yilda rejissor Mixail Haneke Elfride Yelinek romani asosida yaratilgan *Klavierspielerin* filmi uchun xalqaro Kann kinofestivalida hay'atning eng yuqori sovriniga sazovor bo'ldi. 2008-yilda venalik Stefan Ruzovitski o'zining *der Fälscher* dramasi bilan «Chet tilidagi eng yaxshi film» nominatsiyasi bo'yicha Avstriya uchun birinchi Oskar mukofotini qo'lga kiritdi. Film ikkinchi jahon urushining oxirgi kunlarida qo'yildi. Nemis imperiyasi urush asirlari yordamida Britaniya iqtisodiga zarar yetkazish maqsadida asir tushganlarga bosimni kuchaytirardi. Ularning oldida ikki yo'l turardi, yo nemislarni qo'llab-quvvatlash yoki o'lim. Haneke o'zining g'alaba nashidasini 2009-yilda davom ettira oldi. U 63-Kann kinofestivalida *Das weiβe Band* filmi uchun «Oltin palma» mukofotiga sazorov bo'ldi. Bir vaqtning o'zida u Hollivudning «Oltin globus» mukofotini ham qo'lga kiritdi. Rejissor o'z filmida Shimoliy Germaniyadagi milliy urf-odatlarga sodiq bo'lgan bir qishloq hayotini, undagi zo'ravonliklarni va avloddan avlodga o'tib kelayotgan avtoritar tuzumni aks ettirgan. 2013-yilda Mixail Haneke *Amour* dramasi uchun «Oltin palma» va eng yaxshi chet tilli filmi uchun Oskar mukofotiga munosib deb topildi. Film yoshi keksa bir juftlik haqida. Filmda ularning sevgisi, yurak xuruji hamda falaj bolib qolgan ayol taqdiri haqida so'z boradi.

Venalik Kristof Vals 2009-yilda *Inglourious Bastards* filmida SS zobiti obrazida ajoyib aktyorlik mahorati bilan eng yaxshi II darajali ijrochi sifatida «Oltin globus» mukofoti bilan taqdirlandi. 2013-yilda esa *Django Unchained* filmi uchun Oskar mukofotini qo'lga kiritdi.

## 14. AVSTRIYA NEMIS TILISI

Venalik mashhur tanqidchi Hans Vaygelning (1908–1991) ta'kidlashicha, Avstriya aholisidan ko'ra ular gaplashadigan tillarning soni ko'proq ekan. Agar mamlakat aholisi, taxminan, yetti million bo'lsa, ular bir-biri bilan turli tillarda gaplashar ekan, shu bois tillarning soni mamlakat aholisi sonidan ham ortiqroq ekan» (*O du mein Österreich (Ey, mening Avstriyam.)* Vena: 1956). Umuman, Avstriya tillari to'g'risida nima deyish mumkin?

Ikkinchi jahon urushidan keyin ko'pchilik avstriyaliklar o'z tillarini nemislarning tilidan ajratmoqchi bo'ldi. Avstriya hukumatining milliy sotsializm tarafdorlariga bu fikr ma'qul kelmadi va ular bunga yo'l qo'ymadi. Bir qancha vaqt maktablarda «Nemis tili» darsi olib tashlandi.

1955-yilning boshlarida nemis tili dars sifatida maktablarda qayta joriy etildi. Shunga qaramay, ko'pchilik Avstriya nemis tilisini adabiy nemis tilidan farqli deb hisoblovchilar Avstriya nemis tilisi adabiy nemis tilining yarmini tashkil qilishiga mutlaqo jiddiy yondashmadi. Avstriya nemis tilisi Germaniya nemis tilisidan keskin farq qilmaydi. Bu fikr tilshunos olimlar tomonidan ham ta'kidlab o'tilgan. Avstriya Respublikasining Konstitutsiyasida «Nemis tili – davlat tili», deb yozilgan.

So'nggi yillarda Avstriya va Shvetsariya mamlakatlaridagi nemis tili Germaniyadagi nemis tilining o'ziga xos bir bo'lagi, degan fikrlar ham paydo bo'ldi.

Nemis tili bugungi kunga kelib ko'pchilik gaplashadigan til sifatida o'ziga xos xarakterga ega, davlatlar va unda yashovchi millatlar, ularning turli xil shevalari nemis tilining milliy markazi sifatida inobatga olinadi. Avstriya ham mana shunday markazlardan biri bo'lish sababini, unda nemis adabiy tilining turli xil o'ziga xos jihatlarini ko'rish mumkin. Bundan ko'rinadiki, Avstriya Milliy universitetida shevada emas, balki adabiy nemis tilida gaplashiladi.

Avstriyadagi boshqalardan ajralib turadigan nemis tili variantining leksika, grammatika va orfografiya sohasida hamda eng muhim sanalgan talaffuzida «avstriyalashuv» bor.

# AVSTRIYA TILINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. TALAFFUZ




Avstriyalik kishi gapirganida talaffuzidan uning avstriyalik ekanligini darrov anglab olish mumkin. Biror kishi o‘z shevasini ma’lum darajada o‘zgartirib adabiy tilda gapirsa, talaffuzi u tug‘ilib o‘sgan joy shevasiga bog‘liq bo‘ladi. Demak, Avstriyada venalikni kerntenlik yoki tirollikdan, foralbergerlikdan ajratish qiyin emas. Tiroldan Quyi Avstriya va Burgendlandgacha Bavariyaga xos shevalarda gaplashishadi, Foralbergda esa buning aksi bo‘lib, nemis shevasini kuzatish mumkin. Ular o‘rtasidagi farqlar juda ham katta. Shundan ma’lum bo‘ladiki, Avstriyada nemis tili oilasiga mansub barcha tillardagidek tilning o‘xshash jihatlari yo‘q ekan.

Avstriya nemis tilisi Germaniya nemis tilisidan, ayniqsa, Germaniyaning shimolidagi nemis tilidan katta farq qilishini ta’kidlash lozim. Qo‘shni Bavariya bilan sharqiy nemis tili o‘rtasida ko‘plab bog‘liqliklar ham bor.

Nemis tilining fonetik jihati Avstriyadagi nemis adabiy tiliga bog‘liq, masalan, chet tillardan o‘zlashgan ba’zi so‘zlar urg‘usi talaffuzi. Avstriyada shimoliy nemis tilidagi so‘zlarni urg‘uning o‘rniga nisbatan shunday talaffuz qilinadi: *Alge’bra (algebra): A’lgebra (algebra); Kaffe’e (qahva): Ka’ffee (qahva); Mathema’tik (matematika): Mathemati’k (matematika), Taba’k (tamaki); Ta’bak (tamaki); Telef’on (telefon), Te’lefon (telefon).*[1]

*Chirurk (jarroh)* so‘zi boshida kelgan frikativ *ch* chet tilidan kirib kelgan *China (Xitoy), Chemie (kimyo)* so‘zlaridagi kabi yoki *ch-* va *sch-* singari emas, balki portlovchi undosh sifatida talaffuz qilinadi.

Bavariya va Avstriya yozuvida *«a»* talaffuzi farqlanadi. Adabiy tilda ikkita *«a»* tovushi bor, ulardan birini talaffuz qilganda *«o»* tovushidek jaranglasa, boshqasi ochiq talaffuz etiladi. Bu yerda asosiy sabab dialektlarda bo‘lib, yozuvdagi *a* tovushi, ko‘pincha, tildagi *«o»* talaffuzida o‘z aksini topadi (masalan: *Straβe (ko‘cha), Hase (quyon)* yoki kundalik turmushda ishlatiladigan

[1] *Izoh:* keltirilgan barcha so‘zlarda urg‘uning o‘rni o‘zgargan, ammo ma’nosi bir xil.

*«ja» (ha)* so'zlarida). Masalan, *Banane (banan), bravo (zo'r)* so'zlarida *«a»* ochiq talaffuzligicha qoladi. Biron-bir so'zning ma'nosiga qarab yozilishi bir xil bo'lgan so'zlarning turlicha talaffuz qilinishiga sabab bo'ladi:

*Er sitzt auf einer Bank (o-tovushi).*

U o'rindiqda o'tiribdi.

*Er geht auf die Bank (a-tovushi).*

U o'rindiqda ketyapti.

*Die Kinder spielen Ball (o-tovushi).*

Bolalar koptok o'ynayapti.

*Die Eltern gehen auf den Ball (a-tovushi)*

Ota-onalar koptokka qarab ketyapti.

E'tirof etilishicha, Avstriya nemis tilisidan ko'ra Dunay daryosi atrofida joylashgan aholining nemischa talaffuzi jarangli va yoqimliroq eshitilar ekan. Bunga sabab portlovchi tovushlar (p, t, k) ning yumshoqroq talaffuz qilinishidir. Avstriya tili talaffuzida, ayniqsa, Vena shahri hududida tovushlarni burunda talaffuz qilishda o'zgarish borligini ko'rish mumkin. Kerntencha talaffuz ham yumshoq, ham jarangdor bo'lib, ularda tovushlar cho'zilishining xarakterli belgisi quyidagicha bo'ladi: *losn=lassen (tinch qo'ymoq); ofn=offen (ochiq).*

Alp tog'lari hududida esa hozir ko'rsatib o'tilgan tovushlar bilan bog'liq misollardagi tafovutlar to'g'ri emas. Masalan, Tirolda yozuvdagi *k* bilan *ch* ko'proq *kch* ga bog'liq bo'ladi. Agar tirollik kishi o'z shevasida *«Speckchnödeln»* deb talaffuz qilsa, unchalik yumshoq va jarangdor eshitilmaydi, balki qattiq va bo'g'iq tovush sifatida eshitiladi. Agar bunga urg'u beradigan bo'lsak, tirolliklarning ko'pchiligi *s* o'rniga *sch* tovushini qo'llashini kuzatish mumkin.

## AVSTRIYA NEMIS TILISI GRAMMATIKASI

Avstriya nemis tilisi grammatikasida ham o'ziga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlar mavjud. Masalan, ba'zi otlarning grammatik jins kategoriyasi va ko'pligida farqlar bor. Avstriyada *das/die Brezel (kulcha), oder das/die Vokabel (so'z)* o'rtasida ikkilanishlar bor, masalan, *der Sakko (kostyum)* o'rniga *das Sakko (kostyum)* yoki *die Sellerie (selderey-kashnichsimon oshko'k)* o'rniga *der/die Sellerie (selderey-kashnichsimon oshko'k)* deb aytishadi. Ba'zi jins kategoriyasini farqlashda qo'shimcha ma'nolarni ham amalda qo'llaydi.

Germaniyaga qo'shni mamlakat Avstriyada *der Akt (die Akte) (akt, harakat), der Schranken (die Schranke) (jahon)* kabi ko'rinishlar bor. Ular kundalik hayotda ishlatiladigan so'zlar hisoblanadi: *der Zeck neben die Zecke (kananing yonida kana), der Petersil neben die Petersilie (petrushka-kashnichsimon ko'kat).*

Otlarning ko'plik shakllarini hosil qilishda Avstriya o'zining grammatik imkoniyatiga qarab umlautlarni qo'llaydi: *die Erlässe (farmonlar), Wägen (avtomobil), Krägen (yoqa), Pölster (für Kissen) (yostiq).*

*-el* qo'shimchasi bilan tugaydigan otlar ko'plikda, ko'pincha, *-n* qo'shimchasini oladi: *das Mädel (qiz): die Mädeln (qizlar); das Würstel (sosiska): die Würsteln (sosiskalar); das Hendl (jo'ja); die Hendln (jo'jalar).*

## SO'Z YASALISHI

Avstriya nemis tilisidagi qo'shma so'zlarda nemis tilida uchramaydigan *«s»* infiksi mavjuddir. Masalan: *Fabriksarbeiter (fabrika ishchisi), Gepäcksaufbewahrung (yuk saqlash xonasi), Gesangsverein (qo'shiqchilar jamiyati), Zugsabteil (poyezd kupesi), Rindsbraten (qovurilgan mol go'shti), Schweinsbraten (qovurilgan cho'chqa go'shti), Schweinsschnitzel (shnitsel, cho'chqa go'shtidan tayyorlangan taom) (qarama-qarshi: Rinderbraten, Schweinebraten).*

Avstriya nemis tilisining asosiy xususiyatlaridan biri kichraytirish formalarining muhimligi va ko'pligidir. Bundan tashqari ***-erl*** *qo'shimchasi bilan avval ham, hozir ham juda ko'p so'zlar yasaladi.*

## GAP QURILISHI

Gap qurilishida Avstriya nemis tilisi grammatikasining o'ziga xos bir nechta jihatlari mavjud. Avstriya bilan Janubiy Germaniya o'tgan zamon preteritumining (o'tgan zamon hikoya formasi) o'rniga perfektning (o'tgan zamon) formasi qo'llanilishi nazarda tutiladi.

Masalan: *Ich ging (Men bordim.) Ich aß. (Men ovqatlandim.)* o'rniga *Ich bin gegangen. (Men borgan edim.) Ich habe gegessen. (Men ovqatlangan edim.)* kabi qo'llaniladi. Shunday bo'lsa ham, Avstriyada yozma matnlarda o'tgan zamon hikoya shakli ishlatiladi.

Ba'zi matnlar, masalan, harakatni yoki holatni ifodalasa ham, Avstriyada, Janubiy Germaniyada bo'lgani kabi, *haben (ega bo'lmoq)* ko'makchi fe'li bilan *sein (bo'lmoq)* fe'li almashtirib qo'llanadi. Masalan: *Ich bin gegessen. (Men ovqatlangan edim.) Ich bin gelegen. (Men yotgan edim.)*

## SO'Z BOYLIGI

So'z boyligi sohasida Avstriya nemis tilisi o'zining yorqin jihatlarini gapirmasdan turib ham yaqqol ko'rsatib bera oladi. Avstriya yozuvi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. «Avstriyalashuv» Avstriya nemis tilisidagi so'z boyligining ikki foizinigina tashkil qiladi. Avstriya nemis tilisidagi matn nemischa matndan ma'no jihatidan juda kam farqlanadi. Shunday bo'lsa-da, farqlar yozuv bilangina chegaralanib qolmaydi. Avstriya kundalik muloqotida ishlatiladigan til, sheva hamda adabiy til avstriyaliklarning kelib chiqishi, yoshi, jinsi, ahvoli, ta'limi, suhbatdoshi va tilining turli xil shakllaridagi holatiga ko'ra tobora o'zgarib bormoqda. Avstriya hududida yashamaydiganlar uchun bu tilning o'ziga xosliklari biroz murakkab bo'lib, ba'zi qiyinchiliklarni tug'diradi.

Dialektlar bilan bir qatorda, kundalik hayotda ishlatiladigan til, shuningdek, «sof nemis tili» ga qaraganda xalqaro jihatdan tan olingan til, adabiy til bor.

Turli xil til qatlamlarining «jonli mavjudot» ekanligi, ko'pchilik avstriyaliklar bir til qatlamidan boshqa til qatlamlariga avtomatik ravishda o'tib ketishi ham tilning murakkab xususiyatidan dalolat beradi. Kundalik hayotda shevaning ko'p turi qo'llaniladi, shevalarni qo'llaganda his-hayajonli komponentga va o'zining shaxsiy so'z boyligiga ega bo'lishi mumkin. Adabiy til va shevalarni bir-biridan yaqqol ajratish mumkin. Bolalarga maktabda adabiy til o'rgatiladi, adabiy til bo'yoqdorligi bilan boshqalaridan butunlay ajralib turadi.

Avstriya nemis tilisi til boyligida o'zining hududiy strukturasini namoyon qiladi. Shunday yuqori nemis tili so'z boyligi ham borki, ularni shimoliy nemis tili hududi bilan Avstriya hududi ajratib turadi. (*Bub (yosh yigit): Junge (yosh yigit), Orange (apelsin): Apfelsine (apelsin), Samstag (shanba): Sonnabend (shanba), Heuer (shu yil): dieses Jahr (shu yil)*. Shu bilan bir qatorda, Bavariya – Avstriya so'z boyligi lug'ati ham mavjud, ushbu lug'at Bavariya va Avstriyada

keng qo'llaniladi *(Maut (soliq): Zoll (boj); Scherzel (non ushog'i): Anschnitt des (bir kesim non) Brotes; Kren (yer qalampir): Meerettich (yerqalampir), Topfen (tvorog, suzma): Quark (tvorog, suzma)).*

Umumiy Avstriya tili so'z boyligining asosiy qismini *Nationalrat (Milliy Kengash), Landeshauptmann (federal o'lkaning boshlig'i), Matura (bitiruv imtihoni)* kabi siyosiy va idoraviy tushunchalar qamrab olgan. Shuningdek, «Kuchensprache» ga tegishli tushunchalar kiradi. Masalan: *Faschiertes (qiyma), Gugelhupf (dumaloq pirog), Krapfen (bo'g'irsoq).* Shu bilan bir qatorda, Vena hududida ishlatiladigan bir qancha so'zlar butun Avstriyada qo'llaniladigan so'z sifatida qabul qilinadi, lekin bu so'zlar Bavariyada keng qo'llanilmaydi. Masalan: *Trafik (kioska), Jause (peshin paytida ovqatlanish), Marille (o'rik), Karfiol (gulkaram), sich verkühlen (shamollab qolmoq).*

Avstriyaning bir qismida sharqiy va g'arbiy jihatdan ajralib turadigan so'z boyliklari mavjud.

Avstriya Sharqiy va G'arbiy Avstriya tili so'z boyliklaridan tarkib topgan bo'lib, shulardan biri Folarbergdagi *Fasnacht (Karnaval)* so'zi butun Avstriya mamlakatida *Fasching (Karnaval)* so'zi kabi qo'llaniladi. Mamlakat g'arbida *Metzger (qassob)* so'zi sharqda *Fleischhacker (go'sht chopuvchi)* yoki *Fleischhauer (go'sht chopuvchi)* shaklida ishlatiladi.

Hududiy so'z boyliklariga mansub bo'lgan tushunchalar, masalan: *Heuriger (yangi vino)* va *Buschenschank (bar)* yoki *Heuriger (vino quyiladigan shoxobcha)* so'zlari bir-biriga mos kelsa, nemis tilidagi *schaffen (ijod qilmoq)* so'zi *arbeiten (ishlamoq)* so'ziga mos keladi. So'zlarning yana shunday guruhi ham borki, bunga ko'ra, ular umumiy nemis tilidagi so'zlar hisoblanadi, lekin Avstriyada ularning qo'shimcha ma'nolar ham bor. Masalan: *Bäckerei (novvoyxona) so'zi* Avstriyada «*shirinlik*» ma'nosini ham anglatadi.

So'zlarning umumiy boyligi Avstriya va Germaniyada ko'p hollarda farqli qo'llaniladi. Misol tariqasida Avstriya kundalik hayotida, taomlar retseptlari yoki xarid qilishda og'irlik o'lchov birligi sifatida **10 gramm** ishlatiladi, Germaniyada esa bu holat butunlay boshqacha. Germaniya va Avstriya o'rtasidagi farqlarni salomlashishda va hujjat titullarida ham ko'rish mumkin. Salomlashish shakli sanalgan *Servus yoki Küss die Hand* (qo'lni o'pib salomlashish)ning rasmiy qabul marosimlarida qo'llanilishi Avstriya uchun odatiy holat sanaladi.

## YEVROPA ITTIFOQI A'ZOLARI DOIRASIDA

Fanda hukm surayotgan fikr va siyosiy tortishuvlarda Avstriya tili nemis tiliga oxshamaydi va hech qanday ro'l o'ynamaydi, deb talqin qilinadi. Avstriya aholisining katta qismi uchun nemis tiliga millat nuqtayi nazaridan tanqidiy qaralmaydi. Yevropa Ittifoqi a'zolarining maydonida Avstriya nemis tilisi haqidagi munozaralar o'rtaga tashlangan hollarda ham bu oddiy yechim emasligi ayon bo'ladi. An'anaviy avstriyacha tushunchalarning yo'qolib ketishi mumkinligi hammani vahimaga soladi.

1992-yilda Avstriya gazetalarining birida Avstriyaning «Preuβifizierung» *(«Prussiyalashtirish»)* va Bonndan qo'zg'algan «Sprachimperialismus» *(«Tilni imperiyalashtirish»)* o'rtasida urush haqida maqola chop etiladi. Natija qanday bo'ldi? Germaniya bilan savdo-sotiq jarayonida kelajakda ba'zi oziq-ovqat mahsulotlarini, masalan; *shaftoli, smorodina, gilos, shuningdek, qizil smorodina va olcha* kabi mevalarni taqiqlab qo'yishdi. Bundan ba'zi avstriyaliklar endi Yevropa ularga *bulka non* o'rniga faqatgina *suzmali paramach* berishidan cho'chib qoldi.

Avstriya siyosatshunoslarining ishonchsiz ravishda xalqni: *«Erdapfelsalat» «Kartoshka salat»ligicha qoldi», «Nima yeyiladigan narsa bo'lsa, hammasi shundayligicha qoldi»* kabi shiorlar mavjudligidan ogohlantirdi. Ushbu siyosiy til tushunchasi natijasi shu bilan tugadiki, unda belgilangan 10-sonli bayonnoma asosida Avstriya nemis tilisidagi 23 so'z Germaniyada amalda qo'llangan so'zlarga tenglashtiriladi.

## SOF ADABIY NEMIS TILI

2005-yildan beri Avstriya suzish bo'yicha olimpiadada Afinaning kumush medali sovrindori bo'lgan sportchi Markus Rogan, Venada chop etiladigan «Profil» jurnalining xabar berishicha, sof adabiy nemis tilida gapirar ekan. Samimiylik va hammadan ajralib turadigan notiqlik qobiliyatiga ega bo'lgan amerikalik bu yosh sportchi nutq madaniyatining nozik jihatlarini juda yaxshi biladi. Lekin bu yigit boshqalarga namuna bo'la oladimi? U Stanford kabi Amerika yuqori tabaqali kishilari yo'lidan bora oladimi?

## ORFOGRAFIK LUG'AT QARAMLILIK BELGISIMI?

Avstriyaliklarning ko'pchiligi o'zlari so'zlashayotgan nemis tilini ortda qolgan til deya hisoblaydi, hattoki, bundan orlanadi hamda har xil ta'sirlanadi. Ular o'zlarining nemis tilisini sevmaydi. Odamlar bu tilda yaxshi gapira oladigan Markus kabi kishilardan zavqlanadi, deb hisoblaydi. Boshqa tomondan esa ko'pchilik avstriyaliklar oddiy va imkoni boricha erkin gapirishni xohlaydi, demak, ular o'zlarining nemis tilisidagi avstriyacha xususiyatni fahmlagan. Tilshunos olim Volfgang Pollakning ta'kidlashicha, bu ikki fikrning bo'lishi mumkin emas. Avstriyacha til o'z yo'nalishini va ma'no-mohiyatini aniqlab olishi darkor. Duden lug'atiga juda ham ko'p tilli va Main shahrining janubidagi til me'yorlarini kiritdi. Pollak va boshqalar ularning mamlakatidagi aholini so'nib qolgan tilni o'rganishga qaytadan jalb qildi va bunga astoydil harakat qildi, shu orqali ular avstriyacha nemis tilining mavjudligini, bu til nemis tilining adabiy shakli ekanligini e'tirof etdi. Bundan tashqari, darsliklarda yordamchi vosita sifatida o'tilayotganligi va 1951-yilda ilk marotaba avstriyacha lug'atning paydo bo'lishi avstriyalashuv qonuniga asoslanganligini isbotlab berdi. Shunga qaramasdan, avstriyacha nemis tilining obro'yi va ahvoli yechilmagan jumboq bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, globallashuvning ta'siri ham oshib bormoqda. So'nggi paytlarda xalqaro miqyosda, eng avvalo, Avstriya va Germaniya nemis tilisi o'rtasidagi farqlar yuridik sohaga ham kirib kelmoqda. Yevropa hamjamiyati tarjimonlari uchun yaratilgan rasmiy kitoblarda 4000 ta tushuncha va ibora ajratib olingan.

Har yili yozda Avstriya nemis tilisini yo'q qilish maqsadida muzokara bo'lib o'tardi. 2003-yilda Yevropa hamjamiyatida *«marmelad»*ga oid so'zlar ustida munozaralar olib borildi. Bunga ko'ra, Avstriya hukumati inglizcha ta'rif qabul qilishi zarur edi, shundan keyin *marmelad* tropik mevalardan tayyorlanadigan bo'ldi. Mashhur *shaftoli marmeladini «qiyom»* deb atash bilan kifoyalanildi. Bunga mashhur «Kronen» gazetasi norozilik bildirdi, ularning bu qilgan harakati to'g'ri edi. Nihoyat, Avstriya o'zining *«marmelad»*ini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

2004-yilda taniqli mualliflar tomonidan (Marlene Shtreeruvitz, Peter Henish, Robert Shindel va boshqalar) ushbu nizolarga chek qo'yish uchun murojaatnoma joriy etildi. Yangi murojaatnoma shuni talab etadiki, Federal

Kengash avstriyacha nemis tilining mustaqil davlat tili sifatida kiritilishiga ko'maklashishi kerak edi. Shunday qilib, «Yevropa kontekstidagi avstriyacha nemis tili» yoki, oddiy qilib, aytganda, «Avstriya nemis tilisi» kabi til muammosidan birini tanlashdek masala ko'ndalang bo'lib turar edi. Bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun imkoniyat juda oz edi.

Avstriya huquqshunoslik terminologiyasi bilan shug'ullanuvchi Haydemarie Markharday ekspert sifatida avstriyacha nemis tili «Nozik masala», deb baholadi. Birlashgan nemis davlati Yevropa Ittifoqidan avstriyacha so'zlar ishlatilishini cheklashga harakat qilyapti. 2006-yilning oxiriga kelib bu masalaga barham berish uchun til me'yori uchun mas'ul Yuta Ransmayrning «Avstriyacha nemis tilining nemis tili bo'lmagan universitetlardagi ahamiyati» masalasidagi izlanishlarida yechim topildi. Ammo yaxshi natijaga erishilmadi. Avstriyacha nemis tili, avvalambor, Fransiya va Angliyada katta rasmiy muammolarga sabab bo'lyapti. Bu yerda gap Avstriya nemis tilisi *«yoqimli»* va *«yoqimtoy»* deb topilishi bilan birga, uni o'qiyotganlarda *«shevaga oid»* va *«xatolarga boy»* til sifatida ikkinchi sinfdan boshlab tez-tez almashtirilyapti.

Avstriyadagi nemis tili bilan xayrlashish kerakmi, degan masala ko'pchilikni qiynar edi. Shu bilan birga, bu masalaga oid fikrlar bot-bot ta'kidlanyapti. Venalik nemis tili mutaxassisi Peter Viesenger barcha ikkilanishlarni bartaraf etdi. Bunda na til ajratishlari paydo bo'ladi, na Avstriya birliklaridan qo'rqish kerak bo'ladi. To'la ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, jurnalist Robert Sedlasek o'zining 2004-yilda bosib chiqarilgan asarida «Avstriya nemis tilisi qanday qilib o'zimizning qo'shnimizdan farqlanishi mumkin?» degan savolni o'rtaga tashlaydi. Avstriya xalqi o'z tilini his qilish tuyg'usiga ega bo'lsa, bu xalqning katta qismi o'z tili bilan faxrlansa arziydigan muvaffaqiyatga erishgan bo'lar edi. Uning fikriga ko'ra, Avstriya nemis tilisi, aslida, nemis tilining boshqacha shaklidir.

**Avstriya tarixidan bir shingil**

Bir germaniyalik Venaga kelibdi va o'zining supurgisiga suyanib turgan farroshga ko'zi tushibdi. Tartibsevar bo'lganligi uchun o'sha ishchidan nima uchun ish vaqtida ko'chani tozalamayotganini so'rabdi: «Bu yerda nima qilyapsiz?» Ishchi shunday javob beribdi: «Ramadun». (Bu «Men ko'chani

tozalayapman» degani). Ammo germaniyalik odam uni yaxshi tushunmabdi va shu yerdagi boshqa farroshlarga murojaat etibdi: «Nima qilyapsizlar, janoblar? «Ular ham «Rama dama» («Biz ko‘cha supuryapmiz»), deb javob qaytaribdi. U yana tushunmabdi. Shunda jahli chiqib yaqin-atrofda turgan boshqa bir kishiga yuzlanib undan so‘rabdi: «Nima qilyapti ular?». U ham «Rama dans», deb javob beribdi. («Ular tozalayapti, ko‘chani tozalasyapti»). Shundan keyingina germaniyalik aqlini peshlab olgan ekan.

**Alfred Gessvein: «Rama dama»**

| | | |
|---|---|---|
| Rama dama | Räumen tun wir | Tozalaymiz |
| Rama weama | Werden wir | Bo‘lamiz |
| Rama woema | Wollen wir | Xohlaymiz |
| Rama dadma | Täten wir | Bajarmoqchi edik |
| Gramd hauma | Geräumt haben wir | Tozalashimiz kerak |
| Rama wüle | Räumen will ich | Tozalashni xohlayman |
| Rama wire | Werde ich | Bo‘laman |
| Rama dure | Tue ich | Bajaraman |
| Rama dade | Täte ich | Bo‘lganida edi |
| Gramd hede | Hätte ich | Bo‘lganida edi |
| Rama woins | Räumen wollen sie | Ular tozalashni xohlaydi |
| ramadans | Tun sie | Bajaring |
| Rama Venas | Werden sie | Bo‘lasizlar |
| Rama dedadns | Täten sie, würden sie tun | Bajaringlar, buni bajargan bo‘lardingiz |
| Rama dama | Räumen tun wir | Tozalaymiz |
| Rama dure | Tue ich | Bajargan bo‘lardim |
| Rama dans | Tue ich | Bajaraman |
| Rama dadma | Täten sie | Bajaringlar |
| Rama dade | Täte ich | Bajargan bo‘lardim |
| Rama dedans | Täten sie, würden sie tun | Bajarsangiz |
| Rama woema | Räumen wollen wir | Biz tozalamoqchimiz |

| | | |
|---|---|---|
| Rama wüle | Will ich | Xohlayman |
| Rama woens | Wollen sie | Xohlaydilar |
| Rama weama | Werden wir | Bo'lamiz |
| Rama wire | Werde ich | Bo'laman |
| Rama Venas | Werden sie | Bo'ladilar |
| Gramd hauma | Geräumt haben wir | Biz tozalagandik |
| Gramd howe | Habe ich | Menda bor |
| Gramd haums | Haben sie | Ularda bor |
| Gramd hedma | Hätten wir | Ega bo'lardik, ega bo'lganimizda edi |
| Gramd hede | Hätte ich | Ega bo'lardim |
| Gramd hedadns | Hätten sie | Ega bo'lardilar |
| Rama woema | Räumen wollen wir | Biz tozalamoqchimiz |
| Rama miasma | Müssen wir | Majburmiz |
| Rama dama | Tun wir | Bajaramiz |

# 15. AVSTRIYADA QANDAY AYTILADI?

## QISQACHA AVSTRIYACHA LUG'AT

***Eslatma:** (ugs.= kundalik muloqotga oid; mdal.= shevaga xos)*

*Avstriyaliklar, ko'pincha, quyidagi so'zlardan kundalik muloqotda va shevada foydalanadi. Chet elliklar uchun esa shu va kundalik hayotga tegishli boshqa so'zlardan foydalanishda ehtiyot bo'lish tavsiya qilinadi. Quyida keltirilgan ba'zi so'zlardan Avstriyaning janubiy hududiga foydalaniladi.*

| A | | |
|---|---|---|
| abdrehen | ausmachen (Licht abdrehen) | 1. Chiroqni o'chirmoq.<br>2. Kelishmoq.<br>3. O'zaro hal qilmoq |
| die Abfahrt, -en | Ausfahrt | Sayohat, jo'nab ketish |
| die Abfertigung, -en | Abfindung | Zararni qoplash |
| Abgängig | verschwunden, vermisst | 1. Yo'qolib ketgan.<br>2. Yashirinmoq.<br>3. O'lchangan |
| die Ablöse, -n | Geld, das ein Mieter manchmal bezahlen muss, um eine Wohnung zu bekommen | Vaqtinchalik turarjoy uchun ijarachi tomonidan to'lanadigan pul |
| die Abwasch, -en | Einrichtung zum Geschirrabwaschen, Spüle | Idish-tovoq yuvishga mo'ljallangan oshxona jihozi; idish yuvgandan keyin suv ketadigan joy |
| der Adabei, -s (ugs.) | Jemand, der überall dabei ist, Wichtigtuer | Hamma joyda hozir bo'ladigan, hojatbaror, kerakli odam |
| angreifen | anfassen | Qo'l bilan ushlab paypaslamoq |

| | | |
|---|---|---|
| der Anrainer, - | Grundnachbar, Anlieger | Biron-bir yer uchastkasiga xo'jayinlik qiluvchi qo'shni odam |
| anschauen | ansehen | 1. Qaramoq.<br>2. Hisobga olmoq |
| auffi (mdal.) | Hinauf | Yuqoriga, tepaga |
| ausschauen | öffnen (Fenster) | Derazani ochmoq |
| ausgesteckt | Zum Zeichen, dass hier heuriger, neuer Wein ausgeschenkt wird, hängt über dem Tor ein Kranz oder ein Buschen aus Tannenzweigen. | Bir nishona sifatida bu yilgi yangi nav vinosidan sovg'a qilinadi, darvoza oldida archa nina barglaridan qilingan guldasta osib qo'yiladi |
| die Auslage, -n | Schaufenster | Ko'rgazma oynasi |
| ausschauen | aussehen | Ko'rinmoq |
| ausständig | ausstehend, fehlend | ruxsat so'ramay kelmay qolgan, yo'qolib qolgan |
| | **B** | |
| die Backerbsen | Suppeneinlage aus gebackenem Teig in Erbsenform | Sho'rva tarkibidagi no'xat ko'rinishida pishirilgan xamir |
| die Bäckerei, -en | auch: süßes Kleingebäck | Kichik shirin kulcha |
| die Bedienerin, -nen | Putzfrau | Farrosh ayol |
| der Beistrich, -e | Komma | Vergul |
| betakeln (ugs.) | Beschwindeln | Aldamoq, yolg'on gapirmoq |
| das Beuschel | Speise aus Herz und Lunge | Yurak va o'pkadan qilingan taom |
| die Brieftasche | Geldbörse | Pul solinadigan hamyon |
| brennen | an sein (Licht) | Yonmoq ( chiroq) |
| das Brötchen, - | kleines belegtes Brot | Kichik non bo'lagi |
| der Bub, -en | Junge | Yosh o'spirin bola |

| | | |
|---|---|---|
| die Buchtel, -n | Mehlspeise aus Hefeteig, mit Marmelade gefüllt | Marmelad bilan to'ldirilgan, unga xamirturush qo'shib qorilgan xamirdan tayyorlangan taom |
| der Barsch, -en | Junger Mann | Yosh erkak |
| der Buschen, – (ugs.) | Blumenstrauβ (siehe auch «ausgsteckt») | Guldasta |
| die Buschenschank, -en | Weinausschank im Freien, Heurigenlokal | Bayramda biron narsani nishonlashda ichiladigan bu yilgi bir qadah vino |
| das Busserl, -n (ugs.) | 1. Kuss;<br>2. Kleines süβes Gebäck | 1. O'pich.<br>2. Kichik shirinlik bo'lagi |
| das Bussi, – (ugs.) | kindertümliche Form zu «Busserl» | Bolalarga yarasha shirinlik bo'lagi |
| | **C** | |
| der Coloniakübel, – (ugs.) | in Vena: Mülleimer | Venada: axlat chelak |
| | **D** | |
| da | hier | Bu yerda |
| das Deka, - | 1. Dekagramm (1 dag) = 10 Gramm; z.B.: 10 Deka Wurst | 1 dag=10gr ga teng; misol uchun: 10 deka kolbasa |
| das Dirndl, -n (ugs.) | 1. Mädchen.<br>2. Trachtenkleid | 1. Qiz bola.<br>2. Milliy kiyim (ko'ylak) |
| der Dodel, Todel, -n (ugs.) | blöder, dummer Kerl | Axmoq, bema'ni, tentak yigit |
| Doppeln | die Schuhe neu besohlen | Oyoq kiyimining ichini yangilamoq |
| die Draufgabe, -n | Zugabe (eines Künstlers) | A'lo darajada bajarish (san'atkor va ijodkorlarning mohirona ishi) |
| drücken | tippen (Taste drücken) | Yozuv mashinkasida yozmoq |

| E | | |
|---|---|---|
| ebenfalls | Gleichfalls | Xuddi shu kabi, xuddi shunday |
| E- Card | Chipkarte, dient als Zugang zu Chipkarte, dient als Zugang zu den Kranken-versicherungsdaten | Bemorning kasallik sug'urtasi davri o'tish mobaynida xizmat qiladigan, ma'lum vaqtgacha saqlanadigan karta |
| eh | ohnehin, sowieso; z.B..: Ich weiβ eh schon... | U siz ham, shundoq ham. Misol uchun: Men buni shundoq ham bilaman |
| das Eierschwammerl, -n | Pfifferling | Och sariq rangdagi, yesa bo'ladigan kichkina qo'ziqorin |
| die Eierspeise, -n | Rührei | Tovada harakatlantirib pishiriladigan tuxumli taom |
| die Einbrenn | in Fett geröstetes Mehl für Gemüse und Suppen | Sabzavot va sho'rvalar uchun yog'da jigarrangga keltirilib pishirilgan un |
| eini (mdal.) | hinein | Ichkariga |
| einsperren | schlieβen | 1. Yopmoq; qulflamoq; tugatmoq. 2. Yakun yasamoq. 3. Shartnoma tuzmoq |
| der Erdapfel, | Kartoffel | Kartoshka |
| der Erlagschein, -e | Zahlkarte, Einzahlungsschein der Post | To'lov kartasi; pochtaning to'lov varaqasi |
| die Extrawurst, e | 1. eine beliebte Wurstsorte; 2. (ugs.) Ausnahme; etwas Besonderes, das die anderen nicht haben | 1. Sevimli kolbasa turi. 2. O'ziga xos: mustasno holat; boshqalarda biron-bir o'ziga xoslik bo'lmagan |

| | | |
|---|---|---|
| | **L** | |
| -männer/-leute | Ches der publik Deutschland: Ministerpräsident | Germaniya ommasi, bosh vazir hukumati |
| der Lehrling, -e | Auszubildender | Biron-bir firma yoki idorada kasb o'rganuvchi yosh odam (shogird) |
| der Lift, -e | Aufzug | Lift |
| der Lungenbraten, - | Rinderfilet | Suyagi yo'q, yumshoq qovurg'a go'shti (mol go'shti) |
| | **M** | |
| das Mädel, -n | kleines Mädchen | Kichkina qiz, qizcha |
| Marandjosef (ugs.) | Maria und Josef: Ausruf des Erschreckens | Mariya va Yozef: qo'rquvning chaqiruvi |
| die Marille, -n | Aprikose | O'rik (oq o'rik) |
| die Maroni, - | Edelkastanie | Nodir, qimmatbaho kashtan |
| die Masche, -n | Schleife | Biror yo'nalish orqali tashish, olib kelish |
| die Matura | Reifeprüfung,, Abschlussprüfung einer höheren Schule | Bitiruv imtihoni, maktabni tugatish imtihoni |
| die Maut,-en | Gebühr für die Benützung einer Straβe | Ko'chadan foydalanganlik uchun ko'ngilli to'lov |
| die Mehlspeise, -n | Süβspeise (auch ohne Mehl), Kuchen | Shirin (unsiz) tayyorlangan taom, pirog |
| der Meldezettel, - | polizeiliches Anmeldeformular | Militsiya xodimining belgilash varaqasi |
| der Mistkübel, - | Mülleimer | Axlat chelak |
| | **N** | |
| na (ugs.) | nein | Yo'q |
| die Nachspeise, -en | Nachtisch | Ovqat oxirida beriladigan shirin taom (shirinlik, desert) |

| | | |
|---|---|---|
| das Nachtmahl, e/-mähler | Abendessen | Kechki taom |
| das Nussbeugel, - | kleine längliche Teigstücke als Beilage oder Suppeneinlage | Kichik, uzun xamir bo'lagi, sho'rvaga qo'shimcha garnir |
| das Nockerl, -n | Hörnchen mit Nussfüllung | Yong'oqlar bilan to'latilgan shox-shabbalar |
| | **O** | |
| das Obers | süβe Sahne | Shirin qaymoq |
| die Ordination, -en | Arztpraxis (auch: Sprechstunde) | Shifokor amaliyoti (hamda: suhbat vaqti) |
| das Organmandat, -e | Poliz Polizeistrafe ohne Anzeige | Militsiya tomonidan ko'rsatmasiz jarima (shtraf) |
| | **P** | |
| die Palatschinke, -n | dünner Eierkuchen (Pfannkuchen), gerollt und mit Marmelade gefüllt | Marmelad bilan to'ldirilgan, yupqa tuxumli pirog (tovada pishirilgan pirog) |
| die Panier | Durcheinander | Betartib, aralashib ketgan |
| der Pallawatsch (ugs.) | Masse aus Ei, Mehl und Semmelbröseln als Hülle für Fleisch (Schnitzel) | Biroz un, tuxum va non ushoqlarining son go'shtiga qo'shimcha miqdor sifatida qo'shilmasi |
| papa (baba, ugs.) | Abschiedsgruβ (leb wohl!) | Xayrlashuv, vidolashuv (yaxshi qol, omon bo'l) |
| die Parte, -n | Tomate | Pomidor |
| der Paradeiser, - | Todesanzeige | Vafot etganlik haqidagi guvohnoma |
| das Parterre | Erdgeschoβ | Birinchi qavat |
| der Patschen, - (ugs.) | Hausschuh | Uy shippagi |
| die Pension, -en | Rente (in Pensi Rente (in Pension gehen) | (pensiya uchun keladigan ) nafaqa puli |

| | | |
|---|---|---|
| der Pfusch (ugs.) | schlechte Arbeit, Schwarzarbeit | Yomon ish, qora ish |
| picken | kleben, haften | Yopishtirmoq, mahkamlamoq |
| der Piefke-(s) (ugs.) | abwertend: Deutscher | Qimmatli, qadrli, nemislar |
| der Polster, Polster/ Polster | Kissen | Yostiq |
| der Powidl | Zwetschkenmarmelade | To'q ko'k rangli olxo'ridan tayyorlangan marmelad |
| das Powidltatschkerl, -n | Mehlspeise mit Powidlfüllung | Povidlo aralashmasi qo'shilgan unli taom |
| Pragmatisieren | fest und unkündbar anstellen | Mustahkam va o'zgartirilmaydigan qilib joylashtirmoq |
| präpotent | überheblich, arrogant | O'zini baland tutish, hech kimni pisand qilmaslik, dimog'dorlik |
| der Primarius, -rien/-rie | Chefarzt | Bosh shifokor |
| | **Q** | |
| in Österreich [kve:] ausgesprochen der Quargel | kleiner, runder Stinkkäse | Yumaloq, kichik, yoqimsiz hidli pishloq |
| | **R** | |
| der Rauchfangkehrer, - | Schornsteinfeger | Mo'ri tozalovchi |
| raunzen | jammern, weinerlich klagen | Ov qilmoq, yig'lamsirab shikoyat qilish, nolish |
| der Realitätenhändler, - | Grundstücks-, Häusermakler | Asosiy yer qismi egasi, uy makleri |
| das Reindl, -n (ugs.) | kleiner Kochtopf | Qozoncha |
| rennen | laufen | Yugurmoq |
| die Rettung, -en | Krankenwagen | Kasalxona mashinasi |

| | | |
|---|---|---|
| das Rexglas, -er | Einkochglas | Konserva qaynatadigan banka, idish |
| die Ribisel, -n | Johannisbeere | Yohannes rezavor mevasi |
| die Rodel, -n | Schlitten | Chana |
| rückwärts | steht häufig für «hinten» (rückwärts einsteigen) | Ko'pincha, orqada turadi (orqa tomondan ulanish) |
| | **S** | |
| das Sackerl, -n | Tüte | Paket, tugun, o'ram |
| die Schale, -n | Tasse | Chashka |
| der Schlag, Schlagobers | Schlagsahne | Haqiqiy qaymoq, suzma (qaymoq) |
| der Schmäh, -s (ugs.) | Trick, Schwindelei | Aldov, yo'ldan adashtirish |
| die Schnalle, -n | Klinke | Dasta, band, tutqich |
| der Schnüriregen | anhaltender Regen, besonders in Salzburg | Doimiy, davomiy qonun-qoida, ayniqsa, Salzburgda |
| der Schnürisamt | Kord | Paxta tolasi; pilla |
| die Schularbeit, -en | Klassenarbeit | Sinf ishi (sinfda bajariladigan ish) |
| schupfen (ugs.) | stoβen, werfen | Siltamoq, itarmoq, uloqtirmoq |
| das Schwammerl, -n | Pilz | Qo'ziqorin |
| sekkieren | die Semmel, -n Brötchen | Non (kulcha non) |
| die Semmelbrösel (Pl.) | Semmelmehl | Bo'lka non bo'lagi uchun un |
| **Servus** | unter Freunden verwendeter Gruβ | Do'stlar orasida qo'llaniladigan salomlashish turi |
| der Sessel, - | Stuhl | Stul (kursi) |
| die Speise, -en | Gericht | Taom, ovqat |
| der Spengler, - | Stuhl | Metalldan yasalgan, suv tarmog'iga o'rnatiladigan jihoz |
| das Stamperl,-n (ugs.) | Gericht | Shampan vinosi ichiladigan kichik qadah |

| | | |
|---|---|---|
| der Staubzucker | Puderzucker | Qand upasi |
| steigen | treten | Kirmoq |
| die Stempelmarke,-n | Marke, mit der amtliche Gebühren bezahlt werden | Rasmiy to'lov to'lanadigan pochta markasi |
| der Sterz | Speise aus Mais | Makkajo'xoridan tayyorlangan ovqat |
| die Stiege, -n | Treppe | Zina |
| der Stoppelzieher, - (ugs.) | Korkenzieher | Tiqin, sug'urgich |
| der Strudel, - | Mehlspeise, oft mit Äpfeln oder Topfen gefüllt, zusammengerollt und gebacken | Unli taom: olmalar yoki suzma (tvorog) bilan to'ldirilib o'ralgan va pishirilgan taom |
| | **T** | |
| tachinieren | faulenzen | Dangasalik qilmoq, bekorchilik qilmoq |
| der Tafelspitz, -e | gekochtes Rindfleisch (von der Hüfte) | qaynatilgan mol go'shti (son bo'ksadan bo'lgan) |
| der Taferlklassler, - (ugs.) | Schüler der 1. Klasse Volksschule | 1-sinf xalq maktabi o'quvchisi |
| die Teebutter | Markenbutter | Mag'izli sariyog' |
| die Telefonwertkarte, -n | Telefonkarte | (Pul to'lanadigan ) telefon kartasi |
| der Topfen | Quark | Suzma, tvorog |
| die Trafik, -en | Kurzform für «Tabaktrafik»; Verkaufsstelle für Tabakwaren, Zeitungen, Briefmarken | «Tamaki trafik» uchun qisqa shakl, tamaki, gazeta va xat markalari sotiladigan do'kon o'rni |
| die Tuchent, -en | Federbett | Choyshab |
| sich tummeln (ugs.) | sich beeilen | Shoshmoq, shoshilmoq |
| die Türschnalle, -n | Türklinke | Eshik qo'ng'irog'i tugmasi |

| | | |
|---|---|---|
| | **J** | |
| jegerl (ugs.) | oje | Achinish ma'nosini bildiradigan so'z |
| die Umfahrung, -en | Umleitung | 1. Aylanib o'tish.<br>2. (Yo'nalishning) saylanma o'zgarishi |
| | **V** | |
| sich verkühlen | sich erkälten | Shamollab qolmoq |
| versäumen | verpassen | (paytni, fursatni) qo'ldan boy bermoq, otkazib yubormoq |
| der Vogerlsalat | Rapunzel-, Feldsalat | Ko'kat va salat yaproqlaridan tayyorlanadigan salat |
| die Volksschule | Grundschule | Boshlang'ich maktab |
| der Vorrang | Vorfahrt | Transportda yurish imtiyozi |
| das Vorzimmer, - | Vorraum, Diele | Kiraverishdagi xona, qabulxona, dahliz |
| der Vorzugsschüler, - | ein sehr guter Schüler | Juda yaxshi o'quvchi |
| | **W** | |
| der Waggon,-s | Wagen | Mashina; avtomobil; yengil mashina |
| die Watsche, -n (ugs.) | Ohrfeige | Shapaloq |
| der Wecken, - | Brot in länglicher Form | Uzun bo'lka non |
| das Wimmerl, -n (ugs.) | Pickel, Pustel | Tanadagi shish, yoriqlar |
| der Wurstel, Wurschtl, - (ugs.) | Hanswurst, Kasperl, lustige Person | Qo'lda o'ynatiladigan o'yinchoq (Buratino), quvnoq odam |
| das Würstel, Würschtl, - | Würstchen; z.B.: heiße Würstel | Sosiska. Misol uchun: issiq sosiska bo'lagi |
| | **Z** | |
| zaundürr (ugs.) | sehr mager | Oriq, ozg'in |

| | | |
|---|---|---|
| zizeriweis (ugs.) | nach und nach | Bir vaqt oralig'ida, biror narsa sodir bo'lguncha |
| der Zuckerbücker, - | Konditor | Qandolat mahsulotlarini (tort, shirinlik) ishlab chiqaradigan odam |
| das Zuckerl, -n | Bonbon | «Bonbon» konfet turi |
| zusperren | schließen | Yopmoq, qulflamoq |
| zuzeln (ugs.) | lutschen, saugen | Emmoq, so'rmoq |
| das Zündholz, "-er | Streichholz | Gugurt |
| die Zwetschke, -n | Pflaume | Olxo'ri |
| der Zwetschkenröster, - | Pflaumenkompott, -mus | Olxo'ri qaynatmasi (kompoti) |

# 16. AVSTRIYA ADABIYOTI

Hozirda mutaxassislar orasida, haqiqatan ham, Avstriya adabiyoti mavjudmi yoki yo‘qmi, degan munozara o‘rtaga tashlangan. Ba’zilar bu savolni jiddiy qabul qiladi, boshqalar uni mubolag‘a deb biladi, yana birovlar uchun esa u butunlay muammodir.

Ayrim mutaxassislarning fikriga ko‘ra, Avstriya yozuvchilari nemischa kayfiyatda yozadi, shuning uchun ham Avstriya adabiyoti mavjud, deb aytish qiyin. Ammo qarama-qarshi fikrlar ham mavjud, ya’ni nafaqat Avstriya siyosati, balki uning adabiyoti ham mustaqil rivojlandi.

Shuning uchun u nemis adabiyotidan biroz bo‘lsa-da, farqlanadi. Avstriya adabiyotida nimalar muhimligi ham asosiy masalalardan biridir. Mana shunga o‘xshash bir qancha tushunmovchiliklar va chalkashliklar mavjud. Ammo ma’lum vaqt ichida ba’zi adabiyotshunoslar bunday savol va muammolar yechimini topganday bo‘ldi.

Eng murakkab jarayon shundan iborat bo‘ldiki, adabiyotda «avstriyacha» tushunchasi har xil talqin etila boshlandi. «Avstriyacha» so‘zi nafaqat «avstriyalik», balki «Avstriyadan kelgan» degan ma’nolar bilan cheklanmasdan, balki hayot tarzining bir qismi, shakli deya ham talqin etilardi, bu bilan ular nemis xalqidan farqlanishi lozim edi. Urushdan keyingi avlodlar bu muammolarning yechimiga befarqdek edi. Shunday qilib, Avstriya adabiyoti bilan nemis adabiyoti o‘rtasida sekin-asta chegara paydo bo‘la boshladi.

Avstriyaliklar juda uzoq vaqt davomida o‘zligini axtardi. Shuning uchun ularga kerak bo‘lmagan qandaydir «tabiiy konsepsiya» yuzaga keldi va bu jarayon Avstriya adabiyotining yuzaga kelishida zamin bo‘ldi. Avstriya adabiyoti namoyandalari shunga amin bo‘ldiki, ular yaratgan asarlar Germaniya nashriyotlarida chop etildi, kitob do‘konlarida sotildi va nemis kitobxonlari tomonidan o‘qila boshlandi. Germaniyada buning uchun yaxshi sharoit mavjud edi, albatta. Chunki Germaniyadagi ko‘plab katta-katta nashriyotlar, radio, televideniyeda ishlash uchun yaxshi sharoit va imkoniyatlar yetarli edi. Unchalik ajablantirmaydigan yana bir jihati shuki, ba’zi tanqidchilar va adabiyotshunoslar Avstriya adabiyoti nemis adabiyotidan yuqoriroq bo‘lishi kerak, deya bong urardi.

## ADABIYOTDA TARIX

Agar Avstriya adabiyotining asosiy qismi mamlakat tarixi bilan bog'liq bo'lsa, unda tarixning o'rni qanday ahamiyat kasb etadi? Italiyalik nemis tili mutaxassisi Klaudiya Magris (Der Gabsburgische Mythos in der osterreichischen Literatur, 1966)dan (Avstriya adabiyotida Hibsburg afsonasi, 1966) keyin Avstriya adabiyotining rivojlanishi sustlashdi. Chunki u gabsburglarning hukmdorlik paytida adabiyotda «irqlar va madaniyatlarning irsiy aralashuvi» muammosiga duch keldi va mifologiya milliy Avstriya–Vengriya monarxiyasining asosi ekanligiga amin bo'ldi. Bunga misol sifatida Magris Frans Grillparser (1791–1872) ni, Avstriyaning XXI asrdagi mashhur dramaturgi va yozuvchisi hisoblanmish Adalbert Shtifter (1894–1939) ni, dramaturg Artur Shnitsler (1862–1931) va bir necha romanlar muallifi Yozef Rot (1894–1939) ni ko'rsatish mumkin.

## SERQIRRA, RANG-BARANG, NOMUTANOSIB

Avstriya adabiyoti haqida so'z ketganda shuni ta'kidlash lozimki, bu adabiyot rang-barang, siyosiy, serqirra, an'anaviy va bir-biriga nomutanosib bo'lgan fikrlarga ega adabiyotdir. Hozirgi zamon Avstriya adabiyoti esa murakkabdir. Mualliflarning turlicha fikr yuritishiga guvoh bo'lamiz. Har bir asar o'zining individualligi va erkinligiga egadir. Adabiy tanqidchilar ta'kidlaganidek, Avstriya adabiyotida «Har bir kitob bir topilmadir» (Klaus Nyuxtern).

Robert Musil (1880–1942) XX asrning eng ko'zga ko'ringan romannavisi hisoblanadi. Uning *Der Mann ohne Eigenschaften («Xususiyatsiz erkak»)* (1930–1933) asari 1999-yilda 99 ta nemis yozuvchi, tanqidchi va germanistdan tashkil topgan guruh tomonidan «Asrning nemis tilida yaratilgan eng ajoyib asari» deb tan olingan. Karl Kraus (1874–1936), Shtefan Svayg (1881–1942) va o'zining «Radetzkymarsch» (1942) asarida Gabsburg monarxiyasining yo'qolib borishini mazaxomuz tasvirlagan yozuvchi Yozef Rot ham shu guruh vakillaridan hisoblangan. Ular adabiyotda salmoqli asarlarni yozib qoldirgan va bu asarlar jahonning ko'plab tillariga tarjima qilingan.

## IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO'NG

Ikkinchi jahon urushidan keyin adabiyotda «Vena guruhi» asosiy o'rinni egalladi. Bu guruhda Konrad Bayer, Osvald Viener, Gerhard Rum bilan bir qatorda she'rlarida Vena shevasining yangicha usulini qo'llagan Hans Karl Artmann (1921–2000) ham mashhur bo'lib ketgan edi. Uning 1958-yilda birinchi marta chop etilgan shevalarni qo'llab yozgan she'rlari *Mit einer schwarzen Tinte («Qora siyoh bilan»)* hali-hanuz ommabop hisoblanadi. Hozirda ham bu yozuvchi Avstriya hozirgi zamon adabiyotining serqirra ijodkorlaridan biridir.

Ana shunday nazmshunoslardan yana biri Ernst Jandl edi. Bu orada «Vena guruhi» kuchsizlana boshladi va adabiyotda uning izlari butunlay yo'qolib ketishga ham ulgurdi. 1960-yilda uning o'rniga Forum Stadpark adabiyot guruhi tashkil topdi. Bu guruhning vakillari hozirgi zamonaviy Avstriya adabiyotining mashhur yozuvchilari edi. Bulardan biri dramaturg Volfgang Bauerdir. Bugungacha teatr sahnalarida uning «Magik Afternon» asarining namoyishi davom etmoqda.

Ko'plab mulohazalar jarayonida Peter Handke yolg'izlanib qoladi. U o'zining nasriy asarlari va qissalari bilan mashhurlikning eng yuqori cho'qqisiga chiqqan va xalqaro miqyosda ham mashhur bo'lgan. Uning serbiyalik diktator Milosevichning partiyasiga qabul qilinishi ommaviy tanqidning amalga oshishini tezlashtirdi va adabiyot sohasidagi mashhur mukofotining rad etilishiga olib keldi. «*Bu buyuklar yonidan hech kim o'tolmaydi*», – degan edi Elfrida Yelinek o'zining Tomas Bernhardga murojaatida. Aslida ham, o'limidan so'ng uzoq yillar Bernhardning asarlariga katta qiziqish bilan qarab kelindi. Uning besh qismli tarjimayi holida milliy sotsializmdan chiqarib yuborilishi bo'lib, romanlarida unga *«Bo'rtma san'atkor» va «Avstriya davlatining tahqirlangan shoiri»* (Verner M. Bauer) maqomini bergan Avstriya jamiyatini tanqid ostiga oladi. Bernhard o'zining *Heldenplatz («Qahramonlar maydoni»)* qissasi va 1988-yildagi *«Bedenkjahr» («Mulohaza yili»)* maqolasida o'zi haqidagi bikrlarni chuqur tanqid qiladi. Ushbu asarda 1938-yilda Venadan quvilgan, Oksfordga ko'chirilgan yahudiy professor oilasi haqida gap borib, ellik yildan so'ng yahudiylar Avstriyada oldingiga qaraganda unchalik xushlanmasa-da, Venaga qaytib boradi. Ayni shu tushunchalar bois u uyining derazasidan Vena Qahramonlar maydoniga o'zini tashlab, joniga qasd qiladi. Oilaning qolgan a'zolari yana surgun qilinadi. *Heldenplatz («Qahramonlar maydoni»)*ning saroy

teatr sahnasida qo'yilishi ommaviy axborot vositalarini qiziqtirib qoldi va bu shov-shuv ko'plab siyosatchilar hamda federal prezidentgacha yetib bordi. Tomas Bernhardning Avstriya adabiyotiga taklif etilgani ham bunga isbot bo'ladi. Doim aytilib kelingan da'volar qarama-qarshiligida, ayniqsa, 70-yillar adabiyoti haqiqat bilan tortishuvda hech bir sababsiz o'zini chetga oldi. An'anaviy *Heimatliteratur («Vatan adabiyoti»)*ga o'zining mashhur romanlarida yurtdagi hayotni yoritib kelgan Karl Haynrih Vaggerlga yangi fikr berdi.

Ushbu yangi yurt adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri zalsburglik Franz Innerhofer (1944–2002) hisoblanadi. Uning juda muvaffaqiyatli chiqqan va ekranlashtirilgan «*Schöne Tage*» («Ajoyib kunlar» – 1974) romanida va uning davomi sifatida yozilgan «*Schattseite*» («Soya taraf» – 1975) da u 50–60-yillarda Zalsburgda o'z boshidan kechirgan, tasalli topmagan tog' ishchilari turmush tarzini qattiq tanqid qiladi.

Mashhur ayollarga kelsak, Avstriyada yashab o'tgan Ingeborg Baxman (1926–1973) o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadlarga yetgan va nazmni 50-yillarda kuchli rivojlantirgan. Har yil Klagenfurtda uyushtiriladigan xalqaro adabiyot tanlovi uning nomi bilan ataladi.

70-yillardan boshlab dramaturg, shuningdek, romannavis sifatida ham mashhur bo'lgan Elfrida Yelinek (1946) nufuzli mukofotlarga sazovor bo'lgan. Uning qissalarida doimo ayollarning o'rni, ularning jinsiy va iqtisodiy maqsadlarda foydalanilishi hamda qarama-qarshi jinslar kurashi, hattoki, insonlarning o'zaro dushmanligi va o'tmish haqida bahslashishi kabi muammolar to'g'risida so'z yuritiladi.

Avstriyaning mashhur ijodkori Elfrida Yelinek 2004-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

## SAKSONINCHI VA TO'QSONINCHI YILLAR

80- va 90-yillarda Avstriya adabiyotining o'ziga xos jihatlariga e'tibor berilmagan sohasi qolmadi. Ko'pgina yozuvchi va ijodkorlar yillar davomida adabiyot sahnasida iz qoldirgan va ular hozirgi kungacha faol ijod qilib kelmoqda: *Ernst Yandl, Peter Handke, Dramaturg Peter Turrini (1944-yilda tug'ilgan), Feliks Mitterer* (1948-yilda tug'ilgan) va boshqalar. Bundan tashqari yana ko'p kashfiyotlar bor. Kristof Ransmayer (1954-yilda tug'ilgan)ning *Die*

*letzte Welt («Oxirgi dunyo»)* (1988) romani Robert Shnayder (1961-yilda tug'ilgan)ning debyut romani *Schlafes Bruder* dunyoga mashhur bo'ldi. U *Literarische Shooting Star des Jahres 92* («92-yillar adabiyotining yulduzi») degan nom qozondi. Romanda g'aroyib musiqachining tug'ilishidan o'limiga qadar bo'lgan voqealar aks etadi, ya'ni Vorarlbergdagi dehqonlar hayotida burjuaziyani tasvirlab beradi.

Yozef Haslinger (1955-yilda tug'ilgan) tomonidan yozilgan birinchi roman *Opernball* (1955) kitob do'konlarida katta muvaffaqiyat bilan sotildi. Ushbu siyosiy triller mingdan ortiq odamlarning Venadagi opera uyida terrorchilar tomonidan qo'llangan gazlar yordamida qanday qilib halok bo'lganini tasvirlab bergan. Haslinkerning *Politik der Gefühle («Hissiyotlar siyosati»)* (1987) asari *Valdhaym inqirozi* davrida yaratilgan.

Avstriyada musiqa va teatr adabiyotga qaraganda katta ro'l o'ynamaydi. Professor Robert, Tomas Bernhardning *Heldenplatz «Qahramonlar maydoni»* asarida ta'kidlashicha, *«Avstriyaliklar ko'p eshitmaydi va hatto ko'p o'qimaydi ham».*

Bu bir qarashda mubolag'aga o'xshaydi, ammo ilmiy tatqiqotlar va ma'lumotlarga qaraganda, avstriyaliklarning adabiyotga bo'lgan qiziqishi sustroq edi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'sha paytlarda ijodkorlarga yaratilgan shart-sharoitlar yaxshi bo'lmagan va xizmatlari evaziga kam haq to'langan. Shunga qaramasdan, nashr uchun ko'plab imkoniyatlar bor edi, ya'ni bir qancha mukofot va stipendiyalar, yana aytish mumkinki, ommaviy axborot vositalaridan ish topish ham qiyinchilik tug'dirmas edi, maktablarda ham zamonaviy adabiyot o'qitilar edi.

Oxirgi yillar mobaynida Avstriyaning barcha shaharlarida adabiyot rivojlanmoqda va yuqori cho'qqilarni egallamoqda. Avstriyalik ijodkorlar Germaniya adabiyotida o'ziga xos muhim o'rinni egallaydi va juda katta ta'sir ko'rsatib barchani lol qoldiradi, ya'ni shunday kichik bir mamlakatda mashhur yozuvchilar sonining ko'pligi ajablanarlidir. Katrin Ro'ggla (1971-yilda tug'ilgan)ning *New Economy* (*«Yangi iqtisod»*), *Wir schlafen nicht («Biz uxlamaymiz») (2004)* romani va Marlene Streeruvitz (1950-yilda tug'ilgan) ning *Entfernung («Uzoqlashish», 2005)* romanida bir vaqtda ham o'z ishidan, turmush o'rtog'idan ayrilgan, yashash uchun kurashgan ayol taqdirini tasvirlab bergan.

## BESTSELLERGA QAYTISH

Qariyb bir yil davomida venalik Daniel Kelmann (1975-yilda tug'ilgan) o'zining *Die Vermessung der Welt («Dunyo o'lchami», 2005)* deb nomlangan romani bilan xalqaro yutuqlarga, dunyoning barcha mamlakatlarida ko'plab kitobxonlarga ega bo'ldi va ko'p xarid qilingan asarlar ro'yxatiga kirishga muvaffaq bo'ldi. Kelmann bilan bir qatorda, Paulas Hochgatter (1961-yilda tug'ilgan), Alfred Komarek (1945-yilda tug'ilgan), Daniel Glattauer (1960-yilda tug'ilgan) va Volf Haas (1960-yilda tug'ilgan)larni sanab o'tishimiz mumkin.

Ushbu ijodkorlarning asarlari qiziqarli detektiv romanlardan tashkil topgan. Yosh ijodkorlarning Avstriya adabiyoti hayotida tutgan o'rni juda katta ahamiyatga ega. 2006-yilda Kelmann tomonidan *Die Arbeit der Nacht («Tunning ishi»)* romani yaratildi va bu asar Tomas Glavinik (1972-yilda tug'ilgan) tomonidan «Haqiqiy buyuk asar» deb baholandi. Ushbu romanda 35 yoshli odamning taqdiri talqin qilingan.

U kunlarning birida o'zining Yer yuzida yolg'iz qolgan so'nggi inson ekanini anglab yetadi. Vena esa halokatga yuzlangan, uning Avstriyaga bo'lgan umidlari puchga chiqqan edi. Angliyaga bo'lgan sayohatidan so'ng asosiy qahramon Venaga qaytadi va o'zini qayta Stefandomga tashlaydi.

Avstriyaning hozirgi davr ijodkorlari qanday qilib mana shunday yutuqlarga erishdi, xalqaro bozorda o'z o'rniga ega bo'ldi, bu tushuntirish qiyin bo'lgan holatdir. Shuni aytish kerakki, so'nggi 20 yil ichida nemis adabiyoti qandaydir mavhum, haqiqiy bo'lmagan va zerikarli bo'lib ko'ringan edi.

Bu esa adabiyotga o'zgartirishlar keltirishni taqozo etadi. Yangi ijod vakillari adabiyotga yangilik kiritish g'oyalaridan uzoqlashishi va hikoyaga qaytish kerakligini inobatga olishi lozim. Adabiyot «yaxshi ishlangan, aniq tartibda yozilgan, tushunarli va zavq bag'ishlovchi bo'lishi lozim».

Shu o'rinda Tomas Glavibchning quyidagi satrlarini ko'rsatib o'tish joiz: «Men qiziqarli hikoyalarni imkoni boricha yuqori darajada talqin etishni istardim». «Hikoyalar ko'p bosqichli faoliyatni o'z ichiga oladi va nafaqat shu soha shinavandalariga bag'ishlanadi, balki butun jamiyat uchun yoziladi».

**Avstaliyalik mualliflar uchun o'zgacha muhabbatning bir ko'rinishi**

**Germanist Vendelin Shmit Dengler** bilan bo'lgan suhbatimizda uning bu holatga quyidagicha munosabat bildirganining guvohi bo'ldik.

(Jurnalist **Eva Male** suhbatlashdi)

***Savol:*** *Aslida Avstriya adabiyoti mavjudmi?*

***W. Sh. D.:*** Anchadan buyon Avstriya adabiyotidan ilhomlanib ijod qilayotgan avstriyalik yozuvchilar bor va shu jihati bilan ular Germaniya adabiyotidan ajralib turadi. Ta'kidlash lozimki, ular Germaniyaning qayta birlashuvidan keyingi 10 yil ichida yanada yuqori darajaga yetdi va alohida ajralib turdi. U o'zining tez sur'atlar bilan kengayib borishi hisobiga rivojlanmoqda, lekin u Germaniyaning qayta birlashuvi boshlanganidan so'ng har qanday savolga ham Germaniyaning o'zidan chiqqan muallif yozuvchilar kabi javob bera olmaydi.

***Savol:*** *Avstriya adabiyotida qanday o'ziga xoslik, alohidalik bor?*

***D. Sh.:*** Muammolar mutlaqo boshqacha, shuningdek, matnlar tuzilishi ham o'zgacha xulosa va natijaga ega. Josefinizmdan buyon Avstriya adabiyotida o'ziga xos, o'zgacha holat mavjud. Grillparser va Stifler, Hayne va Byuchner vaziyatidan kelib chiqib qaralganda boshqacha holatga javob berilsa, Lenau va Teodor Shtorom davriga qaraganda ancha boshqacharoq fikrni olg'a surdi va bu ikki holatni, ikki mamlakat o'rtasidagi farqlarni o'zida saqlab qola oldi.

***Savol:*** *Germaniya adabiyoti tarixida avstriyalik mualliflar ijodining rivojlanishi hisobga olinadimi?*

***D. Sh.:*** Bu har doim muammo bo'lib kelgan. Adabiyot tarixi har doim Germaniyaning o'zida yozilgan. Ko'plab nemislar mustaqil, ozod Avstriya adabiyotini inkor qiladi. Hanser, Rovolt, Bek kabi ko'plab katta nashriyotlar adabiyot tarixi haqidagi manbalarni chop etish bilan shug'ullandi. Bu o'rinda Avstriya adabiyoti har doim noqulay vaziyatda ko'zga tashlangan. Keyinchalik nemis romanlari Hermann Brox, Robert Muzil, Yozef Rot,

Tomas Mann va Afred Do'blinning ijodlaridan iborat bo'lgan. Bu borada yana Yohann Nestroy va Ferdinand Raymundning qisqa ijodri endi boshlang'ich bosqichda, deyish mumkin.

***Savol:*** *Nemis kitob bozorlari Avstriya adabiyotida qanday ahamiyat kasb etadi?*

***D. Sh.:*** Bu har doim sir hisoblangan. Avstriyalik yozuvchi mualliflar oldin nemis kitob bozoriga nigoh tashlamasdan turib, asar yaratishga harakat ham qilmasligi kerak, boshqacha holatning bo'lishi mumkin emas. Aichenger Baxmann, Doderor, «Vena to'rtlik guruhi», Yelinek, Handke, Ransmayer asarlari nemis kitob bozorida paydo bo'la boshladi. Avstriyalik mualliflarning ijodiga bo'lgan o'zgacha muhabbatning paydo bo'lishi quyidagi shiorga ko'ra tavsiflanadi: avstriyalik har bir yozuvchi muallif o'zi istagancha yoza oladi. Agar unga nemis adabiyotiga oid asarlarini chop etishga ruxsat berilmaganida edi, uning o'zi ham Avstriya adabiyotiga hech qanday foyda keltirmagan bo'lardi.

***Savol:*** *1945-yildan keyin Avstriya adabiyotida nimalar tasvirlangan?*

***D. Sh.:*** 1945-yildan keyin, haqiqatan ham, Avstriya adabiyoti ko'p narsani yo'qotdi, adabiyot madaniyatning eng kuchli, faol tomonlaridan biri bo'lib, o'zida Avstriya siyosiy madaniyatini ko'rsata oldi. Avstriya adabiyotidagi 1968-yildagi o'zgarishlar estetik sektor sifatida Avstriyaning kundalik turmushini ifodalagan. Aytish mumkinki, Volfgang Bauyer, Tomas Bernhard, Peter Handke Avstriya adabiyotiga kirib kelib shunday deb ta'kidlagan: «O'zgarishlarga sabab bo'lishga arziydigan yana bir adabiyot mavjud».

***Savol:*** *Hozirgi davrda Avstriya adabiyoti nimalarda aks etadi?*

**D. Sch.:** Rasmiy bosmalar bir zumda nemis adabiyotiga ham, shuningdek, Amerika adabiyotiga ham oqim kabi kira boshladi. Avstriyalik mualliflar tartibga solingan shunday ishlarni amalga oshiryaptiki, bu narsa, ayrim hollarda, tarjima qilishda qiyinchilkilarga olib kelmoqda.

## SUHBAT DAVOMIDAGI KITOB

## PETER HANDKE

Peter Handke 1942-yilda Griffenning Kernten shahrida tavallud topgan. U 20 yoshida o'zining birinchi romanini yozgan. Uning *«Publikumbeschimfung» («Ommaviy haqorat»)* asari teatrda birinchi marta sahnalashtirilgan va bu asar teatrning olamshumul shov-shuviga sabab bo'lgan. Ungacha esa asar allaqachon kuchli tanqid ostiga olinib, keyinchalik bosqichma-bosqich muhokama qilinishiga sabab bo'lgan edi. Bugungi kunga qadar Handke ko'plab romanlar, hikoyalar va she'rlar yaratgan.



***Peter Handke***

Bugungi kunga kelib, u nemis tilida ijod qiluvchi mashhur yozuvchilardan biri hisoblanadi. Buyurtma asosida yozilgan *«Wunschloses Unglück» («Kutilmagan baxtsizlik»)* hikoyasida Handke o'z hayoti va onasining o'z joniga qasd qilishi, shuningdek, o'zining qayg'ulari va yordamga muhtojligi haqida yozadi.

### Peter Handkedan. Kutilmagan baxtsizlik

Mening onam beshta farzandning to'rtinchisi edi. Maktabda u a'lochi bo'lgan, ustozlari tomonidan imtiyozli shahodatnomaga tavsiya etilgan, hammasidan ham uning maqtashga arziydigan jihati chiroyli husnixat sohibasi bo'lganligidir. Shunday tarzda maktab yillari o'tib borgan. Uning uchun o'qish bolalar o'yiniday bo'lib qolgan edi. O'spirin yoshga yetib, maktab mas'uliyati tugagandan so'ng hammasi foydasiz bo'lib qolgandek edi. Ayollar faqat uyda o'tirishi, uy yumushlari bilan band bo'lib yashashi kerak edi.

Hech qanday qo'rquv yo'q, qorong'ilikda va ob-havoda biroz jonlilik borday, faqatgina unda iliqlik va sovuqlik, namlik va quruqlik, orom olish va o'ng'aysizlik (ijirg'anish), o'rtasidagi o'zgarishgina bilinardi. Vaqt cherkov bayramlari bilan tez o'tardi, sirli ravishda qarsak tovushlari kelib turardi.

Yakshanba kunlari esa qaynatilgan mol go'shti, yerqalampirdan tayyorlangan qayla bilan karta o'yini, bir pog'ona past turuvchi ayollar esa o'sha yerda cho'nqayib o'tirishardi. Birinchi radioapparat bilan birga tushgan surati.

Onam shu quvnoqlik holatida ham, suratda qo'llarini bellariga qo'yib yoki bitta qo'lini kichik ukasining yelkasiga qo'ygan holda turardi. Uni har doim kulgan holda ko'rish mumkin edi va uni boshqacha holatda tasavvur ham qilib bo'lmasdi.

Yomg'ir, quyosh, tashqari va ichkari; ayollik his-tuyg'ulari havo kabi beqaror, chunki «tashqari» har doim hovlida bo'lishi, «ichkari» bundan mustasno holatda, o'z shaxsiy xonamiz, o'zimizning uyimizda bo'lishi kerak edi.

Bunday o'lkada iqlim qishda juda sovuq, yozda chidab bo'lmas darajada dim, issiq, lekin quyosh botayotganda barg soyalari ostida sovuq boshlanganini anglash mumkin edi. Ko'p yomg'ir yog'di. Bugungi kunga qadar biroz kattaroq qurilishi kerak bo'lgan ko'plab kichkina derazalardan sentabr boshidanoq kun davomida tez-tez og'ir bulutlar ko'zga tashlanardi. Ko'lmaklarda va ifloslangan suvlarda qorong'ilikda yo'lakdan sakrab yurgan bir baqa uchib, pashsha va hasharotlarni tutishga urinardi, hatto, kun davomida bir uzun yog'och ostidan yana bir yog'och bo'lagi ustiga o'tayotgan chuvalchang, albatta, bundan mustasno, boshqalari esa unday emas. Boshqacha hayot tarzini tanlash hech qanday o'zgarish imkoniyatining bo'lishiga yo'l qo'ymaslik ko'proq bunga ruxsat yo'qligiga borib taqalardi.

Bu, aslida, onamda birdaniga yaxshi kayfiyat paydo bo'lishi bilan boshlandi, bu undagi yana o'qish istagi edi, uning yoshligidagi o'qish istagiga o'xshagan tuyg'u edi. U «Men o'zimni his qilyapman», deganday bo'layotgandi. Birinchi martasiga bir istak va keyin, har doimgidek, yana takroriylik, shundan uning xayoliga zo'r g'oyalar keldi. Onamning hikoya qilib berishicha, otasi ularni o'qishga undaydigan, e'tiqod qiladigan va cho'qinadigan bo'lgan ekan. Qo'l bilan harakat qilishgina yetarli emasligi haqida hech kim so'ramasdi va bu e'tiborga ham arzimasdi.

Har doimgidek, xalq orasida azaldan homiladorlikka, urushga, mamlakatga, yetarlicha mol-dunyo va o'limga onam 16–17 yoshlarida uyda qolgan paytida dengiz bo'yidagi mehmonxonada ovqat pishirishni o'rganmasdan, ko'chaga ketib qolganida bobom uni o'z xohish-istaklariga qo'yib bergan ekan, chunki onam avval ham bir marta ketib qolgan ekan.

Aslida, onam oshpaz yordamchisi bo‘lgan. Suratda u qip-qizil yuzli, yonayotgan yonoqlari qo‘rqqanidan jiddiy bo‘lib, yoshligidan birga katta bo‘lgan dugonasiga osilib turardi. Ichidan o‘ziga xos bir botirlikni tuyib: «Menga hech narsa bo‘lmaydi», deganday yashirin bir kuch bilan jasurlik kayfiyatini aks ettirib turardi.

Shahar hayoti kalta ko‘ylaklar, baland poshnali oyoq kiyimlar, suv to‘lqini hamda beg‘amlikdan iborat edi. Kichkina oqsoch qiz chet elda boshpanasiz, o‘rmonda yashar, qanchalik urinmasin, hech qanday o‘zgarish bo‘lmas edi. «Yurish-turish, raqsga tushish, suhbatlashish, xursand bo‘lish, shunday ahamiyatsizligi bois menga, hatto, hech kim yoqmagan», – dedi u. Uning uchun ishdan rohatlanish, yurakka og‘irlik va yengillik, radiodagi yoqimli ovozning jaranglashi – bari g‘alati edi.

Undagi Vatan sog‘inchi, yurti uchun hech narsa qila olmagani alamli edi. Dengiz bo‘yidagi mehmonxonaga qaytish, kemalar qatnovi, raqs oqshomlari, hech qanday horg‘inlik kayfiyatining yo‘qligi ifodalanardi. Hozir men avvalgiday kitobdagilarga amal qilaman». Shahodatnomadagi so‘zlar: «Xonim o‘zi xohlaganiday olimlarga xos ravishda o‘qib-ulg‘aydi, uning tirishqoqligi va ochiqligi, samimiy qarashlarini tushunish biz uchun muhim edi. U o‘z istagi bilan uyimizni tashlab ketdi».

## KRISTINA NO‘STLINGER

Avstriyada Kristina No‘stlinger haqida ko‘plab fikrlar yuradi. 1936-yildan buyon o‘zining yuzdan ziyod kitoblari bilan Avstriyaning bolalar va yoshlar kitoblari muallifi hisoblanadi. Balog‘at yoshidagilar ham uning asarlarini sevib o‘qiydi. U yaratgan kitoblar, Germaniyada sotib tugatildi va ko‘plab tillarga tarjima qilindi, u esa millionlab kitobxonlar nazariga tushdi.

No‘stlingerning eng yaxshi ko‘rib yozadigan mavzusi kundalik hayot, yoshlarning ota-onalariga, buvi-yu bobolariga, ustoz va do‘stlariga bo‘lgan munosabatlarini yoritib berishdir. Uning mashhur kitoblari orasida katta obro‘ qozongan *14-Ilse Janda («Ilze Yanda, 14»)* asarida turli toifadagi odamlar tasvirlangan. Bu oxiri baxtli yakun topmaydigan, uchuvchi may qo‘ng‘izlari haqidagi asar bo‘lib, ikkinchi jahon urushining oxiri, Venadan chiqqan jajji



*Kristina No'stlinger.*

bir qizning istiqboli to'g'risidagi hayotiy roman hisoblanadi. No'stlingerning ko'pchilik asarlari real hayotni aks ettirib, ba'zan muallif o'z fantaziyasiga, g'alati voqealarga ham asarda katta urg'u beradi. Uning muvaffaqiyat qozongan romanlaridan biri *Wir pfeifen auf den Gurkenkönig («Bodringning bizga qizig'i yo'q», 1972)* bo'lib, unda bir qirollikdagi chuqur yerto'lada yashovchi oilaning boshidan kechirganlarini ajoyib tarzda tasvirlab bergan.

**Kristina No'stlinger. Bodringning bizga qizig'i yo'q.**

Salom, mening ismim Volfgang, o'n ikki yoshdaman, hozirda gimnaziyada ikkinchi sinfda o'qiyapman. Martinaning aytishicha, men ko'rimsiz ekanman, ammo meni bu tashvishlantirmaydi. To'grisi, men ham chiroyli ko'rinishni yaxshi ko'raman, ammo, baribir, buning iloji yo'q. Hatto, to'g'nog'ich ellik ming shilling turishiga qaramasdan, uni taqishni xushlamayman. Bugungacha yaxshi o'quvchi bo'lganman, ammo hozirgi o'qituvchimiz meni biroz yoqtirmaydi. U matematika va geografiya darslarida yomon baho qo'yishni odat qilib olgan. Suzishni jon dilimdan yaxshi ko'raman, shuning uchun suzish klubining a'zolaridan biriman. Murabbiyim aytadilarki, agar bor kuchim bilan harakat qilsam, ikki yil ichida mamlakat yoshlar chempionatida qatnashishim mumkin ekan.

Yaqinda biz hovli sotib oldik. Mana uch yildirki, shu yerda yashaymiz. «Uyning qarzini to'lab bo'lguncha dadam ham ancha qarib qoldi», deydi onam. Shuning uchun biz pulni tejashimiz kerak. Buvam bizga o'zining nafaqasidan shim, oyoq kiyim, Martina uchun esa ko'ylak sotib olib berardi. Bu bizga juda yoqardi. Ammo buvamga olgan narsasi oqmi,

qorami yoki qizilmi, buning farqi yo'q edi. O'tgan yozda u Martinaga eng ajoyib cho'milish kiyimi sotib olib bergandi. Cho'milish kiyimi juda ochiq edi, cho'milganda hamma joyi ko'rinardi, bundan esa dadamning ta'bi xira bo'ldi. Dadam o'shanda «Qizim butunlay yalang'och yuribdi», deb baqirganlarini eslayman. Shunda buvam kulib: «O'g'limga ham aql kirib qolibdi-da», degandi. Dadam bo'lsa, jahli chiqqanini ko'rsatmaslikka harakat qilardi, chunki u bizning oldimizda buvam bilan hech qachon janjallashmagandi. Dadam darrov oshxonaga kirib onamni koyigandi, ammo onam «Hozir hamma qizlar shunday cho'milish kiyimida», degan edi. O'ylaymanki, o'zimiz haqimizda yetarlicha hikoya qilib berdim, endi pasxa bayramida bo'lgan bir voqeani aytib beraman.

O'tgan yili pasxa bayramidagi nonushta vaqtida onam bir ahvolda, qaltiragancha oshxonadan chiqib keldi. Shunchalar qaltirar ediki, Martina qo'rqqanidan qo'lidagi pasxa tuxumini qahvali chashkasiga tushirib yubordi. Buvam kelinidan nima bo'lganini so'radi (buvam har doim onamni «kelin» deb chaqirardi). Onam birdaniga qoqilib yiqilib ketdi. Dadam: «Niki, jin ursin, bas qil», deya baqirdi. Ha, dadam qachon, qayerdan shovqin eshitsa, darrov shunday derdi. Bir tomondan u haq edi. Ammo bu safar Niki shovqin solmagandi, balki shovqin oshxonadan kelardi. Niki birdaniga yig'lab yubordi, chunki bu uning aybi emasdi-da. Martina tuxumni qahvali chashkasidan olishga ulgurdi. Onam qaltiraganicha «Oshxonada, oshxonada», deya pichirlardi. Biz hammamiz «Nima oshxonada?» deb so'radik, ammo onam hech nima deya olmasdi. Shu damda buvam o'rnidan turdi-da, oshxona eshigiga yaqinlashdi, keyin biz ham ergashdik. Men suv buragich yoki gaz pechkasi orqasida katta sichqon, balki katta o'rgimchak ko'rgan bo'lishi mumkin deb o'yladim. Ha, onam shundan qo'rqib ketgan. Ammo bu, o'ylaganimizdek, na sichqon, na o'rgimchak va na suv buragichi edi, u butunlay boshqa narsa bo'lib chiqdi. Oshxona stoli ustida, taxminan, yarim metrcha keladigan narsa o'tirardi. Agar uning ko'zi, burni, qulog'i, qo'li yoki oyog'i bo'lmaganda edi, uni katta karam yoki qovoqqa o'xshatishgan bo'lar edi. Boshida katta bezaktoshli toji bor edi. Qo'llari qo'lqop ichida, lekin barmoqlariga lak qo'yilgani shundoq sezilib turardi. Toj, bodring, qovoq va boshqa narsalarni, oyoqlarini bir-birining ustiga qo'yib, go'yo oldimizda bosh egib turardi va past ovozda shunday

derdi: «Biz ikkalamizni qirol Kumiori deb chaqirishadi». To‘g‘risi, qattiq hayajonlanganimdan bularni yozib olishga qurbim yetmadi, chunki biz bunaqa narsani oldin hech qayerda ko‘rmagan edik-da. Do‘stim janob Huber Jo bunday vaziyatda odamning miyasi ishlamasdan qoladi, deydi.

## ERIH HAKL



***Erih Hakl***

Erih Hakl avstriyalik ko‘p izlanuvchi hozirgi zamon yozuvchilaridan biridir. Uning *Auroras Anlaβ («Auroraning bahonasi», 1987)*, *Abschied von Sidonie («Sidoniye bilan xayrlashuv», 1989)* romanlari Avstriya va Germaniya maktab darsliklariga kiritilgan. *«Sidoniye bilan xayrlashuv»* asari rimlik Sidoniye Adlersburg haqidagi real hikoyadir. Asarda Hakl qizning o‘gay ota-onasi bilan qisqa vaqt ichidagi baxtli damlarini hikoya qiladi. Asar nihoyasida Sidi ota-onasidan ajraladi va Ausshvitsga jo‘natib yuboriladi.

### Erih Hakl. Sidoniye bilan xayrlashuv

Sidoniye ikkinchi sinfga borardi, o‘qituvchisi darslikdan qandaydir mavzuni qidirish bilan band edi. *Eng ajoyib tug‘ilgan kun.* Ular Bertaning hikoyalarini baland ovozda o‘qirdilar. Uning istagi boshqaruvchini uyi oldida ko‘rishi va kutilmaganda u tomonidan qahvaga taklif etilishi edi. *Berta uyga qarab qo‘ydi. Unga, ayniqsa, uyning yashil derazalari yoqardi.* Ko‘chada o‘ynab yurgan bolalar buning nima ekanligiga juda qiziqardi. Boshqaruvchining uch iti borligi Sidoniyeni ajablantirardi. Itlarni yetaklab yuruvchi kishi, ularni Lona, Rolf va Mukki deb chaqirardi. Breta Mukkini odamga tashlanmaydi deb o‘ylardi, qolgan ikkala it esa har doim zanjirga bog‘lanib turardi.

*Shu tobda qaymoqli o‘rmon qulupnayi paydo bo‘lib qolganda edi,* u maza qilib yegan bo‘lardi. It yetaklovchi Sidoniyedan *«Plappermaul» («Mahmadona»)* nimaligini so‘raganda Sidoniye ham ayni shu damda o‘sha savol bilan murojaat qildi. Aytishga gap ko‘p edi va ular bundan xursand

bo'lardi. Sidoniye yana biroz shu yerda qolishni xohlardi, ammo uni tashqarida onasi kutardi. Keyingi darslarda bolalar boshqaruvchiga Sidoniye o'zi haqida nimani gapirib berganini yozib berishi kerak edi. Tashqarida cho'milsa bo'ladigan ajoyib havo, anchadan beri to'kilib, xazon bo'lib yotgan yaproqlar... O'quvchilarga o'qituchi yordam bergandan so'ng ularga qiyin bo'lmadi va ota-onasining kasblarini o'z nomlari bilan tanishtirishdi. Biroz vaqtdan keyin bolalar birin-ketin qalam, ruchkalarini partaga qo'ya boshladi.

O'qituvchi kim ovoz chiqarib o'qishini so'radi. Besh-oltita o'quvchi qo'lini ko'tardi. O'qituvchi: «Sidoniye», dedi. Qiz xursand bo'lib, daftari oldida, oldinga chiqdi. Biroz minbar yonida turib tomog'ini qirib qo'ydi.

Mening ismim Sidoniye Adlersburg, ammo hamma meni «Sidi» deb chaqiradi, chunki bu aytishga biroz osonroq. Ota-onamning ismlari Hans va Yozefa, akam esa Monfred, ammo men uni «Fredi» deyman. Opamning ismi Hilde. Hozir u uchinchi sinfda o'qiydi. Men uni juda yaxshi ko'raman. Oilada onam juda ham ehtiyotkor, u bizning ko'p shirinlik yeyishimizga qarshilik qiladi. Otam esa urushga ketishi kerak, ammo hech kim uning urushdan qaytib kelish-kelmasligini bilmaydi. U biroz jim turdi-da, boshini ko'tardi. «Bo'ldimi?» – deb so'radi o'qituvchi. U «Ha», deya boshini qimirlatdi, boshi bilan imlab qo'ydi: «Yashavor, qoyil!». U qizning joyiga o'tirishiga ruxsat berdi-da, doskaga boshqa bir o'quvchini chaqirdi. Sidoniyening ota-onasi haqida nima yozgani aniq emas, chunki ular haqiqiy ota-onasi emas edi-da.

## DANIEL GLATTAUER



*Daniel Glattauer.*

Daniel Glattauer 1960-yil Venada tavallud topgan. Universitetda pedagogika va san'at tarixini o'rgangan. Bir necha yillar davomida *«Presse»* nashriyotida faoliyat yuritgan va 1989-yildan buyon muxbir sifatida felyetonlar yozib kelmoqda. Galateuer ham mashhur romanlar muallifi hisoblanadi. *«Gut gegen Nordwind» (Shimol shamoliga qarshi)* romani uning chop etilgan sakkiz asaridan biri bo'lib, o'ziga xos sevgi qissasi, ya'ni o'ttiz yoshlardagi Emmi va Leoning sevgisi

haqida hikoya qiladi. Aslida, Emma E-mail orqali o'zi obuna bo'lgan gazetalarni bekor qilmoqchi bo'ladi. Ammo uning xati adashib Leoning manziliga tushib qoladi. Shu tariqa ular o'rtasida sevgi munosabatlari boshlanib ketadi. Bu roman internetda katta burilish yasagan romanlardan biri hisoblanadi.

**Daniel Glattauer.** ***Gut gegen Nordwind (Shimol shamoliga qarshi)***

Ikki soatdan so'ng

Javob maktubi:

Azizam Emmi, men yuzma-yuz uchrashishni taklif qilaman, shunday ko'rishaylikki, buni o'zimiz ham bilmaylik, odamlar oqimiga qoshilib ketaylik.

Biz, masalan, Ergelt ko'chasidagi katta Messecafe Huberda ko'rishishimiz mumkin. U yerni bilishingiz aniq. U yerda juda ko'p odam to'qnash keladi. Keling, ikki yarim soatlik vaqt oralig'ini tanlaymiz, misol uchun tushlikdan so'ng. O'sha vaqt davomida ikkalamiz ham o'sha yerda bo'lamiz. Doimiy u yerdan bu yerga yugurishlar va maydondagi tiqilinchda bir-birimizni izlashga urinishimiz sezilmaydi.

Sizning ko'nglingizni qoldirishni xohlamasdim, shuning uchun, o'ylashimcha, uchrashuvdan so'ng tashqi ko'rinishga unchalik katta baho bermasak. Qizig'i shundaki, qanday qilib bir odam ikkinchisining tashqi ko'rinishini bilmay turib tanib oladi? Yana takror aytaman: men tashqi ko'rinishingizni ko'rish uchungina uchrashmoqchi emasman. Men sizni tanimoqchiman. Va u men bo'laman. Avvallari sizga o'zimni tasvirlab berganimni endi unchalik ham to'g'ri deb hisoblamayman. Siz, Emma Roter xonim, men uchun navqiron bo'lib qolaverasiz (turmush o'rtog'ingiz va farzandlaringiz borligiga qaramasdan).

Yana shuni aytishim lozimki, eski xatlaringizda meni eslab turishingizdan xursandman. Bu shuni bildiradiki, siz ularni ochiqchasiga muhim deb bilasiz. Bu men uchun sharaf.

Uchrashuv haqidagi fikrimni yoqlaysizmi? ***Hurmat bilan Leo.***

# 17. AVSTRIYANING QISQACHA SAN'AT TARIXI

## ROMANTIK USLUB



*Venadagi St.Rupreht cherkovi.*

«Romantik» ifodasi Rim san'ati uslubidagi elementlarda (arkalarda, bino ustunlarida) paydo bo'la boshlagan. Avstriyada romantik san'at uslublari babenberglar sulolasi davrida eng gullagan davrni boshdan kechirdi. Shu davrdagi cherkov va boshqa binolar bugungacha saqlanib qolgan. Qadimiy xristian Bazilika davridan rivojlangan romantik uslubdagi cherkovlarning ko'pchiligi uch xonali bo'lgan. Tomlari oldin tekis va taxminan 1100-yildan boshlab ko'prik shaklida bo'lgan. Mamlakat sharqida dafn marosimini o'tash vazifasini bajaruvchi cherkovlar joylashgan bo'lib, g'arb ustunlarida ko'pi bilan ikkitadan, biri katta minora, oddiy, past shiftli bo'lgan. Cherkov devorlarining ichi g'ovak, bo'shdir. Derazalar kichikligidan ichkariga nur kam kiradi. Ichkariga kiraverish qiya shaklda, ya'ni na parallel, na gorizontal shaklda davom etadi. Chap va o'ng tomonlarida baland ustunlar va haykallar bor. Butunlay romantik uslubdagi qurilishlar Avstriyada kamdan-kam uchraydi. Ko'plab cherkovlar gotik davrida allaqachon o'zgartirilgan va keyinchalik barok uslubida qurila boshlangan. Faqat mamlakatdagi kichkina cherkovlar yaxshi saqlanib qolgan. Ularning ko'pchiligi bir xonali va bitta minoralidir. Eng chiroyli bazilikalar: Hayligenkroyts (Quyi Avstriya), Gurk va Sekau. (Shtayermark) XI asr boshlarining eng eski romantik cherkovi (Shtayermark)da. Eng chiroylisi 100 ta ustunli Gurkdir. Romantik uslubdagi, kesishgan yo'laklarni Zalsburg va Millshtatda uchratish mumkin. Cherkov romantik qurilish san'atining eng ajoyib namunalari, asosan, Quyi Avstriyada mavjuddir. Eng yuqori sifatdagi, tushunish qiyin bo'lgan skulpturalar

1220-yillarda qurilgan. Misol sifatida Quyi Avstriyadagi Shongraber cherkovini ko'rsatish mumkin. Romantik davrda 1181-yilda qurilgan mehrob bo'lgan. U muqqadas Injil kitobidan 51 ta emalli rasm tasvirlarini ifodalaydi. O'sha paytda Zalsburg zargarlik san'ati markazi hisoblangan.

## GOTIKA[1]



***Venadagi Stefandom.***

Gotika uslubi Avstriyada XIII asrning o'rtalaridan XVI asr oxirigacha davom etgan. Bettelorden o'sha paytda yangi uslubda qurilgan eng birinchilardan edi.

Kambag'al ishchilar (fransuzlar, dominikaliklar) ushbu yangi uslubning birinchi yaratuvchilari bo'lgan. Ularning ibodatxonalaridan (Masalan: *Die Minoretenkirche in Stein (Shtayndagi minorali cherkov), die Pfarrkirche in Enns (Yuqori Avstriya, Ennsdagi qavmga oid cherkov)*, estetik zavq olish mumkin.

Ular oddiy va bezatilmagan holda bo'lib, ajoyib taassurot qoldiradi. *«Hallenkirche» (usti yopiq ibodatxona)* esa buning aksi hisoblanib, juda murakkab usulda qurilgan, ya'ni marvarid gullari, muqaddas xoch va toshlar bilan bezatilgan. Ibodatxonaning asosiy xonasi va ikkita minorasining balandligi bir xil, ushbu uslubda qurish Avstriyaga xos hisoblanadi. Usti yopiq ibodatxona kambag'al ishchilar qurgan ibodatxonaga qaraganda juda ham boy bezatilgan. Avstriyada eski gotika (XIV asr o'rtalari) va zamonaviy gotika (XV asr o'rtalari) uslubida qurilgan ibodatxonalar juda katta, lekin ularning har bir ko'rinishi g'aroyib manzarani aks

[1] *Izoh: Gotika – (ital. «gotico» –* german qabilalaridan hisoblangan *«gotlar»* nomidan), Gotika uslubi – G'arbiy, Markaziy va qisman Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'rta asrlar san'atida hukm surgan badiiy uslub. «Gotika» termini Uyg'onish davrida qo'llanila boshlagan. XII asrda roman uslubi o'rniga yuzaga kelgan.



**Shtayerdagi Bummerlhaus.**

ettiradi.

Avstriyadagi gotika usulida qurilgan eng chiroyli ibodatxona Venada joylashgan Stephansdom hisoblanadi. Uning balandligi 137 metr bo‘lib, ingichka ustunlariga yaxshi ishlov berilgan. Gotika uslubining juda boy tuzilishiga ega, minoralari plastik bilan bezatilgan. Ko‘plab kichkina uchli ustunlari esa katta taassurot qoldiradi.

Gotika uslubida qurilgan binolarning ayrimlari saqlanib qolgan, Shteyr (Avstriyaning yuqori qismi)dagi Bummerlhaus va Bruckda joylashgan Kornmesserhaus shular jumlasidandir. Gotika uslubida qurilgan ko‘plab qal’alarning faqat qoldig‘i saqlanib qolgan, ya’ni Grats, Vasserburg Haydenraychstayn va Kerntenda joylashgan Hoxostervits qal’alarining qo‘shaloq tepaga olib chiqadigan zinapoyalari bizgacha yetib kelgan. Gotika plastiklari o‘rta asr oxirlariga tegishli san’at namunasidir. Buyuk usta o‘zining ko‘plab yosh, chiroyli, ona bo‘lgan ayol, ya’ni xudoning onasi haykallari orqali dovruq qozondi. Ushbu mashhur haykallar: «Admonter Madonna» Grats shahrida, «Dienstbotenmadonna» Venada Stefansdomda namoyish qilingan va

hozirda shu joylarda saqlanib qolgan.

XV asrga kelib o'ymakorlik san'ati ham rivojlandi. Ushbu san'at turi Tirolda Michael Paxer ismli usta tomonidan yaratilgan. Ikki yuzga yaqin yog'och o'ymakorligi namunalarini Tirol va Kerntenda ko'rish mumkin. Noma'lum usta tomonidan yaratilgan san'at namunasi Kefermarktda (Yuqori Avstriyaning Muhl mavzesida) ham bor. Gotika uslubidagi oyna rassomchiligi qurilish uslubi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, bu uslubdagi binolarning oynalari keng va baland qilib o'rnatilgan.

## UYG'ONISH DAVRI



*Gratsdagi hokimiyat binosi.*

